

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS
INSTITUTI**

**«XIZMATLAR SOHASINI STRATEGIK
RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA
BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA AHOLI
FAROVONLIGINI OSHIRISH
IMKONIYATLARI»**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI**

(II QISM)

2025 йил 21-22 fevral

SAMARQAND – 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Hamkorlarimiz:

TAMBOV DAVLAT UNIVERSITETI

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

«IPAK YO‘LI» TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO UNIVERSITETI

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI**

**«XIZMATLAR SOHASINI STRATEGIK
RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA
BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI
FAROVONLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI»**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

MATERIALLARI

(II QISM)

2025 йил 21-22 fevral kunlari

SAMARQAND – 2025

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

Партнёры:

ТАМБОВСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ТУРИЗМА И КУЛЬТУРНОГО
НАСЛЕДИЯ «ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ»**

**САМАРКАНДСКИЙ ФИЛИАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**“ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО
ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И
БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ В РЕГИОНАХ
ПУТЁМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ СЕКТОРА
УСЛУГ”**

МАТЕРИАЛЫ

Международной научно-практической конференции

(ЧАСТЬ II)

(21-22 февраль 2025 г.)

САМАРКАНД– 2025

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

SAMARKAND INSTITUTE OF ECONOMICS AND SERVICE

Our partners:

TAMBOV STATE UNIVERSITY

KARSHI ENGINEERING AND ECONOMIC INSTITUTE

**INTERNATIONAL UNIVERSITY OF TOURISM AND CULTURAL HERITAGE
"SILK ROAD"**

SAMARKAND BRANCH OF TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS

**“OPPORTUNITIES FOR SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH AND WELL-BEING OF THE POPULATION
IN THE REGIONS THROUGH STRATEGIC
DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR”**

(PART II)

(21-22 February 2025)

SAMARKAND – 2025

Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari/Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (II qism). 2025 йил 21-22 fevral kunlari. Samarqand, SamISI, 2025. – 270 bet.

Nashr uchun mas'ul:

M.Q.Pardayev – iqtisod fanlari doktori, professor

Tahririyat kengashi rahbari:

M.E.Po'latov – iqtisod fanlari doktori, professor

Tahririyat kengashi a'zolari:

M.M.Muxammedov – iqtisod fanlari doktori, professor,

J.R.Zaynalov – iqtisod fanlari doktori, professor,

I.S.Tuxliev – iqtisod fanlari doktori, professor,

O.Murtazaev – iqtisod fanlari doktori, professor,

R.X.Ergashev – iqtisod fanlari doktori, professor,

V.I.Abdukarimov – iqtisod fanlari doktori, professor,

N.A.Ibragimov – iqtisod fanlari doktori, professor,

K.B.Urazov – iqtisod fanlari doktori, professor,

Q.J.Mirzaev – iqtisod fanlari doktori, professor,

A.Eshtaev – iqtisod fanlari doktori, professor,

S.N.Tashnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor,

A.N.Xoliqulov – iqtisod fanlari nomzodi, professor,

D.H.Xolmamatov – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

Sahifalovchi: Firdavs O'roqov

An'anaviy ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini oshirish muammolari va ularning yechimlari, sohaning alohida tarmoqlari samaradorligini oshirish istiqbollariга oid masalalar yoritilgan. Unda barqaror iqtisodiy o'sish va hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishning nazariy va metodologik muammolari va ularni hal qilishning strategik yo'nalishlari, kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligi, farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish masalalari, xalqaro va ichki turizmni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari, marketing va menejment imkoniyatlarini takomillashtirish masalalari, investitsiyalarni jalb qilish va moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish masalalari, hududlarda barqaror iqtisodiy o'sish jarayonida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit muammolarini bartaraf qilish masalalari, hududlarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish muammolarini hal qilishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va tezislari o'rin olgan. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, talabalari, magistrlar, tayanch doktorantlar, doktoranturada tahsil oluvchilar, mustaqil izlanuvchilar va soha mutaxassislariga mo'ljallangan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas'ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to'g'ri kelmasligi mumkin.

I SHO‘BA. BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA HUDUDLARDA XIZMATLAR SOHASINI JADAL RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI

Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, и.ф.д.

Озода Мамаюнусова Пардаева – Тошкент Давлат Иқтисодиёт университети кафедра мудири, доцент, PhD.

Севара Абдиназаровна Бабаназарова – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти доценти, PhD.

ИНСОН РЕСУРСЛАРИ АНАЛИТИКАСИ (ТАҲЛИЛИ)НИНГ ФАН СИФАТИДА ШАКЛЛАНИШИ

Аннотация: Мазкур мақолада инсон ресурслари аналитикаси (таҳлили)нинг фан сифатида шаклланиши масаласи ёритилган. Инсон ресурсларини таҳлил қилиш корхона ва ташилотларда ишлайдиган ходимларнинг умумий сони, йўналишлари, мутахассисликлари, ёши ва жинси бўйича таркиби, уларни бошқариш, иш натижаларини баҳолаш, рағбатлантириш ва мотивациялаш жараёнларини қамраб олади. Шунингдек, мақолада инсон ресурслари аналитикасининг назарий асослари, унинг амалий қўлланилиши ва кадрларни бошқаришдаги аҳамияти кўриб чиқилган. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, инсон ресурслари аналитикаси кадрларни танлаш, тайёрлаш, рағбатлантириш ва ташилотнинг рақобатбардошлигини оширишда муҳим аҳамият касб этади. Шу туфайли ушбу йўналиш алоҳида фан сифатида шаклланиши объектив зарурият ҳисобланади.

Калим сўзлар: Инсон ресурслари, аналитика, кадрлар бошқаруви, меҳнат бозори, кадрлар сиёсати, рақобатбардошлик, меҳнат ресурслари, ташилот стратегияси, инсон капитали, мотивация, рағбатлантириш, меҳнат самарадорлиги.

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование аналитики человеческих ресурсов (HR-аналитики) как научной дисциплины. Анализ человеческих ресурсов охватывает изучение численности сотрудников предприятий и организаций, их специальностей, возрастного и гендерного состава, процессов управления персоналом, оценки результатов их деятельности, мотивации и стимулирования. Также рассматриваются теоретические основы HR-аналитики, ее практическое применение и значение в управлении кадрами. Результаты исследования показывают, что HR-аналитика играет важную роль в подборе, подготовке, мотивации сотрудников и повышении конкурентоспособности организации. Следовательно, становление данного направления в качестве отдельной научной дисциплины является объективной необходимостью.

Ключевые слова: Человеческие ресурсы, аналитика, управление кадрами, рынок труда, кадровая политика, конкурентоспособность, трудовые ресурсы, стратегия организации, человеческий капитал, мотивация, стимулирование, эффективность труда.

Annotation: This article examines the formation of human resources analytics (HR analytics) as a scientific discipline. Human resources analysis covers the study of the total number of employees in enterprises and organizations, their specializations, age and gender composition, personnel management processes, performance evaluation, motivation, and incentives. The theoretical foundations of HR analytics, its practical application, and its significance in human resource management are also discussed. The research results indicate that HR analytics plays a crucial role in personnel selection, training, motivation, and enhancing an organization's competitiveness. Therefore, the establishment of this field as an independent scientific discipline is an objective necessity.

Keywords. Human resources, analytics, personnel management, labor market, HR policy, competitiveness, workforce, organizational strategy, human capital, motivation, incentives, labor efficiency.

Инсон ресурсларини аналитикаси корхона ва ташкилотларда ишлайдиган ходимларининг умумий сонини, уларнинг йўналишлари ва мутахассисликлари, жинси ва ёшлари бўйича таркибини, уларни бошқариш, иш натижаларини баҳолаш ва шунга қараб рағбатлантириш, уларни турли мотивациялар билан қўллаб-қувватлашга қаратилган ички сиёсатга баҳо бериш билан шуғулланади. Бунда асосий йўналишлардан бири инсон фаолиятига таъсир қилувчи омилларни ҳам фактларга ва тафаккурга таянган ҳолда чуқур ўрганади.

Инсон ресурслари аналитикаси (таҳлили)ни чуқур англаш ва унинг фан сифатида шаклланишини ўрганиш учун энг аввало инсон тушунчасига изоҳ бериш лозим. **Инсон** араб тилидан олинган бўлиб, **унутмоқ**, деган маънони англатар экан¹. “Инсон оламдаги бошқа биологик мавжудотлардан ажралиб турадиган муҳим хусусиятларга, яъни ақл, маънавият, маданият, ахлоқ, тафаккур, тил ва бошқа жиҳатларга эга бўлган ижтимоий вужуд, одам зоти; ҳар бир якка шахс, барча жонзотларнинг энг юқори пағонасида турадиган мавжудот; ижтимоий жараёнлар субъекти; ижтимоий меҳнат асосида шаклланган тафаккур ва нутққа эга бўлган, атроф-муҳитга фаоли таъсир кўрста оладиган олий даражадаги тирик мавжудот”². Том маънода инсон яратувчи, истеъмолчи ҳам дир. Ушбу жараёнларда фаоли бўлишининг натижасини инсон ресурслари аналитикасида батафсил ўрганилади.

Инсон ресурслари аналитикаси (таҳлили)нинг фан сифатида шаклланишига асосий сабаб, ушбу жараёнда мураккабликлар вужудга келган тақдирда унинг назариясини ўрганишга тўғри келади. Бу объектив зарурият шу соҳа бўйича фаннинг шаклланишига сабаб бўлади. Шу тариқа “Инсон ресурслари аналитикаси” фанига ҳам зарурият пайдо бўлди.

Инсон ресурслари аналитикаси орқали инсон ресурсларини бошқариш функцияларини ҳам амалга оширади. Бу қуйидагиларни ўз ичига олади:

Биринчидан, ходимларга бўлган умумий талабни ва йўналишлари бўйича аниқланади. Бунда қаерга, қайси мутахассисликдан қанча одамлар кераклиги аниқланади. Бир мутахассислик бўйича олий маълумотли киши керак бўлса, унинг маълумоти билан бирга мутахассислиги ҳам тўғри келиши

¹ Педагогика: энциклопедия. II-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” ДИН. – 2015. – 94 бет.

² Ўша жойда. – 94 бет.

лозим. Шу туфайли кадрларни танлаш масаласи ўта жиддий жараён. Аксарият ҳолда иш берувчи олий ўқув юртлари билан келишган ҳолда айнан шу мутахассислик бўйича буюртма асосида қабул қилса жуда ўринли бўлади.

Иккинчидан, ходимларни ҳар бир йўналиш бўйича танлаш ва уларни шу ишга ва жамоага мос ҳолда тайёрлаш. Одатда бир касбга малакали ва тажрибали кадрлар керак. Аммо бундай кадрлар бўлмаслиги мумкин. Шунда ёш кадрларни қабул қилиш лозим бўлади. Буларни шу касбга ўқиган бўлса мазкур ишга қабул қилиб, уни нафақат касбига, балки шу жамоада ишлашга ҳам тайёрлаш лозим бўлади.

Учинчидан, барча ходимларни умумий ва мазкур ташкилотга мос меъёрлар ва кадрлар сиёсатига мослашишни ҳам ўргатиш лозим. Чунки ҳар бир жамоада ўзига хос маънавий муҳит шаклланган бўлиши мумкин. Шу туфайли янги кадрлар бундай муҳитга мослашишга тўғри келади.

Тўртинчидан, фаолият давомида дуч келадиган муаммоларни таҳлил қилиш ва унинг ечимини мустақил ҳал қилиш, зарур ҳолларда ким билан, қандай маслаҳатлашиш масалаларини ҳам аниқ билишлари лозим. Чунки иш ҳамisha текис кетавермайди, турли муаммоларга дуч келиб қолиши табиий. Зеро ҳаёт йўли текис эмас, бундай шароитда албатта муаммоларга дуч келиш мумкинлигини унутмаслик керак.

Бешинчидан, инсон ресурслари аналитикасида ҳар бир шахс асосий масъулиятни ўз зиммасига олиши лозим. Чунки ҳар бир киши таҳлилни энг аввало ўзидан бошлаб, кейин ўз касби билан боғлиқ инсонлар фаолиятини ҳам таҳлил қилиб кўришга, муаммони ҳамжиҳатликда ҳам қилишга киришмоғи лозим. Шундагина муаммоларнинг тез ва соз ечимларига эришилади.

Олтинчидан, ҳозирги кескин рақобат муҳити авж олиб турган паллада ҳар бир ходим, ўзи ишлаган жамоаси ва корхонасини рақобатбардош бўлишга йўналтирадиган бўлиши ҳам лозим. Бунда ходимларнинг вазиятга тўғри баҳо берадиган зарур ҳолларда инновацион омиллардан самарали фойдаланадиган бўлишлиги ҳам мақсадга мувофиқ. Шу йўл билан корхонанинг рақобатбардошлигини ва унинг барча рақобатчиларига нисбатан устунлигини таъминлай оладиган бўлишади.

Еттинчидан, ҳар бир ходимнинг ҳам, ва корхона ва ташкилотларнинг ҳам нуфузи (бренди) бўлиши керак. Бу бошқалар учун ўртак бўладиган ва мусобақада устунликни таъминлайдиган бўлади. Чунки брендни қўлга киритган субъект фаолиятини реклама қилишга ҳожат ҳам қолмайди. Бренддаги субъектларни муносиб рағбатлантириш масласи ҳам кун тартибда доимий равишда бўлишлигини тақозо қилади.

Саккизинчидан, инсон ресурслари аналитикасида муҳим йўналишлардан бири, ходимларнинг шу корхонага садоқат билан хизмат қилишини шакллантирадиган руҳиятни барпо қилишдан иборатдир. Бунинг учун энг яхши кадрларни умрбод ишга қабул қилиш масаласини қўйиш ҳам муҳим йўналиш бўлиб ҳисобланади. Агар шундай тамойилда ишлайдиган бўлса, ходим ушбу корхонага садоқат билан хизмат қилади.

Яна бир муҳим жиҳат, ҳозирги пайтда жуда кўп янги инновацион технологиялар пайдо бўлмоқда. Бироқ ушбу мутахассисликдан кадрлар бўлмаслиги мумкин. Бундай шароитда ишлаб турган садоқатли кадрларни шунга мослаштириш ва ушбу кадрни қайта тайёрлаб ўқитишни ташкил қилиш ҳам мақсадга мувофиқ бўлади. Чунки ишнинг самарадорлигининг мунтазам ошиб бориши айнан шу омилларга боғлиқ бўлади.

Инсон ресурслари аналитикаси (ИРА) фан сифатида шаклланадиган бўлса, ушбу фан асосан икки қисмдан: назария ва амалий қисмлардан иборат бўлади. Бунда битта жараёни икки хил ёндошувда ўрганишни тавсия қилиш мумкин. Масалан, инсон ресурсларини мутахассислар кесимида янги ходимларни қабул қилиш жараёнини олайлик. Буни назарий жиҳатдан ўрганилганда, қандай малакадаги мутахассис, унга қўйилган талаблар, бу борадаги қонун-қоида ва тартиблар ўрганилади. Амалиётда эса, аниқ кадр билан жонли суҳбат, малакаси фақат диплом эмас, унинг билим савияси, маънавий етуклиги каби жиҳатлар ўрганилади.

Инсон онгли мавжудод бўлганлиги учун унда ўйлайдиган, фикр қиладиган, атрофида содир бўлаётган ҳодиса ва жараёнлар асосида хулоса қиқариш қобилиятига эга. Инсоннинг кўрган-билганлари, уни ўзлаштириб қилган хулосалари унинг онги ва қалбида ўзига хос тасаввурга айланади. Чунки шу билан инсон тафаккур қилади ва ўзининг хулосалари асосида мълум қарорлар қабул қила олади. Бундан кўриниб турибдики, инсон аналитикасини инсоннинг ўзи амалга оширади. Шу тариқа инсонлар ҳақида инсонлар хулоса қилиб, ўзини ва бошқаларни бошқаради. Ушбу бошқаришни қайси йўналишга буриш лозимлигини инсон ресурслари аналитикаси орқали англаб олади.

Инсон ресурсларининг бошқарилишида инсон маънавийлилик даражаси муҳим аҳамиятга эга. Инсон маънавияти жамиятда мавжуд бўлган кўп қиррали муносабатлар, ижтимоий-иқтисодий, сиёсий шарт-шароитлар асосида турли омиллар таъсирида шаклланади. Ушбу ҳолат жамият аъзоларининг ўзаро муносабатларига, раҳбаринг ишловчиларга, ишловчиларнинг раҳбарларга муносабатларига ҳам таъсир қилади. Ушбу муносабатлар инсонларнинг ҳам, корхона ва ташкилотларнинг ҳам фаолиятига бевосита таъсир қилиши орқали аста-секинлик билан улар маънавиятларининг юксалишига ҳам олиб келади. Шу тариқа жамиятда маънавий юксалиш рўй беради. Бу юксалишнинг инсониятага таъсири катта. Айнан ушбу жараёнларни рақамларда ўлчайдиган маънавий даражага баҳо берадиган кўрсаткичларни инсон ресурслари аналитикаи шакллантиради.

Хулоса. Булардан хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, инсон ресурслари аналитикаси (ИРА) корхона ва ташкилотларда ишлайдиган малакали мутахассисларни ҳар томонлама назарий ва амалий жиҳатдан ўрганиш билан шакллантирилади ва шаклланган жамоанинг самарали фаолиятини таъминлаш даражасини ўрганади. Хуллас, инсон ресурсларини бошқариш асида ходимларни бошқариб, корхона ва ташкилотларнинг рақобатбардошлигини ошириш билан бирга уларнинг самарадорлигини

ошириш имкониятини ҳам яратади. Шу тариқа инсон ресурслари аналитикаси (таҳлили) фан сифатида шаклланади.

Ибрагимов Мурод Нозирович - "LEAN PHARMA CONSULTING" МЧЖ
консалтинг компанияси директори

КОНСУЛЬТАЦИЯ ХИЗМАТЛАРИ КЎРСАТИШ УЧУН ТЕХНИК ТОПШИРИҚ

Аннотация: Мақолада консалтинг хизматларининг моҳиятини очиб бериш билан бирга, консалтинг шартномасининг таркибий қисми ва буюртмачи ҳамда ижрочи ўртасидаги шартнома мажбуриятларини самарали бажариш учун кучли восита сифатида консалтинг хизматлари кўрсатиш учун техник топшириқни ишлаб чиқишга катта эътибор қаратилади. Дори воситаларининг улгуржи савдоси корхоналарида "Яхши Дистрибьюторлик Амалиёти" стандартларини жорий этиш бўйича маслаҳат хизматлари учун муаллиф томонидан ишлаб чиқилган техник топшириқ шакли ва таркиби келтирилган.

Таянч иборалар: консалтинг хизматлари, шартнома, лойиҳа олди босқичи, техник топшириқ, "Яхши Дистрибьюторлик Амалиёти," "Яхши Дорихона Амалиёти," дистрибьюторлик корхона, дорихоналар.

Аннотация: В статье раскрывая сущность консалтинговых услуг, большой акцент делается на разработку технического задания на консалтинговые услуги как составной части консалтингового договора и мощного инструмента по эффективному взаимодействию заказчика и исполнителя по выполнению договорных обязательств. Приведено, разработанное автором, техническое задание на консультационные услуги по внедрению стандартов "Надлежащая дистрибьюторская практика" на предприятиях по оптовой торговли лекарственными средствами.

Ключевые слова: консалтинговые услуги, договор, предпроектная стадия, техническое задание, "Надлежащая Дистрибьюторская Практика", "Надлежащая Аптечная Практика", дистрибуция, аптека.

Abstract: The article reveals the essence of consulting services, great emphasis is placed on the development of technical specifications for consulting services as an integral part of the consulting agreement and a powerful tool for effective interaction between the customer and the contractor to fulfill contractual obligations. A technical specification developed by the author for consulting services on the implementation of "Good Distribution Practice" standards at drug wholesale trade enterprises is presented.

Key words: consulting services, contract, pre-project stage, terms of reference, "Good Distribution Practice", "Good."

Кириш. Иқтисодиётнинг ўсиши, ривожланишнинг янги йўналишлари тобора кўпайиб бориши ва бозорга янги иштирокчилар кириб келиши билан экспертлар ҳамда профессионал маслаҳатчиларнинг хизматларига бўлган эҳтиёж ҳам ортиб бормоқда. Ҳозирги кунда инвесторлар, айниқса хорижий инвесторлар, инвестиция қиритишда кўпинча эксперт-маслаҳатчиларнинг ёрдамида иш олиб борадилар.

Консалтинг фаолиятининг алоҳида бизнес соҳаси сифатида ривожланиш тарихига назар солсак, маслаҳат хизматларининг пайдо бўлиши ва тараққий этиши доимо иқтисодиётнинг ўсиши ҳамда янги тармоқларнинг вужудга келиши билан чамбарчас боғлиқ бўлганини кўрамиз.

Консалтинг фаолиятининг ривожланишидаги биринчи босқич саноат инқилоби бўлди - бу даврда янги фабрика ва заводлар фаол равишда очила бошлаган. Шу пайтда бизнесни ривожлантиришнинг турли усуллари ва тамойилларини тавсифлашга бўлган эҳтиёжи пайдо бўла бошлади. Бундай турдаги билимларни умумлаштириш учун дастлабки уринишлар XIX асрда, илмий бошқарув ҳаракати вужудга келган пайтда амалга оширилган. Бироқ, ўша даврларда маслаҳат бериш фақатгина фабрика ва заводларда меҳнат унумдорлигини ошириш, иш жараёнини ташкил этиш ва оптималлаштириш каби масалаларгагина тааллуқли эди.

XX аср бошларида консалтинг соҳасининг фаолияти сезиларли даражада кенгайди. Натижада, биринчи профессионал ва нуфузли маслаҳатчилар пайдо бўлди. Уларнинг фикри ҳар қандай корхона раҳбари учун муҳим аҳамиятга эга эди. Бу соҳадаги энг машҳур номлар қаторига Фредерик Тейлор, Артур Д. Литтл, Тоуэрс Перрин ва Гаррингтон Эмерсон каби мутахассисларни киритиш мумкин. Айтганча, сўнгги иккита мутахассислар яъни Тоуэрс Перрин ва Гаррингтон Эмерсонлар дунёдаги биринчи консалтинг компаниясини ташкил этган!

Ўзбекистонда консалтинг хизматлари ривожланишнинг дастлабки босқичида. Шу билан бирга, иқтисодиётнинг жадал ривожланиши, турли соҳалардаги корхоналар сонининг тез ўсиши туфайли консалтинг хизматларига бўлган талаб тобора ортиб бормоқда.

Консултация хизмат кўрсатиш жараёни – бу муаммони тўлиқ ҳал қилиш ва мижоз ташкилотидаги зарур ўзгаришларни амалга ошириш учун консультант ва мижознинг ҳамкорликдаги саъй-ҳаракатлари билан бажариладиган мантиқий ва ўзаро боғлиқ процедуралар занжиридир.

Консультант ва мижоз ўртасидаги конструктив муносабатлар консалтинг масаласини ҳал этиш бўйича ўзаро мажбуриятлар батафсил муҳокама қилиниб, юридик жиҳатдан ёзма равишда расмийлаштирилади. Бундай ҳужжат шартномага илова қилинадиган консалтинг хизмати учун техник топшириқ бўлиб, мазкур мақола айнан шу масалага бағишланган.

Консалтинг хизматларининг моҳияти

Бизнес томонидан ҳал қилинмаган муаммо ёки вазифа консультантга мурожаат қилиш учун асос бўлади. Ҳар қандай турдаги консалтинг хизматларини кўрсатиш жараёнини шартли равишда ўзаро боғлиқ бўлган шартномадан олдин тузиладиган шартнома ва шартномадан кейин тузиладиган шартнома босқичлари.

Шартнома олди босқичида консультант дастлабки диагностика асосида консалтинг ишларининг масштабини аниқлайди. Бунда мижоз томонидан тақдим этилган ҳужжатлар ўрганилади, интервью ва сўровлар ўтказилади, раҳбарият ҳамда асосий ходимлар билан учрашувлар ташкил этилади, шунингдек, хизмат кўрсатиш муддати белгиланади. Лойиҳадан олдинги босқичда консультантнинг вазифаси бажариладиган ишлар рўйхати ва ҳажмини белгилаши, шунингдек, хизматни амалга оширишда мижознинг ходимлари учун топшириқларни асослаб беришдан иборат. Ушбу босқичда

консультант ва мижоз ўртасида хизмат кўрсатиш ҳажми, бажариш муддатлари ва мижознинг ходимлари хизмат кўрсатиш жараёнидаги иштирогининг даражаси бўйича тўлиқ тушунчага эга бўлиши лозим.

Консалтинг хизматларини кўрсатишнинг лойиҳа олди босқичи шартнома ва унинг иловаларини имзолаш билан якунланади. Консалтинг ва консультант хизматларининг лойиҳа олди босқичининг моҳиятини, умуман олганда, Ўзбекистондаги дори воситаларининг улгуржи ва чакана савдоси корхоналарида стандартларни жорий этиш бўйича маслаҳат хизматлари мисолида кўриб чиқамиз.

Дори воситаларининг улгуржи ва чакана савдо корхоналарида "Яхши дистрибьюторлик амалиёти" (GDP) ва "Яхши дорихона амалиёти" (GPP) стандартларини жорий этиш бўйича маслаҳат хизматлари кўп босқичли ва кўп қиррали жараёни ҳисобланади. Ушбу консалтинг хизматларининг муваффақиятли амалга оширилиши учун мижознинг ходимларини фаол иштирокига бевосита боғлиқ бўлади.

Фармацевтика соҳасида "Яхши Дистрибьюторлик Амалиёти" ("Good Distribution Practice" ёки GDP деб қисқартирилган) ҳамда "Яхши Дорихона Амалиёти" ("Good Pharmacy Practice" ёки GPP деб қисқартирилган) стандартларини жорий этиш хизматларида муаммо олдиндан аниқ: бу корхонада мазкур стандартларнинг мавжуд эмаслиги. Бу стандартларсиз дори воситаларини тарқатиш ёки чакана сотиш фаолиятини давом эттириш Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчилигига кўра таъқиқланади. Консультантнинг вазифаси корхона ва унинг ҳужжатларини тасдиқланган стандартлар бўйича корхонани сертификатлаштириш инспекциясига тайёрлашдир. Консультант ёрдамига эҳтиёж GDP/GPP сертификатларининг амал қилиш даврида режалаштирилган йиллик аудит давомида кўрсатилган жиддий камчиликлар туфайли ҳам юзага келиши мумкин.

Ўзбекистонда 2025 йил 1 январь ҳолатига кўра, дори воситалари улгуржи савдоси билан шуғулланувчи 476 та корхонадан 352 таси ёки 74,0 фоизи GDP стандартлари бўйича сертификатланган ва тегишли ҳужжатга эга. Шунингдек, 13 150 та дорихона муассасасидан 2941 таси ёки 22,3 фоизи GPP стандартлари асосида сертификатланганлигини кузатиш мумкин.

Ушбу турдаги консалтинг фаолиятининг кўп босқичлилиги GDP/GPP стандартларини жорий этиш учун шарт-шароитлар яратишдаги муаммолар мавжудлиги билан изоҳланади. Хусусан, GDP/GPP стандартлари дори воситаларини қабул қилиш ва сақлаш учун бино ҳамда хоналарга, уларнинг техник жиҳозланишига, етказиб берувчидан қабул қилувчигача ташиш учун ишлатиладиган транспорт воситаларига маълум талабларни қўяди. Ушбу талабларга мувофиқлаштирмасдан туриб, консалтинг хизматларини кўрсатишни давом эттиришнинг ҳеч қандай аҳамияти эга эмас.

GDP/GPP стандартларини жорий этиш бўйича хизматлар кўрсатишнинг кўп қирралилиги нафақат қурилиш-монтаж ва техник ечимлар бўйича тавсияларни ишлаб чиқиш ва тайёрлаш, балки уларни тегишли тарзда амалга ошириш зарурати билан асосланади. Бундан ташқари, корхона ва

унинг ходимларини GDP/GPP стандартларига мувофиқлигини тасдиқлаш жараёнида сифатни назорат қилиш ва таъминлаш бўйича ҳужжатлар, шунингдек, корхона ходимларининг бу ҳужжатларни билиши мажбурий равишда ўрганилади.

GDP/GPP стандартларини жорий этишнинг лойиҳадан олдинги босқичидаги консалтинг хизматлари қуйидаги босқичларни ўз ичига олади:

- Мижоз томонидан муаммонинг аниқланиши ва уни биргаликда ҳал қилиш учун консультант таклиф этилиши;
- GDP/GPP стандартларига кўра объект, жараёнлар ва ҳужжатларнинг дастлабки диагностика қилиш;
- техник топшириқни ишлаб чиқиши;
- мижозга молиявий таклиф асосларини тушунтириш;
- хизмат кўрсатиш шартномаси ва унга илова сифатида техник топшириқнинг имзоланиши.

GDP стандартини жорий этиш бўйича хизматлар кўрсатишнинг лойиҳадан олдинги босқичида бажарилиши лозим бўлган ишлар рўйхати 1-иловада келтирилган.

Иккинчи, асосий босқич шартнома шартлари ва техник топшириқни бажаришга қаратилган. У чуқур диагностика, иш йўналишлари ва уларнинг кетма-кетлигини аниқлаш, асосланган тавсиялар ва уларни амалга ошириш механизминини ишлаб чиқиш учун тавсияларни амалга оширишни ташкил этиш ва корхона ходимлари томонидан уларнинг бажарилишини назорат қилиш каби бир қатор йирик босқичларни ўз ичига олади.

GDP/GPP стандартларини жорий этиш бўйича консалтинг хизматларини кўрсатиш ўзига хос хусусиятларга эга. Бундай хизматлар мижознинг ишлашга тайёрланган ёки ишлаётган объектларида кўрсатилади. Агар мижознинг корхонаси GDP/GPP стандартлари бўйича сертификатланмаган бўлса, унда чуқур диагностика жараёни стандарт талабларига номувофиқликларни аниқлаш, уларни бартараф этиш йўналишлари ва босқичларини белгилашни ўз ичига олади. Бунда консультантнинг тавсиялари кўра дори воситаларини тарқатиш ёки уларни чакана сотиш фаолиятини юритиш ҳуқуқини берувчи ваколатли давлат органидан тегишли сертификатни олиш учун зарур бўлган стандартлар талабларига асосланади.

Яқунловчи ёки шартномадан кейинги босқичи - консультант ишларининг яқунланиши, бажарилган ишлар тўғрисидаги тегишли далолатномани расмийлаштириш, ҳамда келажакдаги ҳамкорлик келишувларини белгилаш билан боғлиқ ҳисобланади.

Тадқиқотимиз шуни кўрсатадики, дори воситаларини улгуржи ва чакана сотиш корхоналарида GDP/GPP стандартларини жорий этиш бўйича маслаҳат хизматлари аксарият ҳолларда бир марталик маслаҳатлар шаклида эмас, балки йирик, давомий маслаҳат хизматлари кўрсатиш лойиҳалари кўринишида амалга оширилади. Бу лойиҳалар ўз ичига жараёнлар ва ҳужжатларни текшириш, номувофиқликларни аниқлаш, ечимларни ишлаб чиқиш, уларни жорий этиш, GDP/GPP стандартлари бўйича сертификатлашга

тайёргарлик кўриш ҳамда лойиҳани биргаликда амалга ошириб бориш каби ишларни ўз ичига қамраб олади.

Маслаҳат бериш хизматлари учун техник топшириқлар.

Бизнинг кузатувларимизга кўра, GDP/GPP стандартларини жорий этиш бўйича консалтинг хизматларини кўрсатиш шартномасини тузишда кўпинча техник топшириқ ишлаб чиқилмайди ва шартноманинг таркибий қисми сифатида имзоланмайди. Фақат хизмат кўрсатиш муддати ва шартнома суммаси ҳақида келишувлар билан чекланилади. Бу эса мижоз ва маслаҳатчи ўртасида тез-тез келишмовчиликларга сабаб бўлади.

Бизнинг фикримизча, GDP/GPP стандартларини жорий этиш бўйича консалтинг хизматларининг кўп босқичлилиги ва кўп қирралилиги хизмат кўрсатиш учун техник топшириқни ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир. Шу билан бирга, якуний вариантда тайёрланган техник топшириқ мижоз ва консультант томонидан имзоланиши ҳамда хизмат кўрсатиш шартномасига унинг таркибий қисми сифатида илова қилиниши лозим. Бу эса ўз навбатида юридик асос бўлиб хизмат қилади.

Консалтинг жараёнининг мураккаблиги ва ўзига хос хусусиятлари туфайли, GDP/GPP стандартларини жорий этиш бўйича техник топшириқни консультант томонидан ишлаб чиқилиши ва мижозга кўриб чиқиш учун тақдим этилиши мақсадга мувофиқ бўлади.

Дунё амалиётида техник топшириқ учун инглизча "Terms of Reference - TOR" атамаси қўлланилади. Техник топшириқда консультант учун вазифалар белгиланиб, маслаҳат бериш жараёнининг доираси аниқланади ҳамда консалтинг хизматига зарур бўлган талаблар ўрнатилади. TOR барча халқаро маслаҳат хизматлари тендерларида буюртмачи томонидан тайёрланади ва тендер эълонига илова сифатида тақдим этилади.

GDP/GPP стандартлари талаблари кўпинча мижоз ходимлари томонидан етарлича ўрганилмаган бўлади. Шу сабабли, фақатгина бажариладиган ишлар ва ишлаб чиқилладиган ҳужжатлар рўйхатини кўрсатиш мижоз ходимларига консалтинг ҳажми ва моҳиятини тўлиқ тушунтириш етарли бўлмаслиги мумкин. Шунинг учун техник топшириқда хизмат кўрсатиш шаклини аниқ белгилаш керак: ёзма, оғзаки, муҳокама қилиш ёки ўқитиш тарзида.

Бизнингча, техник топшириқ консультант томонидан бажарилган ишнинг натижасини тақдим этиш тури ва усули кўрсатилгандагина тўлиқ ҳисобланади. Натижаларни тақдим этиш шакли ёзма ёки оғзаки бўлиши мумкин, ёзма шаклда эса ахборот электрон ёки қоғоз кўринишида тақдим этилиши мумкин. Консультант ва мижоз ўртасидаги музокараларда, баъзи компаниялар GDP/GPP стандартлари элементларини жорий этиш бўйича хизматлар доирасида ишлаб чиқилладиган ҳар бир ҳужжатнинг саҳифалар сонини ҳам кўрсатишни маъқул кўришади. Бу эса мижозга режалаштирилган ишлар ҳажми ҳақида тўлиқроқ тасаввурга эга бўлиши учун хизмат қилади.

Техник топшириқнинг ягона стандарт шакли йўқ. Унинг мазмуни ҳал қилинаётган масаланинг хусусиятига қараб белгиланади. Техник топшириққа қуйидаги маълумотларни киритиш мақсадга мувофиқ:

- 1) мижоз ҳақида қисқача маълумот;
- 2) лойиҳанинг мақсадлари;
- 3) маслаҳат берувчи ташкилот (консультант) дан-талаб этиладиган хизматлар;
- 4) лойиҳани амалга ошириш муддатлари;
- 5) бажарилиши керак бўлган ишлар рўйхати;
- 6) бажарилган ишлар бўйича натижаларни тақдим этиш шакли ва усули, шунингдек, ишлаб чиқилган ҳужжатларнинг ҳажми;
- 7) мулоқот қилувчи шахс

Тўғри тузилган техник топшириқ - келажақдаги маслаҳат лойиҳасининг энг муҳим қоидалари ва кўзланган натижаларни аниқ белгилайдиган ҳужжатдир.

Амалиёт шуни кўрсатадики, мижозлар одатда GDP/GPP стандартларини жорий этиш бўйича маслаҳат хизматларига кам вақт ажратади ва хизмат кўрсатишнинг тезлаштирилган форматини афзал кўради. Бу ҳолат икки омил билан боғлиқ: биринчидан, мижозга фармацевтика фаолиятини юритиш ҳуқуқини берувчи тегишли сертификатни олиш зарурияти, иккинчидан эса, маслаҳат хизматлари давомида ходимларга тушаётган қўшимча юкламалар. Бу икки омил хизмат кўрсатиш жараёнини тезлаштиришга ундайди.

Шу сабабли, техник топшириқда хизмат кўрсатишнинг умумий вақт чегараларини, шунингдек, алоҳида иш турларининг муддатларини кўрсатиш зарур ва муҳим ҳисобланади. Ишларни бажариш муддатларини белгилаш жараёни консультант ва мижоз билан хизмат кўрсатиш қийматини ва GDP/GPP стандартларини жорий этишнинг умумий давомийлигини муҳокама қилинишини осонлаштиради.

Дори воситалари ва тиббий буюмларни тарқатиш корхоналарида GDP стандартини жорий этиш бўйича иш тажрибасига асосланиб, биз GDP стандартини жорий этиш бўйича маслаҳат хизматларини кўрсатиш учун техник топшириқни ишлаб чиқдик (2-илова).

Ишлаб чиқилган техник топшириқнинг маслаҳат жараёни иштирокчилари учун қандай афзалликлари бор?

Биринчидан, мижоз маслаҳат хизмати доирасида кўрсатиладиган хизматлар ҳажми, ишлаб чиқиладиган ҳужжатлар рўйхати ва бошқа ишлар ҳақида тўлиқ тасаввурга эга бўлади.

Иккинчидан, шартнома шартлари, хизмат нархи ва уни бажариш муддатларини муҳокама қилиш жараёни осонлашади.

Учинчидан, шартноманинг ҳар икки томони ҳам кўрсатилиши режалаштирилаётган хизматлар ҳажми ва кутилаётган натижалар ҳақида тўлиқ тасаввурга эга бўлади.

Тўртинчидан, хизмат кўрсатиш натижаларини расмийлаштириш жараёни енгиллашади ва соддалашади.

Консультант ва мижоз ўртасидаги муносабатлар тизимида техник топшириқнинг вазифалари

Мақола муаллифининг консалтинг хизматларини кўрсатиш жараёнларини ўрганиши ва GDP стандартини жорий этиш бўйича консалтинг лойиҳаларида шахсан иштирок этиши натижасида, маслаҳатчи ва мижоз ўртасидаги муносабатларда техник топшириқнинг бир қатор муҳим вазифалари бажарилганлиги аниқлади.

Биринчи функцияси - ташкиллаштириш хусусияти ҳисобланади.

Техник топшириқ ёрдамида ҳам маслаҳатчи ходимларининг, ҳам мижознинг масъул ходимларининг ишини самарали ташкил этиши керак. Техник топшириқ GDP стандартини жорий этиш даврида консультант ва мижоз ходимлари учун иш режасини тузишга асос бўлиши, маслаҳат жараёнининг ҳар икки томонидан масъул шахсларни белгилаш, ишларни бажариш кетма-кетлиги ва муддатларини аниқлаш имконини беради. Маслаҳат бериш жараёнида техник топшириқ консалтинг хизматининг ҳар бир таркибий қисмини тўлиқ бажарилганлигини назорат қилиш ва мижоз ходимларининг консалтинг жараёнидаги иштирогини таъминлаш воситасига айланади.

Техник топшириқнинг иккинчи функцияси - коммуникатив хусусиятидир.

Техник топшириқ хизмат кўрсатиш жараёнининг барча босқичларида консультант ва мижоз раҳбарияти ҳамда уларнинг ходимлари ўртасидаги мулоқот воситаси сифатида хизмат қилади. Бундан ташқари, ҳар бир ҳужжатнинг номланишини батафсил белгилаш, ишларни бажариш кетма-кетлигини кўрсатиш, маълумотларни тақдим этиш шакллари аниқлаш ва натижани аниқ белгилаш самарали ҳамкорликни таъминлайди.

Бу ўзаро ҳамкорлик нафақат мижоз ва консультант ўртасида, балки мижоз ходимларининг GDP/GPP стандартлари элементларини жорий этиш бўйича ишларини самарали ташкил этишда ҳам фойдали бўлади. Бунда техник топшириқ ва унинг қисмлари жараёнларни ташкил этишдаги бошқарув ва ўзгаришлар объекти ҳисобланади ҳамда ишлар мажмуасини изчил равишда амалга оширишга қаратилган бўлади.

Имзоланган техник топшириқ маслаҳатчи ташкилот ичидаги бошқарув воситаси сифатида ҳам хизмат қилади. Мижоз объектининг ўзига хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда ҳужжатларни ишлаб чиқиш ва ишларни бажариш техник топшириқ асосида ташкил этилади. Бундай ҳужжат мавжуд бўлганда, ижрочилар ўртасида вазифаларни тақсимлаш ва уларнинг сифатли бажарилишини назорат қилиш самарали бўлади.

Техник топшириқнинг учинчи функцияси – ҳукуқий таъминланганлик ҳисобланади.

Имзоланган техник топшириқ хизмат кўрсатиш жараёнида ҳам, ишларни яқунлаш ва бажарилган ишлар далолатномасини расмийлаштириш

жараёнида ҳам мижоз ва консультант ўртасидаги келишмовчиликларни ҳал қилиш учун асос бўлиб хизмат қилади. Максимал даражада батафсил ишлаб чиқилган техник топшириқ келишмовчиликларни ҳал қилишда устунликка эга бўлади. GDP/GPP стандартлари элементларини жорий этиш бўйича маслаҳат хизматларини кўрсатишда оғзаки келишув кўпинча келишмовчиликларга олиб келади, уларни ҳал қилиш кўпинча муаммоли бўлади ва хизмат кўрсатишнинг секинлашиши ёки тўхтатилишига олиб келади.

Тўртинчи функция — маълумот бериш функцияси.

Хизмат кўрсатувчи томонлар техник топшириқдан хизматлар рўйхати, муддатлари ва консалтинг натижаларини тақдим этиш шакли ҳақида хабардор қилинади. Техник топшириқ орқали мижоз ва консультант ходимлари хизмат предмети тўғрисида батафсил маълумот оладилар ҳамда ўз фаолиятларини аниқ шартнома ва мижозга мослаштириб олиб борадилар.

Малакали ходимлар мавжуд бўлган тақдирда, GDP/GPP стандартлари элементларини жорий этиш бўйича консалтинг хизматларига техник топшириқни мижоз ходимлари ҳам тайёрлаб, кўриб чиқиш учун маслаҳатчига топшириши ёки шу топшириқ асосида консалтинг компаниялари ўртасида тендер эълон қилиши мумкин.

Таъкидлаганимиздек, техник топшириқнинг ягона шакли йўқ, унинг мазмуни ҳал этилаётган муаммонинг ўзига хос хусусиятларига боғлиқ. GDP/GPP стандартлари элементларини жорий этиш бўйича маслаҳат хизматлари тасдиқланган GDP/GPP стандартлари талабларидан келиб чиққан ҳолда аниқ ва муайян вазифаларни белгилайди.

Биз ишлаб чиққан GDP/GPP стандартлари талаблари асосидаги техник топшириқ намунаси GDP/GPP стандартлари элементларини жорий этиш бўйича консалтинг хизматларини самарали ташкил этишга хизмат қилиши мумкин.

Фикримизча, техник топшириқ консалтинг хизматларининг барча турлари учун ишлаб чиқилиши, буюртмачи ва ижрочи томонидан батафсил муҳокама қилиниши, улар томонидан имзоланиши, хизмат кўрсатиш шартномасига унинг ажралмас қисми сифатида илова қилиниши лозим. Тузилган техник топшириқ шартнома шартларини сифатли бажаришга, ва ўз вақтида амалга оширишга кўмаклашади, натижада бизнес инфратузилмасининг муҳим қисми сифатида консалтингни ривожлантиришга хизмат қилади.

Хулоса.

Консалтинг хизматлари хизмат кўрсатиш соҳасининг муҳим, жадал ривожланаётган ва талаб юқори бўлган тармоғи ҳисобланади. Бизнесда юзага келган муаммо ёки ҳал этилмаган масала ва муаммолар консультантга мурожаат қилиш учун асос бўлади. Ҳар қандай турдаги консалтинг хизматларини кўрсатиш жараёнини шартли равишда ўзаро боғлиқ бўлган лойиҳаолди, шартнома давридаги ва шартномадан кейинги босқичларга ажратиш мумкин. Лойиҳаолди босқичидаги ишлар рўйхати консалтинг

хизматининг таркибини белгилаб беради. Ушбу мақолада муаллиф томонидан ишлаб чиқилган GDP стандартларини жорий этиш бўйича консалтинг ишларининг лойиҳаолди босқичида қилинадиган ишлар рўйхати келтирилган.

Мақолада GDP/GPP стандартларини жорий этиш бўйича маслаҳат хизматларини кўрсатиш учун техник топшириқни ишлаб чиқишнинг зарурати ва аҳамияти асосланади. Шунингдек, консультант ва мижоз ўртасидаги муносабатларда техник топшириқнинг бир қатор муҳим функциялари келтирилади. Бундан ташқари, мақолада муаллиф томонидан ишлаб чиқилган, дори воситаларининг улгуржи савдоси корхоналарида GDP стандартларини жорий этиш бўйича маслаҳат хизматларини кўрсатиш учун мўлжалланган техник топшириқ шакли ва таркиби келтирилган.

Муаллиф барча турдаги маслаҳат хизматларини кўрсатиш учун техник топшириқ тузишни тавсия этади, бу эса умуман олганда консалтинг соҳасининг тезкор ривожланишига хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Зильберман М. Консалтинг. Методы и технологии. – Спб.: Питер, 2007.
2. Катрин Туретт-Туржи Консалтинг. – Спб.: Нева, 2004.
3. Маринко Г.И. Управленческий консалтинг. – М.: Инфра-М, 2005.
4. Шарков Ф.И. Консалтинг в связях с общественностью. – М.: Экзамен, 2005.
5. Шейн Э. Процесс консалтинга. Построение взаимовыгодных отношений «клиент-консультант». – Спб.: Питер, 2008.
6. Управленческое консультирование. /Под ред. М.Кубра. В 2т. - М.:Интерэксперт, 1992. – Т.1. 319 с.
7. Нисевич Е.В., Муханова Е.Б. и др. Проблемы формирования и развития инновационной инфраструктуры. – М.: Институт экономики АН СССР, 1991.

1-илова.

Лойиҳадан олдинги (шартномадан олдинги) босқич

**GDP стандартлари бўйича аттестацияга тайёрлаш юзасидан
консалтинг хизматлари кўрсатиш объектини ўрганиш доирасидаги
ишлар рўйхати**

А Юридик ҳужжатлар диагностикаси.

№	Процедуралар тавсифи
1	Юридик шахснинг давлат рўйхатидан ўтганлиги тўғрисидаги ҳужжат нусхаси
2	Юридик ва почта манзилларининг мувофиқлиги
3	Фармацевтика фаолиятини юритиш учун лицензиянинг мавжудлиги
4	Фармацевтика фаолияти учун берилган лицензиянинг амал қилиш муддати
5	Кадастр ҳужжатларининг мавжудлиги

Б. Бионарларни дастлабки ўрганиш жараёни

№	Хоналарнинг номлари
1	Худудга кириш жойида компания номининг ёзилганлиги
2	Маҳсулотларни қабул қилиш худуди мавжудлиги
3	Маҳсулотларни жўнатиш худуди мавжудлиги
4	Дори воситаларини сақлаш худуди мавжудлиги
5	Тиббий буюмларни сақлаш худуди мавжудлиги
6	Термолабил дори воситаларини сақлаш худуди мавжудлиги
7	Карантин худуди, яроқсиз маҳсулотлар худуди, чақириб олинган маҳсулотлар худуди, сохталаштирилган дори воситалари ва тез ёнувчан дори воситалари сақланадиган худудларнинг мавжудлиги.
8	Дори воситалари ва тиббий буюмларни сақлаш учун поддонлар ва стеллажлар мавжудлиги
9	Ҳожатхона ва душ хоналарининг мавжудлиги, уларнинг жиҳозланиш даражаси
10	Кийим ечиш ва кийимларни сақлаш хоналарнинг мавжудлиги
11	Тозалаш анжомларини сақлаш жойининг мавжудлиги
12	Ҳарорат ва намликни назорат қилиш тизимининг мавжудлиги

В. Кадрлар бўйича ҳужжатларни ўрганиш

№	Асосий лавозимларнинг номлари
1	Корхона раҳбари (Директор)
2	Ваколатли шахс
3	Омбор мудир
4	Омбор мудир ёрдамчиси
5	Ҳайдовчи

Г. Ускуналар, техникаларни ўрганиш

№	Ускуналар номи
1	Транспорт (рефрижератор ва иситгич ускуналари билан жиҳозланган юк машинаси)
2	Логгерлар (ҳарорат, намлик) ўлчаш асбоблари
3	Совутиш тизимлари
4	Иситиш тизимлари

5	Вентиляция тизимлари
6	Ёнғин хавфсизлиги тизими
7	Қўриқлаш хавфсизлиги тизими (видеокузатув, қўриқлаш тизими).
8	Қабул қилиш ва жўнатиш худудларини ҳарорат ўзгаришидан ҳимоялаш тизими (ҳаво тўсиқлари)
9	Юкларни ортиш, тушириш ва кўтариш ускуналари (рохли, электр кара, штабелерлар ва ҳ.к.)

Д. Сифатни таъминлаш бўйича ҳужжатларни ўрганиш

№	Ҳужжатларнинг номлари
1	Процедураларни ҳужжатлаштириш
2	Жараёнларни ҳужжатлаштириш
3	Ходимларнинг лавозим йўриқномалари
4	Ходимларнинг GDP асосларини ўзлаштириш бўйича сертификатлари
5	Омбор мудирининг дипломи ва малакасини оширилганлик ҳужжатлари
6	Ваколатли шахснинг дипломи ва малакасини оширилганлик ҳужжатлари
7	Хоналарнинг ҳарорати ва намлигини қайд этиш журналлари
8	Тозалаш ишларини қайд этиш журналлари

2-Илова.

ТЕХНИК ТОПШИРИҚ

Дори воситаларини улгуржи сотувчи компаниялар учун GDP - "Good Distribution Practice" ("Яхши тарқатиш амалиёти") стандартини жорий этиш бўйича хизматлар

Мижоз ҳақида маълумот:.....

Лойиҳа мақсадлари: GDP сертификати учун объектни инспекция жараёнига тайёрлаш.

Буюртма қилинган хизматлар: GDP талабларига мувофиқ ҳужжатларни ишлаб чиқиш ва ходимларни ўқитиш ишлари амалга оширилмоқда.

Буюртмани бажариш муддати: Шартнома имзоланганидан сўнг 1 ой мобайнида.

Лойиҳа бўйича бажариладиган ишлар:

Бажариладиган ишлар	Тақдим этиш шакли ва усули	Ҳужжат ҳажми (саҳифа сони)
Корхонага биринчи марта борганда бажариладиган ишлар		

Жараённинг асосий иштирокчилари (ваколатли шахс, омбор мудир ва бошқалар) билан суҳбат ўтказиш, уларнинг GDP стандарти бўйича малакаси, билими ва қўникмаларини аниқлаш		
Мавжуд асбоб-ускуналарнинг рўйхатини тузиш, уларнинг ҳолатини текшириш ва уларга тегишли бўлган ҳужжатларни ўрганиб чиқиш		
Ходимлар, жараёнлар ва тартиб-қоидаларга оид ҳужжатларни ўрганиш		
Омбор ва ёрдамчи биноларни, ҳудуд ва биноларнинг кадастр ҳужжатларини кўздан кечириш ва таҳлил қилиш		
Номувофикликларнинг дастлабки рўйхатини тузиш, Ваколатли шахсга ёзма хабар бериш ҳамда Мижоз ходимлари томонидан мазкур номувофикликларни бартараф этиш муддатларини муҳокама қилиб белгилаш		
Консалтинг компаниясининг офисидаги ишлар		
Стандарт операцион процедуралар (СОП) рўйхатини тузиш ва СОП лойиҳаларини ишлаб чиқиш		
Мижоз биноларида муайян ҳаракатларни қайд этиш учун зарур бўлган шакл намуналарини тайёрлаш		
Корхонада бошқарувнинг ташкилий тузилмасини ҳисобга олган ҳолда лавозим йўриқномалари лойиҳалари тузиш		
Мижоз ходимларига йўриқномалар лойиҳаларини тузиш		
Журналлар лойиҳалари тайёрлаш		
Сифат бўйича қўлланманинг лойиҳасини ишлаб чиқиш		
Объектнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда бошқа маъмурий ҳужжатларни тайёрлаш		
Мижоз ходимларни ўқитиш дастурларин тайёрлаш		
Корхонага кейинги ташрифлар пайтида бажариладиган ишлар		

Хоналар, ускуналардаги номувофикликларни тузатилишини текшириш		
Мижоз ходимларига GDP стандарти бўйича тайёрланган ҳужжатлар лойиҳаларини тақдим этиш		
Мижознинг масъул ходимлари билан GDP стандарти бўйича ҳужжатларининг лойиҳаларини якка тартибда муҳокама қилиш		
Буюртмачининг масъул ходимларини ўқитиш		
Ҳужжатлардан фойдаланиш, уларни тўлдириш ва назорат қилиш бўйича ҳар бир масъул ходим билан ишлаш		
GDP стандарти бўйича ҳужжатлар ва жараёнлар (шу жумладан, СОП лар), ҳамда дори воситаларини қабул қилиш, сақлаш ва жўнатишнинг ҳужжатларни тушуниши ва билиши юзасидан масъул ходимларни сўровдан ўтказиш		
GDP стандарти бўйича объектнинг текширувга тайёрлигини аниқлаш		
GDP стандарти бўйича инспекция жараёни		
GDP стандарти бўйича ташқи мустақил текширув учун ваколатли шахс билан биргаликда ҳужжатлар тўпламини тайёрлаш		
Аниқланган ва қайд этилган номувофикликлар билан ишлаш		
Текширув давомида аниқланган номувофикликлар, уларни бартараф этиш муддатлари ва масъул шахслар тўғрисида Ваколатли шахс билан Маслаҳатчи иштирокида муҳокама ўтказиш		
Тузатишлар жараёнини мониторинг қилиш, уларни ваколатли органга юбориш муддатларига риоя этилишини назорат қилиш		
GDP стандарти бўйича объектнинг қайта текширувга тайёрлигини аниқлаш		

Боғланиш учун масъул шахс: : (Ф.И.Ш., лавозими, телефон рақами ва электрон почта манзили)

«БҲЮРТМАЧИ»	«ИЖРОЧИ»
-------------	----------

Yuldasheva Dilnoza Bekturodovna – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, dilyuldasheva83@gmail.com

O'ZBEK TILINING DIALEKTLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek tilining turli dialektlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. O'zbek tili, keng tarqalgan va boy tarixga ega bo'lib, mintaqaviy farqlar tufayli bir nechta dialektlarga ega. Dialektlar talaffuz, grammatika, leksika va uslub jihatidan farq qiladi. Har bir dialektning o'ziga xos talaffuz shakllari, grammatik strukturalari va so'z boyliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, dialektlar orqali madaniyat, tarix va ijtimoiy aloqalar qanday aks etishi ko'rib chiqiladi. O'zbek tilining dialektal xilma-xilligi milliy identitetni saqlash, tilni rivojlantirish va xalq og'zaki ijodini ommalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada dialektlarning ahamiyati va ularni saqlash zaruriyati ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Dialektlar, O'zbek tili, talaffuz, tovushlar, grammatik, xos xususiyatlari.

Аннотация: В данной статье анализируются различные диалекты узбекского языка и их особенности. Узбекский язык, широко распространенный и имеющий богатую историю, имеет несколько диалектов из-за региональных различий. Диалекты различаются по произношению, грамматике, словарному запасу и стилю. Анализируются уникальные модели произношения, грамматические структуры и словарный запас каждого диалекта. Он также исследует, как диалекты отражают культуру, историю и социальные отношения. Диалектное разнообразие узбекского языка играет важную роль в сохранении национальной самобытности, развитии языка, популяризации народного творчества. В статье также подчеркивается важность диалектов и необходимость их сохранения.

Ключевые слова: Диалекты, узбекский язык, произношение, звуки, грамматика, особенности.

Abstract: This article analyzes the various dialects of the Uzbek language and their unique characteristics. The Uzbek language, which has a widespread and rich history, has several dialects due to regional differences. Dialects differ in pronunciation, grammar, lexicon, and style. The unique pronunciation forms, grammatical structures, and vocabulary of each dialect are analyzed. It also examines how culture, history, and social connections are reflected through dialects. The dialectal diversity of the Uzbek language plays an important role in preserving national identity, developing the language, and popularizing folk folklore. The article also highlights the importance of dialects and the need to preserve them.

Keywords: Artificial intelligence, accounting, automation, reporting, digital document, service.

O'zbek tili — dunyodagi eng yirik turkiy tillardan biri bo'lib, o'zining boy tarixi va madaniy merosiga ega, ular ma'lum bir hududdagi insonlarning madaniyati, tarixi va yashash tarzini aks ettiradi. O'zbek tilining dialektlari asosan to'rt asosiy guruhga ajratiladi: shimoliy, janubiy, sharqiy va g'arbiy dialektlar. Har bir dialekt o'zining fonetik o'zgarishlari, maxsus so'z boyligi va sintaksis

xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada O'zbek tilining dialektlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va tildagi roli haqida batafsil ma'lumot beriladi.

O'zbek tili dialektlari asosan geografik joylashuvga, etnik guruhlariga va tarixiy rivojlanish jarayonlariga qarab ajratiladi. Ularni quyidagi asosiy guruhlariga bo'lish mumkin:

Shimoliy dialektlar - Bu dialekt, asosan, Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida so'zlashiladi. Shimoliy dialektning o'ziga xos xususiyatlari orasida talaffuzning ancha to'g'ri va harflarning qayd etilishi muhim ahamiyatga ega. Masalan, bu dialektda "q" va "k" tovushlari aniq talaffuz qilinadi. Shimoliy dialektda ba'zi so'zlarning o'ziga xos talaffuzi mavjud, shuningdek, ba'zi morfologik o'zgarishlar ham kuzatiladi. Janubiy dialektlar (Buxoro, Surxondaryo, Xorazm va Tojikistonning janubiy qismlarida).

Janubiy dialekt - Janubiy O'zbekiston (Qoraqalpog'iston, Surxondaryo, Farg'ona vodiysi) hududida keng tarqalgan. Ushbu dialektda o'ziga xos leksik va fonetik xususiyatlar mavjud. Masalan, janubiy dialektda "a" tovushi o'ziga xos tarzda talaffuz qilinadi, shuningdek, "e" va "o" tovushlari orasidagi farqlar ba'zan kamroq farqlanadi. Leksik jihatdan, bu dialektda arabcha va forsiy so'zlar ko'proq ishlatiladi.

G'arbiy dialektlar - G'arbiy O'zbekistonda, xususan, Qoraqalpog'iston, Xorazm viloyatlarida so'zlashiladi. G'arbiy dialektda "k" va "g" tovushlarining talaffuzi o'ziga xos tarzda farqlanadi. Boshqa dialektlar bilan solishtirganda, g'arbiy dialektda ko'proq arabcha va forsha so'zlar uchraydi, bu hududlarning tarixiy aloqalariga ishora qiladi.

chiqarish rivojlanishining ob'yektiv qonunlari asosida yo'naltirilgan tarzda ta'sir o'tkazish tizimi, har bir ishchining va butun jamoaning mehnatini bir vaqtning o'zida nazorat qilish, motivatsiya va tartibga solish usulidir. Moddiy boyliklar va ne'matlar hamda ularga tenglashtirilgan qadriyatlarni taqsimlash, iste'mol qilish va ayirboshlash ham boshqaruvni talab qiladi.

Mehnat taqsimoti va uning ijtimoiy tavsifini kuchaytirishda boshqaruvni, mustaqil faoliyat shaklida alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Bundan korxonalar va iqtisodiyot miqyosida maxsus boshqaruv tizimlarining vujudga kelishi va faoliyat yuritishiga ob'yektiv zaruriyat kelib chiqadi. Bunday tizim o'zining gorizontal va vertikal aloqalari bilan birga fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, shuningdek, siyosiy kayfiyatlar va ishlab chiqarish munosabatlaridagi o'zgarishlar ta'siri ostida doimiy harakatda va yangilanishda bo'ladi. Shu sababli, boshqaruvni baholash va tahlil qilish jarayonida, biz iqtisodiyot rivojlanishining har bir tarixiy bosqichida shakllanuvchi boshqaruv tizimini o'rganamiz.

Boshqaruv tizimi deganda nimani tushunish lozim? Agar jamiyatning butun iqtisodiy tizimini oladigan bo'lsak, uning tarkibiga kiruvchi ko'plab kichik tizimlarni - tarmoqlar, korxonalar, birlashmalar va hokazolarni ko'rishimiz mumkin. Ularning har birini ikki jihatdan: mustaqil faoliyat yuritish nuqtai nazaridan yoki butun birlikning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Masalan, korxona (firma) mustaqil boshqaruv tizimi yoki tarmoqning (ishlab chiqarishning) bo'linmasi, bo'g'ini sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Bunga bog'liq bo'lgan holda boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi, uning vazifalari va funksiyalari shakllantiriladi


Amaliyotda shu narsa isbot qilinganki, boshqaruvning juda ham yirik tashkiliy strukturasi bozor iqtisodiyotida maqsadga muvofiq bo'lmaydi. U kutilgan natijalarni bermaslikdan tashqari, boshqaruv qarorlarini bajarishda muammolarning yuzaga kelishiga, boshqaruvning yakuniy maqsadini oraliq vazifalar bilan almashib ketish xavfi kuchayishiga olib keladi.

O'zaro aloqada va ma'lum jihatdan bir-biriga bo'ysinuvchi bo'lgan boshqaruv ob'yektlari va sub'yektlari faoliyatning alohida ko'rinishi sifatida boshqaruvning muhim elementlari hisoblanadi.

Korxonada boshqaruvning ta'siri boshqaruv ob'yektiga yo'naltirilgan bo'lib, ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish jarayonlari, ishlab chiqarish uskunalarini ekspluatatsiya qilish, turli miqyosdagi mehnat kooperatsiyasi va hokazolar boshqaruv ob'yekti bo'lishi mumkin. Boshqaruv sub'yekti esa qoidaga ko'ra, korxona rahbari yoki boshqaruv ob'yektlarini maqsadli ravishda boshqarishni amalga oshiruvchi xizmat rahbarlaridir (1.1-rasm).

Boshqaruv ob'yektlari va sub'yektlari doimo o'zaro aloqada bo'lib, bunda asosiy o'rin boshqaruv ob'yektiga, ya'ni boshqaruvchi tizimga ajratiladi. Boshqaruv ob'yektining mazmuni, unda yuz berayotgan o'zgarishlar boshqaruv sub'yekti vazifalari va harakatlarini belgilab beradi. Bu esa boshqaruv shakllari va usullarini mukammallashtirishda aks etadi. Albatta, bu boshqaruv sub'yektlarining passivligini anglatmaydi, aksincha, boshqaruv tizimining bo'limlari shu boshqaruv


tizimining eng faol qismini tashkil etadi va tavsiflaydi. Aynan boshqaruv sub'yekti ishlab chiqarish resurslari va asbob-uskunalaridan foydalanish siyosatini belgilaydi, ishlab chiqarish vositalarining ishchi kuchi bilan birlashuviga ko'maklashadi. Ya'ni korxonaning nima, qachon, qayerda, kimga ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan siyosati, birinchi o'rinda boshqaruv sub'yekti tomonidan hal qilinadi. Shu sababli, boshqaruv ob'yektlari va sub'yektlari orasidagi aloqa, jumladan, ularning ichki tashkil qilinishi qanchalik mustahkam bo'lsa, bir xil sharoitlarda ishlab chiqarish hamda boshqaruv tizimining samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.



1.1-rasm. Boshqaruv ob'yekti va sub'yektining o'zaro ta'siri.

Boshqaruv faoliyati - boshqaruvchi shaxs yoki organ tomonidan boshqaruv amallarini bevosita va bilvosita komandalar (buyruq, tavsiya va ko'rsatmalar) shaklida ishlab chiqish va amalga oshirishdir (1.2-rasm). Boshqaruv amallari ishlab chiqarish jarayonining yakunlanishi uchun moddiy shart-sharoit vazifasini bajaradi. Aytish mumkinki, boshqaruv amallari boshqaruv faoliyati va natijalari o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi.

Faoliyatning ushbu turi ahamiyati, aynan boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida korxonaning joriy va istiqboldagi siyosati shakllanishida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan kadrlarni to'g'ri tanlash va joylashtirish, ularning malakasi, o'zlariga yuklatilgan vazifalarni to'g'ri tushunishlari ham muhim ahamiyatga egadir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, hozirgi boshqaruvchilar uchun yaxshi muhandis, texnolog, konstruktor bo'lishning o'zigina kamlik qilib, ishlab chiqarish iqtisodiyoti, biznes-strategiya, marketing, xo'jalik huquqi va shu kabilarni bilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat ushbu bilimlar majmuasiga va boy mehnat tajribasiga ega bo'lgan taqdirdagina boshqaruvchilar bozor iqtisodiyoti vazifalarini muvaffaqiyatli ravishda bajarishlari mumkin.



1.2-rasm. Boshqaruv faoliyati va amallarining o‘zaro munosabatlari.

Faoliyatning ushbu turi ahamiyati, aynan boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida korxonaning joriy va istiqboldagi siyosati shakllanishida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan kadrlarni to‘g‘ri tanlash va joylashtirish, ularning malakasi, o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni to‘g‘ri tushunishlari ham muhim ahamiyatga egadir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, hozirgi boshqaruvchilar uchun yaxshi muhandis, texnolog, konstruktor bo‘lishning o‘zigina kamlik qilib, ishlab chiqarish iqtisodiyoti, biznes-strategiya, marketing, xo‘jalik huquqi va shu kabilarni bilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat ushbu bilimlar majmuasiga va boy mehnat tajribasiga ega bo‘lgan taqdirdagina boshqaruvchilar bozor iqtisodiyoti vazifalarini muvaffaqiyatli ravishda bajarishlari mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati sub'yektlarining, jumladan, ulardagi boshqaruv faoliyatining o‘zining samaradorligini oshirishda, ishlab chiqarishning alohida elementlari va bo‘g‘inlari o‘rtasida yuzaga keluvchi boshqaruv munosabatlari muhim o‘rin egallaydi. Bu yerda boshqaruv organi (sub'yekti) yoki boshqaruvchi shaxs tomonidan boshqariluv organiga nisbatan ta’sir ko‘rsatishning o‘zigina kamlik qiladi. Boshqarilayotgan ob’yektdan boshqaruv ob’yektiga javob tariqasida teskari aloqa ham bo‘lishi zarur. Agar bunda teskari aloqa bo‘lmasa yoki boshqaruv organi tomonidan qabul qilinmasa, boshqarilayotgan ob’yekt nazorat ostidan chiqishi hamda boshqarilmaydigan ob’yektga aylanishi mumkin.

Bu vazifa amalda boshqaruvning har bir elementi yoki bo‘g‘ini tomonidan ma’lum bir vazifani bajarishni ko‘zda tutuvchi bir-biriga bo‘ysinuvchanlik tizimi yordamida bajariladi. Ya’ni gap korxona direktori, bosh muhandisi va boshqalardan, to‘g‘ri boshliqlari va boshqa ishlab chiqarish bo‘linmalarining boshliqlarigacha - korxonaning boshqaruvchilari yoki maxsus xizmatlariga yuklatiluvchi funksional vazifalar haqida bormoqda. Munosabatlarning bunday

ko‘rinishdagi bir-biriga bo‘ysinuvchanligi boshqaruv tizimining samarali tarzda faoliyat yuritishi uchun muhim shart hisoblanadi.

Shu tariqa, boshqaruv tizimi ishlab chiqarish samaradorligiga erishish va korxonaning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashda muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan bir paytda ishlab chiqarish samaradorligining o‘shirish sur‘ati, qabul qilingan yoki amalga oshirilayotgan boshqaruv tizimi progressivligining o‘lchovi xizmatini ham o‘taydi. Bundan kelib chiqqan holda, qo‘yilgan maqsadga qisqa muddatda va ishlab chiqarish resurslaridan unumli foydalangan holda yaqinlashish darajasini korxonani boshqarish samaradorligining bevosita mezon sifatida ko‘rsatish mumkin. Bugungi bozor munosabatlari sharoitida boshqaruv tizimi birinchi o‘rinda korxonaning barqarorligini ta‘minlashi, xo‘jalik tavakkalchiligini kamaytirishi, sifatli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga ko‘maklashishi zarur. Shuningdek, u xodimlarning o‘z mehnatlari natijasiga qiziqish darajasi ortishiga, ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar va yo‘qotishlarga yo‘l qo‘ymaslikka hamda mehnat va ishlab chiqarish intizomini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim.

Korxona yopiq tizim bo‘lmaganligi sababli, boshqaruv tizimiga korxonada yuzaga keluvchi ichki muhitdan tashqari, tashqi muhit, avvalo, aholining turmush tarzi, jamiyat qurilmasi, davlat siyosati va hokazolar ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Biroq har qanday holda ham boshqaruv tizimi, xo‘jalik hayotining zamonaviy talablari va korxonaning raqobatchilik muhitidagi barqarorligiga javob berishi lozim.

Korxonani boshqarishda samaradorlikka erishish uchun, avvalo, boshqaruvning maqsadlari, shuningdek, vositalari va unga erishish usullarini aniq belgilab olish zarur. Shu bilan bir paytda, boshqaruv maqsadlari tushunarli bo‘lishdan tashqari, ular barcha bajaruvchilar tomonidan amalga oshirilishiga ham e‘tibor berish lozim. To‘g‘ri qo‘yilgan maqsad korxona rahbarining, shuningdek, butun jamoa va har bir xodimning manfaatlarini ifodalaydi. Bunday natijaga maqsad korxonaning joriy va istiqboldagi rivojlanishi bo‘yicha vazifalar majmuasining bir bo‘lagiga aylangan holda erishish mumkin. Bunday yondashuv, ishlab chiqarish maqsadining ishlab chiqarishni boshqarish bilan moslashuvini ta‘minlovchi eng qisqa yo‘lga olib keladi. Bunday moslashuv esa, boshqaruvning ham tizim sifatida, ham alohida faoliyat turi sifatida maqsadga muvofiqligidan darak beradi.

Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarini boshqarish faoliyatida avvalambor maqsad qo‘yiladi. Maqsadlar har qanday faoliyatning rivojlanishini belgilab beruvchi yo‘nalishdir. Maqsadlarning turli ko‘rinishlarda tavsiflash mumkin. Korxonani boshqarishning maqsadlarini quyidagi turlarga bo‘lib tasniflashimiz mumkin:

1. Amalga oshirish muddatiga ko‘ra - joriy va istiqbolli.
2. Ahamiyat darajasiga ko‘ra - asosiy (strategik) va ikkinchi darajali (taktik).
3. Boshqaruv ob‘yektiga munosabatiga ko‘ra - xususiy va umumiy.
4. Natijaga erishish darajasiga ko‘ra - yakuniy va oraliq yoki bosqichli.

Boshqaruv jarayonida joriy maqsadlarni istiqboldagi maqsadlarga, xususiy maqsadlarni umumiy maqsadlarga, oraliq maqsadlarni yakuniy maqsadlarga mos kelishi va bo'ysinishini ta'minlash zarur. Asosiy maqsadlarni amalga oshirishga ko'proq e'tibor qaratish kerak. Korxona yoki unga tenglashtirilgan xo'jalik sub'yektlarini boshqarish faoliyati to'laligicha shu vazifalarni bajarishga qaratilishi lozim. Asosiy maqsadni ikkinchi darajali vazifalardan ajrata olish qobiliyati, zamonaviy menedjerlarning eng muhim professional ko'rsatkichlaridan biridir.

Boshqaruv jarayoni asosan davriy (siklik) xarakterga ega bo'ladi. U maqsad va vazifalarni belgilash bilan boshlanib, ularni bajarish, ya'ni muayyan bir natijalarga erishish bilan tugallanadi. Natijalar to'g'risida (maqsadga erishish darajasi) olingan axborotlar asosida yangi vazifalar belgilanadi va boshqaruv sikli qaytadan boshlanadi. Bunday sikllarning soni bir nechta bo'lib, ular birinchi o'rinda boshqaruv ob'yekting o'ziga xos xususiyatlari va boshqa ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi.

Ijobiy natijaga erishishga qaratilgan qarorni to'g'ri qabul qilish uchun bu qarorni qabul qilish oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan natijalarni oldindan ko'ra bilish, rivojlanish istiqbollarning turli variantlariga to'g'ri baho berish zarur. Bu esa korxonani boshqarishning asosiy strategik vazifalarini belgilab beradi. Ular qatoriga nafaqat maksimal daromad olishni, balki ishlab chiqarishni qayta ta'mirlash va modernizatsiyalashtirish, iste'molchilar talabiga javob beruvchi zamonaviy mahsulotlarni ishlab chiqarish, faoliyat yo'nalishlarini bugungi kun va kelajakdagi istiqbolarini e'tiborga olib belgilash ham kiritiladi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон-2030 стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сонли Фармони. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2022 йил.

© Platform & Workflow by: Open Journal Systems.

3. Kazakov Olim Sabirovich. Issues improvement management of production enterprises. INTERNATIONAL JOURNAL ON ECONOMICS, FINANCE AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT E-ISSN: 2620-6269. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD>. Vol. 5 No. 2 | February 2023

4. Kazakov Olim Sabirovich. MANAGEMENT OF THE ECONOMIC POWER OF BUSINESS ACTIVITIES AND ITS IMPACT ON ITS EFFICIENCY. Journal of Pharmaceutical Negative Results | Volume 13 | Special Issue 6 | 2022
<https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/5743/7083>

5. Competitive environment, quality and its management in the digital economy. OS Kazakov, S Valijonov The American Journal of Applied sciences 3 (04), 119-125.

XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLASHTIRISH - DAVR TALABI

Annotatsiya: ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, shu jumladan, xizmat ko'rsatish sohasidagi holatini tahlil qilishga harakat qilindi, xizmat ko'rsatish sohasini takomillashtirish masalalari qarab chiqildi va ularni yanada barqaror rivojlantirish bo'yicha ayrim takliflar berildi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, xizmat ko'rsatish sohasi, pullik xizmat ko'rsatish, maishiy xizmatlar, xizmat ko'rsatish sohasi subyektlari.

Аннотация: в статье делается попытка анализировать состояние всех отраслей национальной экономики, в том числе, сферы оказания услуг в условиях цифровой экономики и рассмотрены вопросы совершенствования субъектов сферы оказания услуг и даны некоторые предложения по их совершенствованию.

Ключевые слова: цифровая экономика, информационные технологии, сферы оказания услуг, платное оказание услуг, бытовые услуги, субъекты сферы оказания услуг.

Annotation: the article makes an attempt to analyze the state of all sectors of the national economy, including the sphere of providing services in the digital economy, and considers the issues of improving the subjects of the sphere of providing services and gives some suggestions for their improvement.

Keywords: digital economy, information technology, service delivery, paid services, consumer services, service providers.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar sohasining jadal rivojlanishi raqamli iqtisodiyotni shakllantirdi. Bu kam o'rganilgan va chuqur ildiz otgan iqtisodiyot-ishlab chiqaruvchilar uchun tadbirkorlik va ijtimoiy sohalarda samarali marketing faoliyatini tashkil etish, xarajatlarni minimal darajaga tushirish, maksimal daromad olish, tovarlarni muvaffaqiyatli sotish va xizmatlarni ko'rsatish uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish - bu barcha mamlakatlar milliy iqtisodiyoti va, albatta, hozirgi kunga kelib, uning muhim sohasiga aylanib ulgurgan xizmat ko'rsatish uchun ham dolzarb masala bo'lib hisoblanadi.

Nima sababdan shunday? Raqamli iqtisodiyotning o'zi nima va uning xizmat ko'rsatish sohasiga ta'siri nimalarda namoyon bo'ladi? O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy jihatlari, uning xizmatlar sohasiga ta'siri, rivojlanish tendensiyalari, o'zgarishlari va ularni hayot talablariga moslashtirish jarayonlari holatiga qanday baho berilayapti? Mazkur maqolada shu kabi savollarga, sohadagi mavjud muammolar va ularning yechimiga asosiy e'tibor qaratildi.

Ilmiy adabiyotlar va matbuot sahifalarida raqamli iqtisodiyotning turli xil ta'riflari mavjud bo'lib, xorijiy manbalarning birida “raqamli iqtisodiyot - raqamli axborot texnologiyalari va iqtisodiy agentlarning o'zaro aloqasi” (1), boshqasida “internetga ulangan xo'jalik subyektlari faoliyati” (2), ayrimlarida “raqamli texnologiyalar, shuningdek, tegishli mahsulot va xizmatlarni yaratish, tarqatish va ulardan foydalanish faoliyati” (3) sifatida ta'riflab o'tilgan.

Bu kabi ta'riflar raqamli iqtisodiyotning mohiyatini aniq va to'liq ifodalab bermaydi, chunki raqamli iqtisodiyotni faqatgina internet va texnologiyalar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyat sifatida qarash, unchalik yetarli emas.

Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyotni yuqorida ko'rsatib o'tilgan ta'riflardagi elementlardan tashqari, har bir mamlakatning milliy iqtisodiyotidagi barcha tarmoqlarda va ijtimoiy hayot sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini yaratish, joriy qilish va ulardan samarali foydalanish natijasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish, deb ta'riflansa to'laroq va to'g'riroq bo'lar edi.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va unga o'tishdan kutilayotgan asosiy maqsad - bu axborot texnologiyalari tizimini rivojlantirish asosida har qanday strategik vazifalarni hal qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni optimal boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish darajasida shakllantirish orqali har bir mamlakat milliy iqtisodiyotini optimal darajada rivojlantirishib, aholining moddiy farovonligini ta'minlashdir.

Hisob-kitoblarga ko'ra, raqamli iqtisodiyotga o'tish korxonalarning mehnat unumdorligini oshirish, ularning ish samaradorligini ta'minlash, ishlab chiqarishni kengaytirish, faoliyatning shaffofligini ta'minlash va mahsulot hajmini oshirish bilan birga uning tannarxini sezilarli darajada pasaytiradi. Bu uning eng katta ustunligidir.

Turli mamlakatlarning ekspert guruhlarida ishtirokida ochiq va moslashuvchan modellar asosida milliy iqtisodiyotning raqamli texnologiyalar yordamida rivojlanishi bo'yicha samarali va dolzarb tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

Raqamli texnologiyalar sohasida rivojlangan mamlakatlar erishgan yutuqlar boshqa davlatlar uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda. Buning natijasida dunyo aholisi kompyuter va internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lib, ularning xizmatlaridan keng foydalanmoqda. Albatta, hozirgi hayotimizni kompyuter va internet xizmatlarisiz tasavvur qilish qiyin.

Raqamli iqtisodiyot insoniyat manfaatlariga xizmat qiladi va barcha sohalarni keng ko'lamli qamrab oladi. Bu kabi iqtisodiyot yangi bilim va ko'nikmalar, aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash uchun tubdan yangi chora-tadbirlar, sifat jihatidan yangi mehnat va dam olish munosabatlarini talab qiladi.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini barcha tarmoq va sohalarga, jumladan, davlat boshqaruvi, sanoat, qishloq xo'jaligi, biznes, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa xizmatlar sohasiga keng joriy qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot iste'molchilarga sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi va boshqa bir qator qulayliklar yaratadi. Bu aholiga istalgan paytda issiq ovqat yetkazib berish, taksi chaqirish, yaqinlaringizga pul jo'natish, transchegaraviy biznes hamkorligi, elektron tijorat kabi qulayliklarni o'z ichiga oladi.

Raqamli iqtisodiyotga o'tishning asosiy maqsadi nima? Bu har bir mamlakatning milliy iqtisodiyotini optimal darajada rivojlantirish va shu orqali xalqning moddiy farovonligini ta'minlashdir.

Raqamli texnologiyalarni tezkor joriy qilish, mamlakatlar uchun barcha ijtimoiy sohalar va sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishidir. Hisob-kitoblarga ko'ra, raqamli iqtisodiyotga o'tish kompaniyalar samaradorligini oshirish, ularning faoliyatini optimallashtirish, ishlab chiqarishni ko'paytirish, shaffoflikni ta'minlash, mahsulot hajmini oshirish va narxini keskin qisqartirish imkonini beradi. Bu uning eng katta afzalligi hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar sohasida erishilgan muvaffaqiyatlar rivojlangan mamlakatlarda qisqa vaqt ichida amalga oshirildi va bu boshqa mamlakatlar uchun namuna bo'ldi. Bunday sa'y-harakatlar natijasida jahon aholisiga kompyuter va internetga kirish imkoniyati yaratildi hamda ular keng ko'lamda foydalanishni boshladilar, chunki bugungi kunda hayotimizni kompyuterlar va internet xizmatlarisiz tasavvur qilibo'lmaydi.

Dunyoning turli mamlakatlaridan turli guruh mutaxassislarining ishtiroki bilan raqamli texnologiyalarni rivojlantirish uchun ochiq va moslashuvchan modellardan foydalanish bo'yicha, shuningdek, har bir mamlakatning raqamli texnologiyalar asosida milliy iqtisodiyotini rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha yuqori samarali va dolzarb tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Shu bilan birga, insoniyat raqamli texnologiyalarning beminnat xizmatidan mahrum bo'lishi mumkin edi.

Raqamli iqtisodiyotning umumiy manfaatlar uchun xizmat qilishi va katta miqyosda barcha sohalarni qamrab olishi tabiiy jarayon bo'lib bormoqda. Bunday iqtisodiyot yangi bilim va ko'nikmalarni, yangi ijtimoiy himoya choralari, mehnat va dam olish munosabatlarining sifat jihatdan yangi shakllarini talab qiladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek: "Yangi asrda raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijoratni tutuvchi raqamli iqtisodiyotning shakllanishi tendentsiyaviy tus oladi. Jahonning yetakchi mamlakatlarida raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotning 4-5%ini ta'minlamoqda, jahondagi savdo aloqalarining 15 foizdan ko'prog'i uning hissasiga to'g'ri kelmoqda"(4).

Raqamli iqtisodiyot mamlakatlarning barcha iqtisodiy tarmoqlarini qamrab oladi va uning ta'siri bevosita xizmat ko'rsatish sohasiga ta'sir qiladi. Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi, albatta, milliy iqtisodiyot va aholi talabiga qarab oshadi, ammo bu jarayonlarda tovarlar va xizmatlar taklifining o'rni ham muhim rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Xizmatlar sohasini rivojlantirish, xizmatlar ulushini yalpi ichki mahsulot shakllanishida oshirish, taqdim etiladigan xizmatlar tarkibini tubdan o'zgartirish, zamonaviy yuqori texnologiyalar asosida islohotlarni amalga oshirish" masalalari iqtisodiy o'sishning muhim yo'nalishi sifatida belgilangan (5).

Xizmatlar sektorining hajmi samaradorlikni oshirish yoki kamaytirish bo'yicha asosiy omildir. Mamlakat iqtisodiyotining holati, ayniqsa, kichik va o'rta biznesning ahamiyati iqtisodiy qudratning oshishida va aholining turmush darajasida muhim rol o'ynaydi. Bu esa xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, bandlikni ta'minlaydi va ish qilish istagini oshiradi.

Qashqadaryo viloyatidagi xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning faoliyatini tahlil qilish natijasida viloyatning tumanlari o'rtasida aholi boshiga xizmat hajmi

bo'yicha sezilarli farqlar mavjudligi aniqlangan. Bu farqlar Qarshi va Shahrisabz shaharlarida sezilarli darajada yuqori.

Buning asosiy sababi viloyatdagi qishliq tumanlaridan Qarshi va Shahrisabz shaharlariga ish kuchi migratsiyasi, shuningdek, bu shaharlarda mahalliy ishlab chiqarish va xizmatlar sohaslarida ish o'rinlarining yetarli miqdorda yaratilishi hisoblanadi. Hatto yashash joyi boshqa tumanlarda bo'lsa ham, migrantlar uchun ish o'rinlari Qarshi va Shahrisabz tumanlarida mavjud.

Mamlakatning gaz va neft kabi foydali qazilmalarning katta qismi Qashqadaryo viloyati hissasiga to'g'ri kelgani sababli, mintaqaning respublika budjetiga qo'shgan ulushi katta, chunki gaz rentasining 80 foizidan ko'pi ushbu mintaqaga tegishli va gaz sohasida ish bilan ta'minlanganlar tomonidan to'langan daromad solig'i davlat budjetiga yo'naltiriladi (6).

Bundan tashqari, respublika budjetiga to'lanishi kerak bo'lgan soliqning bir qismi mintaqada qolishi xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga yordam beradi. Ushbu resurslarni viloyatdagi eng kambag'al tumanlarda maxsus dasturlarni amalga oshirish, qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish va bandlikni yaxshilash uchun yo'naltirish imkoniyati mavjud.

2018-2023 yillarda viloyatdagi xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlarini tahlil qilishda, uy-joy va pullik xizmatlar hajmi o'sganligi aniqlandi, ammo yuqorida aytib o'tilganidek tumanlar bo'yicha farqlar mavjud. Viloyatda 2018-yilda aholi jon boshiga uy-joy xizmatlari hajmi o'rtacha 96429 so'mni, 2023-yilda esa 161714 so'mni tashkil etgan yoki 2023-yilda 2018-yilga nisbatan 1,7 barobarga oshgan. Viloyatda aholi jon boshiga pullik xizmatlar hajmi 2018-yilda o'rtacha 837,4 ming so'mni, 2023-yilda esa 1994,2 ming so'mni tashkil etgan yoki 2023-yilda 2018-yilga nisbatan 2,4 barobarga oshgan (7).

Maqolada o'rganilgan fikrlar va izohlar asosida quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

- raqamli iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash sifatida ta'riflash lozim, bunda zamonaviy raqamli axborot texnologiyalarini mamlakatning milliy iqtisodiyoti tarmoq va sohaslariga joriy qilish va undan samarali foydalanilish;

- raqamli texnologiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy manbaidir;

- raqamli texnologiyalarni rivojlantirish orqali mehnat mahsuldorligi oshadi va milliy korxonalarning raqobatbardoshligi yuqori bo'ladi;

- raqamli texnologiyalarni joriy etish va tez rivojlantirish yordamida xo'jalik yuritish subyektlari talabni oldindan bashorat qilish, jarayonlarni optimallashtirish va boshqa faoliyatlarni takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu, o'z navbatida, mutaxassislar talablari o'zgarishiga olib keladi;

- raqamli iqtisodiyot milliy iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohaslarini qamrab oladi va uning ta'siri bevosita xizmat ko'rsatish sohasiga ta'sir qiladi. Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi, albatta, milliy iqtisodiyot va aholi talabiga qarab oshadi, ammo bu jarayonlarda tovarlar va xizmatlar taklifining o'ri ham muhim rol o'ynaydi;

-O'zbekiston raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha barcha talab va qoidalarni to'liq bajarayapti, shu bilan birga, yanada murakkab vazifalar yuzaga kelmoqda, ularning kompleks yechimi milliy korxonalarning innovatsion faolligini oshiradi va raqamli texnologiyalarni to'liq shakllantirish uchun zamin yaratadi;

-Qashqadaryo viloyatida aholiga uy-joy va pullik xizmatlar ko'rsatuvchi subyektlar soni yildan-yilga oshmoqda. Ularning ko'pchiligi raqamli iqtisodiyotning innovatsiyalari bilan chambarchas bog'liqdir, masalan, gaz, suv va elektr energiyasini iste'mol qilishni aniq o'lchaydigan «aqlli» hisoblagichlarning o'rnatilishi, biznes va aholi uchun qulay bo'lib hisoblanadi;

-xizmatlar hajmi va sifatining oshishi, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya jarayonlarining tez rivojlanishi aholi farovonligining yuqori darajasini yaratish uchun asos yaratadi;

-raqamli texnologiyalarni ishlatish, salohiyatli investitsiya muhitidan tashqari, uning rivojlanishiga sharoit yaratadi;

-raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi va rivojlanishi orqali mehnat unumdorligi oshadi, milliy korxonalar raqobatbardosh bo'ladi, ijtimoiy farovonlik ta'minlanadi va xizmat ko'rsatish sohasining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi uchun poydevor yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Evropian Commision (2014). 4-bet.
- 2.Australion Goverment (2009).11-bet.
- 3.The Economist. (2014). 17-bet.
- 4.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.-Toshkent, "O'zbekiston", 2022, 175-bet.
- 5.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.-Toshkent, "O'zbekiston", 2022, 133-bet.
- 6.Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining 2023 yill yakuni bo'yicha materiali.
- 7.Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining 2023-yill yakuni bo'yicha materiali.
- 8.Yangiboyev B.Ya.Raqamli iqtisodiyot: taraqqiyot sari yo'l. Monografiya, Samarqand: "Fan bulog'i", 2022, 259-bet.

Ismoilova Feruza Kubaymurodovna – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasida mustaqil izlanuvchi, feruzakubaymurodovna@gmail.com

TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINING MOHIYATI VA O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim xizmatlari bozorida integratsiya jarayonlarning nazariy asoslari o'rganilib, bugungi kunda integratsiya jarayonining mohiyati va uning asosiy yo'nalishlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, iqtisodiyot, ta'lim, xizmatlar bozori, talab, hamkorlik, kasbiy ta'lim, innovatsiya

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы интеграционных процессов на рынке образовательных услуг, освещается сущность интеграционного процесса и его основные направления на сегодняшний день.

Ключевые слова: интеграция, экономика, образование, рынок услуг, спрос, сотрудничество, профессиональное образование, инновации

Abstract. This article examines the theoretical foundations of integration processes in the educational services market and highlights the essence of the integration process and its main directions today.

Keywords: integration, economy, education, services market, demand, cooperation, vocational education, innovation

Zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida ta'lim xizmatlari bozori globallashuv va innovatsion texnologiyalar ta'sirida jadal rivojlanmoqda. Ushbu jarayonda ta'lim muassasalari, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi integratsiya muhim o'rin tutadi. Integratsiya ta'lim xizmatlari bozorining samaradorligini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini beruvchi jarayon hisoblanadi. Shu o'rinda integratsiya deganda qanday jarayonlarni tushunamiz. Integratsiya (lotincha *integration-tiklash, to'ldirish, integer* – butun so'zidan)-bu suveren davlatlar o'rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni hisoblanadi.

Integratsiya jarayonlari makro va mikroiqtisodiyotning zamonaviy hamda istiqbolli rivojlanishini belgilab beruvchi hodisa va hodisalar orasida ustun shu o'rida, ustuvor o'rinni egallaydi. Iqtisodiyotda integratsiya o'zaro ta'sir jarayoni, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, iqtisodiy faoliyatni baynalmilallashtirish shaklidir. Integratsiya jarayoniga erishish uchun ishlab chiqarish va texnologik aloqalarni ko'paytirish va chuqurlashtirish, resurslardan birgalikda foydalanish, kapitalni birlashtirish, birgalikda iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish va iqtisodiy to'siqlarni bartaraf etishda namoyon bo'ladi.

Integratsiya iqtisodiyotdagi mehnat taqsimoti va kooperativ aloqalarning eng yuqori darajasi natijasida tadbirkorlik amaliyotining o'zaro ta'siri va o'zaro bog'liqligi namoyon bo'lishining eng yuqori shakli sifatida ishlaydi. Ta'lim xizmatlari bozorida integratsiya jarayonlarning nazariy asoslarini tahlil qilishda quyidagi jarayonlar muhim sanaladi.

Birinchidan, integratsiya ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Turli ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarning hamkorligi natijasida zamonaviy ta'lim dasturlari ishlab chiqiladi, ilg'or pedagogik texnologiyalar joriy etiladi hamda amaliyot bilan nazariya o'rtasidagi bog'liqlik mustahkamlanadi.

Ikkinchidan, ta'lim xizmatlari bozorida integratsiya iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Ta'lim tizimi va sanoat o'rtasidagi hamkorlik natijasida ish beruvchilarning ehtiyojlariga moslab kadrlar tayyorlanadi.

Uchinchidan, xalqaro integratsiya ilmiy va ta'lim hamkorligini kengaytiradi. Akademik mobillik dasturlari, qo'shma ta'lim dasturlari va xalqaro grant loyihalari natijasida o'qituvchi va talabalar xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

To'rtinchidan, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishda integratsiyaning o'рни katta. Masofaviy ta'lim, onlayn kurslar va sun'iy intellektdan foydalanish orqali ta'lim xizmatlari bozori yanada kengayib, bilim olish imkoniyatlari ortadi.

Ta'lim xizmatlari bozorida integratsiya jarayonlari zamonaviy ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish va global ta'lim maydonida mamlakatning mavqeini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida yuzaga keladigan o'quv vaziyatlarining integratsiyasi uning samaradorligini oshirish zarurati bilan bog'liq bo'lib, u talabalarning bilim sifatini oshirish, ularni kengaytirish va chuqurlashtirish, ulardan foydalanish qobiliyatini oshirishdan iborat bo'lishi kerak.

Hozirgi vaqtda integratsiya jarayonlari asosan mintaqaviy xususiyatga ega. Integratsiya jarayonlarining asosiy sababi ichki bozorlarning torligi va raqobatga dosh berishga intilishdir. Ta'lim tizimi va mehnat bozori integratsiyasi muhim vazifalarni bajaradi: kasbiy ta'limning ma'lum darajasida inson salohiyati va kapitalini shakllantirish; shaxsning o'z qobiliyatlaridan erkin foydalanish va iqtisodiy faoliyatning istalgan turini tanlash bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish.

Ta'lim muassasalari tizimi tomonidan o'qish yo'nalishlarini belgilashda shaxsning ehtiyojlari va aholining bandlik ehtiyojlari o'rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi. Ta'lim xizmatlari bozori va mehnat bozori o'rtasidagi idoralararo tarqoqlikning yuzaga kelayotgan ta'siri mamlakat mehnat resurslarini rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda.

Integratsiyaning asosiy mazmuni butunlikka erishish ya'ni, turli qismlar o'zaro bog'liqlik asosida bir butun tizimga birlashish, muvofiqlashtirish va hamkorlik yani, turli sub'ektlar, tashkilotlar yoki davlatlar o'rtasidagi hamkorlik va o'zaro manfaatdorlik asosida birgalikda ishlash jarayonida namoyon bo'ladi.

Mamlakatda ta'lim tizimida integratsiya jarayonining rivojlanishi ijtimoiy hamda axborot kommunikatsiya sohalarining o'zaro tizimli aloqadorligini, ilmfanning istalgan yo'nalishida kuzatilayotgan integratsiya jarayonlarning barchasi jamiyatning zamonaviy ta'limni oldiga qo'ygan talablarini qondirishga qaratilgan o'quv-tarbiya jarayoni samarasini ta'minlashning ustuvor strategiyasini belgilaydi.

Integratsion jarayonlarni to'g'ri tashkil etish evaziga ta'lim tizimida quyidagi ijobiy o'zgarishlar yuz beradi:

- ta'lim sifatining oshishi;
- ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi ortishi;
- o'quv dasturlarining moslashuvchanligi va xalqaro standartlarga mos kelishi;
- bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish darajasining oshishi.

Integratsion jarayon taraqqiyotning ajralmas qismi bo'lib, u turli tizimlarning birlashuvi orqali samaradorlikni oshirish va global muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. Uning mohiyati uyg'unlik va rivojlanishga qaratilgan bo'lib, har bir sohada barqarorlik va samaradorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim xizmatlari bozorida integratsiya jarayonlarini samarali tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish muhim sanaladi:

Birinchidan, ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ya'ni, universitetlar, kollejar va maktablar o'rtasida qo'shma dasturlar va akademik almashinuv mexanizmlarini rivojlantirish jarayonlarini to'g'ri tashkil etish.

Ikkinchidan, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish ya'ni, xususiy sektorning ta'lim tizimiga investitsiyalar kiritishini rag'batlantirish va kadrlar tayyorlash jarayonini mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadida ish beruvchilar bilan hamkorlikni mustahkamlash.

Uchinchidan, innovatsion texnologiyalarni joriy etish ya'ni, masofaviy va raqamli ta'lim platformalarini rivojlantirish orqali ta'lim sifati va sun'iy intellekt, big data texnologiyalaridan foydalangan holda individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish.

To'rtinchidan, xalqaro hamkorlik va akademik mobillikni kengaytirish ya'ni, chet el universitetlari bilan qo'shma diplom dasturlarini ishlab chiqish va talabalar, professor-o'qituvchilar uchun davlatlar o'rtasida almashinuv dasturlarini moliyalashtirishni to'g'ri tashkil etish.

Beshinchidan, ta'lim dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish ya'ni, zamonaviy kasblar va kelajakda talab yuqori bo'ladigan yo'nalishlar bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish shu o'rinda, bitiruvchilarni ishga joylashtirish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash uchun davlat va soha korxonalari bilan hamkorlikni kengaytirish.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi ta'lim xizmatlari bozorining samaradorligini oshirishga, ta'lim sifati va raqobatbardoshligini kuchaytirishga, integratsiya jarayonlarini xalqarolashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevori. -T.: "Tasvir", 2021. -13 bet
2. Веснин В.Р. Управление персоналом. Теория и практика.-Москва:Проспект 2011. - 688 с.
3. Волгин А.П. Управление персоналом в условиях рыночной экономики: Учебник-Москва 2009.
4. Usmonov B.Sh. Qodirov M.Q., Eltazarov J.D. Inson kapitalining shakllanishida ta'lim va ilm-fanning roli. T.: "Fan va texnologiyalar", 2015. -200 bet.
5. Xasanova.G. Oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni. Academic Research in Educational Sciences. 2021.
6. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xadjibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: Darslik. -T.: Baktria, 2015.-124 bet.
7. Шевченко, Д.А. Таълим хизматлари маркетинг стратегиясининг хусусиятлари. Россияда ва чет элда маркетинг. 2005, 111 бет
8. Mamedov O.Yu. Innovatsion iqtisodiyotning siri uning innovatsion tashkil etilishidadir. Rostov davlat universitetining iqtisodiy axborotnomasi. 2009, 26 bet

Eshimov Sardor Tulqin o'g'li – Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti, “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrası magistranti, E-mail: sardoreshimov2002@gmail.com

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya: Xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishi iqtisodiyotni zamonaviy qayta qurish ishlarini muvaffaqiyatli yakunlashning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Ko'pgina xizmat ko'rsatish sohalari kelajakda iqtisodiyotning faoliyat yuritishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatning ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Bu eng avvalo fan va ilmiy xizmatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, axborot xizmatlari va boshqalarni rivojlantirishdir.

Kalit so'zlar: Barqaror iqtisodiy rivojlanish, xizmatlar sohasi, transport va moliyaviy xizmatlar, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari, ish o'rinlari yaratish.

Аннотация: Бурное развитие сферы услуг считается неотъемлемой частью успешного завершения современной реконструкции экономики. Многие сферы услуг имеют большое значение для функционирования экономики в будущем и стали движущей силой научно-технического и социально-экономического развития страны. Прежде всего, это развитие науки и научных услуг, образования, здравоохранения, культуры и искусства, информационных услуг и т.д.

Ключевые слова: Устойчивое экономическое развитие, сектор услуг, транспорт и финансовые услуги, образование и здравоохранение, создание рабочих мест.

Abstract: The rapid development of the service sector is considered an integral part of the successful completion of the modern reconstruction of the economy. Many service sectors are of great importance for the functioning of the economy in the future and have become the driving force of the country's scientific, technical and social economic development. First of all, this is the development of science and scientific services, education, healthcare, culture and art, information services, etc.

Key words: Sustainable economic development, services sector, transportation and financial services, education and healthcare services, job creation.

Barqaror iqtisodiy rivojlanishda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Xizmat ko'rsatish korxonalari iqtisodiyotning samaradorligini oshirish, aholining turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Xizmatlar sohasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Mamlakatimizda ham bu borada ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 11-maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-5113-son qarori,¹¹ hamda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan vazifa va topshiriqlar keltirib o'tilgan.

2021 — 2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari de;b quydagilar belgilandi. Iqtisodiy o'sishni

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.05.2021 yildagi PQ-5113-son

ta'minlashda xizmatlar sohasini muhim drayverga aylantirish va 2023-yilga qadar xizmatlar hajmini ikki baravarga oshirish. Aholiga tayyor biznes rejalar va loyihalar taqdim etish, ularni kasbga o'qitishdan tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oluvchi "kompleks xizmatlar" ko'rsatishni tashkil etish. Respublikada xizmatlar sohasining rivojlanganligini baholash tizimini joriy etish orqali davlat organlari va tashkilotlarining bu boradagi faoliyati samaradorligini oshirish va mansabdor shaxslarning mas'uliyatini kuchaytirish.

Xizmatlar sohasida ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, har bir hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib xizmatlar turlarini kengaytirish, hududlarda, ayniqsa qishloq joylarda transport, moliyaviy, shuningdek, bank, turizm hamda savdo xizmatlari qamrovini kengaytirish. Respublikaning barcha hududlarida mavjud ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari salohiyatini oshirish, ularning sifatini yaxshilash, bunda xususiy sektorni jalb qilish uchun qulay iqtisodiy va infratuzilmaviy sharoitlarni yaratish chora tadbirlari o'z ichiga oladi. 2021–2023-yillarda Samarqand viloyatida xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha maqsadli prognoz ko'rsatkichlariga et'tibor qaratadigan bo'lsak aks ettiradi.¹² Umumiy xizmatlar o'sish sur'ati 2020-yilda xizmatlar hajmi 14 318,7 mlrd. so'm bo'lgan. 2023-yilga kelib, bu ko'rsatkich 134,4% o'sishi kutilgan bo'lib, natijada xizmatlar hajmi 2,1 baravar oshadi. Eng yuqori o'sish sur'atiga ega sohalar sog'liqni saqlash xizmatlari – 2023-yilga kelib 2,5 baravar oshishi kutilmoqda (141,8% o'sish). Bu tibbiy xizmatlarga bo'lgan talab oshayotganini ko'rsatadi. Yashash va ovqatlanish xizmatlari – 2,4 baravar o'sish (139,4%), bu esa mehmonxona va restoran sektorining rivojlanayotganini bildiradi. Moliyaviy xizmatlar – 2,3 baravar o'sishi prognoz qilingan (139,6%), bu esa bank va moliyaviy institutlarning rivojlanishiga ishora qiladi. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 2,2 baravar o'sish (136,4%), bu esa raqamli texnologiyalar va IT xizmatlariga talab ortayotganini anglatadi. Eng past o'sish sur'atiga ega sohalar. Ba'zi xizmat turlari nisbatan pastroq o'sish sur'atiga ega: Shaxsiy xizmatlar – 133,0%, kompyuter va maishiy texnika ta'mirlash – 133,5%, me'morchilik va texnik izlanishlar – 130,8% va boshqa xizmatlar – 131,0% ni tashkil etgan.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan ajratiladigan mablag'larning tijorat banklari kesimida tahlilini pastdagi 1-rasmda ko'rishimiz mumkin.

¹² <https://lex.uz/ru/docs/-5421233>

Bank nomi taqsimot mlrd so'm) JAMI: 1 575
“O‘zmilliybank” AJ 400
“O‘zsanoatqurilishbank” ATB 325
“Ipotekabank” ATIB 175
“Qishloq qurilish bank” ATB 150
AT “Aloqabank” 150
“Turonbank” ATB 150

1-rasm Xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan ajratiladigan mablag‘larning tijorat banklari kesimida¹³

Quyida barqaror iqtisodiyotni shakllantirishda ximat ko'rsatish sohasini rivojlantirish ahamiyatini va uning asosiy jihatlarni ko'rib chiqamiz:

1. Xizmat ko'rsatish sohasining barqaror iqtisodiyotni shakllantirishdagi ahamiyati Yangi ish o'rinlarini yaratish. Xizmatlar sohasi eng ko'p bandlikni ta'minlaydigan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Mehmonxona, restoran, transport, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi sohalarda ko'plab yangi ish o'rinlari yaratiladi. Ishsizlik darajasini kamaytirishga va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

2. Iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlash. Faqat sanoat va qishloq xo'jaligiga bog'liq bo'lmagan iqtisodiyot barqaror bo'ladi. Xizmatlar sohasi rivojlangan davlatlarda YalMning katta qismini tashkil qiladi. Samarqand viloyati misolida ham xizmatlar sektori yalpi hududiy mahsulotning sezilarli qismini shakllantiradi.

3. Innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotni rag'batlantirish. Axborot texnologiyalari, moliyaviy texnologiyalar (fintech), elektron savdo va raqamli xizmatlar iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki beradi. Raqamli transformatsiya xizmatlarning yanada samarali bo'lishiga yordam beradi.

4. Tashqi investitsiyalar va turizmni rivojlantirish. Xizmatlar sohasi, ayniqsa turizm va mehmonxona biznesi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Samarqand viloyati tarixiy shahar bo'lib, xizmatlar sohasi rivojlantirilsa, turizm daromadlari keskin oshadi.¹⁴

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish imkoniyatlari.

1. Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish. Elektron tijorat (e-commerce) va onlayn xizmatlar – internet orqali xizmat ko'rsatish hajmini oshirish. Fintech va raqamli bank xizmatlari – moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish orqali aholining bank xizmatlariga kirish imkoniyatini kengaytirish. IT xizmatlari va dasturiy ta'minot ishlab chiqish – axborot texnologiyalari sohasida startup va IT parklarni kengaytirish.

¹³ <https://lex.uz/ru/docs/-5421233>

¹⁴ <https://yuz.uz/uz/news/xizmat-korsatish-sohasini-rivojlantirish-boyicha-qoshimcha-choralar-belgilandi>

2. Turizm va mehmonxona biznesini rivojlantirish. Ekoturizm va madaniy turizmni targ'ib qilish – Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarda turizm xizmatlarini kengaytirish. Xalqaro miqyosdagi mehmonxona tarmog'ini rivojlantirish – turistik oqimni oshirish uchun mehmonxona va dam olish maskanlarini ko'paytirish. Mahalliy bizneslarni qo'llab-quvvatlash – sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi kichik va o'rta korxonalarni rivojlantirish.

3. Transport va logistika xizmatlarini takomillashtirish. Yo'lovchi va yuk tashish xizmatlarini kengaytirish – xalqaro va ichki transport xizmatlarini modernizatsiya qilish. Elektron logistika tizimlarini rivojlantirish – yuk tashish jarayonlarini avtomatlashtirish. Aeroport va temir yo'l infratuzilmasini yaxshilash – xalqaro aloqalarni mustahkamlash.

4. Ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarini rivojlantirish. Xususiy universitetlar va o'quv markazlarini ko'paytirish – malakali kadrlar tayyorlash. Tibbiy turizmni rivojlantirish – xorijiy bemorlarni jalb qilish uchun zamonaviy shifoxonalar ochish. Onlayn ta'lim va tibbiy konsultatsiyalarni rivojlantirish – aholi uchun masofaviy xizmatlar ko'rsatish.

5. Moliya va bank xizmatlarini kengaytirish. Iste'mol kreditlari va biznes kreditlari hajmini oshirish – tadbirkorlikni rivojlantirish. Sug'urta xizmatlarini kengaytirish – moliyaviy barqarorlikni ta'minlash. Kriptovalyuta va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish – zamonaviy moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish.

6. Qishloq hududlarida xizmatlar sohasini rivojlantirish. Qishloq joylarda savdo va xizmat ko'rsatish markazlarini tashkil etish – mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash. Dehqon va fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish tizimini kengaytirish – qishloq xo'jaligida innovatsion xizmatlarni joriy etish. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun logistika va bozor infratuzilmasini yaxshilash – mahsulot yetkazib berish tizimini takomillashtirish.

7. Xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va investitsiyalar jalb qilish. Xususiy bizneslar uchun imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratish – xizmatlar sohasida yangi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash. Chet el investitsiyalarini jalb qilish – xalqaro kompaniyalarning O'zbekistonda filiallarini ochish. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini rivojlantirish – strategik xizmatlar sohasida davlat va xususiy sektor hamkorligini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, xizmatlar sohasini rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, turizm, transport, ta'lim, sog'liqni saqlash va moliyaviy xizmatlarni kengaytirish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirish mumkin. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari va xususiy sektor bilan hamkorlik bu sohaga yangi imkoniyatlar yaratadi.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning kengayishi aholining turmush darajasini yaxshilash, bandlikni oshirish va iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga xizmat qiladi. O'zbekiston tajribasida transport, turizm, moliya, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi yo'nalishlarni rivojlantirish orqali xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda

raqamli texnologiyalarni joriy etish, xususiy biznesni qo'llab-quvvatlash, qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish infratuzilmasini kengaytirish kabi chora-tadbirlar xizmatlar sohasining jadal rivojlanishiga turtki bermoqda. Ayniqsa, turizm, moliyaviy xizmatlar va sog'liqni saqlash sohalarida yuqori o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. Kelajakda xizmatlar sektorining yanada rivojlanishi uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xizmatlar sohasi mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, xalqaro bozorlarga chiqish va eksport hajmini oshirish uchun kuchli drayver bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, xizmat ko'rsatish sohasining har tomonlama rivojlanishi O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.05.2021 yildagi PQ-5113-son
2. <https://lex.uz/ru/docs/-5421233>
3. <https://yuz.uz/uz/news/xizmat-korsatish-sohasini-rivojlantirish-boyicha-qoshimcha-choralar-belgilandi>
4. <https://anhor.uz/uzl/news/xizmat-korsatish-sohalarini-rivojlantirish/>.

Акмал Рахимович Валижонов – Хусусийлаштириш ва давлат активларини бошқариш муаммоларини тадқиқ этиш маркази, и.ф.н., катта илмий ходим, e-mail research@davakitiv.uz

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДА ХУСУСИЙЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация: Маърузада хизмати кўрсатиш соҳасида хусусийлаштириш масалалари тадқиқ этилган. Ишда хизмат кўрсатиш тушунчаси ва турлари таҳлил этилиб, ушбу соҳада хусусийлаштиришнинг хориж тажрибаси қисқача келтирилган. Тадқиқот натижалари бўйича Ўзбекистонда хизмат кўрсатиш соҳасида хусусийлаштиришнинг асосий вазифалари белгилаб берилган.

Калит сўзлар: соҳа, хизмат кўрсатиш, хусусийлаштириш, давлат, тартибга солиш, қонун, мулк.

Аннотация: В докладе рассматриваются вопросы приватизации в сфере оказания услуг. В работе анализируются понятие и виды услуг, а также кратко представлен зарубежный опыт приватизации в этой сфере. По результатам исследования определены основные задачи приватизации в сфере услуг.

Ключевые слова: сфера, услуга, приватизация, государство, закон, регулирование, право, собственность.

Abstract: The article discusses the issues of privatization in the service sector. The work analyzes the concept and types of services, and briefly presents the foreign experience of privatization in this area. Based on the results of the study, the main tasks of privatization in the service sector were identified.

Key words: sphere, service, privatization, state, legal regulation, property.

Ўзбекистонда мустақилликнинг дастлабки йилларидан мулкый муносабатларни ислоҳ қилиш, хусусий мулкни ривожлантиришнинг

хукукий ва иқтисодий асосларини яратиш, иқтисодиётда кўп укладликни ҳамда эркин рақобат муҳитини шакллантиришга жиддий эътибор қаратилди. Маълумки, собиқ иттифоқ даврида барча ишлаб чиқариш воситалари давлат мулки ҳисобланган. Шу маънода, республикада бозор ислохотларини амалга ошириш биринчи навбатда, давлат мулкини қисқартириш ва уни самарали хусусий секторга ўтказиш масалаларини ҳал этиш учун кенг кўламли хусусийлаштириш дастурларини амалга оширишни талаб этар эди. Ўзбекистонда хусусийлаштириш масалаларига жаҳон тажрибаси чуқур ўрганилиб, республикада бозор иқтисодиётини шакллантириш моделининг хусусиятларини эътиборга олиб ёндошилди.

Хусусийлаштириш соҳасидаги дастлабки қонун **1991 йил 19 ноябрда қабул қилинган бўлиб, у “Давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш тўғрисида” деб аталади.** Мустақиллик йилларида давлат мулкини хусусийлаштириш бўйича салмоқли ишлар амалга оширилди. Шу билан бирга бугунда хусусийлаштиришнинг хукукий асосларини такомиллаштириш, ҳақоро тажрибадан келиб чиқиб хусусийлаштиришнинг янги усулларини жорий этиш, хусусийлаштириш жараёнини очиқ ва шаффофлигини ошириш зарурати вужудга келди. Шу муносабат билан **2024 йил 14 февралда Ўзбекистон Республикасининг “Давлат мулкини хусусийлаштириш тўғрисида”ги Қонуни қабул қилинди. Қабул қилинган Қонун аввалги, яъни 1991 йил 19 ноябрдаги “Давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш тўғрисида”ги Қонундан мазмун ва моҳияти жиҳатдан тубдан фарқ қилади.**

“Давлат мулкини хусусийлаштириш тўғрисида”ги Қонуни 9 та боб ва 45 та моддадан иборат. Қонунга мувофиқ давлат мулкини хусусийлаштириш — давлат мулкини ушбу Қонунда назарда тутилган тартибда жисмоний ва нодавлат юридик шахсларга реализация қилиш тушунилади. Хусусийлаштириш олдига қўйилган вазифаларни самарали ҳал этишда иккита асосий масалага эътибор қаратиш лозим. Биринчидан, давлат мулкини кимга хусусий мулк сифатида бериш. Иккинчидан, давлат мулкини қандай шартларда ва усуллар орқали бериш.

Хизмат кўрсатиш соҳаси мамлакатимиз иқтисодиётида алоҳида ўрин тутиб ялпи ички маҳсулотнинг салмоқли қисмини ташкил этади.

Хизмат - бу мижоз ёки истеъмолчининг эҳтиёжларини қондиришга қаратилган фаолият натижасидир. Уларнинг товарлардан фарқи шундаки, улар қўл билан ушлаб бўлмайди, сақланмайди, манбадан ажралмайди ва доимий бўлмаган сифатга эга. Хизмат кўрсатиш соҳаси иқтисодиётнинг энг муҳим тармоқларидан бири бўлиб, у турли хил фаолият турларини ўз ичига олади: таълим, соғлиқни сақлаш, транспорт, туризм, алоқа, молия ва бошқалар. Хизматлар иқтисодий ривожланишда катта роль ўйнайди, чунки улар унумдорликни ошириш, инновациялар, рақобатбардошлик, ҳаёт сифатини яхшилаш ва ижтимоий тараққиётга ҳисса қўшади.

Хизмат кўрсатиш соҳаси ишлаб чиқариш ва истеъмолга мўлжалланган ҳам моддий, ҳам номоддий хизматлар кўрсатиш фаолиятини ўз ичига олади.

Хизматлар қўлланиш соҳаси бўйича қуйидагиларга бўлинади:

Ишлаб чиқариш соҳасида: моддий неъматларни яратиш, ўзгартириш, қайта ишлаш ва утилизация қилиш билан боғлиқ. Масалан, инжиниринг, лизинг, ускуналарга хизмат кўрсатиш ва ҳ.к.

Тақсимлаш соҳасида: моддий бойликларни кўчириш, етказиб бериш, сақлаш ва сотиш билан боғлиқ. Масалан, савдо, транспорт, алоқа ва ҳ.к.

Истеъмол соҳасида: истеъмолчиларнинг турли хил талабларини қондириш билан боғлиқ. Масалан, таълим, соғлиқни сақлаш, туризм, кўнгилочар ва ҳ.к.

Тартибга солиш соҳасида: жамиятда тартиб, ҳуқуқ, хавфсизлик ва барқарорликни ўрнатиш ва қўллаб-қувватлаш билан боғлиқ хизматлар.

Хорижда хизмат кўрсатиш соҳасини хусусийлаштириш кўпинча рақобатни ошириш, сифатни яхшилаш ва давлат харажатларини камайтириш ғоясига асосланади. Давлат инфратузилма ва хизматларни бошқариш ҳуқуқини хусусий компанияларга бериб, янги технологиялар, бозор механизмлари ва рақобат жараёнларини жорий этиш орқали самарадорликни оширишга ҳаракт қилади.

Ғарб дунёсининг аксарият мамлакатларида хизмат кўрсатиш соҳасини хусусийлаштириш 1980 йилларда бошланган. Хусусан, сув таъминоти, энергетика, транспорт, соғлиқни сақлаш ва таълим каби соҳаларга энг катта эътибор қаратилган.

Хизмат соҳасида хусусийлаштиришнинг Буюк Британия тажрибасини ўрганиш аҳамиятга молик. Бу мамлакат XX аср охирида хизматларни хусусийлаштириш кенг ислоҳот доирасида амалга оширилган давлатлардан биридир. Энг ёрқин мисоллардан бири 1990 йилларда темир йўл транспортини хусусийлаштиришдир. Бунда давлат компаниялари бир нечта хусусий операторларга бўлинди ва инфратузилмани бошқариш мустақил давлат компанияси Network Rail қўлида қолди. Ислоҳот операторлар ўртасидаги рақобатни кучайтиришга қаратилган бўлса-да, инфратузилмага инвестициялар етишмаслиги ва истеъмолчилар учун юқори нархлар танқидга учради.

Ўзбекистонда савдо, автотранспорт хизматлари, маиший хизмат, умумий овқатланиш каби хизмат турлари билан шуғулланувчи корхонлар хусусийлаштиришнинг дастлабки босқисларида, яъни 1992-1997 йилларда хусусийлаштирилди.

Бугунги кунда давлат иштироки темир йўл ва авиация ҳамда банк хизматлар соҳасида юқори даражада сақланиб қолмоқда. Ушбу соҳаларда хусусийлаштириш орқали давлат иштирокини қисқартириш ва хусусий секторни ривожлантириш масалаларига давлат мулкни хусусийлаштириш дастурларини ишлаб чиқишда эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ.

Хизмат кўрсатиш соҳасида хусусийлаштириш жараёнини ривожлантиришнинг асосий вазифлари қуйидагилардан иборат бўлиши керак:

хизмат кўрсатиш соҳасида давлат иштирокини қисқартириш ва соҳада хусусий секторни ривожлантиришга шароитлар яратиш;

соҳанинг монополлашув даражасини олдини олиш ва хизмат кўрсатишда эркин рақобтни ривожлантириш;

соҳага хусусий инвестицияларни киритиш орқали кўрсатилаётган хизматлар сифатини ошириш;

хизмат кўрсатиш соҳасида ўзини-ўзи тартибга солувчи институтларни ривожлантириш орқали кўрсатилаётган хизматларнинг нархини ошиб кетишини олдини олиш.

Xalikova Lola Nazarovna - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti i.f.d., (DSc),
Yuldashev Shamsiddin Qiyamiddinovich - Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi dotsenti, i.f.n

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH – FAROVONLIK OMILI SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash sharoitida barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish orqali kambag‘allikni ikki barobarga qisqartirish, aholi turmush sifatini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni baholash, iqtisodiyotda raqobat muhitini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlariga teng sharoitlar yaratish, bozor munosabatlariga to‘laqonli o‘tishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish kabi masalalarga lozim bo‘lgan chora-tadbirlar yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: taraqqiyot strategiyasi, biznesni rivojlantirish, kambag‘allik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, oziq-ovqat, suv, sog‘liqni saqlash, ta’lim, xizmatlardan foydalanish.

Аннотация: В этой статье даются практические предложения и рекомендации по мерам, необходимым для достижения устойчивого экономического роста в контексте обеспечения социально-экономического развития нового Узбекистана, таких как вдвое сокращение бедности, оценка факторов, влияющих на повышение качества жизни населения, развитие конкурентной среды в экономике, создание равных условий для субъектов предпринимательства, ускорение полного перехода к рыночным отношениям, повышение конкурентоспособности национальной экономики.

Ключевые слова: стратегия развития, развитие бизнеса, бедность, малый бизнес, частное предпринимательство, продовольствие, вода, здравоохранение, образование, доступ к услугам.

Abstract. This article provides practical proposals and recommendations on measures necessary to achieve sustainable economic growth in the context of ensuring socio-economic development in the new Uzbekistan, such as reducing poverty by half, assessing the factors affecting the improvement of the quality of life of the population, developing a competitive environment in the economy, creating equal conditions for business entities, accelerating the full transition to market relations, and increasing the competitiveness of the national economy.

Keywords: development strategy, business development, poverty, small business, private entrepreneurship, food, water, healthcare, education, access to services.

Kambag‘allik bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar oldida turgan jiddiy muammo bo‘lib, uni sezilarli darajada kamaytirish, kambag‘allik siklini buzish va turmush darajasini yaxshilash uchun yo‘naltirilgan va barqaror harakatlarni talab qiladi. Daromad uni o‘lchash va baholash uchun eng ko‘p

qo'llaniladigan mezon bo'lsa-da, kambag'allik ko'p qirrali bo'lib, oziq-ovqat, suv, sanitariya, sog'liqni saqlash, boshpana, ta'lim, xizmatlardan foydalanish va inson huquqlari kabi farovonlikning turli jihatlarini o'z ichiga oladi.

Yangi O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash sharoitida inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish orqali kambag'allikni ikki barobarga qisqartirish, aholi turmush sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni baholash, iqtisodiyotda raqobat muhitini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlariga teng sharoitlar yaratish, bozor munosabatlariga to'laqonli o'tishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish kabi masalalarga ustuvor darajada ahamiyat qaratilmoqda.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, 2026 yil oxiriga qadar mamlakatda kambag'allik darajasini ikki barobarga kamaytirish rejalashtirilmoqda.

Bu yo'nalish mamlakatimizda 2020 yilda boshlangan edi. O'shanda 7,5 million yoki 23 foiz aholining daromadi kambag'allik chegarasiga yetmasdi. O'tgan yillarda 3,5 million odamni daromadli qilish orqali 2023 yil yakuni bilan kambag'allik darajasi 11 foiz **23.09.2024 yili** "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi prezident farmoni qabul qilindi.

Farmonga ko'ra, 2024 yilning qolgan davrida 500 ming, 2025 yilda 1 million nafar aholini kambag'allikdan chiqarish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining hamda barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi darajali vazifasi etib belgilandi.

Kambag'allikni qisqartirish sohasida erishilgan ijobiy natijalar va to'plangan milliy tajriba hamda ilg'or xalqaro amaliyot asosida har bir fuqaroni o'zi va farzandlari kelajagi uchun mas'uliyat bilan yondashishga undaydigan va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratishga qaratilgan "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi amalga oshiriladi hamda. Dastur 2024 yil 1 noyabrdan quyidagilarni nazarda tutuvchi "Kambag'al oilalar uchun yettita imkoniyat va mas'uliyat" tamoyili asosida amalga oshiriladi:

- barqaror bandlik va yuqori daromad topishga erishish;
- ta'lim olish va kasb-hunar o'rganish;
- kafolatlangan davlat tibbiy xizmatidan foydalanish;
- ijtimoiy xizmatlardan foydalanish;
- yashash sharoitlarini yaxshilash;
- davlat tomonidan mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish;
- davlat organlari xodimlari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish

So'nggi yillarda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buni Prezidentimizning ushbu so'zlari ham tasdiqlaydi: "Bundan buyon kambag'allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylanadi. Hukumatdan tortib, tuman tashkilotigacha barcha bo'g'indagi rahbarlarning kundalik ishi oilalarni kambag'allikdan olib chiqish bo'lishi kerak. Bu borada nazorat ham, so'rov ham qattiq bo'ladi".

17 yanvar 2025yilda davlatimiz rahbari aholi bandligini ta'minlash va yangi yondashuvlar asosida kambag'allikni qisqartirishga oid chora-tadbirlar taqdimoti bilan tanishar ekan, 2025 yil ishsizlik va kambag'allikni qisqartirishda hal qiluvchi yil bo'lishini ta'kidladi.

Shundan so'ng "2025 yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi (17.01.2025-yil PQ-12-son) Unga ko'ra, 2025-yilda aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash dasturi ijrosi doirasida 5,2 million aholini band qilish maqsadida: hududlarda aholi bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka jalb qilish va daromadlarini oshirish bo'yicha yangi yondashuvlarni keng joriy qilish, mahallalarda ehtiyojmand aholi qatlami bilan manzilli ishlashni tashkil etish va ijtimoiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish, mavjud resurslar, imtiyozlar va preferensiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish va kambag'allikni qisqartirishni maqsad qiladi.

Aholi daromadlari farqlanishiga bir qator iqtisodiy-ijtimoiy omillar ta'sirni ko'rsatadi:

- kishilarning qobiliyatidagi farqlanish;
- ma'lumotliligi, egallagan bilimi;
- mulkka egalik huquqining ko'payib borishi;
- mehnat intensivligi va samaradorlik;
- ish bilan bandlilik;
- oilalar soni va unda mehnatga layoqatlilar soni;
- kishilar ongida boqimandalikka munosabat.

Aholi turmush darajasini oshirish manbalari ijtimoiy dasturlarning amal qilishi uchun resurs hosil qilish omili hisoblanuvchi iqtisodiy o'sish bilan ijtimoiy taraqqiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik shakllanadi. Turmush darajasi hayot faoliyatiga moddiy shart-sharoitiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, hodisalar va jarayonlarni o'rganish hamda yechilishi muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini bashoratlashni talab qiladi.

Hududlarda aholi turmush sifatini yaxshilash mexanizmini takomillashtirish manbalari siftida turli ijtimoiy dasturlar, rejalar, chora-tadbirlar iqtisodiy o'sish bilan birga ijtimoiy taraqqiyot orasida uzviy bog'liqlikni ifodalaydi. Aholi turmush tarzi hayot faoliyatiga, moddiy shart-sharoitiga ta'sir ko'rsatuvchi jarayonlar, turli mexanizmlar, iqtisodiy dastaklarni qo'llashning o'ziga xos vositalari ta'sir ko'rsatadi.

Kishilar turmush tarzi bevosita ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lamini, ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, aholining madaniy-ma'rifiy saviyasi va tarkibi, milliy xususiyatlar, bularning barchasi, albatta, hukumat tomonidan qabul qilinadigan va amalga oshiriladigan chora-tadbirlar va harakatlar natijasiga bog'liq.

Har bir hududning rivojlanishini hisobga olgan holda, aholi daromadlarini oshirish va turmush darajasini yaxshilashda quyidagi yo'nalishlarga ustuvorlik berilishi lozim deb hisoblaymiz:

- mamlakatimizning barcha mintaqalarida biznesni rivojlantirish uchun yanada qulay ishchan muhit yaratish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari faoliyatini tartibga soladigan qonun hujjatlarini tanqidiy tahlil qilish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kreditlar, xomashyo resurslari, shuningdek, davlat xaridlari tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

– kichik biznesning eksport salohiyatini rivojlantirish uchun zarur tashkiliy, huquqiy, moliyaviy mexanizm va sharoitlar yaratish;

– yangi korxonalarni shakllantirish, ayniqsa qishloq joylarida ko‘plab ish

– o‘rinlarini vujudga keltirish;

– ishlab chiqarishga xorijiy investitsiyani jalb qilish.

Yuqorida aytganimizdek, jamiyat a‘zolari daromadlari darajasi ular turmush farovonligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanib, shu bilan birga alohida shaxslarning dam olishi, bilim olishi, sog‘lig‘ini saqlashi, eng zarur ehtiyojlarini qondirishi imkoniyatlarini belgilab beradi. Bu holatni kelgusida yanada barqaror bo‘lishi mazkur yo‘nalishlar doirasida oqilona va samarali ishlarni bajarilishi va yo‘lga qo‘yilishi bilan belgilanadi.

Barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash va aholi turmush sifatini oshirish bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Barqarorlik iqtisodiy o‘shish, aholi turmush sifati, aholi daromadi kabi ko‘rsatkichlar, ularni ijobiy o‘zgarishi bilan bog‘liq mexanizmini tizimli o‘rganish, aholi turmush darajasiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillardan samarali foydalanish zarur;

2. Iqtisodiy o‘shish, aholi turmush sifati ko‘rsatkichlari tizimi, iqtisodiy o‘shishga ta‘sir ko‘rsatuvchi soha va tarmoqlarni, omillar va manbalarni aniqlash asosida uning sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak;

3. Iqtisodiy o‘shishning yangi sifatiga erishishni ta‘minlash mexanizmi aholi daromadlarini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish imkonini beruvchi iqtisodiy jarayonlarning mikro (yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratish), mezzo (mehnat unumdorligini oshiruvchi mikroklasterlar tashkil etish) hamda makro (faol investitsiya siyosati yuritish) darajalaridagi dastaklarini vertikal uyg‘unlashtirish orqali takomillashtirish zarur;

4. Aholi turmush sifatini oshirish omili sifatida inson salohiyatidan maksimal foydalanish va hududlararo tafovutlarni kamaytirish orqali inklyuziv o‘shish mezonlaridan bo‘lgan kambag‘allik darajasini qisqartirish, institutsional o‘zgarishlar asosida makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashni tartibga solish mexnizmlarini uslubiy jihatdan takomillashtirish;

5. Aholi turmush farovonligini obe‘ktiv ko‘rsatkichlariga: aholi daromadi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari iste‘moli; aholini uy-joy bilan ta‘minlash; ijtimoiy infrastruktura bilan ta‘minlash; ta‘lim darajasi va sifati hamda aholi turmush sifatini sub‘ektiv jihatlarini aks ettiruvchi aholi madaniyati; aholini mamlakat miqyosida yashash sharoitlaridan qoniqish; aholini kelajak hayotga bo‘lgan ishonch darajasini kiritish orqali aniqlash zarur;

6. Respublikada iqtisodiy o‘shish darajasini oshirishda, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash zarur; iqtisodiy o‘shishni inklyuzivligini

ta'minlash, davlat boshqaruvi organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda strategiya va dasturlarni; aholi daromadlari tabaqalashuvini o'rganish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish zarur;

7. Aholi turmush sifatini oshirish omili sifatida inson salohiyatidan maksimal foydalanish va hududlararo tafovutlarni kamaytirish orqali inklyuziv o'sish mezonlaridan bo'lgan kambag'allik darajasini qisqartirish, institutsional o'zgarishlar asosida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashni tartibga solish mexanizmlari uslubiy jihatdan baholash reytingi asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha 3 ta indikator va 20 ta subindikator orqali natijalar oraliq mezonlari aniqlangan, o'sish sur'ati yuqori bo'lgan xududlar bo'yicha tasniflangan.

8. Kambag'allikni qisqartirish mexanizmlari– makroiqtisodiy tizimning iqtisodiy vositasi hisoblanib, bunda maqsadga erishish uchun yo'naltirilgan aniq dastaklar, chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Kambag'allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubiyotini, ijtimoiy ta'minotning minimal standartlari me'yoriy asoslarini ishlab chiqish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini samarali muvofiqlashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 12 sentyabrda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
2. Абдураманов Х.Х. Демография соҳасида иқтисодий хавфсизликни таъминлашнинг стратегик йўналишлари // Молия ва банк иши электрон илмий журнали. V сон. Сентябрь - октябрь, 2020. – 144-153 бетлар. https://journal.bfa.uz/maqola/BFA_maqola_5_son.pdf
3. Калонов М. "Камбағалликни қисқартириш: имконият ва ҳаракатлар қандай натижа беради?" «Халқ сўзи» газетасининг 2021 йил 11 февраль 30-сони.
4. Эрназарова Н.Н. Оилавий тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш орқали камбағалликни қисқартириш // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil. 253-258 бетлар. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/27_Ernazarova.pdf.

Narzullayeva Zuhra Abdullo qizi - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali tadqiqotchi talabasi, e-mail: narzullayevazuhra05@gmail.com,
Narzullayeva Fotima Abdullo qizi - Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchi talabasi, e-mail: narzullayevafotima77@gmail.com,

Tog'ayev Salim Sobirovich - "Moliya, soliq va bank ishi" kafedراس dotsenti, PhD

YASHIRIN IQTISODIYOTNI KAMAYTIRISH BO'YICHA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Annotatsiya: Maqolada yashirin iqtisodiyotni oldini olish bo'yicha joriy etilayotgan tizim turlari: soliq shaffofligi, raqamli texnologiyalar va boshqa shu kabi yangiliklar haqida ma'lumot beriladi.

Iqtisodiyot sohasida yashirin iqtisodiyot asta-sekin rivojlanib bormoqda va bunga doir eng yangi raqamli texnologiyalar joriy etilmoqda. Iqtisodiyotni bu tizimda davom etishi tashkilotlarning ichki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarining holatini tavsiflovchi koeffitsiyentlar to'planadigan umummilliy tizimni rivojlantirish vazifasi bilan qobiliyatlarni shakllantirishda salbiy vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Iqtisodiyotni yashirin iqtisodiyot shakliga o'zgartirish o'z tamoyillarini iqtisodiy jarayonlar to'g'risidagi yashirin ma'lumotlarni to'plash, saqlash va qayta ishlash tizimiga kiritadi. Shu munosabat bilan yashirin iqtisodiyotga o'tish jarayonida eng so'nggi talablar qo'yiladi.

Kalit so'zlar: yashirin iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, elektron to'lov tizimlari, nazorat, statistika, korxonalar, elektr-energiya, tamaki mahsulotlar, chek, eksport, import, soliq imtiyozlari.

Аннотация: В статье представлена информация о видах систем, внедряемых для предотвращения теневой экономики: налоговая прозрачность, цифровые технологии и другие подобные инновации. В сфере экономики постепенно развивается теневая экономика и в этой связи внедряются новейшие цифровые технологии. Продолжение экономики в этой системе создает негативные ситуации в формировании способностей с задачей разработки национальной системы, где собираются коэффициенты, описывающие состояние внутренних социально-экономических процессов организаций. Перевод экономики в форму скрытой экономики вводит ее принципы в систему сбора, хранения и обработки скрытой информации об экономических процессах. В связи с этим новейшие требования предъявляются в процессе перехода к теневой экономике.

Ключевые слова: теневая экономика, цифровые технологии, электронные платежные системы, контроль, статистика, предприятия, электроэнергия, табачные изделия, чеки, экспорт, импорт, налоговые льготы.

Abstract: The article provides information on the types of systems introduced to prevent the shadow economy: tax transparency, digital technologies, and other similar innovations.

In the field of economy, the hidden economy is gradually developing and the latest digital technologies are being introduced in this regard. The continuation of the economy in this system creates negative situations in the formation of abilities with the task of developing a national system where coefficients describing the state of internal socio-economic processes of organizations are collected. Changing the economy into a form of the hidden economy introduces its principles into the system of collecting, storing and processing hidden information about economic processes. In this regard, the latest requirements are set in the process of transition to the underground economy.

Keywords: underground economy, digital technologies, electronic payment systems, control, statistics, enterprises, electricity, tobacco products, checks, exports, imports, tax incentives.

Maqolamizning kirish qismida yashirin iqtisodiyotning rivojlanib borishi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz. Yashirin iqtisodiyot (yoki soya iqtisodiyoti) – bu rasmiy statistikada hisobga olinmaydigan, nazorat qilinmaydigan iqtisodiy faoliyatlarni o'z ichiga oladigan iqtisodiy segmentdir. Bu faoliyatlar qonuniy yoki noqonuniy bo'lishi mumkin va ko'pincha soliqlarni to'lashdan qochish yoki davlat nazoratidan chetda qolish uchun yashiriladi. Iqtisodiyotning yashirin iqtisodiyotga o'tishi inson faoliyatining barcha shakllariga, shu jumladan, ishlab chiqarish jarayonlariga salbiy ta'sir qilib bormoqda.

Asosiy qismga keladigan bo'lsak, yashirin iqtisodiyotga o'tish ko'plab tarkibiy qismlarga ta'sir qiladi: Yashirin iqtisodiyotning salbiy xususiyatlari:

- ◆ Qonuniy emasligi yoki nazoratsizligi: Yashirin iqtisodiyotga kiruvchi faoliyatlar odatda davlat nazoratidan chetda qoladi. Buning natijasida yaroqsiz tovar va mahsulotlar soni ortishi kuzatiladi.
- ◆ Soliqlarni to'lamaslik: Yashirin iqtisodiyotning ko'p faoliyatlari soliqlardan qochish bilan bog'liq, bu davlat byudjetiga zarar yetkazadi. Yashirin iqtisodiyot ko'pincha kichik bizneslar va yirik korporatsiyalar o'rtasidagi adolatli raqobatni buzadi, chunki yirik firmalar ko'proq soliqlar to'laydi.
- ◆ Rasmiy statistikadan tashqarida: Bu turdagi iqtisodiy faoliyatlar davlat yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan rasmiy ravishda qayd etilmaydi. Buning oqibatida ko'plab statistik xatoliklar yuzaga keladi.

Bunday tizim ishchilarning rasmiy mehnat shartnomasiz yoki ish haqlari rasmiy hisob-kitoblarsiz ishlashini tashkil etadi. Misol uchun, restoran, sataroshxona yoki savdo do'konlarini olsak. Ular daromadni kassa orqali ko'rsatmasdan, to'g'ridan to'g'ri naqd pul shaklda qabul qilib, daromad ko'rsatkichlarini kam ko'rsatib ko'p soliq to'lashdan qochadilar. Bu usul korxonaga qisqa muddatli foyda keltirishi mumkin, chunki soliqlarni to'lamaslik orqali xarajatlar kamayadi. Bu nafaqat davlat byudjetiga zarar yetkazadi, balki, uzoq muddatda korxonaning rasmiy faoliyatini kengaytirishga to'sqinlik qiladi. Yashirin iqtisodiyot davlatlar va xalqaro tashkilotlar uchun murakkab muammolardan biri bo'lib, bu borada kuchli iqtisodiy islohotlar, soliqlarni soddalashtirish va nazoratni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Yashirin iqtisodiyotning eng jiddiy muammolaridan biri noqonuniy tamaki mahsuloti sanaladi. Bosh prokuratura ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston bozorida noqonuniy sigaretlar ulushi 2023-yilda 22,4 foizni tashkil qilgan, bu miqdoriy 2,4 mlrd dona sigaretga teng. Bu esa O'zbekistonda sotiladigan barcha sigaretlarning deyarli chorak qismi qonuniy olib kiritilmaganligini anglatadi. Davlat byudjetiga keltiradigan ziyonidan tashqari, noqonuniy sigaretlar aholi salomatligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ular iste'mol qadog'ida majburiy axborotga, chekish zarari haqidagi ogohlantirishga ega emas. Ko'pincha ularda qonuniy sigaretlarga qaraganda ko'proq miqdorda nikotin bo'ladi, bu ularning salomatliklari uchun yana ham xavfli qiladi. Yoki xarid cheklarini olsak. Ular savdo markazlarida har bir iste'molchi fuqarolarga xariddan so'ng berilishi lozim. Ularning noqonuniy tarzda olib qolinishi savdogarlar uchun foyda keltirsa, yashirin iqtisodiyot rivoji uchun ochiq imkoniyat bo'lishiga xizmat qiladi.

Dunyo miqyosida yashirin iqtisodiyotning ulushi mamlakatlarga qarab farq qiladi. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot ko'proq tarqalgan bo'lib, ba'zi joylarda yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning 30-60 % qismini tashkil qilishi mumkin. Rivojlangan davlatlarda esa bu raqam odatda 10-20 % atrofida bo'ladi. Yashirin iqtisodiy faoliyati ko'rinmas shaklga ega bo'lib, uning turlari doimiy o'zgaruvchanlik, murakkablashib borish, nazorat bosqichlarni chetlab o'tish kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu faoliyatni amalga oshirishda esa uning tarmoqlaridan biri bo'lgan korrupsiyadan foydalanish kerak bo'ladi. Korrupsiya va xufiyona iqtisodiyot o'rtasida chambarchas aloqa mavjud bo'lib iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy kuchlar hisoblanadi. Dunyo global iqtisodiyotining bir qismi bo'lgan O'zbekistonda ham iqtisodiyotni

erkinlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan hamon yashirin iqtisodiy sektori yuqoriligicha qolmoqda. Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishda ham yashirin iqtisodiyot to'g'ri ishlayotgan tadbirkorlarga katta to'siq ekanligi ta'kidlangan. O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotdan davlat byudjetiga 30 trln. so'm, yalpi ichki mahsulotga 135 trln. so'm zarar yetkazgan. 11 mingta korxona (41%) esa hisobotlarida faqat 1 kishini ishchi sifatida ko'rsatgan.¹⁵

Xulosa qismga kelsak, bugungi kunda yashirin iqtisodiyot unsurlariga barham berishda davlat rahbarining yangi farmoniga ko'ra 2019-yilning 1-sentyabridan boshlab bir-biridan farqlanadigan uchta ko'rsatkichni amaliyotga tatbiq etish ko'zda tutilmoqda. Birinchidan, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori mehnat munosabatlari, bandlik sohasida foydalaniladi va mehnat me'yorlarini to'liq bajargan ishchilarning mehnatiga haq to'lashning, ishsizlik bo'yicha nafaqalarning eng quyi chegarasi hisoblanadi. Ikkinchidan, bazaviy hisoblash miqdori tadbirkorlik subyektlari tomonidan iqtisodiy faoliyatni olib borish uchun to'lanadigan soliqlar, yig'imlar, jarimalar va boshqa majburiy to'lovlar miqdorini belgilash uchun foydalaniladi. Uchinchidan, pensiya hisoblashning bazaviy miqdori pensiya hisoblashda qo'llaniladigan ish haqi miqdorini hisoblashda qo'llaniladi. Bunday tartibga o'tish moliya tizimining ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor yo'nalishlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, bazaviy to'lovlar miqdorlarini bir-biridan mustaqil, differensial tarzda o'zgartirish imkonini beradi. Shu o'rinda misol keltirsak, hozirgacha umumiy ovqatlanish korxonasida ko'p hollarda ishlovchi xodimlarga hisobxona hisobotlarida eng kam ish haqi ya'ni, 202 730 so'm ish haqi hisoblangan. Mazkur Farmon bilan barcha xo'jalik yurituvchi subyekt, tashkilot va muassasalarda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 577 170 so'mdan qilib belgilandi. Afzallik tomonlari shuki, xodimlarning pensiyaga chiqish davrida pensiya miqdori hisoblanishida yuqori summa belgilanishiga zamin yaratiladi. Davlat byudjetiga ish haqidan soliq to'lanishi oshadi va eng asosiysi yashirin iqtisodiyotning kamayishiga hissa qo'shiladi¹⁶. Yashirin iqtisodiyot asosida faoliyat yuritayotgan kichik-biznes va xususiy tadbirkorlarning ishlab chiqarayotgan va aholiga xizmat ko'rsatayotgan mahsulotlarining aksariyat qismi eksport va import jarayonlarida yaroqsiz holda ekanligi aniqlanganligi bois – bu dunyo miqyosida yashirin iqtisodiy tarmoqlariga jiddiy e'tibor qaratilishi va yondashish zarurligini ko'rsatadi. Agar yashirin iqtisodiyotga jiddiy e'tibor berilmasa va oldini olinmasa, rasmiy axborotlarga ko'ra, yashirin iqtisodiyot hajmi 2 barobarga ortishi mumkinligi aytib o'tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Internet saytlar:

1. Kun.uz sayti.
2. O'zbekiston Milliy Axborot agentligi.
3. 3.Gazeta.uz.

¹⁵ O'zbekiston Milliy Axborot agentligining 27.01.2024-yildagi axboroti.

¹⁶ Kun.uz sayti 27.05.2019-yilgi axborot.

4. 4.Wikipedia.
5. Spot.uz/
6. <https://m.kun.uz/news/2019/05/27>.
7. <https://lex.uz/docs/08.07.2022>.
8. https://uza.uz/oz/posts/_562168
9. <https://daryo.uz/2024/05/04>.

Farhod Shanazarov Shodiyor o‘g‘li – “BRB-TECH” MCHJ Bosh direktori

MAMLAKATIMIZDA KAMBAGALLIKNI QISQARTIRISH BOYICHA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistondagi kambag'allik holati va bu borada amalga oshirilgan islohotlar, shuningdek, pandemiyaning kambag'allikni kamaytirishga ta'siri va so'nggi yillardagi yangi tashabbuslar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kambag'allik, kambag'allik muammosi, Temir Daftar, pandemiya, ijtimoiy yordam, davlat dasturlari, iqtisodiy islohotlar.

Аннотация: В статье представлена информация о состоянии бедности в Узбекистане и реформах, проводимых в этом направлении, а также о влиянии пандемии на сокращение бедности и новых инициативах последних лет.

Ключевые слова: бедность, проблема бедности, Темир Дафтар, пандемия, социальная помощь, государственные программы, экономические реформы.

Abstract: This article provides information on the state of poverty in Uzbekistan and the reforms implemented in this regard, as well as the impact of the pandemic on poverty reduction and new initiatives in recent years.

Keywords: poverty, poverty problem, Temir Daftar, pandemic, social assistance, state programs, economic reforms.

KIRISH.

Kambag'allik — bu ijtimoiy va iqtisodiy holat bo'lib, shaxs yoki guruhning hayot kechirish uchun zarur bo'lgan minimal ehtiyojlarini qondirishga imkon beradigan daromad yoki resurslarga ega bo'lmaslikni anglatadi. Kambag'allikni o'lchashda bir nechta mezonlardan foydalaniladi. Masalan, O'zbekistonda kambag'allik belgilanishi uchun eng kamida kunlik 2100 kkal iste'mol qilish va zaruriy ehtiyojlarni qondirish ko'rsatkichi olingan. Agar odamning daromadi yoki xarajati bu me'yorlardan past bo'lsa, u kambag'al hisoblanadi.

Bugungi kunda, O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, global pandemiyaning salbiy ta'sirlariga qaramay, samarali natijalar berishda davom etmoqda.

2020-yilda, pandemiyaning global ta'siri fonida, O'zbekiston hukumati kambag'allikni qisqartirishni o'zining ustuvor yo'nalishlaridan biri deb belgiladi. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tashkil etilib, kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan bir qator yangi dasturlar joriy etildi. Shu jumladan, "Temir daftar" tizimi va ijtimoiy yordam dasturlari samarali amalga oshirildi.

O'zbekistonda 594,3 ming oila va ularning 2,5 million nafar a'zosi “Temir daftar”ga kiritildi. Bu ro'yxatga kirgan oilalarga davlat tomonidan 1,37 trillion so'm

miqdorida moddiy yordam ko'rsatildi. 2021-yilga kelib, 515,9 ming oila ro'yxatdan chiqarildi, bu orqali kambag'al oilalar soni kamaytirildi.

2021-yil boshida, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha Jahon Banki va BMT ekspertlari bilan hamkorlikda "2021-2030-yillarga qadar O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish strategiyasi" ishlab chiqildi. Ushbu strategiya orqali, kambag'allikni qisqartirishning yangi usullari, innovatsion yondashuvlar va keng qamrovli dasturlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Koronavirus pandemiyasi O'zbekistondagi kambag'allikni yanada oshirishga olib keldi. Ishsizlik, iqtisodiy tanazzul va odamlarning moddiy yordamga bo'lgan ehtiyoji ortdi. Pandemiya davrida ijtimoiy himoya tizimlari kuchaytirildi. Masalan, kambag'al oilalarga to'g'ridan-to'g'ri moddiy yordamlar, va'da qilingan yordamlar o'z vaqtida yetkazildi. Shuningdek, davlat tomonidan kambag'al oilalarni uy-joy bilan ta'minlash, kommunal to'lovlarda imtiyozlar berish va arzon infratuzilma yaratish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning so'zlariga ko'ra, kambag'allikni qisqartirishda "baliq tutishni o'rgatish" va iqtisodiy erkinlikni yaratish muhim. Bu orqali, kambag'al oilalar o'z daromadlarini yaratish, kasb-hunarni egallash, va o'z bizneslarini rivojlantirishga imkoniyat yaratish maqsad qilinmoqda.

Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha yangi dasturlar hamda strategiyalar ishlab chiqildi. Bu borada, kambag'al oilalarni tadbirkorlikka o'rgatish, ularga kreditlar ajratish, kasb-hunar o'rgatish, va yoshlarni ta'lim olishga rag'batlantirish ko'zda tutilgan. So'nggi yillarda dunyo iqtisodiyotida kuzatilayotgan murakkab vaziyat va noaniqliklarga qaramay mamlakatimizda barqaror va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarining ta'minlanganligi, hududlarda tadbirkorlik faoliyati hamda aholi turmush shart-sharoitini yaxshilashga qaratilgan manzilli dasturlarning amalga oshirilishi respublikada kambag'allik darajasini 2021 yildagi 17 foizdan 2023 yilda 11 foizga pasayishiga imkon yaratdi. Joriy yilda kambag'allikni 9 foizga va 2026 yilga borib 7 foizgacha pasaytirish maqsad qilib olindi.

2023-yil holatiga ko'ra, kambag'al oilalar uchun 5 mingdan ortiq kichik biznes loyihalari amalga oshirildi. Bu dasturlar orqali 15 mingdan ortiq odam yangi ish o'rinlariga ega bo'ldi.

XULOSA. O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat aholisining turmush darajasini oshirishga katta hissa qo'shmoqda. Biroq, kambag'allikni tugatish bo'yicha davom etayotgan ishlarda muvaffaqiyatga erishish uchun barcha qatlamlarning hamkorligi zarur. Bu borada davlatning iqtisodiy islohotlar, ta'lim, tibbiyot, va bandlik siyosatini yaxshilashga qaratilgan strategik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega.

Yaxshi hayotni yaratishda har bir fuqaroning o'z mehnatiga bo'lgan ishonchi va qat'iyati muhimdir. Zero, kambag'allikni bartaraf etish har birimizning qo'limizda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2018. - B. 80.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". PF-6012-son 22.06. 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" gi, 23.09.2024 yildagi PQ-330-son
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild, Toshkent, O'zbekiston, 2018-yil.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent, O'zbekiston, 2017.

Maxmudov Sirojiddin Abdullayevich – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktranti, maxmudovsirojiddin25@gmail.com

XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI ONLAYN SAVDO ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar va internetning rivojlanishi xizmat ko'rsatish sohasini onlayn savdo bilan bog'lash imkonini bermoqda. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish biznesini onlayn savdo orqali rivojlantirish yo'llari, afzalliklari va samarali strategiyalar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, raqamli transformatsiyaning xizmat ko'rsatish sohasiga ta'siri, mijozlarga taqdim etiladigan qulayliklar va biznes egalariga yaratilayotgan yangi imkoniyatlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Xizmat ko'rsatish, onlayn savdo, elektron tijorat, raqamli marketing, internet biznes, mijozlarga xizmat ko'rsatish, mobil ilovalar, to'lov tizimlari, biznes avtomatlashtirish,

Аннотация: Сегодня развитие цифровых технологий и Интернета позволяет связать сферу услуг с онлайн-продажами. В данной статье рассматриваются способы, преимущества и эффективные стратегии развития бизнеса в сфере услуг посредством онлайн-продаж. Также будет рассмотрено влияние цифровой трансформации на сферу услуг, удобство, которое она обеспечивает клиентам, и новые возможности, которые она создает для владельцев бизнеса.

Ключевые слова: Предоставление услуг, онлайн-продажи, электронная коммерция, цифровой маркетинг, интернет-бизнес, обслуживание клиентов, мобильные приложения, платежные системы, автоматизация бизнеса,

Abstract: Nowadays, the development of digital technologies and the Internet makes it possible to connect the service sector with online sales. This article discusses the ways, advantages and effective strategies for developing a service business through online sales. It also examines the impact of digital transformation on the service sector, the convenience provided to customers and the new opportunities created for business owners.

Keywords: Service provision, online sales, e-commerce, digital marketing, internet business, customer service, mobile applications, payment systems, business automation.

Kirish

Dunyo miqyosida xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, raqamli transformatsiya jarayonida bu soha yanada rivojlanib bormoqda. Internet va texnologik innovatsiyalar xizmatlarni tezkor, qulay va global darajada taqdim etish imkonini beradi. Hozirda mehmonxona

biznesi, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliyaviy xizmatlar, transport va logistika kabi ko'plab yo'nalishlar onlayn savdo orqali mijozlarga xizmat ko'rsatmoqda.

Onlayn savdoni xizmat ko'rsatish bilan birlashtirish biznes uchun ko'plab afzalliklarni taqdim etadi. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasi uchun onlayn savdoni joriy etishning eng samarali usullari va kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Onlayn savdo — bu mahsulotlar yoki xizmatlarni internet orqali sotish jarayonidir. Bunday savdo usuli kompaniyalar va iste'molchilar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani ta'minlaydi, bu esa xarid qilish jarayonini qulaylashtiradi. Onlayn savdoga quyidagi elementlar kiradi:

1. Veb-sayt yoki platforma: Mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etish uchun maxsus yaratilgan sayt yoki onlayn do'kon.

2. To'lov tizimlari: Kredit kartalari, elektron hamyonlar va boshqa to'lov usullari orqali to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatlari.

3. Yetkazib berish xizmatlari: Mahsulotlarni xaridorlarga yetkazib berish uchun xizmatlar.

4. Mijozlar bilan aloqa: Savdo jarayonida mijozlarga yordam berish, ularning savollariga javob berish va muammolarini hal qilish.

Onlayn savdo, shuningdek, kompaniyalarga global bozorni kengaytirishga, xaridorlarga esa qulaylik va tezkorlik taqdim etishga imkon beradi. Bu sohada raqobat kuchli va doimo o'zgarib turuvchi tendensiyalar mavjud.

Raqamli marketing — bu mahsulot yoki xizmatlarni internet va boshqa raqamli kanallar orqali reklama qilish va tarqatish jarayonidir. Bu marketing turi an'anaviy marketingga nisbatan ko'proq imkoniyatlar taqdim etadi, chunki u keng auditoriyaga tezda yetib borish, maqsadli mijozlarni aniqlash va ularning ehtiyojlariga mos ravishda reklama qilish imkonini beradi.

Raqamli marketingning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

1. Veb-sayt: Mahsulot yoki xizmatlar haqida ma'lumot beruvchi asosiy platforma.

2. Ijtimoiy tarmoqlar: Facebook, Instagram, Twitter kabi platformalarda brendni targ'ib qilish.

3. Qidiruv tizimlari (SEO): Qidiruv natijalarida yuqori o'rinlarni egallash uchun saytni optimallashtirish.

4. Reklama kampaniyalari: Google Ads yoki Facebook Ads kabi platformalarda pullik reklama joylashtirish.

5. Email marketing: Mijozlarga elektron pochta orqali yangiliklar va maxsus takliflar yuborish.

6. Kontent marketing: Maqsadli auditoriya uchun foydali va qiziqarli kontent yaratish va tarqatish.

Raqamli marketingning afzalliklari orasida o'lchovlilik, tezkorlik, jarayonni optimallashtirish va xarajatlarni boshqarish imkoniyatlari mavjud.

Bu esa kompaniyalarga o'z strategiyalarini samarali ravishda rivojlantirishga yordam beradi.

Xizmat ko'rsatish sohasida onlayn savdoning afzalliklari

1. Doimiy ishlash imkoniyati – Onlayn xizmatlar 24/7 rejimida ishlaydi va mijozlar istalgan vaqtda ulardan foydalanishi mumkin.

2. Xarajatlarni kamaytirish – Onlayn platformalar orqali biznes yuritish an'anaviy usullarga nisbatan kamroq xarajat talab qiladi.

3. Keng auditoriyaga chiqish – Internet orqali xizmatlarni nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham targ'ib qilish va sotish mumkin.

4. Mijozlarga qulaylik yaratish – Onlayn to'lov tizimlari va avtomatlashtirilgan xizmatlar mijozlarga qo'shimcha qulayliklar taqdim etadi.

5. Tahlil va optimallashtirish imkoniyati – Raqamli marketing va ma'lumotlar tahlili orqali biznes strategiyasini yaxshilash mumkin.

Xizmat ko'rsatish sohasida onlayn savdoni joriy qilishning asosiy yo'nalishlari

1. Veb-sayt va mobil ilovalar orqali xizmatlar ko'rsatish

Onlayn platformalar mijozlarga xizmatlar haqida to'liq ma'lumot berish va ulardan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Masalan, mehmonxona bron qilish tizimlari (Booking.com, Airbnb), sog'liqni saqlash xizmatlari (teleditsina), avtomobil ijarasi va boshqa xizmatlar.

2. Elektron to'lov tizimlarini joriy etish

Click, Payme, PayPal va boshqa to'lov tizimlari orqali mijozlarga tezkor va xavfsiz to'lov imkoniyatlari yaratish muhim.

To'lov tizimlarining integratsiyasi biznesning raqobatbardoshligini oshiradi.

3. Ijtimoiy tarmoqlar orqali xizmatlarni targ'ib qilish

Facebook, Instagram, Telegram, TikTok kabi platformalar orqali xizmatlarni keng auditoriyaga yetkazish mumkin.

SMM strategiyalar orqali mijozlarni jalb qilish va xizmatlar haqida ma'lumot tarqatish samarali usullardan biridir.

4. Onlayn mijozlarga xizmat ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish

Chatbotlar, virtual yordamchilar va tezkor aloqa tizimlari mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega.

Masalan, Telegram botlar orqali xizmatlarni buyurtma qilish, veb-saytlarda 24/7 qo'llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etish.

5. Raqamli marketing va reklama kompaniyalarini amalga oshirish

Google Ads, SEO, email marketing, influencer marketing kabi vositalar orqali xizmatlarni rivojlantirish va mijozlarni jalb qilish mumkin.

Onlayn reklama yordamida xizmatlarni keng auditoriyaga yetkazish an'anaviy reklama usullariga qaraganda samaraliroq bo'lishi mumkin.

Xizmat ko'rsatish biznesida onlayn savdoni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar

1. Texnologik taraqqiyot – Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarning rivojlanishi xizmat ko‘rsatish sohasini yangi bosqichga olib chiqadi.

2. Raqobat muhitining kuchayishi – Onlayn xizmatlar bozori tez o‘sib borayotgani sababli bizneslar o‘z xizmatlarini sifatli va innovatsion usullar bilan taqdim etishi lozim.

3. Mijozlarning talablarini tushunish – Raqamli texnologiyalar orqali mijozlarning ehtiyojlarini chuqur o‘rganish va shunga mos xizmatlar ko‘rsatish biznes muvaffaqiyatining kalitidir.

4. Huquqiy va xavfsizlik masalalari – Onlayn xizmatlar ko‘rsatuvchi bizneslar mijozlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va qonunchilik talablariga rioya qilishlari muhim.

Kelajakda Onlayn Xizmat Ko‘rsatishning Rivojlanish Tendensiyalari
Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan xizmatlar – Mijozlar bilan muloqot va xizmatlar yetkazib berish jarayonlari yanada soddalashtiriladi.

Blokcheyn va kriptovalyutalar – Onlayn to‘lov tizimlarining xavfsizligi va shaffofligini oshirish uchun yangi texnologiyalar keng qo‘llaniladi.

Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) – Xizmatlarni vizual ravishda sinab ko‘rish imkoniyati kengayadi.

5G texnologiyasi – Yuqori tezlikdagi internet orqali xizmatlar sifatini oshirish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

Taklif va tavsiyalar

Xizmat ko‘rsatish sohasida onlayn savdoni rivojlantirish biznes egalari va mijozlar uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Internet va raqamli texnologiyalar yordamida xizmatlarni avtomatlashtirish, mijozlarga qulaylik yaratish va biznesni global bozorda rivojlantirish mumkin. Shuningdek, onlayn savdoni samarali yo‘lga qo‘yish uchun zamonaviy marketing strategiyalari, mijozlarga xizmat ko‘rsatishning innovatsion usullari va raqamli to‘lov tizimlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

1. Onlayn Platformalarni Yaratish

- Veb-sayt va Mobil Ilova: Xizmatlarni taqdim etish uchun qulay interfeysga ega veb-sayt yoki mobil ilova yarating. Foydalanuvchilar osonlik bilan xizmatlarni topa olishlari va buyurtma berishlari kerak.

- Xizmatlarni Kategoriyalash: Xizmatlarni turli kategoriya va bo‘limlarga bo‘lish, foydalanuvchilarga kerakli xizmatni tezda topishga yordam beradi.

2. Marketing Strategiyalari

- Ijtimoiy Tarmoqlar: Ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritish, reklama qilish va mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlash imkonini beradi. Instagram, Facebook va TikTok kabi platformalarda maxsus kontent yaratish.

- SEO (Qidiruv Muhitida Optimallashtirish): Veb-saytingizni qidiruv tizimlarida yuqori o‘rinlarda ko‘rsatish uchun SEO strategiyalarini qo‘llang.

3. Mijozlar bilan Aloqa

- Onlayn Muloqot: Mijozlar bilan onlayn chat yoki videokonferensiya orqali muloqot qilish imkoniyatini taqdim eting. Bu ularga tezkor yordam olishda yordam beradi.

- Mijoz Fikrlari: Mijozlardan fikr-mulohazalarni to'plang va xizmatlaringizni yaxshilash uchun foydalaning.

4. Xizmatlarning Sifatini Ta'minlash

- Sifat Nazorati: Har bir xizmatning sifatini doimiy ravishda kuzatib boring. Mijozlarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash muhimdir.

- Malakali Mutaxassislar: Xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarning malakasini oshirish uchun treninglar o'tkazing.

5. To'lov Tizimlari

- Turli To'lov Variantlari: Mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida turli to'lov tizimlarini (bank kartalari, elektron hamyonlar, naqd pul) taklif eting.

6. Reklama va Aktsiyalar

- Maxsus Takliflar va Aktsiyalar: Yangi mijozlarni jalb qilish uchun chegirmalar, aktsiyalar yoki bonus dasturlari tashkil qiling.

7. Analitika va Monitoring

- Ma'lumotlarni Tahlil Qilish: Onlayn savdo jarayonlarini tahlil qiling, mijozlarning xulq-atvorini o'rganing va bu asosida strategiyani o'zgartiring.

8. Raqobatbardoshlik

Bu takliflar yordamida xizmat ko'rsatish sohasining onlayn savdosi muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkin. Har bir strategiyani amalga oshirishdan oldin bozorni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Gulyamov S.S., Ergashev R.X., Hamrayeva S.N. Raqamli iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2020. – 367 b.

2. Qudratov F.H., Abdukarimov B.A., Pardayev M.Q. va boshqalar. Savdo iqtisodiyoti muammolari. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2016. – 508 bet.

3. Yo'ldoshev N.Q. Savdo korxonalari iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2005. – 164 b.

4. Ayupov R.X., Bakiyeva I.A., Fayziyev Sh.Sh., Boltaboyeva G.R. O'zbekistonda elektron biznes: muammolar va yechimlar. – T.: TMI, 2016.

II SHO'BA. XIZMATLAR SOHASINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH, KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH, AHOLI BANDLIGI, FAROVONLIGI, YASHASH DARAJASI VA SIFATINI OSHIRISH MASALALARI

Ravshanova Gulchexra Ravshanovna – Zarmed universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi, gulchexra0183@gmail.com

Yaxyoyev Jo‘rabek Zikrullo o‘g‘li – Zarmed universiteti talabasi, jurabekyaxyoyev2001@gmail.com

TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASH ORQALI KAMBAG'ALIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHNING IQTISODIY - IJTIMOY AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi tadbirkorlik muhitini yaxshilashning kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishdagi iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadbirkorlikning rivojlanishi iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yangi ish o'rinlarini yaratib, aholini bandlik bilan ta'minlash va ishlab chiqarishni kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Kambag'allikni kamaytirish va daromadlarning oshishi iqtisodiy barqarorlikka olib keladi, chunki bu aholi farovonligini oshirib, ichki bozorni jonlantiradi.

Аннотация: В данной диссертации анализируется социально-экономическое значение улучшения деловой среды для сокращения бедности и увеличения доходов населения. Развитие предпринимательства играет важную роль в создании новых рабочих мест в различных отраслях экономики, обеспечении занятости населения, расширении производства. . Сокращение бедности и рост доходов ведут к экономической стабильности, поскольку это повышает благосостояние населения и оживляет внутренний рынок.

Abstract: This dissertation analyzes the socio-economic significance of improving the business environment for reducing poverty and increasing incomes. The development of entrepreneurship plays an important role in creating new jobs in various sectors of the economy, providing employment to the population, and expanding production. Poverty reduction and income growth lead to economic stability because it increases the well-being of the population and revitalizes the domestic market.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, kambag'allikni qisqartirish, aholi daromadlari, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy tenglik, bandlik, ish o'rinlari, iqtisodiy rivojlanish

Ключевые слова: предпринимательство, сокращение бедности, доходы населения, экономическая стабильность, социальное равенство, занятость, рабочие места, экономическое развитие.

Key words: entrepreneurship, poverty reduction, population income, economic stability, social equality, employment, jobs, economic development.

Tadbirkorlik muhitini yaxshilash mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yangi ish o'rinlarini yaratib, aholini bandlik bilan ta'minlashda va ishlab chiqarishni kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi globallashuv davrida tadbirkorlik nafaqat milliy bozorlar uchun, balki xalqaro bozorlar uchun ham mahsulot va xizmatlarni yaratishda asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish

esa iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikning muhim tarkibiy qismlaridir. Tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoitlarning yaratilishi aholi uchun yangi daromad manbalarini ochadi, natijada kambag'allik darajasi pasayadi. Aholi daromadlarining oshishi esa iste'mol hajmini kengaytirib, ichki bozorni yanada jonlantiradi. Bu jarayon iqtisodiyotda o'ziga xos ijobiy aylanishni yuzaga keltiradi: tadbirkorlik rivoji aholi farovonligini oshiradi, farovonlik esa o'z navbatida yangi imkoniyatlarni ochadi[1]. Shuningdek, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi ijtimoiy tenglikni ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, yoshlar va ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish orqali jamiyatning barcha qatlamlarini iqtisodiy hayotga faolroq jalb etish mumkin. Natijada, ijtimoiy adolat tamoyillari asosida iqtisodiy barqarorlikka erishiladi.

Bundan tashqari, tadbirkorlik muhitini rivojlantirish mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, yangi bozorlarni ochish va eksport salohiyatini kengaytirish orqali iqtisodiyotga uzoq muddatli foyda olib kelish mumkin. Shu sababli, tadbirkorlik muhitining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy rivojlanishning ham muhim asosi hisoblanadi[2].

Tadbirkorlik muhitining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bozor mexanizmlarining erkin ishlashi va davlat tomonidan qulay sharoitlarning yaratilishi bu jarayonda alohida rol o'ynaydi. Davlat tomonidan soliq tizimining soddalashtirilishi, biznesni ro'yxatdan o'tkazish va litsenziyalash jarayonlarining yengillashtirilishi hamda infratuzilmaning rivojlanishi tadbirkorlik faoliyati uchun qulay muhitni shakllantiradi. Ayniqsa, yangi texnologiyalarni joriy etish va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlarning yaratilishi iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, kredit va moliyaviy resurslarga qulay kirish imkoniyatlari tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Imtiyozli kreditlar, garovsiz moliyaviy yordam dasturlari va subsidiyalar yangi tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, ventur kapital, biznes-inkubatorlar va grant dasturlari yosh tadbirkorlarning faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashadi[3]. Moliyaviy resurslarga erkin kirish yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy faollikni oshirish uchun muhimdir. Davlat va xususiy sektor tomonidan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash dasturlari iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Ushbu dasturlar orqali eksport salohiyati oshirilib, xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyati yaratiladi. Mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta'minlash kabi maqsadlar amalga oshiriladi. Bundan tashqari, yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish esa aholini iqtisodiy faoliyatga jalb etishning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanadi.

Kambag'allikni qisqartirishdagi rol tadbirkorlik orqali sezilarli darajada oshadi. Yangi ish o'rinlarining yaratilishi, ayniqsa kichik va o'rta biznesning

rivojlanishi orqali iqtisodiy faollikning ortishi kambag'allikni kamaytirishga yordam beradi. Tadbirkorlik faoliyati, ayniqsa oilaviy va kichik biznesning rivojlanishi, yangi ish o'rinlarini yaratish bilan birga, iqtisodiy faollikni oshiradi. Bu, o'z navbatida, aholining daromadlarini ko'paytirishga, ularning turmush darajasini yaxshilashga olib keladi. Bundan tashqari, innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni joriy qilish orqali qo'shimcha daromad manbalarini yaratish mumkin. Texnologik rivojlanish va yangi ish uslublarini joriy etish kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga xizmat qiladi. Yangi mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish orqali mahalliy va xalqaro bozorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi, bu esa iqtisodiy faollikning oshishiga va daromad manbalarining diversifikatsiyasiga olib keladi[3].

Aholi daromadlarini oshirishning bir qancha omillari mavjud. Mahalliy va xalqaro bozorlar uchun mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish mumkin. Bozor talabi va ehtiyojlariga moslashgan mahsulotlar ishlab chiqarish yangi biznes imkoniyatlari yaratadi. Mehnat unumdorligini oshirish va yangi bozor imkoniyatlarini ochish ham aholi daromadlarini ko'paytirish uchun muhim omillardir[4]. Yangi texnologiyalar, samarali ishchilarni jalb qilish va yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish mehnat unumdorligini oshiradi.

Davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash choralari, jumladan, soliq yengilliklari va moliyaviy subsidiyalar aholi daromadlarini oshirishda katta rol o'ynaydi. Bu chora-tadbirlar tadbirkorlarga moliyaviy imkoniyatlar yaratadi va ularni bizneslarini kengaytirishga rag'batlantiradi. Bunday qo'llab-quvvatlashlar nafaqat iqtisodiy o'sish uchun, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun ham muhimdir. Tadbirkorlik muhitining rivojlanishi ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Kambag'allik darajasini pasaytirish orqali ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish mumkin. Yangi ish o'rinlari va samarali biznes faoliyati mavjud ijtimoiy tengsizlikni yengib o'tish va ko'proq odamni iqtisodiy jarayonlarga jalb qilish uchun imkoniyat yaratadi[5]. Aholining turmush sifatini yaxshilash, sog'liqni saqlash va ta'limga sarmoya kiritish imkoniyatlarini oshirish orqali jamiyatda barqaror o'sish va rivojlanishga erishiladi.

Shuningdek, yoshlar va ayollarni iqtisodiy jarayonlarga faol jalb qilish ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash uchun zarurdir. Ularning iqtisodiy faoliyatga jalb qilinishi nafaqat iqtisodiy rivojlanishning samarali bo'lishini ta'minlaydi, balki ijtimoiy tenglikni va aholi farovonligini oshirishga ham olib keladi. O'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlar va yangi bozor ehtiyojlari uchun yoshlarni va ayollarni tayyorlash, ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi[6].

Tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Bozor mexanizmlarining erkinligi, davlat tomonidan qulay sharoitlarning yaratilishi, kredit va moliyaviy resurslarga qulay kirish imkoniyatlari, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash dasturlari iqtisodiyotning o'sishiga va ijtimoiy barqarorlikka katta hissa qo'shadi. Tadbirlar orqali yangi ish o'rinlari yaratish,

kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy etish va texnologiyalarga sarmoya kiritish aholi daromadlarini oshirishga, kambag'allikni qisqartirishga yordam beradi. Shuningdek, mahalliy va xalqaro bozorlar uchun mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlari iqtisodiy faollikni ko'tarishga xizmat qiladi[7].

Ijtimoiy nuqtai nazardan, kambag'allikni kamaytirish va ijtimoiy tengsizlikni yengib o'tish, sog'liqni saqlash va ta'limga sarmoya kiritish imkoniyatlarini oshirish orqali aholi farovonligini yaxshilash mumkin. Yoshlar va ayollarni iqtisodiy jarayonlarga jalb qilish ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Barcha bu omillar birgalikda, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim komponentlariga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vahobov A. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichidagi ko'p ukkladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo'lishi. Sharq, 2023.
2. Irmatova L. Tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati. Журнал. - 2023 y.
3. Muxammedovna, Z. N., & Ravshanovna, R. G. (2023). DIRECTIONS FOR USING DIGITAL MARKETING IN THE FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY OF THE ENTERPRISE.
4. Xasanov R. Bozor daromadlari: mohiyati, tarkibiy tuzilishi va tabaqalanishi [б.м.] : Akademiya, 2004.
5. Исаджанов А.А. Развитие внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан в условиях перехода на рыночные отношения [Журнал]. - Ташкент : Дис. д-ра экон. наук / АН РУ институт экономики, 2001 г.
6. **Ходжаев Б.А.** Методологические аспекты обоснования экспортного потенциала как фактора эффективности внешнеэкономической деятельности [Книга]. - [б.м.] : Халқаро муносабатлар. , 2002.
7. Равшанова, Г. (2024). Hunarmandchilik mahsulotlari korxonalarida marketing strategiyalarining ahamiyati. *Новый Узбекистан: наука, образование и инновации*, 1(1), 237–239. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/new-uzbekistan/article/view/32309>

Yangiboyev Berdiyar Yangiboyevich-Qarshi “Iqtisodiyot va pedagogika” Universiteti professori, E-mail:yangiboyevberdiyar @mail.ru

XIZMATLAR SOHASINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH ASOSIDA KAMBAG'ALIKNI QISQARTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: maqolada kambag'allik tushunchasining mohiyati, umumiy holati, oqibatlarini, uni qisqartirishning nafaqat aholi uchun, qolaversa har bir mamlakat kelajagi uchun

ahamiyati, mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish borasida olib borilayotgan sa'i-harakatlar va bundan keyin bajarilishi lozim bo'lgan masalalar yuzasidan fikrlar bildirildi.

Kalit so'zlar: *kambag'allik, kambag'allik chegarasi, kambag'allik darajasi, kambag'allik indeksi, aholi turmush darajasi, aholi daromadlari va xarajatlari, moddiy va manaviy ehtiyojlar, ekologik muammolar, tanlama ko'zatish, iste'mol budjeti, moddiy yordam.*

Аннотация: *в статье рассматривается сущность, общее состояние бедности, ее последствия, важность сокращения бедности не только для населения, но и для будущего каждой страны, усилия, предпринимаемые в нашей стране в этом направлении, а также вопросы, которые необходимо решить в дальнейшем.*

Ключевые слова: *бедность, границы бедности, уровень бедности, индекс бедности, уровень жизни, доходы и расходы населения, материальные и духовные потребности, экологические проблемы, выборочное наблюдения, потребительский бюджет, материальная помощь.*

Abstract: *this article discusses the general state of poverty, its consequences, the importance of reducing poverty not only for the population but also for the future of every country, the efforts being made in our country in this regard, and the issues that still need to be addressed.*

Keywords: *poverty, poverty threshold, poverty level, poverty index, standard of living, household income and expenditure, material and spiritual needs, ecological issues, decision-making, consumption budget, material assistance.*

Dunyo mamlakatlarining har birida ma'lum bir yo'nalishdagi muammolar mavjud bo'lib, ulardan biri kambag'allik va uning darajasini kamaytirish bilan bog'liq bo'lgan masaladir.

Bozor munosabatlari sharoitida ham aholining bir qismi daromadlari kam bo'lganligi sababli moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. Aholining bunday qatlami kambag'allar deyiladi. Aholi daromadlari va kambag'allik darajasini oilalarni tanlab kuzatish yo'li va normativ usul bilan aniqlash mumkin.

Hozirgi yuksak darajada rivojlanish davriga kelib ham dunyoning bir qator mamlakatlarida vujudga kelgan turli sabab va oqibatlar tufayil, jumladan, urush harakatlari sodir bo'layotgan, zo'rovonlik alomatlar davom etayotgan, ekologik muammolar yildan-yilga kuchayib borayotgan va shu kabi noxo'sh holatlar ta'sirida kambag'allik o'ta dolzarb muammoga aylanib ulguradi.

Sodir bo'layotgan bu kabi muammolar dunyodagi yurik Xalqaro tashkilotlar e'tiboriga tushib qolmoqda, jumladan, BMT ma'lumotlariga ko'ra dunyo bo'yicha 700 milliondan ortiq odam qashshoqlikda umr kechirib kelmoqda. Uning ta'rifiga ko'ra kambag'allik "insonlar, uy xo'jaliklari va jamoalarning iqtisodiy jihatdan chegaralangan, xavf-xatarlar oldida ojizligi hamda nochorligi sanalgan holatdir" (1)

Kambag'illikka qarshi kurashish BMT kun tartibidagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi, xususan, 1992-yilda BMT Bosh assambleyasi 17-oktyabrni "Xalqaro qashshoqlikka barham berish kuni" deb e'lon qilgan.

Tanlab ko'zatish usulida oila daromadlari mamlakat o'rtacha daromadidan bir necha baravar past bo'lsa, bu oila kambag'al hisoblanadi. Boshqa mamlakatlarda bo'lganidek, O'zbekistonda ham normativ usulda kambag'allik aniqlanadi.

Kambag'allik va uning darajasi bu usulda eng zaruriy oziq-ovqatlar, iste'mol buyumlari va xizmatlar to'plami (iste'mol savati) qiymati asosida aniqlanadi. Bu qiymat iste'mol budjetini tashkil etadi. Eng kam iste'mol budjetiga yoki uning bir qismi (misol 50 foizi)ga to'g'ri keladigan daromad kambag'allik chegarasi deyiladi. Hukumatimiz kambag'allik chegarasidan past darajada yashovchi aholiga turli yordam ko'rsatib, o'zining ijtimoiy himoyasiga olgan.

Statistikada mamlakat yoki hudud bo'yicha kambag'allikning vaqt mobaynida o'zgarishi kambag'allik indeksi orqali ifodalanadi. Kambag'allik indeksi (J_k) ushbu davrdagi kambag'allik koeffitsientini (KK_1) taqqoslanayotgan bazis davr kambag'allik koeffitsientiga (KK_0) bo'lib topiladi, ya'ni $J_k = KK_1 : KK_0$.

O'z navbatida kambag'allik koeffitsienti joriy yoki bazis davrlarida kambag'allik chegarasidan past daromadga ega bo'lgan aholi (KCHPA) sonini barcha aholining tegishli davrdagi o'rtacha soniga bo'lib topiladi:

$$KK_1 = \frac{KCHPA_1}{A_1}; \quad KK_0 = \frac{KCHPA_0}{A_0};$$

Bu ko'rsatkichlarni statistik o'rganish natijasida davr mobaynida kambag'allik darajasining chuqurlashib yoki sayozlashib borayotganligini aniqlash mumkin. Bu yerda $J_k > 1$ bo'lsa, kambag'allik darajasi chuqurlashayotganini bildiradi. Kambag'allik darajasining sayozlashuvi umuman aholi turmush darajasining yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi.

Kishilarning yashash minimumi - eng zarur bo'lgan oziq-ovqat (13 turdagi) mahsulotlari, nooziq-ovqat iste'mol buyumlari va xizmatlar to'plami qiymatlarining yig'indisidir. U "istemol savati" nomi bilan ataladi.

Ishonchli ma'lumotlarga ko'ra bizning mamlakatimizda kam ta'minlangan aholi barcha aholining 12 dan 15 foizgachasini tashkil qilmoqda ekan (2). Bu aholimizning 3-4 millioni, dagan gap. Hozirgi kungacha bu toifadgi kishilarning 2,5 millioni "temir daftar"ga kiritilib, bir qismi undan chiqarildi.

Mamlakatimizda kambag'allikka qarshi kurash 2020 yildan boshlab keskin tarzda olib borilmoqda, chunki kambag'al oilalarda farzandlarni o'qitish, sport sektsiyalari va shu kabi boshqa to'garaklarga yuborish imkoniyati yetishmasligi, tabiiy hol. Bunday holat bu kabi oilalarda o'sayotgan bolalarning boshqalardan ortda qolishiga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari tomonidan doimiy ravishda mahallalarni o'rganish va tahlil qilish natijasiga ko'ra ularni rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish amaliyoti yo'lga qo'yilsin (3).

Kambag'allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini ko'paytirishda eng tez natija beradigan omil - qishloq xo'jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirishdan iborat, 2030 yilgacha kambag'allik darajasini 2 marta

kamaytirish choralari ko'rilmoqda. Kam ta'minlangan oilalarning 3 yoshgacha bo'lgan farzandlariga ovqatlanishlari uchun oylik naqd pul to'lovi yoki oziq-ovqat mahsulotlari hamda dori-darmonlarning bepul berilishi bo'yicha dastur qabul qilingan (4).

Aholi ichidagi kambag'allikni kamaytirish borasida aholining kambag'al qatlamidagilariga nafaqa va boshqa turdagi moddiy yordam puli to'lash, uning miqdorini vaqti-vaqti bilan oshirib borish kabi vositalar bilan biroz bo'lsada yumshatish mumkindir, ammo bu bilan masalaning optimal yechimi topilmaydi.

Shu sababli aholining kam ta'minlangan qatlamiga kiruvchi oila-a'zolarini har bir mamlakatda yaratilgan shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda yondashish, jumladan, tadbirkorlikka jalb qilish, ularning salohiyatini tanlagan tadbirkorlik turiga yo'naltirish, shu bilan birga ularni bo'sh ish o'rinlariga joylashtirish kabi yo'nalishlarga qaratish darkor bo'ladi.

Mamlakatimizda shu kungacha kambag'allikni qisqartirish masalalari bilan shug'illanadigan vazirlik va shu yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradigan markaz tashkil qilinganligi, "temit daftar" yuritilayotganligi har qanday tahsinga loyiq, deb hisoblaymiz.

O'zbekistonda 2030-yilgacha kambag'allik darajasini ikki barobarga kamaytirish, kelgusi o'n yillikda kambag'al oilalardagi ishsizlarni tadbirkorlikka keng jalb ergan holda besh yuz ming yangi ish o'rinlari yaratish, shu toifadagi aholi o'rtasidagi ishsizlik darajasini ikki martaga qisqartirish, ularga imtiyoz asosida 600 mingta kvartira ajratish, tomorqa xo'jaligidan samarali foydalanishlari uchun yetarli imkoniyatlar yaratish, dehqonchilik qilishlari uchun har yili 30 ming gektar yer ajratish kabi yo'nalishlarda qarorlar qabul qilingan (5).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi PF-101-sonli Farmonida "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ni amalga oshirish, shuningdek, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish orqali kambag'allikni ikki barobarga qisqartirish ta'kidlab o'tilgan (6).

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash orqali aholi farovonligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan masalalarni o'rganish asosida quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

- kambag'allik muammosi dunyoning barcha mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda ham mavjud;

- mamlakatimizda olib borilayotgan ishlarni dastlabki qadamlar, deb atash mumkin, chunki davlatimiz bu kabi masalalarga birinchi o'rinda e'tibor qaratishi ko'pchilikka ma'lum;

- kambag'allikni qisqartirish uchun kompleks yondashuvlar, ustuvor yo'nalishlar doirasida chora-tadbirlar olib borish talab etiladi;

- davlatimizning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda kambag'allikni qisqartirish muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. BMT Yevropa Iqtisodiy kompaniyasining “Kambag’alchilikni aniqlash bo’yicha qo’llanma”. -N’yu-York, 2017 yil.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni, 341-bet.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni, 5-bet.
4. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi.-Toshkent: “O’zbekiston”, 2022, 180-bet.
5. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi.-Toshkent: “O’zbekiston”, 2022, 184-bet.
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o’sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to’g’risida”gi PF-101-sonli Farmoni, 1-bet.

Farhod Shanazarov Shodiyor o‘g‘li – “BRB-TECH” MCHJ Bosh direktori

KAMBAG‘ALLIKNI ANIQLASH VA QISQARTIRISH MAMLAKATIMIZ IJTIMOY-IQTISODIY SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlash va qisqartirishga oid amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Kambag‘allikni aniqlashda davlat tomonidan qo‘llanilayotgan metodologiyalar va bu borada belgilangan chegaralar, shuningdek, kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan islohotlar va dasturlar yoritilgan. Pandemiya davrida kambag‘allikning oshishi va unga qarshi kurashish uchun ko‘rilgan chora-tadbirlar, shuningdek, davlat tomonidan kambag‘al oilalarga taqdim etilayotgan yordamlar va imkoniyatlar haqida so‘z yuritiladi. Kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan strategiyalar va istiqboldagi rejalarga ham alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Kambag‘allik, ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, kambag‘allikni aniqlash, kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy yordam, islohotlar, pandemiya, davlat dasturlari, bandlik, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract: This article analyzes the main directions of the socio-economic policy implemented in Uzbekistan to identify and reduce poverty. The methodologies used by the state to identify poverty and the boundaries set in this regard are highlighted, as well as reforms and programs aimed at reducing poverty. The increase in poverty during the pandemic and measures taken to combat it are discussed, as well as the assistance and opportunities provided by the state to poor families. Special attention is also paid to strategies and future plans aimed at reducing poverty.

Keywords: Poverty, socio-economic policy, poverty identification, poverty reduction, social assistance, reforms, pandemic, state programs, employment, economic development.

Аннотация: В статье анализируются основные направления социально-экономической политики, реализуемой в Узбекистане по выявлению и сокращению бедности. Рассматриваются методология и пороговые значения, используемые государством для определения бедности, а также реформы и программы, направленные на сокращение бедности. В статье рассматривается рост бедности в период пандемии

и меры борьбы с ней, а также помощь и возможности, предоставляемые государством малоимущим семьям. Особое внимание будет также уделено стратегиям и будущим планам, направленным на сокращение бедности.

Ключевые слова: Бедность, социально-экономическая политика, определение бедности, сокращение бедности, социальная помощь, реформы, пандемия, государственные программы, занятость, экономическое развитие.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan ayni zamonda, butun dunyoda olimlar, siyosatchilar, davlat arboblari va jamoatchilik vakillari o'rtasida kambag'allikning kelib chiqish sabablari, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini, uni bartaraf etish yo'llari xususida ilmiy munozaralar, turli ko'rinishdagi davra suhbatlari va sababiy bog'liqlikda ilmiy-amaliy izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Kambag'allik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida iqtisodiy rivojlanish jarayonida moddiy va nomoddiy imtiyozlardan foydalanish va daromadlarni taqsimlashdagi tengsizlikning oqibati sifatida izohlanadi.

Insoniyat ming yillikka qadam qo'ygan 2000-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Ming yillik Rivojlanish Maqsadlari deklaratsiyasi qabul qilinganda birinchi maqsad sifatida qashshoqlik va ochlikka barham berish bejizga qo'yilmagan. Mazkur deklaratsiyada keltirilganidek, sayyoramizda 2015-yilga qadar kuniga 1,25 AQSH dollaridan (xarid qobiliyati paritetini hisobga olgan holda) kam daromad oladiganlar va ochlikdan aziyat chekayotgan dunyo aholisi sonini ikki barobargacha pasaytirish barcha mamlakatlar oldida turgan eng muhim vazifalardan etib belgilangan edi.

Globallashuv jarayoni tobora chuqurlashib, davlatlar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarining kengayishi natijasida hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) taraqqiyot dasturlarida belgilangan maqsadlarni hal etish borasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, chora-tadbirlar samarasi o'laroq, qo'lga kiritilayotgan ijobiy tendensiyalarga qaramay, kambag'allik muammosi barcha rivojlanayotgan mamlakatlar qatori O'zbekiston Respublikasida ham o'tkir muammolaridan biriga aylangan. Ayniqsa, bugun dunyo bo'ylab tarqalayotgan koronavirus pandemiyasi va global karantin sharoitida kambag'allikning salbiy sotsial effekti yana bir bor namoyon bo'lib bormoqda.

Haqiqatdan ham, muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida respublikamizda kambag'allikni qisqartirishni yechimi kutayotgan dolzarb masalasi sifatida kun tartibiga olib chiqildi. Bu borada, Davlatimiz rahbari shunday o'ziga xos yondashuvni ilgari surdiki, unga ko'ra "Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak"¹⁷.

Kambag'allik yurtimizda ko'p yillar **"yopiq mavzu"** bo'lib, avvallari bu kategoriyaning o'rniga yumshatish qabilida **"kam ta'minlanganlik"** tushunchasi

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 25-yanvar, № 19 (7521)

bilan almashtirib kelingan edi. Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan ochiq demokratik siyosat tufayli mazkur muammoning mavjudligi, uning yechimi bo'yicha chuqur tahlillarni amalga oshirish, uni pasaytirish va kelajakda bartaraf etish haqida yuksak minbarlarda ham ochiq-oydin gapirilmoqda.

Xususan, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yilning 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida kambag'allikni qisqartirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Murojaatnomada ta'kidlaganidek: *“Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbaiga ega emasligi sir emas. Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi bizda ham kam ta'minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, ular taxminan 12-15 foizni tashkil etadi. Bu o'rinda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda. Bu ularning bir kunlik daromadi 10-13 ming so'mdan oshmayapti, degani. Yoki bir oilada mashina ham, chorva ham bo'lishi mumkin, lekin bir kishi og'ir kasal bo'lsa, oila daromadining kamida 70 foizi uni davolatishga ketadi. Xo'sh bunday oilani o'ziga to'q deyish mumkinmi? Prezident sifatida meni odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi, bolalarini o'qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiyojlari nima bo'layapti, degan savol har kuni qiynaydi. Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy, ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir”*.¹⁸

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Agentligining **“O'zbekiston statistika axborotnomasi”** ilmiy elektron jurnalida qayd etilganidek, aholining kambag'alligi tengsizlik muammosi bilan uzviy bog'liq ekanligi to'g'risida tadqiqotlar keltirilgan bo'lib, kambag'allik darajasini aniqlash uchun turmush kechirishning eng quyi standartlari ishlab chiqilishi qayd etilgan. **Iste'mol savati** bizning davlatda eng kam iste'mol darajasini ta'minlaydigan 35 xil mahsulot va xizmatlar to'plamidan tarkib topgan bo'lib, ularning 11 tasini non va non mahsulotlari, kartoshka, sabzavot, meva, go'sht, sut va baliq mahsulotlari, tuxum, shakar va qandolat mahsulotlari, o'simlik yog'i va margarin, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tashkil etadi. Iste'mol savatiga nooziq-ovqat mahsulotlarining 4 guruhi hamda xizmatlarning 5 turi ham kiradi.

Kambag'allik - turmush kechirish, mehnat layoqatini saqlab turish, avlodlar uzviyligini davom ettirish uchun zarur bo'lgan eng kam ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhlar iqtisodiy ahvolidan ko'rsatkichidir. “Kambag'allik” nisbiy tushuncha hisoblanib, har bir jamiyatdagi turmush darajasining umumiy standartiga bog'liq bo'ladi.

2020-2024-yillarda respublikada kambag'allikni qisqartirish vositalarining quyidagi asosiy strategik yo'nalishlari amaliyotga joriy etildi.

Birinchidan, mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishning **institutsional asoslari** yaratilib, kambag'allikni qisqartirish

¹⁸ ¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasi. “Xalq so'zi” gazetasi, 2020-yil 25-yanvar.

masalalarini muvofiqlashtiruvchi vazirlik hamda ushbu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy markaz tashkil etildi.

Ikkinchidan, pandemiya sharoitida ehtiyojmand aholini moddiy va nomoddiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida joylardagi 4 ta sektor, mahalla organlari, keng jamoatchilik vakillari hamda deputatlar bilan birgalikda kambag‘al va moddiy yordamga muhtoj oilalar ro‘yxati – “Temir daftar” tizimi tashkil etildi.

Mazkur tizimning shaffofligini ta‘minlash, ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘irlashgan va sektor rahbarlari tomonidan alohida nazoratga olingan oilalarni qayd etishga mo‘ljallangan saxovat.argos.uz dasturi ishga tushirilib, oilalarning mehnatga layoqatli ishsizlari bandligini ta‘minlash orqali ularga daromad manbai yaratishning “Vaqtinchalik tartibi” tasdiqlandi. Joriy yilda “Temir daftar”ga kiritilgan oilalarni kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha “motivatsiya, ko‘nikma va moliyaviy ko‘mak” tamoyili joriy etildi.

Uchinchidan, Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi kabi xalqaro tashkilotlarning taklif va tavsiyalari asosida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Minimal iste‘mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi 544-son qarori qabul qilindi.

To‘rtinchidan, o‘rta va uzoq muddatlarda kambag‘allikni qisqartirishning strategik maqsadlarini belgilash maqsadida, Jahon banki va BMT Taraqqiyot Dasturi ekspertlari bilan birga “2021-2030-yillarga qadar O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi” loyihasi ishlab chiqildi.

Xulosa. Kambag‘allikni aniqlash va qisqartirish O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Mamlakatda kambag‘allikni aniqlash uchun turli metodologiyalar qo‘llanilib, aholi daromadlari va iste‘mol xarajatlari asosida kambag‘allik chegarasi belgilangan. Kambag‘allikni qisqartirish uchun davlat tomonidan bir qator chora-tadbirlar, jumladan, ijtimoiy yordamlar, bandlikni oshirish, kasb-hunar o‘rgatish va arzon uy-joylar yaratish kabi dasturlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishning uzoq muddatli strategiyalari ishlab chiqilib, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Kelajakda bu yo‘nalishda yanada samarali strategiyalar va innovatsiyalarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Yangiboyev Berdiyar Yangiboyevich-Qarshi “*Iqtisodiyot va pedagogika*”

Universiteti professor, E-mail: yangiboyevberdiyar@mail.ru

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA‘MINLASH MASALALARI

Annotatsiya: maqolada “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti tarmoq va sohalarida barqaror iqtisodiy o‘sisni ta‘minlash, shungdek, aholi daromadlarini o‘stirib borish asosida xalqimizning moddiy va ma‘naviy farovonligini oshirish bilan bo‘liq bo‘lgan masalalar yuzasidan fikrlar bildirildi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, aholining farovonligi, moddiy farovonlik, ma'naviy farovonlik, taraqqiyot strategiyasisi, to'liq bandlik, yalpi taklif, potensial YaIM, real ishlab chiqarish tizimi, aholi daromadlari, aholi xarajatlari, "iste'mol savati", kambag'allik chegarasi.

Аннотация: в статье обсуждаются вопросы, связанные с повышением материального и духовного благосостояния народа через повышение доходов населения на основе устойчивого экономического роста в различных отраслях и сферах национальной экономики, что предусмотрено задачами стратегии "Узбекистан-2030".

Ключевые слова: экономический рост, благосостояние населения, материальное благосостояние, духовное благосостояние, стратегия развития, полная занятость, валовое предложение, потенциальный ВВП, реальная производственная система, доходы населения, расходы населения, "потребительская корзина", уровень бедности.

Abstract: this article presents the issues related to increasing the well-being of the population based on the sustainable economic growth in various sectors of the national economy, following the tasks outlined in the "Uzbekistan - 2030" strategy. The focus is on improving the material and spiritual well-being of the people by increasing their incomes. The paper discusses various related topics within this framework.

Keywords: economic growth, population well-being, material well-being, spiritual well-being, development strategy, full employment, gross supply, potential GDP, real production system, population income, population expenses, "consumer basket", poverty threshold.

Barqaror iqtisodiy o'sish va aholining farovonligi o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, biri ikkinchisini to'ldirib turadi, shu bilan birga, iqtisodiy o'sishning jamiyat taraqqiyotidagi o'rniga alohida ahamiyat berish lozim.

Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosida aholining moddiy va ma'naviy farovonligini oshirish masalasiga doimo alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasisi asosida erkin va farovon jamiyat qurish, har bir oilaning tinch va farovon hayot kechirishi va aholi turmush darajasining barqaror o'sib borishini ta'minlash e'tiborimiz markazida bo'ladi" (1).

Barqaror iqtisodiy o'sish to'liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potensial ishlab chiqarish darajasining uzoq muddatli ortishi tendensiyasini anglatadi. Iqtisodiy o'sish yalpi taklifning yoki haqiqiy yoki potensial YaIM hajmining o'sishini bildiradi.

Iqtisodiy o'sish muammosini o'rganish natijasida real ishlab chiqarish tizimi duch keladigan cheklangan resurslardan samarali foydalanish muammosiga echim topiladi, chunki, iqtisodiy o'sish omillari va ularning samaradorligini o'rganish hamda tahlil qilish jamiyat oldidagi eng dolzarb muammolardan biridir, zero iqtisodiy o'sish nafaqat mamlakatlar real daromadlarining umumiy hajmining o'sishini, shuningdek, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdorining ham o'sishini anglatadi.

Barqaror iqtisodiy o'sish aholi ehtiyojlarini to'la qondirish maqsadida mavjud imkoniyatlardan unumli va oqilona foydalanishga asoslangan rivojlanish bo'lib, uni "ijtimoiy"- "iqtisodiy"- "ekologik" uchlikning o'zaro bog'liqlikdagi rivojlanishiga asoslangan sinergetik samara hisobidan taraqqiy etadigan jarayon sifatida tasavvur qilish mumkin.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi iqtisodiy yondashuv cheklangan resurslardan oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Ijtimoiy yondashuv global miqyosda ijtimoiy barqarorlik va madaniy xilma-xillikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Barqaror iqtisodiy o'sish albatta aholi farovonligini ta'minlashda eng muhim vositalardan biri sifatida tan olinadi.

Aholining farovonligi darajasi o'z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha bo'lib, ularning moddiy, ma'naviy va ma'rifiy ehtiyojlarini qondirish jarayonlarini ifodalovchi ko'p qirrali, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir.

Aholining farovonligi aholi daromadlari, xarajatlari, iste'moli darajasi va uning tarkibi, uy-joy bilan ta'minlanganligi kabilarni qamrab oladi. Shuning uchun ham iqtisodiy adabiyotlarda aholining farovonligi darajasini turli ko'rsatkichlar tizimi bilan ifodalab, ularni turli belgilar bo'yicha guruhlariga ajratgan holda ko'rsatib kelishadi.

Aholining farovonligi darajasi tushunchasining mohiyatidan bu kategoriyaning naqadar murakkab va ko'p qirrali mazmunga ega ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin, balki, u qandaydir bitta ko'rsatkich bilan emas, aholi daromadi va turmushning turli qirralarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi.

Hozirgi paytda aholi ishlab ish haqi, turli tadbirkorlik, hunarmandchilik qilib daromad, mulkini ijaraga berib - ijara haqi, qimmatbaho qog'ozlar sotib olib, ulardan dividend, dehqonchilik, chorvachilik bilan sho'g'ullanib daromad olmoqdalar.

Mamlakatimiz aholisi daromadlari oshib borishi bilan uning tarkibi o'zgarib, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad barqaror o'sib borayotganligi ijobiy hisoblanadi. Bu mamlakatimizda tadbirkorlikka, xususan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatlariga yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar natijasidir. Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar ham aholi daromadlarining katta qismini tashkil etadi va uning barcha daromadlaridagi hissasi yildan-yilga oshib bormoqda. Shular orqali aholining farovonligi ta'minlanadi. Mazkur maqolada esa barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash vositasida aholi farovonligini ta'minlash masalalariga ko'proq e'tibor beriladi.

Aholining farovonligi darajasining pasayib ketishi holatlari ham kuzatilishi mumkin. Eng kam iste'mol budjetga yoki uning bir qismi (50 % foizi)ga to'g'ri keladigan daromad kambag'allik chegarasi deyiladi.

Hukumatimiz kambag'allik chegarasidan past darajada yashovchi aholiga turli yordam ko'rsatib, o'zining ijtimoiy himoyasiga olgan. Kishilarning yashash minumimi - eng zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat va iste'mol buyumlari hamda xizmatlar ko'rsatish hajmi qiymatlarining yig'indisidir. U "istemol savati" nomi bilan ataladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi 158-son Farmoni bilan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston - 2030" strategiyasi tasdiqlandi va unda quyidagi asosiy g'oyalar aks ettirilgan:

-barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish;

-aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;

-aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;

-xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

-mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash (1).

“O'zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida o'z dolzarbligini yo'qotmagan barcha maqsadlarga erishish, shuningdek, 2022 - 2026 - yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirishning taraqqiyot strategiyasida bir qator vazifalar va yo'nalishlar belgilab berilgan bo'lib, ularning eng asosiylari inson, uning qadriyatini va farovonligini oshirishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Strategiyada 2030-yilga qadar milliy iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar” qatoriga kirish, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish kuzda tutilgan (2).

Iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini va o'rta muddatlarga mo'ljallangan davlat qarzini boshqarish strategiyasini amalga oshirish alohida o'ringa ega. Shu ishlar amalga oshirilsa davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatini 50 foizdan oshmasligi va budjet taqchilligini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3-4 foizdan past bo'lgan miqdorda bo'lishini ta'minlashga erishish mumkinligi ham alohida ko'rsatib o'tilgan.

Ma'lumki, barcha mamlakatlar uchun barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda sanoatning alohida o'rin egallaydi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek “Keyingi besh yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida sanoatning ulushi 25 foizdan 34 foizga, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1,3 martaga o'sdi” (3).

Shu nuqtai-nazardan ham strategiyada sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobarga oshirish, yuqori daromadli mahsulot uchun zarur bo'lgan mis ishlab chiqarishni 3,5 barobar, oltin - 1,5 barobar, kumush - 3 barobar, uran - 3 barobarga oshirish, elektrotexnika sanoatida misni qayta ishlash hajmini 300 ming tonnaga oshirish va barcha maishiy texnikani ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga 1,5 milliard dollar investitsiya sarflash belgilab berilgan (4).

Shu bilan birga, sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish, yirik korxonalar tomonidan import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'ygan korxonalarni faol rag'batlantirish tizimini joriy

qilishga, har bir tumanda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgan (5).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ham mazkur masalaga alohida e'tibor qaratilib, "Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni - 1,6 barobar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish masalasiga urg'u berib o'tilgan (6).

Aholimizning farovonligini ta'minlashda avtomobilsozlik sohasining o'rni beqiyos. Shung uchun ham strategiyada avtomobilsozlik sohasida raqobat muhitini yaratish va ishlab chiqarish hajmini 1 million donaga yetkazish masalasi ham kun tartibiga kiritilgan.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash orqali aholi farovonligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan masalarni o'rganish asosida quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

- barqaror iqtisodiy o'sish va aholining farovonligi tushunchalari o'zaro bog'langan bo'lib, albatta bu yerda iqtisodiy o'sishga alohida o'rin beriladi, chunki iqtisodiy o'sishni ta'minlash orqaligina aholi farovonligini ta'minlash mumkin bo'ladi;

- aholining farovonligi aholi daromadlari, xarajatlari, iste'moli darajasi va uning tarkibi, uy-joy bilan ta'minlanganligi kabilarni qamrab oladi;

- har bir mamlakat aholisining daromadlari oshib borishi bilan uning tarkibi ham o'zgarib boorish tendentsiyaga ega bo'lib, ular orasida tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromadning barqaror o'sib borayotganligi ijobiy holat hisoblanadi;

- aholining farovonligi darajasining pasayib ketishi kambag'allikka olib keladi, davlat kambag'allik chegarasidan past darajada yashovchi aholiga turli yordam ko'rsatib, o'zining ijtimoiy himoyasiga oladi;

- “O'zbekiston - 2030” strategiyasi barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishga alohida e'tibor qaratilgan;

- aholining farovonligini oshirish uchun milliy iqtisodiyotda institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish alohida o'ringa ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.-Toshkent: "O'zbekiston", 2022, 124-bet.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi 158-son Farmoni.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.-Toshkent: "O'zbekiston", 2022, 46-bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi 158-son Farmoni, 12-bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi 158-son Farmoni, 13-bet.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 14-bet.

III SHO'BA. BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA HUDUDLARDA XIZMATLAR SOHASINI JADAL RIVOJLANTIRISH ORQALI XALQARO VA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

Yorqulov Muhammadmurod Axmad o'g'li - "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi, PhD O'quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i, e-mail: mukhammadmurod.yorkulov@univ-silkroad.uz

HUDUDIY TURIZMNING IJTIMOIIY-IQTISODIY MOHIYATI VA RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududiy turizm va uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati hamda unga ta'sir etuvchi turli xil omillar mahalliy va xalqaro avtorlarning tadqiqotlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, "Hududiy turizm" tushunchasiga ta'rif berilib, unga bevosita ta'sir etuvchi omillarni to'g'ri baholash va ularni hisobga olgan holda turizmni boshqarish uchun samarali siyosat va choralar ishlab chiqish to'g'risida takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: hududiy turizm, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, strategik rivojlantirish.

Abstract. This article analyzes regional tourism, its socio-economic impacts, and the various factors influencing it based on research by local and international authors. Furthermore, the concept of "Regional Tourism" is defined, and recommendations are made for developing effective policies and measures for tourism management, considering the factors that directly affect it and ensuring their proper evaluation.


Keywords: Regional tourism, socio-economic factors, strategic development.

Аннотация. В этой статье анализируется региональный туризм, его социально-экономическая сущность и различные факторы, влияющие на него, на основе исследований местных и международных авторов. Также дается определение понятию "Региональный туризм", а также предложены рекомендации по разработке эффективных политик и мер управления туризмом с учетом факторов, которые непосредственно на него влияют, и правильной оценки этих факторов.

Ключевые слова: Региональный туризм, социально-экономические факторы, стратегическое развитие.

Hududiy turizm va uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati haqida turli xil nashrlarda olimlar turlicha izohlar berib o'tishgan. Jenningsning (2009) ta'rifiga ko'ra "Hududiy turizm" ma'lum bir mintaqa yoki hududda hordiq chiqarish yoki hududning diqqatga sazovor joylarini ziyorat qilish maqsadida sayohat qilish amaliyotini anglatadi.¹⁹ Xususan, turizmning bu turi odatda sayohatchining yashash joyiga nisbatan yaqin geografik yaqinlikdagi yo'nalishlarga tashrif buyurishni o'z ichiga oladi. Masalan, mahalliy diqqatga sazovor joylarni ziyorat qilish, madaniy va ko'ngilochar joylarni o'rganish, ochiq havoda dam olish yoki ma'lum bir mintaqaning noyob va o'ziga xos taraflarini borib ko'rishni o'z ichiga oladi.

¹⁹Jennings, G. R. (2009). Methodologies and methods. In T. Jamal & M. Robinson (Eds.), The SAGE handbook of tourism studies (pp. 672–691). Sage Publications.



1-chizma. Mintaqaviy turizm bozorining ijtimoiy samaradorlik yo'nalishlari.
(muallif G.R.Xidirova)

Hududiy turizm umumiy turizm industriyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish, madaniy almashinuvni qo'llab quvvatlash, tabiiy va madaniy merosni saqlashga yordam beradi. Shuningdek, mazkur turizm faoliyati sayohatchilarga o'z mintaqalarida yoki yaqin hududlarda kamroq ma'lum bo'lgan yo'nalishlar va destinatsiyalarni kashf qilish imkoniyatini berishi mumkin. Shuningdek, J. F. Ruaultning (2018) fikricha hududiy turizm yirik shahar markazlaridan tashqarida ham amalga oshiriladi, lekin uning asosiy e'tibori ko'proq turistlar tashrif buyuradigan turli hududlarning o'ziga xos xususiyatiga qaratilgan.²⁰ Misol uchun, Grand Kanyon (Grant Canyon) kabi geografik xususiyatga ega bo'lgan hududlar, vinochilik bilan mashhur bo'lgan hududlar (vino turizmi) ham hududiy turizmga misol bo'la oladi. Bundan tashqari hududiy turizm kichik va katta shaharlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Mazkur hududlar har xil o'lchamda bo'lib, odatda mamlakatning katta kichikligi hamda iqtisodiy rivojlanganligiga ham bevosita bog'liqdir.²¹

Turizmning mintaqadagi ijtimoiy samaradorlikka bevosita ta'sirini turli xil yo'nalishlarda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, bu yo'nalishda xorijda bir qator ilmiy ishlar chop etilishiga qaramasdan, turizmni ijtimoiy rivojlanishga va aholi turmush darajasiga ta'sirining ilmiy-nazariy asoslari hali to'liq shakllanmagan (G.R. Xidirovan, 2020). Avvalo, mintaqaviy turizm bozorini ijtimoiy sohaga ta'sirining asosiy yo'nalishlarini aniqlab olish zarur.

Hududiy turizm va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ma'lum bir hududgagina taalluqli bo'lishiga qaramasdan, umumiy olganda turizm industriyasining rivojlanishi bevosita va bilvosita tashqi ichki omillarga ham bog'liq hisoblanadi. Ushbu omillarni to'g'ri baholash va ularni hisobga olgan holda turizmni boshqarish uchun samarali siyosat va choralar ishlab chiqish muhim

²⁰ Ruault, J. F. (2018). Beyond tourism-based economic development: city-regions and transient custom. *Regional Studies*, 52(8), pp. 1122-1133.

²¹ <https://www.acsedu.com/info/adventure-and-ecotourism/guiding-ecotourism/rural-tourism.aspx>

ahamiyatga ega. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar, siyosiy-huquqiy muhit, madaniy va tarixiy merosni saqlash, tabiiy geografik sharoitlar, infratuzilma va xavfsizlik kabi masalalar turizm sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi.²² Shunigdek, turizm industriyasiga ta’sir etuvchi omillarni turli xil olimlar va xalqaro tashkilotlar turlicha talqin qiladi. Misol uchun, Telferning (2014) fikricha turizmni rivojlantirish mintaqalar, mamlakatlar va munitsipalitetlar o‘rtasidagi turizm aloqalari va hamkorlik tabiatiga taalluqlidir. Ushbu tadqiqotga ko‘ra, turizmni rivojlantirish ma’lum bir mintaq bilan chegaralanib qolmaydi, balki munitsipalitet, mamlakat yoki mintaqadan tashqariga chiqadi.²³ Globallashuv va jahon miqyosidagi iqtisodiy integratsiya sharoitida turizm millatlar, mintaqalar va joylar o‘rtasidagi aloqa va hamkorlikda rivojlantiriladi va bu jarayon mintaqaviy aloqalarning ahamiyatini kuchaytiradi.²⁴ (Song, 2018).

Xulosa o‘rnida, mintaqaviy iqtisodiyotni rag‘batlantiradigan muhim kuchlardan biri bo‘lishiga qaramay, hududiy turizmga ijtimoiy-iqtisodiy faktorlar, jumladan²⁵, jumladan, YaIM, bandlik holati, shaxsiy daromad, sog‘liq va gigiyena, sanoat ishlab chiqarish indeksi va ijtimoiy tarmoqlar²⁶ kabilar o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ijtimoiy-iqtisodiy faktorlardan ham tashqari, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki hududning atrof-muhiti va geografik joylashuvi, jumlada, iqlimi, namlik darajasi kabi faktorlar hududiy turizmga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi omillar hisoblanadi. Yuqorida berilgan va turli xil olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga qaramasdan, ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham atrof-muhit va geografik faktorlarning uzviy ravishda hududiy turizmga ta’sir etadi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alonso-Almeida, M.d.M.; Borrajo-Millán, F.; Yi, L. Are social media data pushing overtourism? The case of Barcelona and Chinese tourists. *Sustainability* 2019, 11, 3356.
2. Jennings, G. R. (2009). Methodologies and methods. In T. Jamal & M. Robinson (Eds.), *The SAGE handbook of tourism studies* (pp. 672–691). Sage Publications.
3. Joshi, O.; Poudyal, N.C.; Larson, L.R. The influence of sociopolitical, natural, and cultural factors on international tourism growth: A cross-country panel analysis. *Environ. Dev. Sustain.* 2017, 19, 825–838.
4. Khan, A.; Bibi, S.; Ardito, L.; Lyu, J.; Hayat, H.; Arif, A.M. Revisiting the Dynamics of Tourism, Economic Growth, and Environmental Pollutants in the

²² Pizam, A. va Mansfeld, Y. (1999) *Consumer Behaviour in Travel and Tourism*. NY: Routledge.

²³ Telfer, D. J. (2014). Tourism and regional development issues. In *Tourism and Regional Development Issues* (pp. 140- 177). Channel View Publications. [https:// doi.org/10.21832/9781845414740-007](https://doi.org/10.21832/9781845414740-007)

²⁴ Song, H., Li, G., & Cao, Z. (2018). Tourism and economic globalization: An emerging research agenda. *Journal of Travel Research*, 57(8), 999-1011. <https://doi.org/10.1177/0047287517734943>

²⁵ Joshi, O.; Poudyal, N.C.; Larson, L.R. The influence of sociopolitical, natural, and cultural factors on international tourism growth: A cross-country panel analysis. *Environ. Dev. Sustain.* 2017, 19, 825–838.

Khan, A.; Bibi, S.; Ardito, L.; Lyu, J.; Hayat, H.; Arif, A.M. Revisiting the Dynamics of Tourism, Economic Growth, and Environmental Pollutants in the Emerging Economies—Sustainable Tourism Policy Implications. *Sustainability* 2020, 12, 2533.

²⁶ Alonso-Almeida, M.d.M.; Borrajo-Millán, F.; Yi, L. Are social media data pushing overtourism? The case of Barcelona and Chinese tourists. *Sustainability* 2019, 11, 3356.

Emerging Economies—Sustainable Tourism Policy Implications. Sustainability 2020, 12, 2533.

5. Pizam, A. va Mansfeld, Y. (1999) Consumer Behaviour in Travel and Tourism. NY: Routledge.

6. Ruault, J. F. (2018). Beyond tourism-based economic development: city-regions and transient custom. Regional Studies, 52(8), pp. 1122-1133

7. Song, H., Li, G., & Cao, Z. (2018). Tourism and economic globalization: An emerging research agenda. Journal of Travel Research, 57(8), 999-1011. <https://doi.org/10.1177/0047287517734943>

8. Telfer, D. J. (2014). Tourism and regional development issues. In Tourism and Regional Development Issues (pp. 140- 177). Channel View Publications. <https://doi.org/10.21832/9781845414740-007>

Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li – Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi, musirmanov1995@gmail.com

TURIZMDA BLOKCHEYNDAN FOYDALANISH: XAVFSIZ TO'LOV TIZIMLARI VA SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH

Annotatsiya: Bugungi kunda blokcheyn texnologiyasi turli sohalarda, jumladan, turizm sanoatida ham keng qo'llanilmoqda. Ushbu maqolada turizmda blokcheyndan foydalanishning asosiy jihatlari, xususan, xavfsiz to'lov tizimlarini yaratish va sayyohlarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish masalalari ko'rib chiqiladi. Blokcheyn texnologiyasining asosiy afzalliklaridan biri – yuqoridagi markazlashmagan va o'zgartirilmaydigan (immutable) ma'lumotlar bazasiga ega ekanligidir. Bu esa turistlar va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida xavfsiz hamkorlikni ta'minlaydi. Xususan, kriptovalyutalar orqali to'lov tizimlarining rivojlanishi va ularning an'anaviy bank xizmatlariga nisbatan qulayliklari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: blokcheyn, turizm, xavfsiz to'lov tizimlari, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, kriptovalyuta, markazlashmagan tizim, firibgarlikdan himoya.

Аннотация: Сегодня технология блокчейн широко применяется в различных сферах, в том числе в сфере туризма. В данной статье рассматриваются основные аспекты использования блокчейна в туризме, в частности, создание безопасных платежных систем и защита персональных данных туристов. Одним из главных преимуществ технологии блокчейн является то, что она имеет децентрализованную и неизменяемую базу данных. Это обеспечивает безопасное сотрудничество между туристами и поставщиками услуг. В частности, будет проанализировано развитие платежных систем с использованием криптовалют и их удобство по сравнению с традиционными банковскими услугами.

Ключевые слова: блокчейн, туризм, безопасные платежные системы, защита персональных данных, криптовалюта, децентрализованная система, защита от мошенничества.

Abstract: Today, blockchain technology is widely used in various fields, including the tourism industry. This article examines the main aspects of using blockchain in tourism, in particular, the creation of secure payment systems and the protection of tourists' personal data. One of the main advantages of blockchain technology is that it has a decentralized and immutable database. This ensures secure cooperation between tourists and service providers. In particular, the development of payment systems using cryptocurrencies and their convenience compared to traditional banking services are analyzed.

Key words: *blockchain, tourism, secure payment systems, personal data protection, cryptocurrency, decentralized system, fraud protection.*

Kirish. Zamonaviy raqamli texnologiyalar taraqqiyoti turizm sanoatida ham innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Xususan, blokcheyn texnologiyasining rivojlanishi ushbu sohada xavfsizlik, shaffoflik va samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Turizmda blokcheyndan foydalanish ayniqsa to'lov tizimlarini xavfsizlashtirish va sayyohlarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish borasida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy to'lov tizimlari va ma'lumotlar bazalari ko'pincha firibgarlik, kiberxavfsizlik tahdidlari va ma'lumotlar buzilishiga moyil bo'ladi. Blokcheyn esa markazlashmagan, o'zgartirilmaydigan (immutable) va shaffof tizim bo'lib, tranzaksiyalarni xavfsiz tarzda amalga oshirish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va firibgarlikning oldini olish imkonini beradi.

Ushbu maqolada turizm sohasida blokcheyn texnologiyasining qo'llanilish jihatlarini, uning to'lov tizimlarida va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda tutgan o'rni, afzalliklari hamda istiqbollari tahlil qilinadi. Xususan, kriptovalyutalar orqali to'lov tizimlarini tashkil etish, shaxsiy identifikatsiya ma'lumotlarini himoya qilish va sayohatchilarga qulay va ishonchli xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda turizm sohasida blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish, xususan, xavfsiz to'lov tizimlari va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslanib, quyidagi usullar qo'llaniladi:

Birinchidan, nazariy tahlil usuli orqali blokcheyn texnologiyasining mohiyati, uning turizmda qo'llanilishi va mavjud tadqiqotlar asosida shakllangan ilmiy yondashuvlar o'rganiladi. Bu borada xalqaro ilmiy maqolalar, kitoblar, hisobotlar va turizm tashkilotlarining tadqiqotlari tahlil qilinadi.

Ikkinchidan, taqqoslash va analogiya usuli yordamida blokcheyn texnologiyasidan turizmning turli yo'nalishlarida, jumladan, mehmonxona biznesi, aviachiptalar tizimi, turistlar identifikatsiyasi va to'lov operatsiyalarida qo'llanilishi o'rganiladi. Xalqaro tajribalar asosida turizmda blokcheyn texnologiyalarining joriy etilish darajasi va samaradorligi baholanadi.

Uchinchidan, empirik tadqiqot usuli orqali blokcheynning turizm sohasida real qo'llanilishiga oid ma'lumotlar tahlil qilinadi. Bunda turistik kompaniyalar, mehmonxonalar va aviakompaniyalar tomonidan blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha amaliy holatlar o'rganiladi.

To'rtinchidan, sotsiologik usullar qo'llanilib, turistik xizmatlardan foydalanuvchilarning blokcheyn texnologiyalariga munosabati va ularning xavfsizlikka oid talablarini aniqlash uchun so'rovnomalar va intervyular o'tkazilishi mumkin. Sayyohlarning blokcheyn asosida amalga oshiriladigan to'lov tizimlari va shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishga bo'lgan ishonchi tahlil qilinadi.

Beshinchidan, statistik tahlil usuli yordamida blokcheyn texnologiyalari bilan bog'liq ma'lumotlar, to'lov tizimlari va kiberxavfsizlik bo'yicha statistik ko'rsatkichlar o'rganiladi va natijalar tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasining bunday kompleks yondashuvi blokcheyn texnologiyalarining turizm sohasidagi qo'llanilish imkoniyatlarini har tomonlama o'rganishga va amaliy takliflar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyat. Turizm sohasida blokcheyn texnologiyasidan foydalanish xavfsiz to'lov tizimlarini yaratish va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda ilmiy-nazariy tadqiqotlarni kengaytirish va amaliyotga tatbiq etish zarur. Blokcheyn texnologiyalari asosida sayyohlar uchun xavfsiz va tezkor to'lov tizimlarini ishlab chiqish hamda kriptovalyutalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi. Xususan, smart-kontraktlar yordamida mehmonxonalar, aviachiptalar va turistik xizmatlar uchun avtomatlashtirilgan to'lov tizimlarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, turizm sohasida blokcheyn texnologiyalarining huquqiy asoslarini shakllantirish, ularni tartibga solish va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish ham dolzarb hisoblanadi. Blokcheyn texnologiyalari orqali sayyohlik xizmatlarining shaffofligini oshirish, mijozlarning ma'lumotlarini markazlashmagan holda saqlash va firibgarlikning oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish lozim.

Turizm industriyasida blokcheynning amaliy qo'llanilishi xizmat ko'rsatish sifati va ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, mehmonxonalar, aviachiptalar va turistik agentliklar uchun markazlashmagan to'lov tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, blokcheyn texnologiyasini qo'llash orqali turistlar haqidagi noxolis sharhlar va soxta reytinglar muammosini bartaraf etish mumkin.

Blokcheynning kelajakdagi istiqbollari haqida fikr yuritilganda, uning turizm sohasidagi integratsiyasini jadallashtirish uchun maxsus tadqiqot markazlari va startaplarni qo'llab-quvvatlash lozim. Bu texnologiya asosida yangi biznes modellarini shakllantirish va xizmatlar sifatini oshirish uchun innovatsion yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur. Shu bilan birga, turistlarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va ularga qulay hamda xavfsiz xizmatlarni taqdim etish bo'yicha davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish muhimdir.

Blokcheyn texnologiyasining turizmga keng joriy etilishi nafaqat xavfsizlik darajasini oshiradi, balki butun sohaning raqamli transformatsiyasiga zamin yaratadi. Shu sababli, bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va amaliyotga tatbiq etish turizmning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musirmanov Shohboz. "Ijtimoiy tarmoqlar orqali turistik joylarni reklama qilish va mijozlar bilan samarali aloqa o'rnatish." *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting* 4.10 (2024): 369-374.

2. Musirmanov, Shohboz. "It texnologiyalardan foydalangan holda turizmni rivojlantirishda olib borilayotgan islohotlar." *Академические исследования в современной науке* 3.14 (2024): 25-29.

3.Musirmanov, Shohboz. "Ichki turizmni rivojlantirish uchun foydalanilayotgan mahalliy ilovalar va ularni yaratish texnologiyalari." *Science and innovation in the education system* 3.5 (2024): 113-117.

4.Musirmanov, Shohboz. "Turizm sohasida kadrlar tayyorlashda amaliyot va nazariyaning pedagogik uyg'unligi." *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*. 4.11.

Ergashboyev Minghojiddin Jasurbek o'g'li – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi, ergashboyevminghojiddin@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0001-1268-4353>

O'ZBEKISTONNING CHEKKA HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISHDA AGROTURIZM IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya: Mamalakat yalpi ichki mahsuloti hajmida kattagina salmoqqa ega bo'lgan asosiy ikki soha bor. Bular qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmat ko'rsatish sohalaridir. Ammo, yana shunday bir soha borki, u yuqoridagilarning barchasini o'zida jamlay oladi, bu- "agroturizm"dir. Bizning davlatimiz uchun yangi tarmoq hisoblangan ushbu soha bir vaqtning o'zida ham ishlab chiqarish ham xizmat ko'rsatishni jadal rivojlantira olishi bilan ahamiyatga molikdir. Mazkur maqolada ushbu yo'nalishning qanday qilib xizmatlar sohasida yangi imkoniyatlar yaratishi va kerativ yechimlar berishi batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xizmatlar sohasi, agroturizm imkoniyatlari, tejamkorlik, investitsiyalar, ekologik barqarorlik.

Аннотация: Существует два основных сектора, на которые приходится большая доля валового внутреннего продукта страны. Это сельскохозяйственная продукция и сектор услуг. Однако есть еще одна отрасль, которая может объединить все вышеперечисленное, — это «агротуризм». Этот сектор, являющийся новой отраслью для нашей страны, важен, поскольку он позволяет быстро развивать как производство, так и предоставление услуг одновременно. В этой статье подробно рассказывается о том, как это направление может создать новые возможности и креативные решения в сфере услуг.

Ключевые слова: Сфера услуг, возможности агротуризма, сбережения, инвестиции, экологическая устойчивость.

Abstract: There are two main sectors that have a significant share in the country's gross domestic product. These are agricultural products and services. However, there is another sector that combines all of the above, which is agrotourism. This sector, which is considered a new industry for our country, is important because it can simultaneously develop both production and services. This article describes in detail how this direction can create new opportunities and provide creative solutions in the service sector.


Keywords: Service sector, agritourism opportunities, savings, investments, environmental sustainability.

Agroturizm — bu qishloq joylarida joylashgan fermer xo'jaliklari, bog'lar va boshqa qishloq xo'jaligi obyektlariga sayyohlarni jalb qilish orqali turizmni rivojlantirishdir. Bu turizm turi nafaqat dam olishni, balki qishloq hayoti bilan

yaqindan tanishishni, an'anaviy dehqonchilik usullari, milliy taomlar tayyorlash jarayonlari va mahalliy hunarmandchilik bilan shug'ullanish imkoniyatini ham taqdim etadi.²⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 11-mayda qabul qilingan "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda²⁸ 2021–2023-yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilangan. Ushbu hujjatda hududlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, xizmatlar sohasini rivojlantirish, jumladan, turizmning turli yo'nalishlarini, xususan, agroturizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida o'tkazilgan "Smart-turizm: xorijiy tajriba va uni O'zbekistonda qo'llash istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada agroturizmning rivojlanish istiqbollari muhokama qilingan.²⁹

Chekka hududlarda xizmatlar sohasini rivojlantirishda agroturizmni to'liq yo'lga qo'yish uchun quyidagi besh bosqichni amalga oshirish tavsiya etiladi:



Qishloq xo'jaligi bilan bog'liq turizmni rivojlantirish orqali xizmatlar sektorini kengaytirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish amalga oshiriladi. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ❖ Qishloq xo'jaligi resurslaridan foydalanish: Mahalliy dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik kabi sohalarni turistlar uchun jozibador qilish. Masalan, qishloq joylarida ekoturizm marshrutlarini yaratish, sayyohlarni

²⁷ Ergashboyev, M. J. o'g'li., & Eshmuradov, U. T. (2024). O'ZBEKISTONDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-USLUBIY ASOSLARI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(11), 19–26. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14518213>

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.05.2021 yildagi PQ-5113-son. Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. <http://lex.uz/docs/-5421233>

²⁹ <https://tsue.uz/ru/news/tdiuda-smart-turizm-xorijiy-tajriba-va-uni-ozbekistonda-qollash-istiqbollari-mavzusida-respublika-ilmiy-amaliy-anjumani-otkaziladi-barchangizni-konferensiyaga-taklif-etamiz>

dalada ishlash jarayonlari bilan tanishtirish yoki milliy taomlar tayyorlashni o'rgatish.³⁰

- ❖ Hududiy imkoniyatlarni rivojlantirish: Chekka hududlarda mavjud tabiiy resurslar (tog'lar, daryolar, o'rmonlar) va tarixiy-madaniy obidalarni turizmga integratsiya qilish orqali iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish.
- ❖ Ish o'rinlari yaratish: Agroturizm loyihalari orqali mahalliy aholiga ish o'rinlarini taqdim etish. Bu esa chekka hududlarda ishsizlik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi.
- ❖ Madaniyat va an'analarni saqlash: Agroturizm qishloq joylarining o'ziga xos madaniyati, urf-odatlar va hunarmandchilik mahsulotlarini targ'ib qilishga ko'maklashadi.³¹
- ❖ Tashqi investitsiyalarni jalb qilish: Agroturizm loyihalari orqali chet ellik turistlar va investorlarga hududning imkoniyatlarini ko'rsatish. Bu mahalliy infratuzilmani yaxshilashga hissa qo'shadi.
- ❖ Ekologik barqarorlikni ta'minlash: Agroturizm ekologik toza va barqaror turizm shakllaridan biri bo'lib, qishloq hududlarida ekologik muvozanatni saqlashga yordam beradi.

Mazkur tendensiyalarni amalga oshirish chekka hududlarda xizmatlar sohasining rivojlanishiga, mahalliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga va yashash sharoitlarini yaxshilashga olib keladi.

Agroturizm O'zbekistonning chekka hududlarida xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun muhim yo'nalishlardan biridir. Bu nafaqat mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish, balki milliy madaniyat va an'analarni saqlash, yangi ish o'rinlari yaratish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Davlat tomonidan qabul qilingan strategik hujjatlar va ilmiy tadqiqotlar agroturizmni rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratib, uning barqaror va erkin rivojlanishi, faoliyat yuritishi uchun huquqiy kafolat beradi. Shuning uchun ham ushbu sohaga katta e'tibor qaratilib, uning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish orqali xizmatlar sektorini staregik rivojlanishiga erishish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash, xizmatlar va ishlab chiqarish sohaslarining mamalakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini oshirish, resurslardan unumli foydalanish orqali tejamkorlikni rag'batlantirish, ayniqsa chekka hududlardagi aholining daromadlari ko'paytirish va xalq farovonligini, turmush sharoitlarini yaxshilash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Ergashboyev, M. J. o'g'li., & Eshmuradov, U. T. (2024). O'ZBEKSTONDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-USLUBIY ASOSLARI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(11), 19–26. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14518213>

³⁰ Ergashboyev, M. J. o'g'li ., & Eshmuradov, U. T. (2025). AGROTURIZM – QISHLOQ XO'JALIGIDA YANGI DAROMADLAR KALITI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(12), 36–41. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14601764>

³¹ Agritourism Development In Italy And New Zealand: A Comparative Analysis And Implications For Uzbekistan | American Journal of Advanced Scientific Research <https://search.app/dvBv3QmTB1TE3WhVA>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.05.2021 yildagi PQ-5113-son Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida <http://lex.uz//docs/-5421233>
3. "Smart-turizm: xorijiy tajriba va uni O‘zbekistonda qo‘llash istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. <https://tsue.uz/>
4. Ergashboyev, M. J. o‘g‘li ., & Eshmuradov, U. T. (2025). AGROTURIZM – QISHLOQ XO‘JALIGIDA YANGI DAROMADLAR KALITI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(12), 36–41.
5. Agritourism Development In Italy And New Zealand: A Comparative Analysis And Implications For Uzbekistan | American Journal of Advanced Scientific Research <https://search.app/dvBv3QmTB1TE3WhVA>
6. <https://www.researchgate.net/publication/356580439> Qishloq joylarda re kreatsion hududlar potensialini ekologik - iqtisodiy baholash
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/qishloq-turizmi-hamda-agroturizm-va-qishloq-turizmini-rivojlantirishda-investitsiyalarning-ahamiyati?>

Bekzod Sharipov – Buxoro davlat universiteti, tayanch doktoranti, E-mail: bekzodsherzodovichsharipov@gmail.com

BUXORO VILOYATI INKLYUZIV TURIZM INFRATUZILMASINING MODDIY-TEXNIK BAZASINI YAXSHILASHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR NATIJADORLIGINING UMUMIY TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm faoliyatining muhim asosi hisoblangan inklyuzivlikning o‘ziga xos xususiyatlari, alohida jihatlari, ularning tahlili amalga oshirilib, inklyuziv turizm infratuzilmasining moddiy-texnik bazasini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar natijadorligi o‘rganilgan. Tadqiqotlar asosida olingan natijalarning eng e‘tiborga molik bo‘lgan yo‘nalishlaridan kelib chiqib, muallif tomonidan Buxoro viloyatida mazkur yo‘nalishda olib boriladigan to‘g‘ri yondashuvlar natijasida hududlarda barqaror iqtisodiy rivojlanish hamda turizm xizmatlari sifatini yanada yaxshilashga erishilishini nazarda tutuvchi ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuzivlik, xizmat ko‘rsatish, destinatsiya, daromad, natijaga yo‘naltirilgan budjet, subsidiya, turizm bozori, nogironligi bo‘lgan shaxs, madaniy meros obyektlari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности и ключевые аспекты инклюзивности, являющейся важной основой туристической деятельности. Проведен анализ инклюзивности, а также изучена эффективность мер, направленных на улучшение материально-технической базы инфраструктуры инклюзивного туризма. Исходя из наиболее значимых направлений, выявленных в ходе исследования, автор предлагает научно-практические рекомендации и предложения, ориентированные на достижение устойчивого экономического развития регионов и повышение качества туристических услуг путем правильного подхода к развитию данного направления в Бухарской области.

Ключевые слова: инклюзивность, обслуживание, дестинация, доход, бюджет, ориентированный на результат, субсидия, туристический рынок, лица с инвалидностью, объекты культурного наследия.

Abstract. *This article examines the unique characteristics and key aspects of inclusivity, which serves as a crucial foundation for tourism activities. It analyzes inclusivity and evaluates the effectiveness of measures aimed at improving the material and technical base of inclusive tourism infrastructure. Based on the most significant findings of the research, the author proposes scientific and practical recommendations to ensure sustainable economic development in the regions and enhance the quality of tourism services through proper approaches to developing this sector in the Bukhara region.*

Keywords: *inclusivity, service provision, destination, income, result-oriented budget, subsidy, tourism market, persons with disabilities, cultural heritage sites.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida to‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-20-son qarori [2], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi “2022 — 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 543-son qaroriga [4] muvofiq Buxoro viloyati turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish, xorijiy sayyohlar oqimini kengaytirish hamda ko‘rsatilayotgan turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash borasida qator vazifalar belgilab berilgan bo‘lib, bularning barchasi viloyat turizm infratuzilmasining inklyuziv moddiy-texnik bazasini yaxshilashga qaratilgan manzilli loyihalar hamda chora-tadbirlarning amalga oshirilishi dolzarbligini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda turizm rivojining amaliy natijalarini dunyo miqyosida mamlakatimiz destinatsiyalari e‘tirofidan ham bilib olishimiz mumkin. Jumladan, AQSHning yetakchi nashri “The New York Times” Buxoro shahrini 2025-yilda tashrif buyurishga arziydigan 52 ta eng yaxshi destinatsiyalar ro‘yxatiga kiritdi. Nashr Buyuk ipak yo‘lidagi muhim nuqta bo‘lgan ushbu qadimiy shaharga e‘tibor qaratishga chaqirib, 2025-yilning kuzida Buxoroda birinchi marotaba zamonaviy san‘atni o‘zida namoyon etadigan Buxoro biennalesi bo‘lib o‘tishi qayd etgan. 5-sentabrdan 20-noyabrgacha bo‘lib o‘tadigan tadbirda jahonning mashhur rassomlari, jumladan, britaniyalik haykaltarosh Entoni Gormli va boshqa taniqli ustalarning asarlari namoyish etilishi ko‘zda tutilgan. Biennale shaharning tarixiy markazida, bir necha asrlardan beri mavjud bo‘lgan karvonsaroylar, diniy maktablar va islom madaniyatining boshqa me‘moriy durdonalar o‘rtasida o‘tkaziladi [5; 6].

Ma‘lumki, mamlakatimizda respublika budjeti xarajatlari samaradorligi va natijadorligini yanada oshirish maqsadida “Natijaga yo‘naltirilgan budget” tizimi qamrovini bosqichma-bosqich oshirib borish maqsad qilingan. Inklyuziv turizmni rivojlantirish hukumat darajasida e‘tibor markazida bo‘lib, 2025-yil uchun davlat maqsadli jamg‘armalari tarkibida turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi daromadlari prognozi hamda ularning xarajatlari tarkibi o‘rganilganda ham bu fikr tasdiqlandi.(1-jadvalga qarang).

**2025-yil uchun davlat maqsadli jamg'armalari tarkibida turizmni
qo'llab-quvvatlash jamg'armasi daromadlari
prognozi hamda ularning xarajatlari [3]**

Ko'rsatkichlar	Mablag' miqdori, mln so'm
Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	58 817,0
Daromadlar prognozi	240 000,0
<i>shu jumladan:</i>	
Joylashtirish vositalaridan undiriladigan turistik (mehmonxona) yig'imdan tushumlar	220 000,0
Boshqa daromadlar	20 000,0
Davlat budjetidan transfertlar	100 000,0
Xarajatlar	382 950,0
<i>shu jumladan:</i>	
Turizm sohasidagi maqsadli dasturlarni moliyalashtirish	40 000,0
Xorijiy turizm bozorlarida mamlakat turizm salohiyatini targ'ib qilish uchun xarajatlar	50 000,0
Turizm qo'mitasi, shu jumladan uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarini saqlash bilan bog'liq xarajatlar	118 500,0
Subsidiyalar to'lash	126 450,0
<i>shu jumladan:</i>	
Yangi mehmonxonalar qurish va jihozlash uchun investorlar xarajatlarining hamda dunyoning taniqli va nufuzli mehmonxona brendlaridan foydalanuvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan tashkilotlar royalti xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar to'lash	100 000,0
Turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasiga olib kelingan har bir turist uchun subsidiyalar ajratish	6 000,0
Turoperatorlar va aviatashuvchilarning xorijiy mamlakatlardan Samarqand, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlariga amalga oshirgan charter aviaqatnovlari bo'yicha har bir xorijiy turist uchun subsidiya ajratish	8 000,0
Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida ming nafar I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxsga O'zbekiston bo'ylab sayohat qilish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar to'lash	500,0
Eshitish qobiliyatini yo'qotgan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun surdogidlar tayyorlash kurslari xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar to'lash	1 950,0
Tadbirkorlik subyektlari tomonidan mehmonxonaning kamida uchta xonasi nogironligi bo'lgan shaxslar o'rindiqli aravachasidan foydalanishi uchun qulay tarzda jihozlanganda, shuningdek eshitishi va ko'rishi uchun displey hamda ovozli qurilmalar o'rnatilganda ushbu tadbirkorlik subyektlariga har bir maxsus jihozlangan xona uchun subsidiyalar to'lash	10 000,0
Turistik (mehmonxona) yig'imdan kelib tushadigan mablag'lar hisobidan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Xavfsiz turizmni ta'minlash jamg'armasiga o'tkaziladigan mablag'lar	22 000,0
Teatrlashtirilgan tomosha va konsert dasturlarini tashkil etish uchun O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari jamg'armasiga o'tkazmalar	2 000,0
"Yulduz bilan sayohat" loyihasini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari jamg'armasiga o'tkazmalar	4 000,0
Oldingi yillarda jalb etilgan kreditlarni qaytarish	20 000,0
Yil oxiriga kutilayotgan qoldiq	15 867,0

E'tiborlisi 2025-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida ming nafar I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxsga O'zbekiston bo'ylab sayohat qilish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun 500 million so'm, eshitish qobiliyatini yo'qotgan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun surdogidlar tayyorlash kurslari xarajatlarining bir qismini qoplash uchun 1 950 million so'm hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mehmonxonaning kamida uchta xonasi nogironligi bo'lgan shaxslar o'rindiqli aravachasidan foydalanishi

uchun qulay tarzda jihozlanganda, shuningdek eshitishi va ko'rish uchun displey hamda ovozli qurilmalar o'rnatilganda ushbu tadbirkorlik subyektlariga har bir maxsus jihozlangan xona uchun 10 000 million so'm miqdorida subsidiyalar to'lanishi belgilangan. 1-jadvalga asoslanib yillik umumiy ajratilgan 382 950 million so'm miqdoridagi mablag'lar tarkibidagi yuqoridagi subsidiyalar ulushi 3,2 % ni tashkil etishi aniqlandi.

Shuningdek, 2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilariga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlarida O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligiga temir yo'l transportida tashuvchilar va aviatashuvchilarning Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida yashovchi yoshga doir pensiya oluvchilar hamda nafaqa oluvchilar, nogironligi bo'lgan shaxslarga 50 foizlik imtiyozli tariflar bilan sotilgan chiptalarni sotish bo'yicha zararni qoplash uchun 20 000 million so'm miqdorida subsidiyalar ajratilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay va to'siqlarsiz muhit yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-266-son qarori bir qator pozitsiyalari bizning fikrimizcha inklyuziv turizmni infratuzilmasini rivojlantirish maqsadlariga muvofiq keladi, jumladan:

konsolidatsiyalashgan budjet mablag'lari, davlat ishtirokidagi korxonalar mablag'lari va boshqa markazlashtirilgan manbalar hisobidan, 2025-yil 1-yanvardan boshlab tadbirkorlik subyektlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlar mablag'lari hisobidan quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan va ta'mirlanadigan shaharsozlik faoliyati obyektlarining shaharsozlik hujjatlari loyihalarining texnik qismi nogironligi bo'lgan shaxslarga sharoitlar yaratish bo'yicha shaharsozlik norma va qoidalarida belgilangan talablarga muvofiqligi yuzasidan majburiy ekspertizadan o'tkaziladi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Transport vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda metro va avtobus bekatlari, chorrahalarini nogironligi bo'lgan shaxslar ehtiyojlariga moslashtirish uchun tegishli mablag'lar ajratish bo'yicha takliflarni kelgusi yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlariga kiritib boriladi.

2024-yilda madaniy meros obyektlarida to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturiga muvofiq [2], turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha Buxoro viloyatiga O'zbekiston musulmonlari idorasi mablag'lari hisobidan jami 28 million so'm miqdorida mablag' ajratilib, G'ijduvon tumani "Abduxoliq G'ijduvoniy" MFY hududidagi Abduxoliq G'ijduvoniy majmuasi uchun 7 mln so'm, Kogon tumani "Niyoz Hoji" MFY hududidagi Bahouddin Naqshband majmuasi uchun 7 mln so'm, Buxoro shahri Haqiqat ko'chasida joylashgan Masjidi Kalon hamda Mir Arab madrasalari uchun ham 7 million so'mdan yo'naltirilgan. Umuman olganda, respublika miqyosida mazkur yo'nalishda jami 2 565,2 mln so'm, shundan: Madaniy meros obyektlarini

restavratsiya qilish va tiklash uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan 1 485,2 mln so'm, mahalliy budjetdan 913 mln so'm, tadbirkorlik subyektlarining o'z mablag'laridan 167 mln so'm jalb qilingan.

Shuningdek, 2024-yil davomida Buxoro viloyatida muzeylar va konsert-tomosha obyektlarida to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturi belgilanib, mahalliy budjet mablag'lari, madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish va tiklash uchun davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida jami 1 296 mlrd so'm, shundan: respublika budjeti mablag'laridan 1 084 mlrd so'm, mahalliy budjet mablag'lari hisobidan 212 mln so'm yo'naltirildi va nogironligi bor turistlar uchun bir qator qulayliklar yaratildi.

Mavzuni ilmiy asosda o'rganish va turizm bozori mavjud rivojlanish tendensiyalaridan kelib chiqib quyidagi ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalarni ilgari suramiz:

1. Turizm sohasini rivojlantirishda inklyuziv turizm segmentining bozor potentsiali va mavjud qamrov darajasini inobatga olish lozim.

2. Inklyuziv turizm xizmatlar iste'molchilarining asosiy guruhlarini aniq belgilab olish, shuningdek avvalo ichi turizm bozoridagi oqim shakllanishning o'ziga xosligi hamda inklyuziv segment yosh guruhleri ehtiyojlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

3. Inklyuziv turizmni rivojlantirishda faqatgina budjet mablag'lariga suyanib qolmasdan, xalqaro grant mablag'larini hududlar miqyosida jalb etish mexanizmlarini ishlab chiqish, xususiy sektor hamda investorlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish samarali hisoblanadi.

4. Madaniy meros obyektlari, turizm tashrif obyektlari, diqqatga sazovor joylarda universal muhit shakllantirish borasidagi ilg'or xorij tajribalarini o'rgangan holda, "minimum xarajat – maksimum foyda"ga asoslangan tizim ishlab chiqish, Buxoro viloyati tarixiy markazini O'zbekistondagi ilk inklyuziv turizm hududiga aylantirishni taklif qilamiz. Bu orqali bosqichma-bosqich to'plangan tajribalar asosida butun respublika miqyosida nogironligi bo'lgan shaxslar va alohida ehtiyojlari mavjud turistlarga munosib xizmatlar taklif etish inkoniyatlari kengayib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxti:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-20-son qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6759699> (2.6)
3. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrda "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-1011-son Qonuni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7277618>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28 sentabrdagi "2022 — 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 543-son qarori.
<https://lex.uz/docs/-6212874>

5. <https://uzbektourism.uz/news/view?id=3719>;

6. <https://www.nytimes.com/interactive/2025/travel/places-to-travel-destinations-2025.html>

Farhod Mahmudovich Tirkashev – Sharof Rashidov nomidagi SamDU mustaqil-tadqiqotchisi, SamDVMCHBU Iqtisodiyot fakulteti assistenti,
Jo'raqul Rahmiddin o'g'li Yaxshiliqov – SamDVMCHBU Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi, tfm-79@mail.ru

BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA HUDUDLARDA XIZMATLAR SOHASINI JADAL RIVOJLANTIRISH ORQALI AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Agroturizm, qishloq hududlarida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqotda agroturizmning rivojlanish istiqbollari, uning iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri, shuningdek, hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish orqali agroturizmni qo'llab-quvvatlashning samarali strategiyalari tahlil qilinadi. Xususan, qishloq joylarida agroturizm faoliyatining kengayishi, mahalliy an'analar va madaniyatni saqlab qolish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlash kabi omillar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: agroturizm, barqaror iqtisodiy o'sish, xizmatlar sohasi, hududiy rivojlanish, qishloq hududlari, ijtimoiy ta'sir, iqtisodiy diversifikatsiya, ish o'rinlari yaratish, madaniy meros, turizm strategiyalari.

Аннотация: Агротуризм играет важную роль в обеспечении устойчивого экономического роста и повышении благосостояния населения через развитие сектора услуг в сельских районах. В данном исследовании анализируются перспективы развития агротуризма, его экономическое и социальное воздействие, а также эффективные стратегии поддержки агротуризма через активное развитие сектора услуг в регионах. Особое внимание уделяется расширению деятельности агротуризма в сельских местностях, сохранению местных традиций и культуры, созданию новых рабочих мест и обеспечению экономической диверсификации.

Ключевые слова: агротуризм, устойчивый экономический рост, сектор услуг, региональное развитие, сельские районы, социальное воздействие, экономическая диверсификация, создание рабочих мест, культурное наследие, туристические стратегии.

Annotation: Agrotourism plays a significant role in ensuring sustainable economic growth and enhancing the well-being of the population through the development of the service sector in rural areas. This study analyzes the prospects for the development of agrotourism, its economic and social impact, as well as effective strategies for supporting agrotourism through the active development of the service sector in regions. Particular attention is given to the expansion of agrotourism activities in rural areas, the preservation of local traditions and culture, the creation of new jobs, and ensuring economic diversification.

Keywords: agrotourism, sustainable economic growth, service sector, regional development, rural areas, social impact, economic diversification, job creation, cultural heritage, tourism strategies.

Agroturizm, qishloq xo'jaligi va turizmni birlashtirgan holda, qishloq hududlarining iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish va xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali agroturizmni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Barqaror iqtisodiy o'sish, iqtisodiyotning uzluksiz va muvozanatli rivojlanishini ta'minlaydi. Bu o'sish, resurslarni samarali boshqarish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni o'z ichiga oladi. Barqaror o'sish orqali qishloq hududlarida iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish va yangi ish o'rinlarini yaratish mumkin.

Xizmatlar sohasi iqtisodiyotning muhim tarmog'iga aylangan. Xususan, turizm va mehmonxona xizmatlari qishloq hududlarida iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi. Agroturizm, qishloq xo'jaligi faoliyatini turistlarga taqdim etish orqali xizmatlar sohasini rivojlantiradi.

Agroturizmning rivojlanish istiqbollari infratuzilmani yaxshilash orqali yo'llar, transport va kommunikatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, turistlar uchun qulay sharoitlar yaratadi. **Mahalliy mahsulotlarni targ'ib qilish bilan** qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish va brend yaratish orqali iqtisodiy daromadni oshirishga ko'mak beradi. Mahalliy aholiga turizm va mehmonxona xizmatlari bo'yicha treninglar o'tkazish orqali ularning malakasini oshirib ish bilan band qilish orqali davlat iqtisodiyotiga hissa qo'shish imkoniyatlari yaratiladi. Agroturizmni **davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashi** orqali ushbu sohani rivojlantirish uchun subsidiyalar, soliq imtiyozlari va boshqa qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini joriy etilmoqda. Bugungi kunda respublikamizda turizmning boshqa turlari qatori agroturizmni ham rivojlantirish muhim o'rin egallaydi. Mamlakatimiz meva-sabzavotchilik tarmog'i ham katta salohiyatga ega. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda yiliga 21 million tonnadan ortiq meva-sabzavot yetishtiriladi. Lekin, ularning bor-yo'g'i 1,5 million tonnasi eksport qilinadi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi uning raqobatbardoshligiga, modernizatsiyalashni amalga oshirishga bevosita bog'liqdir.

Agroturizmni rivojlantirishni o'ziga xos xususiyatlariga ega. Bular quyidagilar hisoblanadi:

- qishloq joylarida joylashish va ovqatlanish shaharga nisbatan 2-2,5 marotaba arzonligi;
- qishloq joylarining ekologik jihatdan tozaligi;
- ekologik toza ovqat turlarining mavjudligi;
- etnografik turizm ob'ekti sifatida, qishloq joylarida milliylikni ko'proq saqlanib qolganligi va boshqalar.

Agroturizmni ma'lum bir mintaqaning o'ziga xos dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish jarayonini ko'rsatish maqsadida tashkil etish mumkin. Bu tajriba yevropaning bir qancha davlatlarida rivojlangan. Masalan, Fransiya va Portugaliya mamlakatlarida uzumni yetishtirishdan boshlab, undan turli ichimliklar olishgacha bo'lgan bir butun jarayon tur sifatida taklif etilgan. Xuddi shunday jarayonlarni mamlakatimizda ham rivojlantirish imkoniyatlari keng. Mamlakatimizning xalqaro darajada ixtisoslashgan tarmog'i hisoblangan

paxtachilik tarmog'ida ham bir qancha turlarni ishlab chiqish mumkin. Bu jarayonni quyidagi ketma - ketlikda amalga oshirsa bo'ladi:

Paxta maydoni → paxta qabul qilish punkti → paxta tozalash zavodi → ip-yigiruv korxonasi → tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona → savdo do'konlari .

Bu turda, birinchi navbatda paxta maydoniga boriladi, unda hosilni yig'ib olish jarayoni ko'rsatilishidan boshlab, tayyor mahsulotga bo'lgan bir butun faoliyatni qamrab olinadi. Yuqoridagi sxemaga o'xshab qishloq xo'jaligini boshqa tarmoqlarida ham turli turlarni ishlab chiqish mumkin.

Turistik firmalar bilan fermer xo'jaliklar o'rtasida shartnomalar tuzish va hamkorlikda ishlashni yo'lga qo'yish;

Kelgan turistlarni tumanda ko'proq bo'lishini taminlash maqsadida sanoat turizmi va agroturizmni birgalikda tashkil qilish;

Xududlarda qishloq xo'jaligida tezkor axborot konsalting xizmatlarini rivojlantirish. Mazkur agroservis xizmatlarini sifatli yo'lga qo'yilishi qishloq xo'jaligida fermer va dehqon xo'jaliklarining zaruriy axborotlarga ega bo'lishi bilan birga turli ko'rinishdagi o'z vaqtida va malakali maslahatlar olish imkoniyatlarini yaratish bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda agroklasterni, bog'dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini soni va sifatini oshira olsak rivojlangan davlatlar singari bizning xududlarda ham agroturizm jadal sur'atlar bilan rivojlanadi. Chunki qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan birga agroturizm imkoniyatlari ya'ni, keng dalalar va maydonlar jumladan, fermer xo'jaliklarining mavjudligi, sanoat korxonalari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash zavodlaridan, intensiv bog'larni tashkil qilinganligi hamda bog'dorchilik, ushbu sohaning kelajakda gullab - yashnashiga zamin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son 2019 - 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida.
2. Adrian C. Newton. An Introduction to the Green Economy: 1st Edition. Routledge, 2014. - 382 p.
3. Барқарор тараққиёт ва табиатшунослик асослари. Дарслик. А.Э.Эргашев ва б. -Т.: Baktria press, 2016. - 296 б.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.04.2022 yildagi PQ-221-son Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori.
5. O. Oqyulov. Intellektual mulk huquqi. Falsafa va huquq instituti Toshkent – 2005.
6. Tirkashev, F., & Musurmonov, N. (2024). Global iqtisodiy rivojlanish sharoitida yashil iqtisodiyot muammolari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).
7. Tirkashev, F., & Toshpulatova, K. (2024). "Yashil" iqtisodiyot: konsepsiyaning shakllanishi va asosiy kategoriyalari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).

- 8.Tirkashev, F., & Zarmaxmatov, N. (2024). Raqamli iqtisodiyotning zamonamizdagi bugungi o'ri. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).
- 9.Tirkashev, F., & Xo'jaqulov, I. (2024). Jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdo munosabatlari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).
- 10.Tirkashev, F., & Raxmatullayev, S. (2024). Davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirishda klasterlarning ahamiyati. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).
- 11.Xamdamova, N., Tirkashev, F., Sayfullayev, A., & Erkinov, S. (2024). Chorvachilikning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati va uning rivojlanishi. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).
- 12.Tirkashev, F., & Isaxonov, S. (2024). Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).
- 13.Tirkashev, F., & Asomiddinov, H. (2024). Mahalliy soliqlar va mahalliy yig'imlarning iqtisodiy mohiyati. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).
- 14.Tirkashyev, F., & Asomiddinov, H. (2024). Tijorat tashkilotlarining investitsiya faoliyati.
- 15.Rahmiddin o'g, Y. J. R., & Tirkashyev, F. M. (2024). AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO AMALIYOTI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(12), 70-77.
- 16.Tirkashyev, F. M., & Asomiddin o'g'li, A. H. (2025). MOLIYAVIY RESURLARNI BOSHQARISHDA INTELLECTUAL MULKNING AHAMIYATI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 421-427.
- 17.Tirkashyev, F. M. (2025). INTELLEKTUAL MULK TOIFASINI TAVSIFLASH. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(32), 92-98.
- 18.Rahmiddin o'g, Y. J. RI., & Tirkashyev, F. M. (2024). AGROTURIZMNI RIVOJLANTRISHNING XALQARO AMALIYOTI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(12), 70-77.
- 19.Tirkashyev, F. M., & Asomiddin o'g'li, A. H. (2025). MOLIYAVIY RESURLARNI BOSHQARISHDA INTELLECTUAL MULKNING AHAMIYATI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 421-427.
- 20.www.lex.uz
- 21.www.stat.uz

Abdiqulova Dilsuz Shodiyor qizi - Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti, Agroturizm yo'nalishi 3- bosqich talabasi. Elektron pochta: abdikulovadilya.05@gmail.com,

Saydullayeva Fotima Jozilovna – Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti iqtisodiyot va biznes kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD. Elektron pochta: fsaydullayeva@yahoo.com

AGROKLASTERLAR NEGIZIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Keyingi yillarda jadal rivojlanib borayotgan va iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatayotgan yetakchi sohalardan biri bu – turizm. Turizmning bir qancha tarmoqlari mavjud bo'lib, qishloq xo'jaligi sohasiga o'z ta'sirini ko'rsatayotgan tarmog'i agroturizmdir. Agroturizm- qishloq turizmini hisoblanib qishloqda dam olish, sport, sog'lomlashtirish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish maqsadidagi sayohat turi hisoblanadi. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligiga katta daromad keltiradigan va uning jadal rivojlanishini ta'minlaydigan agroklasterni tashkil etish va ularning negizida agroturizmni rivojlantirish o'rganib chiqilgan.

Аннотация. Один из ведущих секторов, который стремительно развивается и оказывает значительное влияние на экономику в последние годы, — это туризм. Туризм имеет множество направлений, и одним из них, оказывающим влияние на сельское хозяйство, является агротуризм. Агротуризм — это вид сельского туризма, включающий отдых в сельской местности, занятия спортом, оздоровительные и культурно-просветительские мероприятия. В данной статье рассматривается организация агрокластеров, которые приносят значительный доход сельскому хозяйству и обеспечивают его динамичное развитие, а также развитие агротуризма на их основе.

Annotation. One of the leading sectors that has been rapidly developing and significantly impacting the economy in recent years is tourism. Tourism encompasses various branches, and one of its segments influencing agriculture is agrotourism. Agrotourism is a type of rural tourism that includes activities such as recreation in rural areas, sports, wellness, and cultural-educational events. This article explores the establishment of agroclusters that generate significant income for the agricultural sector and ensure its dynamic development, as well as the development of agrotourism based on these clusters.

Kalit so'zlar: Turizm, agroturizm, klaster, agroklasterni, innovatsiya, integratsiya.

Ключевые слова: Туризм, агротуризм, кластер, агрокластер, инновация, интеграция.

Key words: Tourism, agrotourism, cluster, agrocluster, innovation, integration.

Kirish. XX-asrning dastlabki yillarida insoniyat hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Bunday katta o'zgarishlar ilm-fan, texnika va texnologiyalar sohasida o'z aksini topmoqda. So'nggi yillarda xalqaro turistlar oqimi o'rtacha 7-10 foizga oshayotganligi kuzatilmoqda bu esa turizm jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 10 foizini tashkil etib, jahon iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatib boradigan sohaga aylanayotganidan darak beradi[1].

Turizm sohasi bilan hamkorlik qilish iqtisodiyotga samarali ta'sir ko'rsatadi, mavjud texnologiyalar ishlab chiqarishni yanada rivojlanishini ta'minlaydi, yangi ish o'rinlari yaratadi aholini bandligini ta'minlaydi, shahar markazlaridan tortib

qishloqlarning ham rivojlanishiga zamonaviy texnologiyalar kiritilishiga sabab bo'lmoqda.

Ushbu maqolada mamlaktimizda qishloq xo'jaligi tadbirkorlikni rivojlantirishning lokomotivi bo'lgan klasterlarda agroturizmni faoliyatini yuritish orqali ularni rivojlantira oladimi? kabi savollarga javob berilgan.

Adabiyotlar tahlili. Turizm dastlab shaharlarning, turistik obyektlarning va u yerdagi xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishiga, u orqali davlatga yuqori daromad keltirgan bo'lsa keyinchalik turizm qishloq xo'jaligi sohasiga kirib kelgan. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida "agroturizm", "agriturizm", "farm turizm", "qishloq xo'jaligida turizm", "qishloq xo'jaligidagi ko'ngilochar" kabi nomlar bilan tanilgan.

Agroturizm yaqinda paydo bo'lgan tushuncha emas ushbu soha yevropa mamalakatlari ancha avvaldan ishlatila boshlagan. Agroturizm so'zining o'zi ikki atamaning birikmasidan iborat: agrar va turizm. Turizm so'zi fransuzchada tourisme-sayohat, dam olish, shuningdek, sport va butun dunyo bo'ylab yoki siyosiy ma'rifiy vazifalarni bajaruvchi keng atamadir. Agrar lotinchada agrarius yerga, yerdan foydalanishga egalik qilishga oid tushuncha. Agroturizm dastlab 1970-yilda qishloq, dehqon, fermer turizmi kabi nomlar bilan rivojlana boshladi. Italiyada 1985-yil 5 dekabrda agroturizmga oid qonun qabul qilindi[2]. Ushbu qonunga ko'ra agroturizm bilan shug'ullanadigan dehqonlar bir qancha yer majburiyatlari va soliqlardan ozod qilingan, shu bois agroturizm aholi orasida keng tarqalib, ommalashib ketdi[3]. Agroturizm qishloq xo'jaliklariga ham bir qancha yengilliklar keltirgan yangi ish o'rinlari yaratilishiga va aholining ishsiz qatlamini ish bilan ta'minlashga olib keldi[4].

Klasterlar – bu bir hududda joylashgan va o'zaro iqtisodiy, ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi subyektlari guruhini anglatuvchi tuzilmadir. Shundan kelib chiqib agroklaster bu turli tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini (xarajatlarni taqsimlash, kredit koperativi, soliq optimallashtirish, innovatsiyalar va marketing va boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy ta'siri mavjud bo'lganda vujudga keladigan tizim) raqobatdosh qishloq xo'jaligi korxonasi[5].

Agroklasterlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlari chuqur tahlilni talab etadi[6].

Qishloqda klaster tizimi-agrar sektorning asosiy o'sish nuqtasi sifatida belgilanadi. Bu yangi yo'nalish qishloq xo'jaligiga sanoatni olib kirish, xomashyoni chuqur qayta ishlab, raqobatbardosh tayyor mahsulot va qo'shilgan qiymat hajmini ko'paytirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish muhim ro'l o'ynaydi. Qishloq xo'jaligida klasterlarning o'zni behisob bo'lganligini inobatga olgan holda mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qadoqlash va saqlash, tarmoq samaradorligini oshirish, agrosanoat istiqbollari, meva-sabzavotchilikda agroklasterlarni tashkil etishda, rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini o'rganish hamda ularni amaliyotga tadbiiq etish maqsadga muvofiq. Ekspertlar hisob-kitoblariga ko'ra, bugungi kunda dunyodagi

ilg'or davlatlar iqtisodiyotining qariyb 50 foizi klaster usuliga o'tgan. Masalan, Yevropa Ittifoqida 2 mingdan ziyod klasterlar mavjud bo'lib, ularda ishchi kuchining 38 foizi qamrab olingan[7]. Klasterlar Buyuk Britaniya, Gollandiya, Germaniya, AQSh, Daniya, Fransiya, Italiya, Finlandiya, Hindistonda yaxshi rivojlangan. Daniya, Finlandiya, Shvetsiya sanoatini klasterlar to'la egallagan. Agroklasterlarda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari sayyohlarni o'ziga jalb qila oladi tashrif buyuruvchilarda katta qiziqish uyg'otadi[8].

Material va metodlar. Butun dunyo bo'ylab so'nggi yillarda agroturizm rivojlanib boradigan, qishloq xo'jaligiga katta daromad keltiradigan yangi ish o'rinlari yaratadigan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'mol qilishda yangicha usullar joriy etadigan tarmoq hisoblanadi. Agroturizmni rivojlantirishda bir necha qishloq xo'jaligi korxonalari, agroturizm fermalari va klasterlarining o'rni beqiyos. Ushbu maqolada agroturizm jadal rivojlangan mamalakatlarning tajriba va metodlarini, xorij tajribasiga asoslangan ilmiy-amaliy tadqiqotlar, maqolalar va hisobotlardan foydalanib taqqoslama tahlil qilish qilishorqali o'rganib chiqdik.

Tadqiqotning natijasi. Bugungi kunda butun jahon miqyosida dinamik o'zgarishlar va iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, bu esa qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatini yanada kengaytirish va diversifikatsiyalash uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Zamonaviy infratuzilma va ilg'or texnologiyalar bilan klaster va kooperatsiya tizimini rivojlantirish qishloq xo'jaligida islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu tizim to'liq ishlab chiqarish zanjirini ya'ni daladan dasturxongacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi "Daladan dasturxongacha" ishlab chiqarish zanjiri Klaster ishlab chiqarish ob'yektlari, agrologistik markazlar va kooperativlar asosida qurilmoqda, eksportni oshirishning yangi imkoniyatlari yaratilmoqda. Klasterlarning tashkil etilishi va uning qishloq xo'jaligidagi o'rnini aniqlash uchun Yevropa mamlakatlari tajribalari ko'rib chiqdik va taqqoslama tahlil orqali o'rgandik. Bir qancha agroturizm rivojlangan mamalakatlarda agroklasterlar faoliyatini o'rganib chiqdik va taqqoslama tahlil orqali afzallik va kamchiliklarini yozdik (1-jadvalga qarang).

**Xorijiy davlatlar tajribasi asosida qishloq turizmini rivojlantirishda
agroklasterlarning afzallik va kamchiliklari**

Afzalliklari	Kamchiliklari
✓ Yangi ish o‘rinlari yaratadi ✓ Klaster mahalliy miqyosda hamkorlik qilish orqali kichik va o‘rta biznesga global miqyosda hamkorlik qilish va raqobat qilish imkoniyatini beruvchi asos sifatida ishlatilishi mumkin ✓ Qashshoqlikni kamaytiradi va mintaqada tadbirkorlikni rivojlantiradi ✓ Mahalliy aholiga imtiyozlarni taqsimlash va tashrif buyuruvchilarning qolish muddatini oshirishga yordam beradi. ✓ Raqobatbardoshlikni oshirish ✓ Qishloq joylaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik barqarorlikni oshiradi ✓ Aholini arzon va sifatli hamda xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlaydi ✓ Xorijiy va mahalliy turistlar sonini oshiradi	✓ Qo‘shimcha xarajat talab etadi ✓ Qishloq hududlarida transport imkoniyatlari cheklanganligi tufayli mahsulot tashish paytida sifati yomonlashuviga olib keladi ✓ Kuchli strategiyasiz kutilgan natijaga erisha olmaydi ✓ Agroklasterlar tarkibiga kiruvchi qishloq xo‘jaligi subektlari o‘rtasidagi integratsion munosabatlar o‘rnatilmasa samaraga erisha olmaydi ✓ Agroklasterlar boshqaruvini samarali tashkil etmasa mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishalash va qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lishda salbiy ta’sir ko‘rsatadi ✓ Mahsulotni qo‘shimcha qiymat bilan qayta ishalash imkoniyatlarini cheklash qiyinchilik tug‘dirishi mumki

Manba: Muallifning monografik tadqiqotlari asosida

Ushbu tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, agroturizmni rivojlantirishda agroklasterlarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Agroturizm obektlariga tashrif buyuruvchi turistlar innovatsion mahsulot ishlab chiqarish qayta ishlash va qishloq xo‘jaligida bo‘layotgan har qanday jarayonni ko‘rishi va ishtirok etishi mumkin.

Mamlakat aholisining asosiy qismi qishloq joylarida istiqomat qiladi. Natijada ishsizlik darajasi yuqori agroklasterlarni tashkil etish yangi ish o‘rinlari yaratadi va aholini yangi ish o‘rinlari bilan ta’minlaydi

Qishloq xo‘jaligida klasterlarga yo‘naltirilgan rivojlanishdan foydalanish ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ham milliy ham jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini oshiradi. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini oshirish bilan bir qatorda, aholini arzon va sifatli hamda xavfsiz oziq-ovqat bilan ta’minlaydi[9].

Xorijiy mamlakatlarda agroklastarlarni tashkil etishning tajribalari asosida ularning ayrim kamchiliklari ham o'rganib chiqildi. Yirik texnologiyaalarga asoslangan zamonaviy agroklastarlarni tashkil etish xarajatlar talab etadi. Qishloq hududlarida transport imkoniyatlari cheklanganligi tufayli mahsulot tashish va yetkazib berishda mahsulot sifatining yomonlashuviga olib kelishi mumkin[10].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, rivojlangan davlatlar amalga oshirayotgan agrar sohadagi islohotlar o'rganilgan holda mamlakatimizda ham ularni qo'llash, tajribada sinash ishlari orqali qishloq xo'jaligi yanada rivojlanishiga olib keladi hamda dunyoning rivojlangan davlatlari amaliyotida sinalgan, yaxshi samara bergan klaster usulida ish faoliyatini tashkil etish bilan, iqtisodiy, ijtimoiy va ishsizlik muammolari bo'yicha samarali yechim topa olish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekistonda agroklastarlar qishloq hududlarini rivojlantiradi, tarixiy an'analar asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini oilaviy korxonalarda yoki aholi uyini aslicha saqlanib qolgan holda turizm obyektlariga aylantirishga olib keladi. Qishloqlarda shahar aholisi va bolalarining meva va sabzavotlarni yetishtirish va uzish, qayta ishlash va tayyorlashda ishtirok etishini, qishloqlarda mehmonxona zanjirlarini rivojlantirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tog'aymurodov, E. B. (2022). AGROTURIZM: QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MUQOBIL MEXANIZMI. *Academic research in educational sciences*, (Conference), 95-102.
2. Abduvalieva, M.M., Sulaymonova, D.M., Usmonov, I., & Turdiboyev, Z. (2020). QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZM: RIVOJLANISH TARIXI. *Ekonomi va sotsium*, (2 (69)), 513-515.
3. Sally, E. *Oziq-ovqat va ichimliklar turizmi tamoyillari va amaliyoti*; SAGE: London, Buyuk Britaniya, 2016.
4. Ana, Maria-Irina. "Ecotourism, agro-tourism and rural tourism in the European Union." *Cactus Tourism Journal* 15.2 (2017): 6-14.
5. Saydullaeva, Fotima. "Innovative solutions to increase dietary diversity of rural households." *American Journal of Agricultural Science, Engineering, and Technology* 7.2 (2023): 16-20.
6. Qurbaniyazov AE. AGROKLATERLAR FAOLIYATIGA TA'SIT KO'RSATUVCHI OMILLAR TAHLILI. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences 2024 Dec 31 (pp. 80-84).
7. Ilxomjon o'g'li, S. B. (2023). AGROKLATERLAR FAOLIYATI BO'YICHA ILG'OR DAVLATLAR TAJRIBALARI VA ULARNI AMALIYOTDA QO'LLASH IMKONIYATLARI. *Journal of new century innovations*, 36(1), 90-96.
8. Budiasa, I. Wayan, and I. Gusti Agung Ayu Ambarawati. "Community based agro-tourism as an innovative integrated farming system development model towards sustainable agriculture and tourism in Bali." (2014): 29-40.
9. Shermamatovna, Baymuradova Iroda. "AGRO-TOURISM IS THE BASIS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT." *The Journal of Economics, Finance and Innovation* 1.2 (2022): 1-7.

¹⁰. Barbieri, C. (2013). Assessing the sustainability of agritourism in the US: A comparison between agritourism and other farm entrepreneurial ventures. *Journal of Sustainable Tourism*, 21(2), 252-270.

Р.Каримжанова – Наманган Давлат Техника Университети, Менежмент ва Маркетинг кафедраси катта ўқитувчиси

НАМАНГАН ВИЛОЯТИДА ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация: Ўзбекистоннинг туризм салоҳияти, туристик хизматлар ҳамда туризмни ривожлантириш бўйича Наманган вилоятида олиб борилаётган ислохотлар ҳақида фикр юритилган.

Калим сўзлар: туристик маҳсулотлар, туристик хизматлар, тематик парк, инвестиция.

Abstract: The tourism potential of Uzbekistan, tourist services and tourism development reforms carried out in Namangan region were discussed.

Keywords: tourist products, tourist services, investments in theme parks.

Аннотация: обсуждался туристический потенциал Узбекистана, туристические услуги и проводимые в Наманганской области реформы по развитию туризма.

Ключевые слова: туристские продукты, туристские услуги, инвестиции в тематические парки.

Ўзбекистоннинг туризм салоҳияти ўта юқори, шу сабабдан уни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Стратегияда туризмни ривожлантириш соҳасида "Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қилинг" дастури доирасида 2026 йилга келиб туризмда маҳаллий сайёҳлар сонини ошириш ва хорижий туристлар сонини 4.4 млн. нафарга етказиш мақсад қилиб белгиланган.

Туризм соҳасида банд аҳоли сони 2 баробар ошиб, 520 минг нафарга етиши кутилмоқда.

Бунинг учун мамлакатнинг асосий туризм шаҳарларида тўсиқсиз туризм (бареер-фреестоурисм/ассессибле тоурисм) инфратузилмаси кенг жорий этилади, 8 мингдан ортиқ маданий мерос объектларидан самарали фойдаланиш бўйича давлат дастури қабул қилинади. Зомин, Фориш, Бахмал туманлари ва "Айдар-Арнасой" кўллар тизимида қўшимча туристик зоналар барпо этилиб, 300 млн. долларлик лойиҳалар амалга оширилади ва шу орқали 25 минг иш ўрни яратилади.

2022-йилда "Абадий шаҳар" тарихий мажмуаси ва зарурий инфратузилмани ўз ичига олган Самарқанд туризм марказини ташкил этиш мазкур шаҳарни "Туризм дарвозаси"га айлантиришга имкон беради. Қорақалпоғистон Республикаси ва Орол бўйида, Хоразм, Бухоро, Тошкент вилоятларида туризмни ривожлантириш бўйича алоҳида дастурлар ишлаб чиқилади, шунингдек, Навоий вилоятида зиёрат ва экотуризм салоҳиятини юксалтириш, Тошкент шаҳрида туризм инфратузилмасини яхшилаш бўйича тегишли чора-тадбирлар амалга оширилади.

Туристтик маҳсулотлар, туристик хизматлар (бронлаштириш, ташиш, жойлаштириш, овқатлантириш, ўйинлар), туристик ишлар (фото хизмати, суғурта, ахборот, молия, банк хизмати), туристик товарлар (эсдалик совғалар, хилма-хил туристик товарлар, истеъмол товарлари-парфюмерия, маиший техника, кийим-кечаклардан иборат).

Туристтик хизматлар - турист ва экскурсанд эҳтиёжларини қондириш ва таъминлашга қаратилган, хизмат соҳасидаги бир мақсадга йўналтирилган ҳаракатлар тўплами бўлиб, улар туризм мақсадларига, характериға ва туристик хизматнинг қандай йўналтирилганиға жавоб бериши ҳамда умуминсоний тамойилларға қарши бўлмаслиги керак.

Давлат стандарти тарифиға кўра, туристик хизматлар - сайёҳларнинг эҳтиёжларини қондириш фаолияти билан шуғулланувчи туризм ташкилотларининг фаолияти маҳсулидир.

Наманган вилоятида бугунги кунда туризмни ривожлантириш борасида бир қатор ишлар амалға оширилмоқда. Вилоятда бугунги кунда 2500 сайёҳни қабул қилиш имкониятиға эға 45 та меҳмонхона ва 12 та сайёҳлик фирмаси фаолият кўрсатмоқда. Вилоятда 282та маданий меърос объекти мавжуд бўлиб, шундан 103таси архитектура ёдгорлиги, 155таси археология ёдгорлиги, 8таси монументал санъат асарлари, 16таси диққатға сазовор жойлар, зиёратгоҳлардир.

Бугунги кунға келиб, туризм соҳаси иқтисодиётнинг муҳим энг юқори ва тез даромад келтирадиган соҳаға айланиб бормоқда. Туризм соҳасини жадал ривожлантириш борасида республикамизда бир қатор қонунлар, меъёрий ҳужжатлар ва дастурлар қабул қилинди. Наманган вилоятида ҳам ушбу соҳани ривожлантириш борасида бир қатор ижобий ишлар амалға оширилмоқда.

Жумладан, Наманган шаҳрида барпо этилаётган Ўзбекистонда ягона “Афсоналар водийси” тематик парки вилоятимизнинг туристик салоҳияти ва жозибадорлигиға ўзининг жуда катта ижобий таъсири кўрсатилмоқда. Мазкур паркнинг умумий қиймати 171 миллион АҚШ долларини ташкил этади. 110 гектар майдонни эгаллаган ушбу паркда очик ва ёпиқ сузиш хавзаси, кичик ўйингоҳ, тўрт юлдузли меҳмонхона, савдо шаҳобчалари, кутубхона ва ҳунармандлар маркази ташкил этилган. Энг эътиборлиси, ушбу боғда йилиға 100 минг туристга хизмат кўрсатилади.

Наманган вилоятида туризм соҳасини ривожлантириш, хорижий ва маҳаллий сайёҳларнинг ташрифини кўпайтириш учун уларға қулай шароитлар яратиш, хизматлар турини кенгайтириш мақсадида Наманган вилоятида “Санитар-гигиена узеллари ҳолатини яхшилаш” маҳаллий дастури ишлаб чиқилмоқда.

Ушбу дастурни амалға ошириш мақсадида “МЭГА ГРОМАДА МЕБЕЛ” МЧЖ билан Наманган вилоятида замонавий модулли санитар-гигиеник шаҳобчалари қуриш бўйича келишувлар олиб борилмоқда.

Наманган шаҳридаги “Ойдин Плаза” меҳмонхонасида вилоят туризм бошқармаси ҳамда вилоятдаги мавжуд меҳмонхоналар раҳбарлари иштирокида семинар бўлиб ўтди. Семинарда Ўзбекистон Республикаси

Президентининг 2019 йил 5 январдаги “Туризм тармоғини жадал ривожлантиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4095-сонли қарори ижроси бу жараёнда меҳмонхоналарга яратилаётган имтиёзлар, тизимда учраётган муаммолар, меҳмонхонага ташриф буюрган туристларга кўрсатиладиган хизматлар муҳокама қилинди.

Давлатимиз раҳбарининг ҳар бир ҳудуднинг хусусият ва имкониятидан келиб чиқиб, янги корхоналар ташкил этиш, иш ўринлари яратишга оид топшириғига асосан комплекс ишлар амалга оширилмоқда.

Наманган вилоятининг Янгиқўрғон туманидаги Заркент қишлоғида экотуризм масканларини барпо этиш учун, хорижий ва маҳаллий сайёҳларни жалб қилиш имконияти мавжуд.

Туризм қишлоғи бўлган Нанай қишлоғидаги аҳоли хонадонларида уй меҳмонхоналари ташкил қилиш ва ҳудудда туризм йўналишида йирик лойиҳаларни ишга тушириш имконияти мавжуд.

Вилоятда амалга оширилаётган ислохотлар қаторида туризм ва уни ривожлантириш бўйича бир қанча ишлар амалга оширилиши тўғрисида дастурий режалар тузилган. Жумладан, вилоят ҳокимлиги ҳамда Туризм бошқармаси томонидан туристик зоналарнинг концепцияси ишлаб чиқилди ва Вазирлар Маҳкамасига тақдим этилди. Ўз навбатида, Вазирлар Маҳкамасининг “Нанай кичик туристик зонаси”ни ташкил этиш бўйича “Йўл харитаси” тасдиқланди. Узоқ муддатга мўлжалланган лойиҳа доирасида кўплаб объектлар қурилиши кўзда тутилган. Улардан бири Нанай туризм маркази 27,9 гектар майдонда барпо этилади. Унинг таркибига 549 ўринли беш юлдузли меҳмонхона ва 241 ўринли тўрт юлдузли меҳмонхона, 400 ўринли қишги ва ёзги томошалар зали, кўргазмалар маркази, хунармандлар устахоналари, шунингдек қатор кўнгилочар иншоотлар киритилган.

Туризм салоҳияти юқори бўлган “Оромгоҳ” ва “Балиқ кўл” қишлоғи ҳудудидан кесиб ўтган сой соҳилларида қушимча 120 га яқин туризм объектларини ташкил этиш орқали 520 та иш ўрни яратиш ва йилига 150 минг нафар сайёҳни жалб қилиш имконияти мавжуд.

Наманган вилоятининг Чортоқ тумани ўзининг гўзал табиати, ҳавосининг тозаллиги билан бошқа ҳудудларидан ажралиб туради. Туманда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024-йил 18-июлдаги ПФ-102-сонли фармонида асосан амалга оширилиши режалаштирилган янги инвестицион лойиҳалар ҳам айнан туманга туризмни ривожлантиришга қаратилган ва буни қуйидаги жадвалда кўришимиз мумкин.

Т/р	Корхона номи	Лойиҳа йўналиши	Манзили	Хорижий давлат номи, ҳамкор	Лойиҳа суммаси (млн.доллар)	шундан,		Иш ўрни	Лойиҳани амалга ошириш муддати
						Ўз маблағи	Тўғридан тўғри хорижий инвестиция		
	8 та	Жами			59,1	12,2	46,9	435	
1	"EDIFICATION BUILDING" МЧЖ	Меҳмонхона, вилла, тематик ошхоналар, замонавий кемпинглар ташкил этиш	Сарой МФЙ	Россия Федерацияси фуқароси Б.Охунжанов	12,0		12,0	50	2025-2026 йй
2	"CHARTAK RESORT" МЧЖ ҚҚ	Туристлик марказ, меҳмонхона ва дам олиш маскани	Гулшан МФЙ	ООО "Оптимтрейд Плюс" (Россия)	18,0		18,0	200	2025-2026 йй
3	"Chortoq Renessans" МЧЖ	Меҳмонхона ва оилавий уй меҳмонхоналари ташкил этиш	Гулшан МФЙ	ООО "Оптимтрейд Плюс" (Россия)	5,4		5,4	50	2025-2026 йй
4	"Siberian Wellness-Namangan" МЧЖ	Кемпинг ва дам олиш маскани ташкил этиш	Бештоғ МФЙ	Россия "Сибирская Здравье"	5,0		5,0	30	2025-2026 йй
5	"EVRO IMPEKS" МЧЖ	Соғломлаштириш ва даволаш маскани ташкил этиш	Оромгоҳ МФЙ	Ҳамкор аниқланмоқда	2,0	2,0		30	01.10.2025
6	"Тинчлик Стеллоси" МЧЖ	Меҳмонхона ташкил этиш	А.Навоий МФЙ	Россия Федерацияси фуқароси Б.Охунжанов	1,5		1,5	5	01.08.2025
7	"MUROD-ORZU-MAQSAD" МЧЖ	Соғломлаштириш ва даволаш маскани ташкил этиш	Дўстлик МФЙ	Ҳамкор аниқланмоқда	5,0		5,0	30	2025-2026 йй
8	"Чортоқ Санаторияси" МЧЖ	Соғломлаштириш ва даволаш маскани ташкил этиш	Оромгоҳ МФЙ	Ҳамкор аниқланмоқда	10,0	10,0		40	2025-2026 йй

Шунингдек, туманда жойлашган “Чортоқ ресорц” санаторийси яқингача қаровсиз эди. Маҳаллий тадбиркор ва хорижий инвесторларнинг жами 25 млн долларлик сармояси эвазига бугун бу ерди 15 гектардан зиёд майдонда замонавий оромгоҳ бунёд этилмоқда. Бу эса туманда туризм ҳамда экотуризмни ривожлантириш учун қўшимча имкониятлар очади. Бу оромгоҳда иглатерапия йўлга қўйилди. Бу таянч-ҳаракат аъзолари ва кичик тос-суяк касалликларини даволашга ёрдам беради.

Президентимиз Наманган вилоятига ташрифи чоғида ушбу соғломлаштириш марказида яратилган шароитларни кўздан кечирди. Чортоқда яна кўплаб санаторийлар ташкил этиш, уларни арзон, ўрта ва қиммат тарзда таснифлаш орқали аҳолининг барча қатламларини қамраб олиш, рақобатни таъминлаш орқали хизмат нархини тушириш бўйича топшириқлар берди.

Чортоқ туманидаги “Гулшан” маҳалла фуқаролар йиғини ҳудудида “Чортоқ Ресорт” МЧЖ шаклидаги Ўзбекистон-Нидерландия қўшма корхонаси томонидан умумий лойиҳа қиймати 149,0 миллиард сўм бўлган 250 ўринли, замонавий чет эл технологияларига асосланган “Санатория соғломлаштириш маркази” барпо этилмоқда. Ушбу марказ 15,2 гектар ер майдонига эга бўлиб, йил давомида 6000 фуқарога, шундан 2300 хорижий сайёҳга хизмат кўрсатишимконига эга бўлади.

Қуйидагилардан келиб чиқиб, Наманган вилоятида янги шаклланаётган туризм хизматларини янада ривожлантириш учун ҳудуднинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб, туристларга хизмат кўрсатиш сифатини халқаро стандарт талабларига мос равишда ташкил этиш, вилоятнинг Чортоқ, Нанай, Ахсикент ва бошқа диққатга сазовор жойлари тўғрисида видео, рекламалар тайёрлаб аҳолига таништириш, интернет сайтларига жойлаштириш, аҳолини,

тадбиркорларни янада қизиқтириш бўйича ҳар ҳил тадбирларни йўлга қўйиш лозим деб ҳисоблаймиз.

Тавсия этилган чора-тадбирларнинг изчил амалга оширилиши халқаро туризм бозорида Ўзбекистоннинг рақобатбардошлигини бир неча поғонага оширади. Бу эса, Ўзбекистонда шу билан биргаликда Наманган вилоятида ҳам туризм ривожланишининг узоқ муддатли стратегик мақсадлари бўлган туризм тушумларини ўстириш экологик ва ижтимоий барқарорликни ҳамда аҳолининг муносиб турмуш тарзини таъминлашга кенг йўл очади.

Қўйидагилардан келиб чиқиб, Наманган вилоятида янги шаклланаётган туризм хизматларини янада ривожлантириш учун ҳудуднинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб, туристларга хизмат кўрсатиш сифатини халқаро стандарт талабларига мос равишда ташкил этиш, вилоятнинг Чортоқ, Нанай, Ахсикент ва бошқа диққатга сазовор жойлари тўғрисида видео, рекламалар тайёрлаб аҳолига таништириш, интернет сайтларига жойлаштириш, аҳолини, тадбиркорларни янада қизиқтириш бўйича ҳар ҳил тадбирларни йўлга қўйиш лозим деб ҳисоблаймиз.

Тавсия этилган чора-тадбирларнинг изчил амалга оширилиши халқаро туризм бозорида Ўзбекистоннинг рақобатбардошлигини бир неча поғонага оширади. Бу эса, Ўзбекистонда шу билан биргаликда Наманган вилоятида ҳам туризм ривожланишининг узоқ муддатли стратегик мақсадлари бўлган туризм тушумларини ўстириш экологик ва ижтимоий барқарорликни ҳамда аҳолининг муносиб турмуш тарзини таъминлашга кенг йўл очади.

IV SHO'BA. XIZMATLAR SOHASINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH JARAYONIDA MARKETING VA MENEJMENT IMKONIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Р.С.Хасанов – доцент кафедры «Экономика промышленности и менеджмент», Ташкентского химико-технологического института, кандидат технических наук,

А.Т.Тохиров – старший преподаватель кафедры «Экономика промышленности и менеджмент», Ташкентского химико-технологического института

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА МАЛОГО БИЗНЕСА В ПЕРИОД ЭКОНОМИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ

Annotatsiya: Maqolada globallashuv sharoitida kichik biznesda investitsiya jarayonlarini rivojlantirishning xalqaro tendentsiyalarini hisobga olgan holda institutsional muhitdan faol foydalanish asosida kichik biznesni boshqarishning rivojlanish mohiyati ko'rib chiqiladi, hamda kichik biznesning ayrim ma'lumotlari ushbu sohaning hozirgi holati bilan taqqoslangan.

Kalit so'zlar: menejment, kichik biznes, kichik biznesni boshqarish, institutsional muhit, marketing, xizmat ko'rsatish sohasi, strategiya, xalqaro tajriba, yirik va o'rta korxonalar, tadbirkor boshqaruvi, iste'mol bozori

Аннотация: В статье рассматривается характер развития менеджмента малого бизнеса на основе активного использования институциональной среды, учитывающих международные тенденции развития инвестиционных процессов в малом бизнесе в условиях глобализации, где некоторые данные малого бизнеса были рассмотрены в сравнении с текущим состоянием этой сферы.

Ключевые слова: менеджмент, малый бизнес, менеджмент малого бизнеса, институциональная среда, маркетинг, сфера обслуживания, стратегия, международный опыт, крупные и средние предприятия, управление предприниматель, потребительский рынок

Annotation: The article discusses the nature of the development of small business management based on the active use of the institutional environment, taking into account international trends in the development of investment processes in small business in the context of globalization, where some small business data were considered in comparison with the current state of this sphere.

Key words: management, financial business, business management, institutional environment, marketing, sphere of service, strategy, international experience, large and medium enterprises, management of enterprises, consumer market.

Рыночная трансформация, происходящая в Узбекистане, обусловлена множеством факторов, среди которых ключевую роль играет экономический потенциал малого бизнеса. Важнейшей его функцией выступает «фактор экономической свободы», который способствует внедрению демократических принципов в сферу экономических отношений и укреплению основ современной рыночной экономики. Это проявляется в том,

что с одной стороны, наличие развитой институциональной среды малого бизнеса позволяет гражданину сделать свободный выбор между ролью наемного работника и независимого бизнесмена. Для отечественных условий данная функция имеет особое значение. Крупные предприятия, до настоящего времени составляющие основу экономики республики, не могут пока рассматриваться в качестве свободных субъектов рынка в силу большой зависимости от государства. Кроме того, с ней связана и специфическая социальная функция отечественного малого предпринимательства, также не получившая достаточного отражения в специальной литературе, - содействие формированию в обществе «идеологии предпринимательства», которая является объектом специального исследования.

Исключительно важный и ответственный период переживает ныне наша страна. Проводимые в стране крупномасштабные экономические реформы и преобразования в жизни общества создают необходимые предпосылки для ускоренного развития общественного производства на основе перехода к инновационной и потому высокоэффективной модели рыночной экономики. Во всех сферах её жизни всё большую силу приобретают важные процессы модернизации общества, технического и технологического обновления, развития инновационных процессов, формирования цивилизованных, подлинно рыночных отношений. Конечная цель преобразований в сфере экономики – глубокое обновление всей системы экономических отношений с учётом достижений мирового опыта и создание на этой основе процветающей, инновационной экономики, которая и должна обеспечить достойную жизнь многомиллионному населению Республики Узбекистан.

Из-за чрезвычайной сложности экономической системы варианты возможного развития событий в экономике колеблется в довольно широких пределах, что и обуславливает значительные трудности при принятии ответственных и в то же время верных решений на макроэкономическом уровне.

О необходимости и значении развития малого и частного бизнеса в Узбекистане, о той роли, которое отводится ему в государственной экономической политике, свидетельствует тот факт, что задачи его развития были предметом особого внимания на публичных выступлениях Президента страны, специально обсуждались на сессии Олий Мажлиса и на заседаниях Кабинета Министров Республики Узбекистан. На этих форумах, проводимых на высшем государственном уровне, обсуждаются назревшие проблемы развития малого и частного бизнеса, указываются узкие места и прогнозируются конкретные пути его дальнейшего развития. Изучение опубликованных работ, число которых растёт с каждым днём, показывает, что ученые в своих исследованиях стремятся выявить характер и причины негативных явлений и турбулентного состояния малого и частного бизнеса, дают глубокий критический самоанализ, выдвигают обоснованные

предложения и научные рекомендации, направленные на его дальнейшее развитие.

В современной экономике высокая конкурентоспособность территории держится на сильных позициях взаимодействующих групп компаний, которые представляют собой сообщество сконцентрированных по географическому принципу фирм, тесно связанных, способствующих росту конкурентоспособности. Стратегия развития Узбекистана предполагает, что к 2020 году половина трудоспособного населения должна заниматься малым бизнесом. Малый бизнес – это основа экономики, из него вырастают крупные и средние предприятия впоследствии. Отсутствие традиционного для крупных предприятий разделения прав и функций между собственниками и наемными менеджерами обеспечивает МБ многие конкурентные преимущества. Существование малого бизнеса и частного предпринимательства обеспечивает решение рассматриваемой проблемы, дополняя антимонопольное законодательство механизмами децентрализованного регулирования.

Для малого бизнеса характерны следующие особенности и преимущества: повышенная мобильность и гибкость реакции на изменение конъюнктуры рынка, которые обеспечивают высокую рентабельность производства тех товаров, которые стали невыгодными и разорительными для крупных предприятий;

способность быстро заполнять потребительский рынок товарами; сравнительно быстрая окупаемость, при условии применения современного оборудования и технологий.

Кроме того, малый бизнес обладает бесспорными преимуществами в тех областях, где производство имеет дело с довольно ограниченным, постоянным и единообразным спросом и где производственные процессы не могут быть стандартизированы. Но хозяйственная деятельность малого предпринимательства весьма ограничена и распространяется только на собственное дело.

Малый бизнес и частное предпринимательство играют важную роль в формировании структуры экономики, соответствуют быстро меняющимся рыночным запросам. За рубежом доля предприятий малого бизнеса в среднем составляет 50-60% от всех предприятий, в Узбекистане она примерно 30%. Достаточно сказать, что в США, Евросоюзе, а в последние годы и в Китае, малый бизнес обеспечивает от 50% до 70% всех рабочих мест. Даже США, где сильно развиты крупные компании-гиганты, малый бизнес производит около 40% всего ВВП, а в Евросоюзе — около 70%. Создание малых предприятий способствует решению проблемы занятости населения. В Узбекистане создается большое количество малых предприятий сферы услуг, развиваются производственные и инновационные малые предприятия. Они позволяют создавать новые рабочие места и повышать доходы населения. В частности, если в 2000 году около 25 процента ВВП приходилось на долю этого активно развивающегося сегмента экономики, то по итогам 2020 года

этот показатель уже составил 54,0 процента. Доля занятых в этой сфере из общей численности занятого населения в 2019 году выросла до 76,5 процента. В результате, благодаря мерам государственной поддержки, в том числе введению налоговых льгот и преференций для предпринимательской деятельности, за последние пять лет количество зарегистрированных субъектов малого бизнеса (микрофирм и малых предприятий, кроме фермерских и дехканских хозяйств) на 1 января 2021 года составило 221,1 тыс. единиц.

В 2020 года субъектами бизнеса и малого предпринимательства Узбекистана было произведено в общей сложности 42,4 процента от общего объема национального ВВП. Это на 0,7 процента больше, чем было зарегистрировано по результатам минувшего года за соответствующий период. Как сообщили в Государственном комитете по статистике республики, доля микрофирм и малых предприятий в производстве национального валового внутреннего продукта в первую половину 2021 года составила 24,1 процент, при том, что год назад этот показатель был равен 22,5 процента.

Кроме того, субъекты малого предпринимательства и бизнеса в течение 2020 этого года обеспечили занятость для 9715.6 тысяч человек или 66,4 процента от общего числа всего занятого в экономике населения. В том числе, в индивидуальном секторе было занято 7,39 миллиона человек, на микрофирмах и малых предприятиях – 2325.6 тысячи человек.

**1-Таблица Удельный вес малого предпринимательства по отраслям экономики
(в процентах)**

Регионы	Валовой внутренний продукт	Промыш- ленная продук- ция	Строитель- ные работы	Рознич- ный товаро- оборот	Платн ые услуги
Республика Узбекистан	50,1	16,9	41,6	46,5	48,7
Республика Каракалпакстан	60,7	18,0	65,9	43,2	49,6
Андижанская	51,2	7,7	92,4	47,3	61,0
Бухарская	61,4	14,5	46,4	38,2	68,9
Джизакская	74,4	37,4	89,7	49,7	48,0
Кашкадарьинская	52,6	24,0	61,2	39,9	79,4
Навоийская	31,2	2,7	50,2	53,7	59,5
Наманганская	72,4	29,4	77,8	46,3	60,0
Самаркандская	71,2	29,8	76,9	58,0	67,9
Сурхандарьинская	70,0	16,7	74,3	36,6	61,6
Сырдарьинская	75,5	31,4	79,4	56,7	59,6
Ташкентская	51,8	16,2	62,1	41,4	55,7
Ферганская	56,1	8,9	74,2	45,6	64,4
Хорезмская	68,2	26,4	72,5	47,3	66,9
г.Ташкент	46,7	34,6	40,3	49,3	30,2

Мировая практика свидетельствует о том, что малый бизнес является важнейшим структурообразующим сектором развитой экономики, деятельность которого напрямую влияет на успешное развитие не только крупного бизнеса, но и экономики страны в целом, обеспечивая наполнение внутреннего рынка потребительскими товарами и услугами, рост экспортного потенциала, решение проблем занятости и повышения уровня реальных доходов населения.

Инновационный вектор развития экономики Узбекистана в качестве важного условия предполагает формирование на территории страны, преимущественно в границах региональных экономических систем, конкурентоспособных в глобальном рынке и объединенных общими целями групп компаний, территориальных производственных объединений, региональных 'кластеров'. Это объясняется тем, что в современной экономике высокая конкурентоспособность территории держится на сильных позициях взаимодействующих групп компаний, которые представляют собой сообщество сконцентрированных по географическому принципу фирм, тесно связанных, способствующих росту конкурентоспособности. Это объясняет особую важность активного вовлечения в орбиту рыночных преобразований экономики мезоуровня не в полной мере задействованных факторов роста, к числу которых относится потенциал взаимосогласованного функционирования разномасштабных субъектов бизнеса, способных совместно функционировать на принципах региональных кластеров.

В связи с этим особую научную и практическую значимость приобретают исследования, направленные на разработку инструментария эффективного взаимодействия разномасштабных бизнес-структур в направлении создания особого рода региональных инновационно-производственных модулей с целью активизации их включения в систему рыночных отношений, а также определение и обоснование рациональных пропорций между государственными и рыночными регуляторами указанного сотрудничества в системе приоритетов развития региональной экономики.

Список литературы:

1. О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан. Указ Президента Республики Узбекистан №УП 4947 от 7 февраля 2017 года.
2. Корпоративное управление: системный подход. — М.: ЗАО Изд-во «Экономика», 2007.
3. Гулямов С.С., Абдуллаев А.М. Инновационный потенциал и его влияние на конкурентное развитие экономики страны (теоретикометодологические аспекты) Т.:Фан ва технология, 2016-884с.
4. Калинин А.В. Анализ развития и состояния малого и среднего бизнеса в мире //Экономика, предпринимательство и право. 2011. № 4. С. 3-12.

*А.Н.Холиқулов – СамИСИ Иқтисодий таҳлил ва статистика кафедраси
мудир, и.ф.н., профессор,
Д.С.Пардаев – Самарқанд шаҳридаги касбий кўникмалар маркази директори*

САМАРҚАНД ВИЛОЯТИДАГИ САВДО КОРХОНАЛАРИДА БОШҚАРУВ САМАРАДОРЛИГИ ОШИРИШ КЎРСАТКИЧЛАРИ

Аннотация: Мақолада “Самарқанд вилоятидаги савдо корхоналарида бошқарув самарадорлиги ошириш кўрсаткичлари ва Хорижий мамлакатларда товарларни сотишда қўлланилаётган илгор усуллари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Савдо, савдо корхоналари, чакана савдо, товар айланмаси, истеъмол бозори, хизмат кўрсатиш.

Аннотация: В статье «Выделены показатели повышения эффективности управления на торговых предприятиях Самаркандской области и передовые методы, используемые при реализации товаров в зарубежных странах»..

Ключевые слова: Торговля, торговые предприятия, розничная торговля, товарооборот, потребительский рынок, услуги.

Annotation: The article "Indicators of increasing management efficiency in trade enterprises in Samarkand region and advanced methods used in selling goods in foreign countries are highlighted

Key words: Trade, trade enterprises, retail trade, commodity turnover, consumer market, service.

Республикамизда изчил иқтисодий ислохотлар амалга оширилаётган босқичда иқтисодиёт тармоқларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Зеро, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев: «Инсон манфаатларини таъминлашда иқтисодиётимизнинг юксак суръатлар билан барқарор ривожланиши қандай катта аҳамиятга эга эканини барчамиз яхши тушунамиз. Самарали меҳнат учун зарур шароитлар, муносиб иш ҳақи, замонавий уй-жойлар, сифатли таълим ва тиббий ёрдам, дам олиш ва ҳордиқ чиқариш учун кенг имкониятлар яратиш – буларнинг барчаси иқтисодий соҳадаги ислохотларимиз моҳияти ва мазмунини белгилаб берадиган муҳим омиллардир»³² деб айтиб ўтдилар. Бу эса, ўз навбатида хўжалик субъектларини иқтисодий ва молиявий барқарор фаолият юритишлари лозимлигини тақозо этади.

Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида ҳар қандай хўжалик юритувчи субъект ўз тасарруфидаги барча ресурслар – молиявий, моддий ва меҳнат ресурслари ҳаракати ҳамда улардан фойдаланиш самарадорлигини тўғри бошқаришни таъминлаши зарур. Иқтисодиёт олдида қўйилган вазифалардан бири унинг самарадорлигини оширишдан иборат. Самарадорлик хўжалик субъектлари фаолиятининг молиявий натижаларида ўз ифодасини топади. Корхона молиявий ресурсларини тўғри бошқариш учун биринчи навбатда, корхонанинг молиявий аҳволи, ресурслардан фойдаланиш

³² Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. -Тошкент. 2016 йил 7 декабрь.

самарадорлиги, молиявий натижаларини аниқлаш ҳамда таҳлил қилиш лозим.

Савдо корхоналарида ҳам самарадорликнинг юқори бўлишини таъминлаш учун уларни доимо таҳлил қилиб, керакли чора-тадбирларни амалга ошириб туриш лозим. Корхоналарнинг самарадорлиги бевосита даромад ва харажатларга бевосита боғлиқ. Шунинг учун даромадлар, харажатлар, уларнинг турлари ва келиб чиқиш манбалари доимий равишда назорат қилиб борилади.

Хизмат кўрсатиш даражаси сотаётган товар турига боғлиқ. Кундалик талабдаги товарлар учун ўз-ўзига хизмат кўрсатиш; аввалдаги танлов товарлари учун чегараланган хизмат кўрсатиш; юқори товарларга тўлиқ хизмат кўрсатилади, бу ўз ичига харидорга ёрдам сифатида ахтариш, солиштиришни, танлашни, турли саволлар билан маслаҳат беришни олади.

Товар ҳаракатининг умумий ягона занжирида чакана савдонинг технология жараёнлари муҳим халқа ҳисобланади. Чунки халқ истеъмол товарларини ишлаб чиқариш корхонасидан истеъмолчиларга етказиб бериш жараёнида товарларни танлаш ва аҳолининг шу товарларга ўсиб бораётган эҳтиёжларини қондириш учун энг зарур шарт-шароитлар худди ана шу чакана савдо корхоналарида яратилиши лозим. Аҳолига савдо хизмати кўрсатишнинг сифати, яъни савдо маданияти чакана савдодаги технология жараёнларини, айниқса, товар сотишни ташкил этиш даражасига боғлиқдир, шу сабабли чакана савдо корхоналарининг бутун савдо оператив фаолияти шу вазифага бўйсундирилади.

Товарларнинг наъмуналарини кўрсатиб сотиш усули шароитида харидор савдо майдонига қўйилган наъмуналарга қараб ўзига керакли товарларни мустақил равишда ёки сотувчи ёрдамида танлайди, унинг ҳақини тўлагандан кейин тегишли товарни бевосита дўкондан олади ёки қўшимча ҳақ эвазига уйига элтиб беришга буюртма беради. Ана шу усулни катта ҳажмдаги – мебель, совутгич, кир ювиш машинаси, тикув машинаси, электр ёриткич, газламалар сотишда ташкил этиш мумкин.

Товарни аҳолининг буюртмасига мувофиқ сотиш усулида харидор ўзига керакли товарга дўконнинг буюртма бўлимида ёки саноат корхонаси, курилиш, муассаса, дала шийпони, истиқомат жойида ташкил этилган буюртма қабул қилиш жойида олдиндан буюртма беради. Бу товар дўкондан олинади ёки буюртмачининг уйига ёхуд буюртмада кўрсатилган бошқа жойга элтиб берилади. Барча озиқ-овқат маҳсулотларини сотишда ҳамда мураккаб ассортиментдаги товарларни ичкарилиқдаги қишлоқ аҳоли пунктларида жойлашган ва кундалик талаб қилинадиган товарлар билан савдо қиладиган дўконлар орқали сотишда ана шу усулни қўллаш мумкин.

Савдонинг илғор усулларида бири савдо автоматлари орқали савдо қилиш ҳисобланади. Савдо автоматлари савдонинг ижтимоий-иқтисодий самарадорлигини таъминлашда муҳим ўрин тутди, яъни савдода истеъмол харажатларини камайтириш, истеъмолчи ҳукмрон бўлган шароитда муҳим

аҳамиятга эгадир. Ҳозирги шароитда замонавий дизайнга эга бўлган савдо автоматларидан фойдаланиш муҳим масала ҳисобланади.

Хорижий мамлакатларда товарларни сотишда қўлланилаётган қуйидаги илғор усуллардан мамлакатимиз савдо корхоналари ва ташкилотларида фойдаланиш мумкин:

- чакана савдо корхоналарининг намоиш залида туширилган нархларда каталоглари буйича ноозиқ-овқат товарларини сотиш;
- шаҳар марказида жойлашган ва кичик савдо майдонига қатъий интерьер, унча кўп бўлмаган ходимларга эга бўлган чакана савдо корхоналарида нархи туширилган чекланган ассортиментдаги товарлар билан савдо қилиш;
- “қулай дўконлар”, чекланган ассортиментдаги товарлар асосан янги озиқ-овқат маҳсулотлари билан савдо қилувчи ҳамда харидорларга бутун кун мобайнида хизмат кўрсатадиган савдо корхоналарида сотиш.

Хорижий мамлакатлар савдо корхоналарида товарларни сотишда қўлланилаётган илғор усулларнинг муваффақиятини таъминловчи йўллар харидорга янада кўпроқ турли хил хизматларни кўрсатиш ва товарларга бўлган нархни тушириш бўлиб ҳисобланади. Булардан савдо корхоналаридан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Amriddin Xamdani o'g'li Xamdani – ISFT instituti Samarqand filiali Ilmiy bo'lim boshlig'i, PhD, v.b.dotsent, e-mail: adonis29051992@gmail.com

BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA HUDUDLARDA XIZMATLAR SOHASINI JADAL RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada barqaror iqtisodiy o'sish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xizmat ko'rsatish sohasining roli tadqiq qilingan. Bunda xizmat ko'rsatish sohasining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida tahlil qilingan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda davlat miqyosida strategik yo'nalishlari bo'yicha tadqiqot olib borilgan va ilmiy tavsiyalar taklif qilingan.

Kalit so'zlar. Hudud, hududlar rivojlanishi, xizmat ko'rsatish sohasi, davlat, strategik yo'nalishlar, barqaror iqtisodiy o'sish.

Abstract. This article examines the role of the service sector in sustainable economic growth and socio-economic development of regions. In this, the main indicators of the service sector were analyzed by region. Also, a study was conducted on the strategic directions of the development of the service sector at the state level and scientific recommendations were offered.

Keywords. Region, regional development, service sector, state, strategic directions, sustainable economic growth.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль сферы услуг в устойчивом экономическом росте и социально-экономическом развитии регионов. При этом основные показатели сферы услуг были проанализированы по регионам. Также было проведено исследование стратегических направлений развития сферы услуг на государственном уровне и предложены научные рекомендации.

Ключевые слова. Регион, региональное развитие, сфера услуг, государство, стратегические направления, устойчивый экономический рост.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy masalalaridan hisoblanadi. Chunki bu soha iqtisodiy o'sishning muhim drayveri sifatida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan xizmatlar sohasi hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholashning asosiy mezonini hisoblanadi. Bu borada, mamlakatimizda xizmatlar sohasining tezkor o'sish sur'atlarini ta'minlash, sohada tadbirkorlik faolligini yanada qo'llab-quvvatlash va aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish³³ borasidagi vazifalar belgilab qo'yilgan³⁴. Belgilangan vazifalardan kelib chiqib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xizmat ko'rsatish sohasidagi tendensiyalar va bu jarayonlarda xususiy tadbirkorlikning rolini baholashga alohida e'tibor qaratdik. Chunki, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda tadbirkorlikning rolini oshirish masalalari tadqiqot ob'ekti sifatida kam o'rganilgan.

Hududlarni rivojlantirishda xizmatlar sohasining rolini baholashning reyting va toifalash usulini tadqiq etish borasida shu kunga qadar qator tadqiqotlar amalga oshirilgan, va bular qatorida quyidagilarni ko'rishimiz mumkin: hududiy rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligi va boshqalar. Keyingi yillarda yangicha yondashuvdagi tadqiqotlar ham amalga oshirilmoqda. Xususan, oilaviy tadbirkorlik va hududiy rivojlanish, hududlar rivojlanishida oilaviy tadbirkorlikning rolini "mahallabay" yondashuvda baholash kabilarni ta'kidlash joiz.

Biroq, ushbu sohada tadbirkorlik rolini, mavjud iqtisodiy ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqib ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish ham amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot xizmat ko'rsatish sohasini tadqiq etishning alohida uslubi bo'lib, ushbu sohada aholining tadbirkorlik faolligini oshirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy va metodologik ahamiyat kasb etadi.

Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muam molari va omillariga ko'ra, hududlarni tadqiq etishning yo'nalishlari va metodologik konsepsiyalari farq qiladi. Bunday baholash natijalari ham hududlar rivojlanishida notekis tendensiyalarning mavjudligini tasdiqlaydi. Buning sabablari hududlarning qulay geografik joylashuvi, tabiiy resurslar va iqlim sharoitlari, infratuzilma ob'ektlarining rivojlanganlik darajasi va boshqa omillar bilan bir qatorda hududlarda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasi va bunda "mahalla" va "sektor"larning roli bilan bog'liqligi asoslantirilgan. Ushbu

³³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 16 iyundagi "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4752-son qarori.

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-4702son qarori.

uslubiy yondashuvlarga tayangan holda, bizning tadqiqotimizda hududlarni rivojlantirishda xizmatlar sohasining roli va bu jarayonlarda davlat xususiy sherikchiligining ahamiyati o'rganildi.

Hududlarda xizmatlar sohasi rivojlanishini baholash, o'z tarkibiga ko'ra savdo, tashish va saqlash, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, axborot va aloqa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabi faoliyat turlarini qamrab oladi. Xizmatlar sohasi faoliyatining yakuniy natijasi ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bilan belgilanadi. Shu bois, xizmatlar sohasining iqtisodiyotda xususan, hududlar rivojlanishidagi rolini aniqlashda aholiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi indikatoridan foydalaniladi. Shunga asoslanib, ushbu soha rivojlanishida tadbirkorlikning hissasini baholash mumkin. Bunda hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi tahlil qilindi.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish milliy iqtisodiyotning tarkibiy yangilanishi, aholi farovonligi va ish bilan bandligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, keyingi yillarda sohani rivojlantirishga jiddiy e'tibor berilishi natijasida, uning mamlakatimiz iqtisodiyotdagi ahamiyati oshmoqda. Shu o'rinda mamlakatimizda xizmatlar sohasining rivojlanish holatiga to'xtalsak, 2024 yil 1 yanvar holatiga YaIM hajmi 511838,1 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, shundan xizmatlar sohasiga 165053,2 mlrd. so'm to'g'ri keladi. Yoki uning YaIMdagi ulushi 35,5 foizni tashkil etib, jami xizmat miqdori o'tgan yilga nisbatan 105,1 foizga o'sgan.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi ishlab chiqilgan³⁵.


"O'zbekiston — 2030" Strategiyasida maqsad va 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlariga ko'ra barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlashning strategik yo'nalishlari ko'rsatilib o'tilgan. Bunda 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun quyidagilarni bajarish zarur.

- ❖ Yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish.
- ❖ Makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiy rivojlanishni zarur darajadagi energetika, suv va infratuzilma resurslari bilan ta'minlash.

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida PF-158-son Farmoni

- ❖ Pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish hamda tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish orqali 2030-yilga borib yillik inflatsiyani 5-6 foiz darajasida ta‘minlash.
- ❖ Iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion ishbiarmonlik muhitini ta‘minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish.
- ❖ Davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatini 50 foizdan oshmasligi uchun o‘rta muddatlarga mo‘ljallangan davlat qarzini boshqarish strategiyasini amalga oshirish.
- ❖ Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o‘rtacha 7 foiz atrofida o‘shishini ta‘minlash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra 2019-2024-yillarda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi va aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hamda hududlar kesimida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1-rasmda umumiy statistikasi ko‘rsatilgan.



1-rasm. 2019-2024-yillarda xizmatlar sohasining rivojlanishi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishini baholash bu boradagi muhim chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, mazkur tadqiqotda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishini hududlar kesimida baholash asosiy maqsad etib belgilandi. Bunda hududlarning o‘rni aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmi bo‘yicha aniqlandi.

Hududlarni rivojlantirish va bu jarayonlarda xizmatlar sohasining rolini oshirishga oid tadqiqotimiz natijalari asosida quyidagi ilmiy-nazariy xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

birinchidan, hududlarni rivojlantirishning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari tizimi qo'shimcha rivojlantiruvchi omillar ta'sirini hisobga olib yondashish zaruratini ko'rsatmoqda;

ikkinchidan, tadqiqot natijalariga asoslanib shunday xulosaga kelindiki, hududlar rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini aniqlashda hamon qarama-qarshi fikrlar uchraydi. Chunki hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli xil metodologik yondoshuvlarida turlicha ko'rsatkichlar tizimidan foydalanib, hududlar iqtisodiyotining u yoki bu sohasi baholangan. Shuning uchun tadqiqot natijalarini boshqa tadqiqotlar bilan solishtirish imkoni bo'lmadi.

Tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar natijasida hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish masalariga oid davlat tomonidan quyidagi ishlarni amalga oshirishni taklif qilamiz:

- ✓ Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish.
- ✓ O'rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko'p bo'lgan tumanlarda zamonaviy bozor xizmatlari, IT, ta'lim, tibbiyot, yuridik, san'at, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirish.
- ✓ Shaharsozlik loyihalari asosida zaruriy infratuzilmasi mavjud va aholi gavjum bo'lgan ko'chalarning bo'sh yer maydonlarini aukcion savdolariga chiqarish orqali savdo, maishiy, sayilgoh va ko'ngilochar xizmatlarini rivojlantirish.
- ✓ O'rta va yirik shahar markazlarida xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan markaziy ko'chalarni tashkil etish orqali mingdan ortiq savdo va servis obyektlarini tashkil etish.
- ✓ "Yangi O'zbekiston" massivlarida va xalqaro avtomobil yo'llari bo'yida 6 mingta savdo va servis obyektlarini qurish.
- ✓ Yetakchi loyiha tashkilotlarini jalb qilib, bozorlarni zamonaviy, qulay barcha xavfsizlik talablariga javob beradigan savdo komplekslariga aylantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 16 iyundagi "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4752-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-4702son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida PF-158-son Farmoni.
4. A.X.Xamdamov. Turizm sohasida raqamli integratsiya resurslaridan samarali foydalanishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish. Monografiya-Samarqand-2024. -130 bet.

TA'LIM XIZMATLARI SIFATINI TA'MINLASH STRATEGIYASINIG ASOSIY YO'NALISHLARI

Annotatsiya: Maqolada ta'lim xizmatlari sifatini ta'minlash strategiyasining asosiy yo'nalishlari tadqiq etilgan. Ta'limda strategik boshqaruvning o'рни asoslangan. Sifatni baholash tizimidagi muammolar tavsiflangan. Oliy ta'lim tizimi sifatini oshirish strategiyasining asosiy yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Strategiya, ta'lim xizmatlari, davlat, baholash tizimi, raqobatbardoshlik, samaradorlik, kompetentlik, innovatsion universitetlar, davlat ta'lim standartlari.

Аннотация. В даанной статье исследованы основные направления стратегии обеспечения качества образоватеьльных услуг. Обосновано место стратегического управления в образовании. Охарактеризованы проблемы в системе оценки качества. Приведены рекомендации по основным направлениям стратегии повышения качества системы высшего образования.

Ключевые слова. Стратегия, услуги образования, государство, система оценки, конкурентоспособность, эффективность, компетентность, инновационные университеты, государственные стандарты образования.

Abstract. This article explores the main directions of strategy for ensuring the quality of educational services. The role of strategic management in education is substantiated. Issues in the quality assessment system are characterized. Recommendations are provided on the key directions for improving the quality strategy of the higher education system.

Keywords. Strategy, educational services, state, assessment system, competitiveness, efficiency, competence, innovative universities, state educational standards.

Bugungi kunda oliy ta'limni strategik boshqarish faqatgina, sifatni ta'minlashga qaratilgan bo'lsagina, samarali hisoblanadi. Ayrim oliy ta'lim muassasalarini, shuningdek oliy ta'lim tizimining faoliyatini rejalashtirish, sifatni ta'minlash va uni boshqarish masalalarini yechishga nisbatan kompleks yondoshuvsiz takomillashtirib bo'lmaydi. Shu bilan birga, ta'lim sifati nima, u qanday boshqariladi, ta'lim sifatini boshqarish strategiyasi qanday vazifalarni bajarishga qaratilgan bo'lishi, ta'lim tizimining barcha manfaatdor subyektlari uchun dolzarbdir.

Strategik boshqaruvda oliy ta'lim muassasasini boshqarish samaradorligi manfaatdor tomonlarning yangi talablarini qanchalik aniq va o'z vaqtida e'tiborga olishida ifodalanadi.

Oliy ta'lim muassasasi muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun, o'z missiyasi, ko'ra bilishlik, qadriyatlari, faoliyatining maqsadiga ega bo'lishi kerak, shuningdek turli uslublardan va oliy ta'lim rahbarlarining modellashtirish usullaridan foydalangan holda, strategik tahlil o'tkaa olishi kerak. Yuqorida sanab o'tilgan unsurlardan birortasining yetishmasligi, yoki aniq bo'lmasligi OTM strategiyasini shakllantirishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Ta'lim strategiyasi oliy ta'lim tizimining bozor o'zgarishlariga moslashuvchanligini ta'minlaydi. Tashqi va ichki muhitning baqarorligi oliy o'quv

yurtining raqobatbardoshlik darajasini oshiruvchi yangi menejment strategiyasini ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Strategik boshqaruv – bu OTMni boshqarishning shunday turiki, bunda professor-o‘qituvchilar tarkibiga boshqaruvning asosi sifatida yondoshiladi, iste’molchilarning talabi va ehtiyoji mo‘ljallanadi, OTMda egiluvchan boshqaruv yo‘lga qo‘yilib, raqobat ustunligiga imkon beradigan tashqi muhit ta’siriga nisbatan o‘zgarishlar, o‘z vaqtida amalga oshiriladi, oqibat natijada, OTM rahbarlari uchun uzoq istiqbolga o‘z maqsadlariga erishish ta’minlanadi.

OTMni samarali strategik faoliyat olib borishini ta’minlaydigan boshqaruv tizimini yaratish borgan sari zaruratga aylanayotganligi sababli, OTM rahbarlarining rivojlantirishga qaratilgan kasbiy faoliyatini shakllantirish boshqarish jarayonida muhim o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Yangi sharoitlarda oliy ta’lim muassasalari moslashish, yashab ketish va rivojlanishlari uchun nafaqat, ta’lim xizmatlari bozori holatini doimiy kuzatib borishlari, shu bilan birga ana shu bozordagi o‘z holatini baholashi, ta’lim bozori rivojlanishini bashoratlash usullaridan foydalanishi, o‘zining kelajakdagi holatining muqobil variantlarini ishlab chiqishi, xususan o‘zining holatini boshqarishga nisbatan strategik yondoshuvlardan foydalanishi lozim.

Yuqorida aytilganlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ta’lim muassasasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda har doim ham strategik rejalashtirishning standart qoliqlaridan foydalanib bo‘lmaydi.

OTM holatini baholashning universal mezonlaridan biri bo‘lib, shaxs shakllanishining barcha bosqichlarini, o‘quv-tarbiya jarayonining sharoitlari va natijalarni majmuaviy ko‘rsatkich sifatida, shuningdek ta’lim muassasasi faoliyati samaradorligi mezoni sifatida, erishilishi mumkin bo‘lgan natijalarni meyoriy shartlarga, ijtimoiy va shaxsiy istaklarga muvofiq bo‘lishini belgilovchi sifat ko‘rsatkichi xizmat qiladi.

OTMda ta’lim sifati – oliy ta’limni rivojlantirishning har bir bosqichi uchun dolzarb bo‘lgan masaladir. Bugungi kunda u, ta’lim xizmatlari bozorida – davlat ta’lim tizimida ham, shuningdek nodavlat ta’lim tizimida ham, ta’lim xizmatlari bozorida raqobatning keskin kurashi bilan bog‘langan.

So‘ngi yillarda aynan ta’lim sifati, mamlakatning rivojlanish darajasini ko‘proq belgilab bermoqda, o‘ziga kelayotgan avlodni mutaxassis qilib tayyorlash hisobiga uning havfsizligi va salohiyatini ta’minlovchi strategik sohaga aylanmoqda.

Xalqaro darajada ko‘tarilgan, mazkur muammo to‘liqliniga e’tiborni, birinchi navbatda, Yevropa davlatlari ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni, sifatni xolis baholashning tizimi bo‘lganda, o‘zaro tan olish bilan bog‘lay boshladilar. Barcha Yevropa davlatlarining milliy ta’lim tizimlari, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini ham mazkur yo‘nalishda harakatlantirish uchun bir qator umumiy muammolar hal etilishi kerak:

- ta’lim sifatini ta’minlash mas’uliyatini davlat va ta’lim muassasasi o‘rtasida taqsimlash;

- ta'lim sifatini baholashning milliy tizimlarini, shu jumladan OTMda sifatni ichki baholash tizimini takomillashtirish;

- qiyoslash mumkin bo'lgan nazorat – baholash materiallarini, ularni setifikatsiyalash, dasturlarni va ta'lim muassasalarini akkreditatsiyalash dasturlarini ishlab chiqish tizimini ta'minlash, ta'lim sohasini qiyoslash sohasida halqaro qiyosiy tadqiqotlar o'tkazish.

Respublikamizda mazkur muammoni yaqin istiqbolda yechishning asosiy yo'nalishlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- umumevropa, shuningdek dunyo mehnat bozorida ham, oliy kasbiy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlash;

- ta'lim faoliyati samaradorligini baholash mezonlari (yuklama, daraja, ta'limdagi yutuqlar natijalari, kompetentlik, kompetensiya) to'plamini ishlab chiqish;

- baholash tamoyillarini asoslash, hamda barcha darajada ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish.

Mehnat bozori ehtiyojlariga javob bera oladigan kasbiy ta'lim sifatini takomillashtirish masalalari Respublikamizda ta'limni rivojlantirishning maqsadli dasturlarida ham o'z aksini topmoqda. Milliy oliy ta'lim tizimi sifatini oshirish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb, hisoblaymiz:

- davlat ta'lim standartlarini va ularning o'quv-uslubiy bazasini ularning mazmuni va ta'lim texnologiyalarining quyidagilarga muvofiqligini ta'minlash maqsadida qayta ko'rib chiqish kerak:

a) zamonaviy jamiyat talablariga muvofiqligi ("tayyor bilimlarni berish"dan "kompetensiyani shakllantirish"ga o'tish);

b) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish shartlariga muvofiqligi (tarmoqlar bo'yicha va mintaqalar kesimida mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiqlikni ta'minlash);

v) mazkur soha va fanning zamonaviy rivojlanish darajasiga muvofiqlik;

- fuqorolik jamiyati institutlarini, xususan kasbiy va ilmiy hamjamiyatlarni, ish beruvchilar birlashmalarini ta'lim sifatini baholash masalalariga, standartlarni ishlab chiqishdan tortib, to natijalarni nazorat qilgunga qadar, jalb etishning samarali mexanizmini yaratish;

- kasbiy ta'limni ilmiy-tadqiqot faoliyati, hamda innovatsion universitetlar, ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etish orqali, amaliy faoliyat bilan mustahkam aloqalarini o'rnatish, ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tijoratlashuvi mexanizmini yaratish;

- xolis ekspertiza asosida, shu jumladan xalqaro tashkilotlar va ekspertlarni jalb etish orqali litsenziyalash, davlat akkreditatsiyasi jarayonlarini takomillashtirish;

- filiallarda va nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilishni kuchaytirish;

- ilmiy-pedagogik kadrlarni davlat attestatsiyasidan o'tkazishni takomillashtirish;

- ta'lim muassasalarida sifatni nazorat qilishning ichki mexanizmlarini yaratish.

Oliy ta'lim muassasasi ta'lim sifatini ta'minlashda, eng avvalo, kadrlar strategiyasini shakllantirishi zarur. Muassasa rahbari buning uchun hamkasblari bilan turli munosabatlarga kirishishi, ishga doir barcha munosabatlarda ijodiy yondoshishi, kerakli axborotlarni o'zlashtirishi va undan foydalanishni to'g'ri tashkil etishi lozim. Oliy ta'limning tarkibiy bo'linmalari rahbarlari ta'lim sifatini ta'minlashda kadrlar siyosatini to'g'ri belgilashlari uchun istiqbolli strategiyani ishlab chiqishlari zarur.

Mazkur muammoni hal qilishda iqtisodiyotimizning o'sib borayotgan ehtiyojlariga javob bera olgan holda, oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda markaziy hokimiyatning boshqaruvchilik faoliyatiga qo'shimcha sifatida, talabdan kelib chiqqan holda, OTMlarga qabul sonini ko'paytirish yoki kamaytirish imkonini berish maqsadga muvofiq. Bu esa, diplomga ega oliy ma'lumotli bitiruvchilarga bo'lgan bozor talabi bilan mavjud tizim o'rtasidagi tafovutni qisqartirishning bozor mexanizmiga imkon beradi.

Bundan tashqari, OTMlarga talab yuqori mutaxassisliklar bo'yicha qabul kvotasidan tashqari, oshirilgan shartnoma to'lovlari asosida o'qishga qabul qilishga ruxsat berilishi va oshirilgan shartnoma to'lovi miqdorining belgilanishi ham, yuqori malakali oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlarga bo'lgan talabning qondirilishiga, OTMlar o'rtasida raqobat muhitining shakllanishiga, abituriyentlar uchun o'qishga kirish uchun OTMlarni, ularning fakultetlarini tanlash imkoniyatlarining kengayishiga olib keladi.

Oliy ta'lim tizimida o'qitishning kechki, sirtqi bo'limlari, shuningdek masofaviy o'qitish kabi kam mablag' talab qiladigan shakllarining yo'lga qo'yilishi ham, oliy ma'lumotli mutaxassislarga bo'lgan talabni qondirishning samarali yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimini boshqarishni yaxshilash ham ta'lim tizimini rivojlantirishdagi strategik muammolardan hisoblanadi. Bugungi kunda oliy ta'limda yagona majmuaviy huquqiy baza yaratilmagan, boshqaruv ko'p sonli markaziy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi, hamda qisqa ko'lamdagi tavsifga ega. O'zbekiston OTMlari bir qator sohalarda, xususan rahbarlik qilish va boshqarish, o'zining kadrlar siyosati, o'quv, ma'muriy va moliyaviy siyosatini olib borishda institusional mustaqillikka ega emaslar.

Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimida nodavlat sektor cheklangan tavsifga ega. Nodavlat OTMlarni tashkil etish, ularga qabul sonini oshirish ham Respublikamiz oliy ta'limni rivojlantirishning asosiy strategik yo'nalishlaridan hisoblanadi.

OTMlar ilmiy kengashlarining o'quv rejasini ishlab chiqishdagi vakolatini kengaytirish kerak. OTMdagi ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'qitiladigan fanlarning 20%i OTM ilmiy kengashi tomonidan, qolgan 80%i esa davlat ta'lim standartlari asosida belgilanishi, OTMlarni bir-biridan farqlash va o'sib borayotgan mahalliy ehtiyojlarga, talabga muvofiq bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Oliy ta'limni rivojlantirish strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri oliy ta'lim sifatini ta'minlash tizimini isloh qilishdir. Bugungi kunda oliy ta'lim sifatini ta'minlashning amaldagi meyorlari xalqaro amaliyotga javob bera olmayapti. Sifatni ta'minlash tizimi o'tish davrini boshidan kechiryapti, boshqaruvning va nazoratning markazlashgan tizimidan qochishga, hamda xalqaro amaliyotni oliy ta'lim sifatini tashqi va ichki ta'minlash mexanizmiga kiritadigan tizim tomoniga o'tishga harakat qilyapti. OTMlar hali ham ko'proq markaziy vazirliklar tomonidan boshqarilyapti, o'zlarining dasturlarini O'zbekiston iqtisodiyoti talablari va ehtiyojlariga moslashtirish uchun, faqatgina cheklangan mustaqillikkagina egalar.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimi uchun oliy ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha mustaqil agentlikni tashkil etish juda ham muhim hisoblanadi. O'zbekistonda Davlat test markazining faoliyati kuchaytirilishi va mazkur funksiyani bajarish bo'yicha vakolat taqsimlanishi mumkin. DTM tomonidan sifatni "tashqi" ta'minlanishiga qo'shimcha, sifatni "ichki" ta'minlash funksiyasini bajarish uchun mustaqil baholashga, qisman boshqa OTMlardan hamkasblarning baholashiga asoslangan, sifatni oshirish bo'yicha bo'linmalar yaratilishi kerak.

Hozirgi kunda O'zbekiston Boloniya deklaratsiyasiga qo'shilmagan, uni amalga oshirish mexanizmini rivojlantirish bilan shug'ullanmagan. Shu bilan birga, mamlakatimizda Boloniya jarayonining ayrim unsurlarini kiritish uchun qonunchilik bazasi mavjud va u xalqaro ta'lim jarayoniga integratsiyalashuv, hamda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida raqobatni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.T.Yusupova.Universitet 3.0 konseptsiyasi asosida bilimlarni tarqatish va tijoratlashtirish. "Ta'limda tadbirkorlik" Unesco-Apeid (Osiyo-Tinch okeani rivojlanish uchun ta'lim inovatsiyalari dasturi) 10-kengashi doirasida "Yoshlar - kelajagi va ta'limda tadbirkorlik " mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya maqolalar to'plami. 2024 yil, 10 oktabr. 395-405 betlar.

2.D.T.Yusupova. Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirishning xorij tajribasi /// Marketing ilmiy, amaliy va ommabop jurnal. 2024-yil, noyabr, № 9-son. 89-97-betlar. <https://www.marketing journal.uz>.

Yusupov Ulug'bek Shukrullayevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Innovatsion menejment" kafedrasi dotsenti, i.f.f.d., Ulugbekyusupov84@gmail.com

TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA KADRLAR SIYOSATI STRATEGIYASI

Annotatsiya.Maqolada ta'lim xizmatlarini boshqarishda kadrlar siyosati strategiyasi tadqiq etilgan. Kadrlar strategiyasidan kelib chiqqan holda, kadrlar siyosatining maqsadi, asoslangan. Oliy ta'lim tizimida kadrlar strategiyasining asosiy yo'nalishlari asoslangan.

Kalit so'zlar. Oliy ta'lim tizimi, kadrlar strategiyasi, passiv, reaktiv, yopiq va ochiq kadrlar siyosati, mutaxassis kadrlar, zaxira, rejalashtirish.

Аннотация. В статье исследована стратегия кадровой политики в управлении образовательных услуг. Исходя из кадровой стратегии обоснована цель кадровой политики. Обоснованы основные направления кадровой стратегии в системе высшего образования.

Ключевые слова. Система высшего образования, кадровая стратегия, пассивная, реактивная, закрытая, открытая кадровая политика, кадры, специалисты, запасы, планирование.

Abstract. The article explores the personnel policy strategy in the management of educational services. Based on the personnel strategy, the objectives of personnel policy are justified. The main directions of the personnel strategy in the higher education system are substantiated.

Keywords. Higher education system, personnel strategy, passive, reactive, closed and open personnel policy, specialist personnel, reserve, planning.

Boshqarish funksiyasi sifatida strategik rejalashtirish butun boshqaruv funksiyalari uchun poydevor yoki boshqaruv tizimi funksional tuzilmasining asosi hisoblanadi. Strategik rejalashtirish butun maqsadlarga erishish yo‘lidagi asosiy ko‘maklashuvchi vosita bo‘lib ham, xizmat qiladi. Shu bilan birga, strategik rejalashtirish o‘zida shunday jarayon va qarorlarni mujassam etadiki, ular yordamida ta’lim muassasasi shakllanishidagi maqsadlarga erishishni ta’minlovchi strategiyalar ishlab chiqiladi.

Oliy ta’lim tizimida zamonaviy rahbar tanlangan strategiyani amalga oshirishda inson zaxiralaridan samarali foydalanish uchun tashkiliy, ijtimoiy-pedagogik va psixologik vositalar majmuidan foydalanishi kerak.

Kadrlar siyosati strategiyasini shakllantirishda uzoq va qarama-qarshiliklarga ega bo‘lgan jarayon bosib o‘tiladi. Zamonaviy OTMda kadrlar siyosatini tahlil qilar ekanmiz, ana shu o‘zgarishlar jarayonini hisobga olishimiz zarur. OTM faoliyatini olib borishni ta’minlovchi kadrlar 3ta guruhga bo‘linadi: professor-o‘qituvchilar guruhi, ma’muriy-boshqaruv xodimlari hamda yordamchi xodimlar, ya’ni laborantlar, uslubchilar, kabinet mudirlari va laboratoriya mudirlari.

Kadrlar siyosati har uchala guruh uchun ham tegishli bo‘lib, har birini shakllantirish o‘zining alohida tizimiga ega. Ta’lim jarayonida o‘zaro bog‘langan faoliyatni amalga oshiruvchi OTM kadrlarini tashkil etuvchi mazkur guruhlarni shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bunda eng avvalo, OTMlarda kadrlar strategiyasidan kelib chiqadigan butun muassasaning hamda har bir ishlovchi uchun kadrlar siyosatining maqsadi aniqlanadi. So‘ngra, muassasa oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifalar aniqlanadi, xususan, kerakli o‘ringa, talab etilgan sondagi mutaxassisni o‘z vaqtida ta’minlash masalasi ko‘rib chiqiladi. Nihoyat, barcha guruh xodimlari uchun OTM kadrlar siyosatini amalga oshirish rejasini shakllantiradi.

Amaliyotda faol, passiv, reaktiv, yopiq va ochiq kadrlar siyosati shakllarini biri – biridan farqlanadi. Faol kadrlar siyosati OTM missiyasini, uni rivojlantirishning ishlab chiqilgan strategiyasiga asoslangan bo‘lib, OTM uchun qabul qilingan qadriyatlar va ustuvorliklarni inobatga olgan holda shakllantiriladi.

Faol kadrlar siyosati amalga oshirilgan ekan, OTM rahbariyati strategik ko'ra bilishlikka asoslangan holda, muammoli holatlarni yuzaga kelishi mumkinligini oldindan tahlil qilini lozim. Natijada, tavakkal darajasini pasaytirishga qaratilgan siyosatni ham olib boradi, kadrlar strategiyasiga ichki va tashqi muhit o'zgarishlariga qarab tuzatishlar kiritiladi. Kadrlar siyosatini amalga oshirishning bu turi rahbariyatga qo'yilgan maqsadlarga erishish, to'siqlarni, tasodifiy qarama - qarshiliklarni yengib o'tish imkonini beradi.

Amaliyotda passiv kadrlar siyosati ko'proq uchradi, bunda boshqaruv faoliyati sodir bo'layotgan xodisalarga qarab amalga oshiriladi. OTM rahbariyati aniq bir strategiyaga emas, o'zgaruvchan strategiyani qo'llashi mumkin. Kadrlar harakati stixiyali ravishda, hodisalarning qay tarzda borayotganligiga bog'liq holda amalga oshiriladi. OTM rahbariyati sodir bo'layotgan jarayonlarga ba'zan ta'sir ko'rsatishga mas'uliyatsizlik bilan qaraydi yoki imkoniyati bo'lmaydi. Jamoada tez-tez kelishmovchiliklar va nizoli yuzaga keladi. Oqibatda kadrlar qo'nimsizligi yanada yuqori bo'ladi.

Kadrlar siyosatining bunday shakli ko'pincha, o'tkinchi tavsifga ega bo'ladi, rahbariyat OTM uchun salbiy oqibatlarga olib keladigan holatlarni to'xtatishga, vaziyatni nazorat qilishga harakat qiladi. Ammo, strategiyaning hamda aniq belgilab olingan maqsadning puxta o'ylab chiqilmaganligi, asoslanmaganligi va istiqbolli kadrlar siyosatining yo'qligi sababli ijobiy natijalarga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun, kadrlarni o'zgartirishni oldindan istiqbolini belgilab borish zarur. Jamoa rahbariyatga ishonmay qo'ysa, turlicha kasbiy hamda ijtimoiy qiziqishlari bo'lgan turli guruhlarga bo'linib ketishi mumkin.

Kadrlar siyosatining samarali shakllaridan biri, aniq strategiyaga va tahlil natijalariga asoslangan siyosat hisoblanadi. Jamoaning qadriyatlari maqsadga erishishning asosiy omili hisoblanadi, shu boisdan ham, rahbariyat jamoani shakllantirganda, kadrlarni to'g'ri tanlash va motivatsiyaga alohida e'tibor qaratishi lozim.

OTMlarda nazariy jixatdan kadrlar strategiyasini shakllantirishda ochiq va yopiq shakllaridan ham foydalanish taxlili yoritiladi. Ochiq usul ko'proq boshqaruvning g'arb madaniyatiga mos keladi. U kadrlarni bo'sh o'rinlarga tanlov asosida qabul qilishni, imkoni boricha yuqori malakali kadrlarni oliy kasbiy ta'lim tizimidan tashqaridan jalb etishni ko'zda tutadi. Mazkur kadrlar strategiyasining ustunlik jihati – uning tanlovga asoslanganligi, yuqori kasbiy malakaning zarurligini talab qilinishi, innovatsiyaviylik, hamda oshkoralikdir. Kamchiligi esa, raqobatning kuchli ekanligi, nobarqarorlik hamda ziddiyatlilik hisoblanadi.

Kadrlar strategiyasini shakllantirishda kadrlar siyosatining yopiq usuli tashkilotning o'zini ichki kadrlar salohiyatini rivojlantirishga asoslanadi. Bu usul ko'proq boshqaruvning kadrlar bilan ishlashning sharq madaniyatiga mos keladi. Bundan tashqari, u ko'proq yuqori darajada ilmiylik talab etiladigan jamoalar uchun xosdir. Bu usulning ustunlik jihatlariga jamoadagi har bir xodimning imkoniyatlarini ochib berishga, ularning salohiyatidan iloji boricha to'liq foydalanishga, yuqori darajadagi ijtimoiy himoyalanganlikka, jamoaning erishgan yutuqlari uning har bir a'zosining qo'shgan hissasi bog'liqligiga asoslanganligidir.

Kamchiligiga esa, resurslarning cheklanganligi, rahbarlik qilish o'zgartirilgandagina, ularni to'ldirish mumkinligini ko'rsatish mumkin.

Kadrlar siyosatining ochiq va yopiq usullarini qiyosiy tahlil qilganda, kadrlarni ishga jalb etish ochiq usulda mehnat bozoridagi yuqori darajadagi raqobatga asoslansa, yopiq usulda esa, yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi, sifatli bilimlarga ega yangi mutaxassislar oqimining bo'lmasligi holatini ko'rish mumkin.

Xodimlarni ishga moslashuvi masalasi bo'yicha ochiq usulda yangi mutaxassislar tomonidan taklif etilgan innovatsion g'oyalarni joriy etish, raqobat munosabatlariga tez qo'shilish imkoniyati bilan tavsiflansa, yopiq usulda esa, ustozlar saboqiga ko'ra, mehnat vazifalarini bajarishga samarali kirishish, jamoaning yuqori darajadagi jipsligi bilan tavsiflanadi.

Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish borasida ochiq usulda muassasadan tashqaridagi ilmiy tadkikot markazlarida xam amalga oshiriladi. Xodimlarni mansab zinapoyalari bo'yicha harakatlanishi masalasida ochiq usulda o'sish, lavozimning ko'tarilishi ba'zan qiyin bo'ladi, chunki, bu usulda xodimlarni tashqaridan jalb etish ustunlik qiladi. Yopiq usulda esa, xodimlarni yuqori lavozimlarga qo'yilishi o'z muassasa hisobiga bo'ladi hamda ularning karyerasi rejalashtiriladi. Muassasadagi kadrlarning mansab zinapoyalari bo'yicha harakatlantirish amalga oshiriladi.

Rag'batlantirish va motivatsiya masalasida ochiq usulda ko'proq tashqi rag'batlantirishga e'tibor qaratilsa, yopiq usulda esa ijtimoiy maqsadlarni, jamoaning barqarorligi va xavfsizligi inobatga olinadi. Demak, kadrlar siyosatini amalga oshirishning ochiq va yopiq usullarining o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlari mavjud.

Oliy ta'lim muassasasi raqobatbardosh bo'lishi uchun o'zining istiqbolli strategik rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishi, hamda tegishli personalni tanlashi kerak. Xattoki yaxshi rahbar ham, tashkilotdagi muhitga, uning o'ziga xos bo'lgan ayrim sharoitlarga ko'nikishi uchun ma'lum vaqt talab qilinadi. Ayrim hollarda, qo'shimcha qayta tayyorlov zarur bo'ladi. Bundan tashqari, shuni inobatga olish kerakki, boshqaruv tajribasi, qo'l ostidagilarning faoliyatini to'g'ri nazorat qila olish kabi bir qator ko'nikmalarni faqatgina, amaliy tajriba orqaligina shakllantirish mumkin. Bunday holatda, OTMlar tayyor rahbarlarning malakasini orshirish, ularni qayta tayyorlashning turli dasturlarini taklif etishga tayyor turishlari kerak.

OTMlarda rahbar kadrlarni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqishda malakaviy yondoshuv asosida ularga nisbatan kasbiy shartlarni o'rnatish, xodimlarni o'qitish tizimini yaratish, kadrlar zaxirasini shakllantirish, rag'batlantirishning samarali tizimini yaratish va tashkiliy madaniyatni shakllantirish masalalariga katta e'tibor berish lozim.

Bu vazifalarning qo'yilishi OTMning rahbar kadrlar siyosatida ko'pincha, ustuvor strategik vazifa sifatida qaraladi. Rahbar kadrlar siyosatini kuyilgan vazifalarni ishlab chiqishda va amalga oshirishda OTMda sodir bo'ladigan o'zgarishlar jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bir qator tavakalchilikni

hisobga olish va ziddiyatli holatlarning salbiy oqibatlarini tahlil qilish va yuqori rahbariyat tomonidan kadrlarni boshqarish strategiyasiga nisbatan to'liq samarali yondashuvni ishlab chiqilishi lozim.

Shu bilan birgalikda, rahbar kadrlar salohiyati, bilimlari va ko'nikmalari oshirish lozim, bu ishlarni amalga oshirish uchun esa zaruriy malakaga ega bo'lgan mutaxassislarni jalb etish kerak. Bu jarayonini ta'minlash uchun talab etiladigan moddiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlashni shakllantirish zarur.

Shu bilan birga, tavakkalchilikning darajasini pasaytirish uchun o'rta va yuqori bo'g'in rahbarlarida zaruriy boshqaruv malakalarini rivojlantirish, xodimlarni ishdan bo'shatishning shaffof mexanizmini ishlab chiqish, yangi kadrlar siyosatining mantiqiyliigi, asoslanganligi va barcha xodimlarni OTMda sodir bo'layotgan jarayon va o'zgarishlar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlab borish lozim. Bular kadrlar siyosatini shakllantirishning asosiy omillari ekanligini inobatga olgan holda maxsus maksadli dastur ishlab chikilishi lozim.

OTMning kadrlar siyosatiga faqatgina iqtisodiy nuqtai nazardan qarash ham to'g'ri bo'lmaydi. Bugungi kunda kadrlar siyosatining jamiyatda tutgan o'rnini baholash murakkabligi sababli uni aniqlovchi indikatorlarni yaratish lozim. Aynan, rahbarlarda innovatsion maqsadli bilimlarni shakllantirish va uzluksiz malakalarini oshirib borishi hamda zamonaviy ta'lim usullaridan keng foydalangan tarzda amalga oshirish bugungi kun talabidir. Ammo, bu faoliyatning samaradorligini ta'minlash uchun rahbar kadrlar tarkibini yangi zamonaviy asosda shakllantirish talab etiladi, bu vazifaning bajarilishi esa OTMda kadrlar siyosatini amalga oshirilishi orqali ta'minlanadi.

Zamonaviy ta'lim muassasasining rahbar kadrlar siyosati strategiyasi – bu tizimli ta'lim faoliyatni amalga oshirishning uzoq muddatli, kompleks rejasini hamda barcha qonuniyatlarni, ichki va tashqi holatlarni, kadrlar siyosati, qo'yilgan maqsad va vazifalarni har tomonlama chuqur o'rganish asosida muassasaning samarali faoliyat yuritishini ta'minlashni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat deb baxo berishimiz mumkin. Yuqoridagi tahlillarga ko'ra, oliy ta'limning jamiyat rivojlanishi bilan bog'liq holdagi qonuniyatlari, konseptual asoslarini, tashqi va ichki sharoitlar tahlilini, muqobil variantlar va tendensiyalarni bashorat qilishni, qo'yilgan maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan texnologiyalarni, usullarni, tashkiliy formalarini o'rganishni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimining bugungi kundagi holatini Respublikamiz iqtisodiyoti bilan tashqi aloqalari, shuningdek oliy ta'limni boshqarishning ichki mexanizmlari nuqtai nazaridan, har tomonlama tahlil qilish natijalariga asoslanib, iqtisodiyotimizni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq, oliy ta'lim tizimini isloh qilishning, yuqori malakali, oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlarni tayyorlash strategiyasining asosiy yo'nalishlarini belgilab berish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.T.Yusupova.Universitet 3.0 konseptsiyasi asosida bilimlarni tarqatish va tijoratlashtirish. "Ta'limda tadbirkorlik" Unesco-Apeid (Osiyo-Tinch okeani rivojlanish uchun ta'lim inovatsiyalari dasturi) 10-kengashi doirasida "Yoshlar -

kelajagi va ta'limda tadbirkorlik " mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya maqolalar to'plami. 2024 yil, 10 oktabr. 395-405 betlar.

2.D.T.Yusupova. Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirishning xorij tajribasi /// Marketing ilmiy, amaliy va ommabop jurnal. 2024-yil, noyabr, № 9-son. 89-97-betlar. <https://www.marketingjournal.uz>

Yusupova Nafisa Voxidovna – ALFRAGANUS UNIVERSITY NOTT, “Menejment va marketing” kafedrasi o‘qituvchisi, Yusupovanafisa809@gmail.com

HUDUDLARDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH MAQSADIDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNI TASHKIL QILISHNING STRATEGIK VAZIFALARI

Annotatsiya. Maqolada erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilishning maqsadi va strategik vazifalari tadqiq etilgan. Respublikamiz hududlarining ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari asoslangan. Respublikamiz xududlariga xorijiy kapitalni jalb etish vazifalari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar. Hudud, strategiya, eksport, investitsion jozibadorlik, infratuzilma, ishlab chiqarish, imtiyoz, samara.

Аннотация. В статье исследованы цель и стратегические задачи создания свободных экономических зон. Обоснована потенциальная возможность увеличения объема производства и экспорта в регионах Республики. Исследованы задачи привлечения иностранного капитала в регионы Республики.

Ключевые слова. Зона, стратегия, экспорт, инвестиционная привлекательность, инфраструктура, производство, привилегии, эффект.

Abstract. The article examines the goals and strategic objectives of establishing free economic zones. The potential for increasing production and export volumes in the regions of the Republic is substantiated. The tasks of attracting foreign capital to the regions of the Republic are analyzed.

Keywords. Zone, strategy, export, investment attractiveness, infrastructure, production, incentive, effect.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning samarali formalari o‘zgarib bormoqda va bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning unumli formasi bo‘lgan zamonaviy erkin iqtisodiy zonalarining eng keng tarqalgan turi sanoat - eksport zonalarini tashkil etish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining bugungi kundagi rivojlanish darajasi hududlarning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Ularga birinchi navbatda quyidagilar kiradi:

- iqtisodiy o‘sishning yuqori sur‘atlari va siyosiy mo‘ta’dillik;
- fan-texnika, ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyatning yuqori darajadali;
- noyob tabiiy va tabiiy-xom ashyo resurslari zahiralarining katta miqdorda mavjudligi;
- yetarlicha yuqori bilimga va malakaga ega bo‘lgan ko‘p sonli aholisi bilan tavsiflanadigan inson resurslarining salohiyati;

- investitsion jozibadorlik va qulay investitsion muhit chet el investorlari va mahalliy tadbirkorlik subyektlari uchun huquqiy kafolat va imtiyozlarning keng tizimi;

- hududning energetik va transport tizimining markazida qulay geografik joylashuv, samarali faoliyat olib boradigan, tarmoqlangan transport infratuzilmasining mavjudligi, xalqaro savdo markazlarga chiqq olish va iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan mamlakatlarning yirik bozorlariga yaqinlik;

- boy ma'naviy, madaniy-tarixiy meros;

- Markaziy Osiyo regionida O'zbekistonning ko'pchilik davlatlar iqtisodiy va siyosiy maqsadlarining to'qnashish obyekti sifatidagi faol ishtiroki.

Bunda, Respublikamiz uchun hozirgi kunda xorijiy kapitalni jalb etish masalasi bilan birga quyidagi vazifalarni ham hal etish juda dolzarbdir:

- eksport faoliyatini kengaytirish uchun infratuzilmani yaratish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilg'or texnologiyalarni tadbiq etish, tabiiy raqobat ustunliklaridan foydalanib, milliy iqtisod raqobatbardoshligini oshirish maqsadida telekommunikatsiya va transport infratuzilmasini rivojlanish;

- sanoat mahsulotini eksport qilishni rag'batlantirish va valyuta tushumlarini ko'paytirish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish, to'liq ishlab chiqarish sikliga ega bo'lgan sanoat-eksport hududlarini yaratish;

- xom ashyo resurslarini qayta ishlab, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish;

- xalqaro sifat, sertifikatsiyalash standartlarini tadbiq etish yo'li bilan tashqi va ichki bozorlarda respublikamizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish;

- ishbilarmon xamkorlikning xalqaro standartlarini o'zlashtirish yo'li bilan xo'jalik yuritish va boshqarishning zamonaviy usullarini tadbiq etish;

- transmilliy kompaniyalar bilan kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish yo'li bilan, xususan ularning ishlab chiqarish zanjiriga kirish orqali mahalliy iqtisodiyotni jahon bozoriga integratsiyalash;

- yangi ish o'rinlarini yaratish, yuqori malakali kadrlarni o'qitish va tayyorlash [1].

Yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha iqtisodiy rivojlantirishni rag'batlantirish mexanizmlaridan biri bo'lib maxsus iqtisodiy hududlar-mamlakatimizning aniq chegaralar bilan ajratilgan maydoni bo'lishi mumkin.

Bu maydonlarda iqtisodiy faoliyat xo'jalik subyektlari tomonidan mahalliy qonunchilikda belgilangandan farq qiladigan, maxsus bojxona va soliq imtiyozlari o'rnatilgan sharoitlarda faoliyat olib boradilar.

Bunda shuni ta'kidlash lozimki, maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etish mexanizmi turli imtiyozlar, jumladan samara bermaydigan imtiyozlardan foydalanmaslikni taqozo etadi. Bundan tashqari, texnologik jihozlarni va komplektlovchi mahsulotlar importida bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod qiluvchi qo'shimcha imtiyozlar berish o'rniga, erkin omborxonalar va erkin bojxona hududlarining bojxona tartiblaridan foydalanish imkoniyati tug'iladi. Bu esa barcha potensial investorlar uchun imtiyozlarni ishlab chiqarish hududining

cheklangan maydonida ruxsat etilgan faoliyat turlarida qo'llash orqali standartlashtirishga erishish imkonini beradi.

Bundan tashqari, tiniq meyoriy muhit ko'rinishidagi qulay investitsion muhitni ta'minlashga, ma'muriy va bojxona muolajalarini soddalashtirishga qaratilgan maxsus iqtisodiy hududlar xorijiy xususiy investorlarni, ishlab chiqaruvchilarni o'zlarining ishlab chiqarish sikllarining ayrim bosqichlarini O'zbekistonga joylashtirishni rag'batlantirishning samarali mexanizmi bo'lishi mumkin. Bunda korxonalarning zich joylashishi hisobiga infratuzilmani yaratish harajatlarini qisqartirishga erishiladi [2].

Respublikamizning investitsion salohiyatini baholash unda xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari kengligini ko'rsatadi. Shu sababli, Respublikamizda yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sanoat ishlab chiqarish hududlarini yaratish xorijiy investorlarning investitsion faolligini, eng avvalo elektrotexnika, mashinasozlik va avtomobilsozlik, to'qimachilik sanoati kabi yuqori texnologik tarmoqlarda oshirishini ta'minlaydi.

Maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etish dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, juda ko'p davlatlarda ularni tashkil etish joyini tanlash masalasi birinchi navbatda hududning geografik joylashuvi bilan asoslanadi. Shu bilan birga maxsus iqtisodiy hududlarni joylashtirishning majburiy shartlari yoki belgilari bo'lib yirik transport koridorlarining, zaruriy infratuzilmaning mavjudligi hisoblanadi.

Erkin iqtisodiy zonalarini joylashtirish mumkin bo'lgan yerlar boshqa davlatlarning ko'p sonli zonalarini qamrovida bo'lishi mumkinligi sababli O'zbekiston Respublikasi zonalarini faoliyatini raqobat muhitini ko'rib chiqamiz.

Korxonalarning xo'jalik faoliyatini va umuman, iqtisodiyotni boshqarish mexanizmlari orasida soliq va bojxona boshqaruvi alohida o'rin tutadi. Ular birgalikda korxonalarning samarali faoliyat olib borishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmatlar raqobatbardoshligining ortishi, raqobat muhiti, hamda investitsion muhitning asosiy ustqurmasini yaratadilar. Egiluvchan soliq va bojxona siyosatini qo'llashning ijobiy ta'sirini erkin iqtisodiy zonalarda faoliyat olib borayotgan korxonalar misolida ko'rishimiz mumkin. Ustuvor tarmoqlar korxonalari barpo etish va tez rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida odatda eksportbop tovarlar ishlab chiqarishda foydalaniladigan materiallar uchun, hamda mashina va dastgohlar eksporti va importida soliqlar va bojxona soliqlari bekor qilinadi yoki minimal miqdorgacha pasaytiriladi. Bundan tashqari, firma-investorlarga odatda, soliq kanikullari 5 yildan 35 yilgacha kafolatlanadi, ba'zi holatlarda bu davr umuman aniq chegaralarga ega bo'lmaydi va eksport mahsuloti ishlab chiqarish davriga mos keladi.

Zonalar xorijiy tadbirkorlar va xizmatchilar bilan o'z munosabatlarini turlicha o'rnatishlari mumkin, ammo ko'pchilik zonalarda imtiyozli soliqqa tortish faqatgina mulkka nisbatan qo'llanilmaydi, balki zonada ishlayotgan mutaxassislar va menejerlarning daromadlariga nisbatan ham qo'llanib, shuningdek ilg'or tajribani qo'llash hisobiga korxonalarning samarali rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Imtiyozlarning o'lchamlari shunday o'rnatilishi kerakki, investitsiyalarni jalb etishni ta'minlasin, aks holda ularning berilishi qabul qilayotgan davlat uchun

foydasiz bo‘lib qoladi. EIZ da foydadan olinayotgan soliq tushumlari kamayganda, davlat daromad solig‘idan, ko‘chmas mulk solig‘idan, infratuzilmadan foydalanganligi uchun to‘lovlardan, firmalar va ularning xizmatchilari tomonidan tovarlarni iste‘mol qilganda to‘lanadigan soliqlardan tushumlarning ortishiga asoslanadi.

Har bir zonada bojxona va soliq imtiyozlarining o‘ziga xos kombinatsiyalaridan foydalaniladi. Ko‘pchilik investorlar, ko‘rsatkichlar tizimiga ko‘ra barcha zonalar deyarli bir xil jozibadorlikka ega bo‘ladi, deb hisoblaydilar. Bu holat EIZ larni yaratishga bir xil ekspertlarni jalb etish bilan ham bog‘langan. Shu bilan birga, turli tarmoq korxonalari uchun kapitalning kelib chiqishi, uning miqdori va boshqa hususiyatlari ma‘lum ustuvorliklarni yaratadi. Shu boisdan ham boshqaruvning qandaydir o‘rtalashtirilgan qoidalarini emas, balki aniq zonalarini boshqarishni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etish va faoliyat olib borish jahon tajribasi shuni ko‘rsatdiki, ular turli maqsadlarga erishishni haqiqatda ta‘minlaydilar. Erkin iqtisodiy hududlarni yaratishning asosiy maqsadi mamlakatlarni xalqaro mehnat taqsimotini rivojlantirish jarayoniga yanada kengroq qo‘shilishini ta‘minlashdir. Bu esa o‘z navbatida eksport uchun raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va shu yo‘l bilan respublikamizga valyutalar kelib tushishini ko‘paytirish imkonini beradi. To‘g‘ri, agar mamlakat ba‘zi bir sabablarga ko‘ra xorijiy tadbirkorlar kapitali uchun iqtisodiyotda keng yo‘l ochib berishni yoki eksportni rag‘batlantirishni ta‘minlay olmasa, u holda bu shuni erkin iqtisodiy hududlar chegarasida amalga oshirishi mumkin.

Respublikamizda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishning asosiy maqsadlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Markaziy Osiyodagi erkin savdo hududlariga a‘zo davlatlarda tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish, investitsiyalar kiritishga nisbatan preferensial rejimni yaratish;

- tovarlarni, xizmatlari va investitsiyalarni erkin harakat qilishi uchun to‘siqlarni yo‘qotish;

- savdo va boshqa operatsiyalar bo‘yicha o‘zaro manfaatli hisob-kitob va to‘lovlarning samarali tizimni yaratish va rivojlantirish;

- erkin savdo hududlarining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur qonunchilikni muvofiqlashtirish;

- kooperatsiya aloqalarining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro manfaatli investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratib berish;

- ishlab chiqarish va servis xizmatlari sur‘atlarining o‘sishi, eksport salohiyatning ortishi, aholi ijtimoiy himoyalanganligining yaxshilanishi, investitsiyalar va mamlakatning yalpi ichki mahsulotini o‘sishi orqali butun iqtisodiyotini tashkiliy qayta tuzish.

Ushbu maqsadning ro‘yobga chiqishiga quyidagi vazifalarni yechish orqali erishish mumkin: texnoparklar, texnopolislar, yuqori texnologik klassterlar, yangi yuqori texnologiyalarni rivojlantirish hududlarini, texnik-iqtisodiy rivojlanishni,

innovatsion hududlarni, agrosanoat parklarini, servis xizmatlarini, ishlab chiqarishni jadal sur'atlarda rivojlantirishni, ilg'or texnika va texnologiyani rag'batlantirishning huquqiy mexanizmini takomillashtirishni, yangi texnologik asosda iqtisodiy o'sishni tezlashtirishni va aholining ijtimoiy himoyalanganligini oshirish uchun yangi ish o'rinlarini yaratishga imkon beradigan meyoriy huquqiy bazani takomillashtirish kerak.

Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish asosida yangiliklarni muntazam ravishda va keng miqyosda tadbiq etish jarayonlarini shakllantirishga katta e'tibor qaratilishi kerak. Bunday holatda ilmiy salohiyat eng qimmatli resurs ekanligidan kelib chiqish zarur. U o'z mohiyatiga ko'ra noyob resurs, yoki unga egalik qilish kelgusida mehnat taqsimotida yetakchi o'rinni raqobat kurashida hal qiluvchi ustunliklarga ega bo'lish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupova N.V. Vertikal integratsiya strategiyasining afzalliklari va kamchiliklari. "Ishlab chiqarish va qayta ishlashning innovatsion texnologiyalarini rivojlanishi sharoitida ilm-fan va soha korxonalarining integratsiyasi" respublika miqyosidagi ilmiy – amaliy anjumani to'plami, 2-qism, 2024yil noyabr, 286-289b.
2. Yusupova N.V. To'qimachilik klasterlari raqobatbardoshligini oshirishda vertikal integratsiya strategiyalarini qo'llash. // Marketing ilmiy, amaliy va ommabop jurnal. 2024-yil, sentyabr, № 7-son. 165-175-betlar. <https://www.marketing-journal.com>.

Казаков Олим Сабирович – Менежмент ва маркетинг кафедраси профессори,

Турабаев Иброхимжон – Менежмент ва маркетинг кафедраси ассистенти, e-mail: olimkzkv@gmail.com, Наманган муҳандислик-технология институти

ХИЗМАТЛАР СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТИ

Аннотация. *Хизмат кўрсатиш соҳасининг ривожланишини таъминлашда замонавий бошқарув усуллари ва тамойилларини қўллаш ҳамда етакчилик салоҳиятидан тўлароқ фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга. Етакчилик бўйича замонавий концепцияларни қўллаш масалалари ўрганилган.*

Калим сўзлар: *иқтисодиёт, хизмат кўрсатиш соҳаси, менежмент, бошқарув усуллари, бошқарув тамойиллари, етакчилик.*

Аннотация. *Применение современных методов и принципов управления, полное использование лидерского потенциала имеют важное значение в обеспечении развития сферы услуг. Изучены вопросы применения современных концепций лидерства.*

Ключевые слова: *экономика, сфера услуг, менеджмент, методы управления, принципы управления, лидерство.*

The summary. *Application of modern management methods and principles and full use of leadership potential are important in ensuring the development of the service sector. Issues of application of modern concepts of leadership are studied.*

Key words: *economy, service industry, management, management methods, management principles, leadership.*

Иқтисодиёт ривожланишида хизматлар соҳасининг аҳамияти тобора ортиб бормоқда. Ривожланган мамлакатларда ялпи ички маҳсулотнинг асосий қисми хизматлар соҳасига тўғри келмоқда. Мамлакатимизнинг ялпи ички маҳсулоти 2024 йили 1454391,7 млрд.сўмни ташкил этган бўлса, унда саноат ишлаб чиқариши 462696,5 млрд.сўмни ва хизматлар соҳаси 657348,5 млрд.сўмни ташкил қилди. Мамлакат ялпи ички маҳсулотида хизматлар соҳасининг улуши 2023 йили 46,2 % ни ташкил этган бўлса, 2024 йилга келиб 47,4 % ни ташкил қилди (1-жадвал). Хизматлар соҳасининг улуши ортиб бормоқда. Бу соҳанинг ривожланиши кўплаб омиллар ва ресурсларга боғлиқ бўлиб, улар ичида бошқарув фаолиятини такомиллаштириш омили муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

1-жадвал

Ўзбекистон Республикаси ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг
АСОСИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ

№	Кўрсаткичлар номи	Ўлчов бирлиги	2024 йил	2023 йилда тутган ўрни,%	2024 йилда тутган ўрни,%	2024 йили 2023 йилга нисбатан, %
1	Ялпи ички маҳсулот	млрд. сўм	1 454 391,7	100,0	100,0	106,5
2	Саноат	млрд.сўм	462 696,5	32,6	33,4	107,3
3	Хизматлар	млрд.сўм	657 348,5	46,2	47,4	107,7

Хизматлар соҳасини ривожлантириш йўналишида менежмент самарасини ортиришга ҳаракат қилиш зарур. Менежмент самараси бошқарувчиларда етакчилик сифатларининг жамланишида кўпроқ амалга ошади. Шунда бошқарув қарорлари бажарилиши учун шароит яратилади ҳамда соҳанинг ривожланиши юксалади, мамлакат иқтисодиётининг ривожига қўшадиган ҳиссаси ортиб боради. Замонавий менежментнинг асосий вазифаси ҳам ана шунда акс этади. Бозор муносабатлари шароитида бошқарув ривожига тўрт хил анъана кузатилмоқда:

1) Худудлараро бошқарувнинг ривожланиши. Худудлараро корхоналарни пайдо бўлиши, худудлар ўртасида меҳнат тақсимотини юзага келиши, туман ва худудлар ривожининг бир-бирига боғлиқлиги ҳамда ахборотлар кўламининг кенгайиши ва улардан фойдаланишнинг аҳамиятининг кундан-кунга ортиб бориши.

2) Худудлар, туманлар ўртасида кучли рақобат курашини юзага келиши. Бизнинг Ўзбекистон шароитида давлат буюртмасини олиш учун кураш, маҳсулотларни сотиш учун рақобат, зарурий ресурсларга эга бўлиш учун курашнинг ўзига ҳос хусусиятларга эгадир. Бундай рақобат ўзига ҳос ҳавф солиши билан бирга, туманларнинг ривожини учун ижобий характерга ҳам эгадир.

3) Ижтимоий ва иқтисодий самарадорлик, ходимлар салоҳиятидан тўла фойдаланиш, янгиликларни жорий қилиш сингари қадриятларнинг ортиши,

асосий йўналиш сифатида қабул қилиниши. Етакчилар бу омилларга катта эътибор беришлари лозим.


4) Маъмурий - ҳудудий бошқарувда турли бошқарув тизимларини аралаштириш, биргаликда қўллаш. Ҳозирги шароитда турли бошқарув усулларини биргаликда қўллаш самарали бўлмоқда. Баъзи бир қарорларни қабул қилишда демократик усул самарали ҳисобланса, баъзи бир қарорларни қабул қилишда бошқаришнинг автократик усули, баъзиларида эса аристократик усул самарали бўлмоқда. Ҳозирги бошқарув тизимлари, айниқса корхона бошқаруви тизимида бу усулларни биргаликда қўллаш катта самара бермоқда. Шу сабабдан, бу усуллардан комплекс равишда фойдаланиш самарали ҳисобланмоқда.

Бошқарув фаолиятида раҳбарнинг етакчилик салоҳияти муҳим аҳамиятга эга. У ўз фаолиятида ҳолатни кузатиш, таҳлил қилиш, истиқболни аниқлаш лозим. Жаҳоннинг ривожланган мамлакатларида етакчиликни ривожлантиришга кўплаб маблағлар сарф қилмоқдалар. Етакчилик фаолияти ривожланган корхоналардаги самарадорлик даражаси бу масалага эътибор етарли даражада ажратилмаётган корхоналарга нисбатан 7 марта юқорилигини тадқиқотлар кўрсатмоқда. Бюджетнинг 17 фоизи юқори салоҳиятга эга бўлган ва шу билан бирга раҳбарлик мансабларида ишламаётган ходимларнинг етакчилик қобилиятини ривожлантиришга йўналтирилмоқда.

Етакчилар жараёнларни билишлари, улардан усталик билан фойдаланишлари, асосий устивор вазифалари ва йўналишларини белгилай олишлари, уларни бутун ҳудуддаги ташкилотларга етказишлари, асосий қарама қаршиликларини фарқлай олишлар, ривожланишнинг муҳим анъаналарини яхши билишлари, бошқарув мақсадларини туза олишлари, уларни бажариш воситаларини олға суришлари ўта муҳимдир. Шу мақсадни бажаришга ҳудуддаги барча ташкилотлар, жамоа хўжаликлари ва одамларни сафарбар қилиш уларнинг асосий вазифаларидан биридир. Хизматлар соҳаси корхоналари бошқарувидаги етакчи ходимлар қарор қабул қилишда жуда эҳтиёт бўлишлари, бу қарорларни қабул қилиш усулларини самарали тарзда қўллай олишлари, қарор қабул қилишга таъсир этувчи омилларни аниқлашлари ва улардан фойдаланишлари лозим. Бунда улар ҳар бир вариантни баҳолай олишлари, асосий мақсадга етишишга таъсир этувчи омилларни таъсир доирасини аниқлашлари, улар таъсирини баҳолашлари, ҳаракатларга мос келувчи талабларни шакллантира олишлари катта аҳамиятга эгадир.

Хизматлар соҳаси самарадорлигини ошириш ва иқтисодиётга қўшадиган хиссасини орттириш мақсадида ташкил этилаётган бошқариш жараёнига етакчилик таъсирини шакллантириш зарур. Шу сабабли етакчилик таъсирини шакллантириш моделини яратишга эҳтиёж туғилмоқда. Бу моделда етакчининг фаолиятига таъсир этувчи барча омилларни қамраб олиш ва улардан фойдаланиш натижасида амалга оширилиши керак бўлган асосий йўналишлар белгиланиши керак. Етакчи фаолиятига таъсир этувчи омиллар

қаторига соҳа корхоналари фаолиятида фойдаланадиган ресурслар, хизматлар соҳасининг ривожланиш тамойиллари, меҳнат ресурслари, етакчининг билим ва иқтидори, шахсий сифатлари, ахлоқий меъёрлари ҳамда ижтимоий масъулияти сингари кўрсаткичларни ҳисобга олиниши зарур. Агар бу моделни схематик тарзда ифодаласак, 1-расмдаги кўринишга эга бўламиз.



1-расм. *Хизмат кўрсатиш корхонасини бошқариш жараёнига етакчилик таъсирини шакллантириш модели*

Хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятини ташкил этаётган етакчилар қатор шахсий сифатларига эга бўлиб, улар асосида ўз корхона ва ташкилотларнинг ташқи иқтисодий фаолиятини ривожлантиришлари, зарур инфратузилма бўлимларини ташкил этишлари билан биргаликда барча фаолият йўналишларида инновацион изланишларни олиб боришни ташкил этиш, самарали инновацияларни корхона ва ташкилотларга олиб келиш бўйича ишларга раҳбарлик қилишлари бу моделдан кўзланган асосий мақсад бўлиб хизмат қилади.

Хулоса. Хизмат кўрсатиш соҳасининг бугунги кундаги ривож ва истиқболи бу соҳада менежмент фаолиятини ривожлантиришга кўп жиҳатдан боғлиқлигини ҳисобга олиб, бу соҳада олиб борилаётган бошқарув фаолияти ҳар бир ресурсдан фойдаланиш хизмат кўрсатиш корхонаси ўз олдида қўйган стратегик мақсадга етишишни ва кўпроқ фойда олишини таъминлаши, ҳар бир бирлик ресурсдан олинадиган хизмат даражасини орттиришга, хизмат кўрсатиш корхоналаридаги асосий воситаларни жойлаштирилишига, ўз вақтида ва сифатли таъмирлашга, меҳнатни илмий асосда ташкил этишга,

меҳнат тақсимоти ва ҳамкорлигини йўлга қўйишга, иш жойини тўғри ва оқилона тартибини яратишга, иш усулларини такомиллаштиришга олиб бориши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон-2030 стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сонли Фармони. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2022 йил.

8. Elnara Alievaa, Olim Kazakov EFFECTIVE APPLICATION OF INNOVATIONS OF THE "THIRD RENAISSANCE" IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF SMALL BUSINESSES Namangan Institute of Engineering and Technology, Namangan, Uzbekistan Central European Management Journal, Vol. 30 Iss. 3 (2022) ISSN:2336-2693 | E-ISSN:2336-4890, Retrieved from https://journals.kozminskicem-j.com/index.php/pl_cemj.index.html

© Platform & Workflow by: Open Journal Systems.

9. Kazakov Olim Sabirovich. Issues improvement managment of production enterprises. INTERNATIONAL JOURNAL ON ECONOMICS, FINANCE AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT E-ISSN: 2620-6269. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD>. Vol. 5 No. 2 | February 2023

10. Kazakov Olim Sabirovich. MANAGEMENT OF THE ECONOMIC POWER OF BUSINESS ACTIVITIES AND ITS IMPACT ON ITS EFFICIENCY. Journal of Pharmaceutical Negative Results | Volume 13 | Special Issue 6 | 2022 <https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/5743/7083>

11. Competitive environment, quality and its management in the digital economy. OS Kazakov, S Valijonov The American Journal of Applied sciences 3 (04), 119-125

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=qO6QVMgAAAAJ&citation_for_view=qO6QVMgAAAAJ:GnPB-g6toBAC

12. Повышение эффективности использования экономических ресурсов

ОС Казаков. Journal of new century innovations 22 (1), 132-134

15. MANAGEMENT OF THE ECONOMIC POWER OF BUSINESS ACTIVITIES AND ITS IMPACT ON ITS EFFICIENCY. KO Sabirovich. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3679-3685

9. Современные проблемы и возможности использования концепций лидерства в развитии регионов. ОС Казаков, БУ Бобахонов JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN 7 (1), 230-234.

САМАРҚАНД ВИЛОЯТИДАГИ УЛГУРЖИ САВДО ТАШКИЛОТЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ САМАРАДОРЛИГИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Аннотация: Мақолада “Самарқанд вилоятидаги улгуржи савдо ташкилотларининг бошқарув самарадорлиги ошириш йўллари ва чакана савдода товар сотишининг қўйидаги усуллари баён этилган.

Калим сўзлар: Савдо, савдо корхоналари, улгуржи савдо, товар айланмаси, истеъмол бозори, хизмат кўрсатиш.

Аннотация: В статье описаны «Пути повышения эффективности управления оптовыми торговыми организациями Самаркандской области и следующие методы реализации товаров в розничной торговле».

Ключевые слова Торговля, торговые предприятия, оптовая торговля, товарооборот, потребительский рынок, услуги.

Annotation: The article describes "Ways to improve management efficiency of wholesale trade organizations in Samarkand region and the following methods of selling goods in retail trade.

Key words: Trade, trade enterprises, wholesale trade, turnover, consumer market, service.

Улгуржи савдо умумлашган воситачи ҳисобланади ва кўпчилик вазифаларни бажаради. Улгуржи савдодан саноат корхоналари, тижорат фирмалари ва давлат муассасалари улгуржисига товар сотиб олишлари мумкин. Улгуржи савдо аҳамияти қўйидагиларни ўз ичига олади:

- чакана савдога ишлаб чиқариш фирмаларнинг тор ассортиментини кенгайтиришни таклиф этади;
- катта ҳажмда товар сотиб олиб, муомала ҳаражатларини камайтиради;
- юқори малакали товаршунос ва маркетинглар билан товарлар бозорини чуқур ўрганади;
- товарларни сақлайди ва керакли товар захираларини шакллантиради;
- ишлаб чиқарувчилар ва чакана савдо ўртасида мустаҳкам алоқа боғлайди, уларга молиявий ёрдамлашади ва бошқалар.

Улгуржисига фаолият кўрсатиш товар ишлаб чиқарувчилар, тижоратчи фирмалар, агент ва брокерлар орқали амалга оширилиши мумкин.

Ишлаб чиқарувчи корхоналар улгуржи савдо фаолиятини махсус бўлим ёки фирмалар ташкил этиш орқали амалга оширилади.

Улгуржи савдо билан шуғулланувчи махсус тижорат фирмалари - улгуржи савдо базалари, омборлари ва товар биржалари шаклида, хусусий, ҳиссадорлик, қўшма ва давлат мулкига асосланган бўлишлари мумкин.

Улгуржи савдо базаси мустақил фаолият кўрсатувчи, махсус омбор хўжалигига ва малакали ходимларга эга бўлган фирма мавқеида ишлайди. У

товар ассортиментларини қабул қилиш, сақлаш ва истеъмолчиларга етказиб бериш жараёнини ташкил этади. Улгуржи савдони ташкил этишда товарлар базалари орқали ёки уларнинг топшириғи билан ишлаб чиқаришдан тўғридан - тўғри истеъмолчи фирмага (транзит усули) етказиб берилиши мумкин. Аммо улгуржи савдо базаларининг товар ҳаракатини ва сотилишини ташкил қилишдаги аҳамияти беқиёсдир. Уларнинг фаолият кўрсатишлари учун объектив заруриятлари мавжуд. Саноат ишлаб чиқаришнинг ривожланиш қонунияти махсуслаштирилиши туфайли товарлар кўп корхоналарда тор ассортиментли бўлади. Чакана савдо учун эса аҳолига мўл-кўл, универсал ассортиментли товарлар таклиф этиш замонавий маркетинг талабидир. Улгуржи савдо базалари ана шу тор ишлаб чиқариш ассортиментида кенг универсал савдо ассортиментини шакллантиради. Товар биржаларини улгуржи савдо фаолиятининг базаларидан фарқи, улар товарларни сотиб олиш ва қайта сотиш билан шуғулланмайди, омбор хўжаликлари ҳам йўқ, улар фақат воситачилик қиладилар. Агент ва брокерлар воситачилик ишини бажарадилар, аммо моддий жавобгарликни буйинларига олмайдилар. Агентлар ишлаб чиқариш фирмаларида ва улгуржи савдо базаларида ишлашади. Брокерлар товар биржаларида асосий ўринни эгаллайдилар. Брокерлар жойи биржада танлов асосида сотилади, улар бир томондан биржадан, иккинчи томондан, ўз фаолиятлари учун ҳақ оладилар.

Дилер – мустақил кичик воситачи тадбиркор бўлиб, олди-сотди ишларини бажаради ва моддий жавобгарликка эга.

Воситачи ҳамкорларни танлаш ҳамма товар ишлаб чиқарувчилар учун муҳим давр ҳисобланади. Энг аввало шунга аҳамият бериш керакки, танлаб олинаётган воситачи бир вақтнинг ўзида сизнинг фирмангизнинг бозоридаги рақобатчиси бўлмаслиги керак. Умумий ҳолатда воситачи фирмалар ичидан сизнинг товарингизни сотиш бўйича махсуслашганини танлаш зарур. Яна воситачи фирманинг бозордаги обрў - эътибори, мавқеи, молиявий аҳволи қандай ва қайси банк билан ишлайди каби саволларга жавоб олиши керак. Унинг асосий белгиларидан савдо шаҳобчаларининг моддий техникаси, жойлашиши, сотувчи ходимларнинг малакаси ва бошқалар. Олдин синаш учун бирор йилга шартнома тузилади ва воситачи савдо фирма вакили, раҳбари - менежери воситачини шахсан ўрганади ва унинг шаҳобчаларига боради. Воситачилар иложи борида кўпроқ танланади ва уларнинг маркетинг - бозор дастурларига аҳамият берилади.

Шу ўринда Самарқанд вилояти улгуржи савдо ташкилотларининг асосий кўрсаткичларини ҳам таҳлил қилиб ўтиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Шунинг учун қуйидаги жадвални келтирамиз (1-жадвал)

**Самарқанд вилояти улгуржи савдо ташкилотларининг асосий
кўрсаткичлари**

		2016 й.	2017 й.	2018 й.	2019 й.	2020 й.
1	Улгуржи савдо товар айланмаси – жами, млрд. сўм	3 155,5	3 259,5	4 380,6	6 306,3	7 068,8
2	Товар захиралари (йил охирига):					
3	жами, млрд. сўм	612,8	1 150,9	1 289,4	1 401,8	1 546,7
4	товар айланмаси кунларида	70	127	106	80	79
5	Улгуржи савдо товар айланмаси ҳажмининг ўсиш сур'ати, ўтган йилга нисбатан фоизда	134,9	88,2	113,9	124,8	104,9

1-жадвал маълумотларига эътибор қаратадиган бўлсак, Самарқанд вилоятида улгуржи савдо товар айланмаси йиллар кесимида ўсиб бораётганлигини кўришимиз мумкин. 2016 йилга қараганда 2020 йилда 2,24 марта ошганлигини кўришимиз мумкин. Бунда товар захираларининг йил охирига қиймати ҳам ўсиб борган. Бу кўрсаткич 2016 йилга қараганда, 2020 йилда 2,52 марта ошганлигини кўришимиз мумкин.

Истеъмол бозорида монополияга қарши бошқарув тизими механизмларини такомиллаштиришда савдо қилишнинг янги турлари ва усулларида фойдаланиш бизнинг фикримизча рақобатни янада ривожлантиради. Рақобатнинг ривожланиши ўз-ўзидан монополияга ҳам чек қўяди.

Савдо қилишнинг янги турларига интернет, электрон почта, тўғри маркетинг, франчайзинг ва бошқаларни киритиш мумкин.

Интернет орқали савдо қилиш ҳозирги пайтда замонавий савдо қилиш тўғри ҳисобланади. Жуда кўп фирмалар интернетда маҳсулотларини таклиф қиладилар. Истеъмолчилар ўзларига керакли маҳсулотни ўзларининг компютери орқали буюртма бериб сотиб олишлари мумкин. Интернет орқали савдонинг устунлик томонлари бу биринчидан, вақт тежалади, иккинчидан воситачиларсиз тўғридан-тўғри ишлаб чиқарувчидан олиш имконияти пайдо бўлади.

Тўғри маркетинг – бу харидор билан турли воситалар билан тўғридан-тўғри мулоқот бўлиб, харидорни маҳсулотни сотиб олишга ишонтиришдан иборатдир.

Франчайзинг – бу савдо қилиш усулининг замонавий шаклларида бири бўлиб ҳисобланади. Бунда франчайзинг фирмаси франчайзер фирмасининг товар маркаси, номланиши ва рекламасидан фойдаланиб, товарни ишлаб чиқариш, тақсимланиши, сотиши ва таклиф этилишида бевосита қатнашади.

АКШда чакана савдонинг 50 % қисми франчайзинг тизими орқали амалга оширилади.

Хозирги вақтда чакана савдода товар сотишнинг қуйидаги усуллари қўлланилади:

- товарни пештахта орқали сотиш
- товарни харидор ўзига-ўзи хизмат қиладиган усулда сотиш
- товарни очиқ ёйиб қўйиб сотиш
- товар наъмуналарини кўрсатиб сотиш
- товарни аҳолининг буюртмасига мувофиқ сотиш.

Товарни пештахта орқали сотиш – товар сотишнинг одатдаги усули бўлиб, унда харидорларга хизмат қилиш жараёнининг деярли ҳамма асосий элементлари, чунончи: товарларни кўрсатиш ва унинг ассортименти билан таништириш, ҳисоб-китоб қилиш ва ҳақи тўланган товарни топшириш ишларини пештахта ёнида турган сотувчи бажаради.

Харидорлар ўзига-ўзи хизмат қилиши асосида товар сотиш усулида савдо майдони деворлари ёнига ёки ўртасига териб қўйилган ҳамма товарлар ёнига харидорлар бемалол бориб, мустақил танлаб олиб, инвентарь корзиналар ёки аравачаларга ўзлари солишлари мумкин, товарнинг ҳақи дўкондан чиқаверишдаги ягона ҳисоб-китоб жойида тўланади.

Товарни очиқ ёйиб қўйиб сотишда харидорлар сотувчининг иш жойига бемалол бориб мустақил танишишлари, сотувчининг маслаҳати ва ёрдами билан ўзларига керакли товарни танлаб олишлари мумкин.

Харидорлар ўзига-ўзи хизмат қиладиган усулда бўлгани каби товарларни очиқ ёйиб қўйиб сотишда ҳам товарлар савдо залига сотиш учун тўла тайёр ҳолда чиқарилади.

Rashidova Xadicha Tursunalievna – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, «Iqtisodiyot» kafedrasida o'qituvchisi, xadicha2829@gmail.com

ASALARICHILIK MAHSULOTLARI BOZORIDA KORXONALARNI RIVOJLANTIRISH UCHUN MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing strategiyalarini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda asalarichilik sohasidagi korxonalarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan marketing strategiyalarini shakllantirishning xususiyatlari, asalarichilik mahsulotlari bozorining ishtirokchilari tahlil qilinadi. Asalarichilik tarmog'ida mahsulotlarga ishlov berish, qadoqlash va sotish jarayonlari, hamda kichik va o'rta biznes korxonalarining bozor talabiga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Maqola asalarichilik sektorining eksport salohiyatini oshirish, ilmiy-texnikaviy rivojlanish va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: asalarichilik, marketing strategiyalari, differensiyatsiya, kichik va o'rta biznes, bozorda raqobat, mahsulot sifatini oshirish, mavsumiylik, huquqiy baza, eksport salohiyati, tarmoqni rivojlantirish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования маркетинговых стратегий на рынке продуктов пчеловодства. В исследовании анализируются особенности формирования маркетинговых стратегий, необходимых для развития предприятий в сфере пчеловодства, участников рынка продукции пчеловодства. В пчеловодческой отрасли описаны процессы обработки, упаковки и сбыта продукции, а также способы адаптации предприятий малого и среднего бизнеса к рыночному спросу и повышения их конкурентоспособности. В статье также уделяется особое внимание вопросам повышения экспортного потенциала сектора пчеловодства, научно-технического развития и совершенствования нормативно-правовой базы.

Ключевые слова: пчеловодство, маркетинговые стратегии, дифференциация, малый и средний бизнес, конкуренция на рынке, повышение качества продукции, сезонность, правовая база, экспортный потенциал, развитие отрасли.

Annotation: This article will consider the issues of improving marketing strategies in the market of beekeeping products. The study analyzes the features of the formation of marketing strategies necessary for the development of enterprises in the field of beekeeping, participants in the market of beekeeping products. In the beekeeping network, the processes of processing, packaging and sale of products, as well as ways to improve the adaptation and competitiveness of small and medium-sized enterprises to market demand are outlined. The article also pays special attention to the issues of increasing the export potential of the beekeeping sector, scientific and technical development and improvement of the regulatory framework.

Keywords: beekeeping, marketing strategies, differentiation, small and medium-sized businesses, competition in the market, product quality improvement, seasonality, legal base, export potential, network development.

Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki hozirgi kunda mamlakatimizda qishloq xo‘jalik mahsulotlari tarkibiga kiruvchi asalarichilik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalarini chuqur tahlil qilish uchun asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing strategiyalarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqish kerak. Bu borada avvalambor, asalarichilik mahsulotlari bozorining ishtirokchilarini turli xil ekanligini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Ishtirokchilarning birinchi toifasi - asal va qayta ishlanmagan asalarichilik mahsulotlarini bevosita ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jaligi korxonalari. Ikkinchi toifaga asal mahsulotlarini qayta ishlash, qadoqlash, markalash va sotishni amalga oshiruvchi korxonalar kiradi.

Ularning ishlab chiqarish birligi bo‘lmashligi mumkin, ammo ular ichki va tashqi bozorda faol ishtirokchilardir. Ushbu ikki toifadagi korxonalarning marketing strategiyalarini shakllantirishga yondashuvlar sezilarli darajada farq qilishi mumkin, shuning uchun biz ularni batafsilroq ko‘rib chiqamiz. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida yangi tashkiliy-huquqiy shakllar va tuzilmalarni shakllantirish jarayoni islohot boshida korxonalarning hajmi, ularning hududiy joylashuvi, yer maydonlari, korxonalar sonini hisobga olmagan holda jadal sur‘atlar bilan amalga oshirildi.

Bu borada, asalarichilik tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish, tarmoqda naslchilik ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, asalarichilik xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, asal mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va turlarini yanada ko‘paytirish, asalni qayta ishlash bo‘yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, asalarichilik sohasidagi ilg‘or tajribalarni respublikamizning barcha


hududlarida tatbiq etish maqsadida: “Asalarichilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[1] gi Qarori qabul qilindi.

Unga ko‘ra, «O‘zbekiston asalarichilari» uyushmasi tuzilib, asalarichilik tarmog‘ini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani, tarmog‘ini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish, yagona ilmiy-texnika, texnologik, investitsiya va eksport siyosatini amalga oshirishni muvofiqlashtirish, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda asalarichilik xo‘jaliklarini o‘rmon fondi yerlariga, tog‘ va tog‘oldi hududlariga, tabiiy pichanzor va yaylovlarga hamda qishloq xo‘jaligi yerlariga joylashtirishni amalga oshirish vazifalari belgilab berildi.

Shu sababli, huquqiy maqomni hisobga olgan holda, agrar soha korxonalarining katta qismi tashkiliy darajaga ko‘proq darajada kichik va o‘rta biznes tuzilmalariga mos keladi. Bu, ayniqsa, asal ishlab chiqaruvchi korxonalarga taalluqlidir, ularning aksariyati (96–97%) kichik fermer xo‘jaliklaridir. Qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishning kichik shakllari aholining o‘zini o‘zi ish bilan ta‘minlashning yuqori darajasini ta‘minlash, iqtisodiy inqirozlarning salbiy ta‘sirini va ijtimoiy keskinlikni kamaytirish imkonini beradi.

Boshqa tomondan, ular infratuzilmaviy xarakterdagi muammolarni hal qilishda yordam beradi, oziq-ovqat va agrosanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni ta‘minlaydi. Shuningdek, ham talab yuqori bo‘lgan, ham kichik savdo hajmi tufayli foyda keltiradigan turdagi korxona deb aytish mumkin. Shu munosabat bilan agrobiznesning kichik shakllarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirish, ularga tashqi muhit va bozor tendensiyalaridan ta‘sir etuvchi omillarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo‘jaligidagi kichik korxona faoliyatida muhim o‘rinni “uning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida foydali o‘rinni egallashiga imkon beradigan va yanada rivojlanishiga hissa qo‘shadigan shunday marketing strategiyalarini tanlash hamda asoslash” masalasi bo‘lishi kerak[2]. Bunda kichik korxonaning strategiya tizimi va marketing strategiyasini tanlash hamda asoslash, xususan, marketing tamoyillariga asoslanishi kerak[3]. Ma‘lumki, klassik marketing aralashmasi mahsulot, narx, sotiladigan joy va mahsulotni ilgari surish tizimini o‘z ichiga oladi. Agro-oziq-ovqat mahsulotlari (bu holda asal va asosan asalarichilik mahsulotlari) yetarlicha bir xil, standartlashtirilgan bo‘lishiga qaramay, asalarichilik sohasidagi bunday kichik korxonalar-ishlab chiqaruvchilar faoliyatining ustuvor yo‘nalishi differensiatsiya strategiyasini qo‘llash bo‘lishi mumkin. Ushbu strategiya korxona tomonidan uni raqobatchilardan sezilarli darajada ajratib turadigan afzalliklarni yaratish va saqlashni o‘z ichiga oladi (1-rasm).



1-rasm. Marketing asosida tabaqalanishning asosiy yo‘nalishlari va strategiyalari

Induksiya usulini qo‘llash asalarichilik korxonasi uchun differentsiatsiya strategiyasini ishlab chiqish metodologiyasi to‘g‘risida xulosa chiqarish imkonini beradi, bu quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilishi mumkin:

1. Marketing muhiti tarkibiy qismlarini tahlil qilish (SWOT-, PEST-, SNW-tahlil) asosida kichik asalarichilik ishlab chiqaruvchisining tashqi va ichki muhitini tahlil qilish, korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy holatini uch yildan besh yilgacha bo‘lgan muddatga chuqur tahlil qilish.

2. Asalarichilik korxonasining maqsadlarini shakllantirish, unga erishish yo‘llarini ishlab chiqish yoki tuzatish.

3. Strategik alternativlarni va farqlash belgilarini (mumkin mezonlarini) aniqlash va baholash.

4. Marketing kompleksi elementlari bo‘yicha differentsiatsiya strategiyalarini tanlash (mavjud resurslarga qarab rivojlanish istiqbollari asoslash va taqqoslash).

5. Differentsiatsiya strategiyalarini amalga oshirish va ularning korxonalar faoliyatida amalga oshirilishini nazorat qilish. Asalarichilik sohasida mahsulot differentsiatsiyasining asosiy omili mahsulot sifati bo‘lib, uning darajasi raqobatbardoshlikning iste’molchi va narx parametrlarining asosiy va qo‘shimcha xususiyatlari bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, asalarichilik korxonasining mahsulot siyosatini shakllantirish jarayonida strategiyani asosli tanlashdan tashqari, uni amalga oshirish jarayoni, xususan, maqsadli segmentni jalb qilish; bozor konyunkturasi o‘zgarishi va mavsumiylikni hisobga olgan holda asal va boshqa asalarichilik mahsulotlarini saqlash va sotish uchun tegishli sharoitlarni rejalashtirish va ta’minlash kabi asosiy jihatlar muhim ahamiyatga ega. Asalarichilikda mavsumiylik omili alohida o‘rin tutadi, shuning uchun uni marketing funksional strategiyalarini amalga oshirishda hisobga olish kerak.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 16.10.2017-yildagi PQ-3327-son Qarori. <https://lex.uz/docs/3380814>
2. Bezkorovaina O. O. Modern paradigm of strategic development of agricultural sector enterprises: marketing aspects and implementation problems. Technologies of the XXI century.: Coll. theses of sciences works of the 24th international science and practice conf. Sumy: SNAU, 2018. Part 2. P. 92–94
3. Rashidova X.T. (2024). Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing strategiyasini amalga oshirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 1(4), 10-15. ([Zenodo](#))

Уразов Комил Бахрамович – Профессор, Иқтисодиёт фанлари доктори, СамИССИ, Бухгалтерия ҳисоби ва аудит кафедраси,
Орзукулова Зумрад Абдухолик қизи – Катта ўқитувчи, PhD Ижтимоий ва сиёсий фанлар институти, zumrad.orzuqulova@mail.ru

ТРАНСПОРТ-ЛОГИСТИКА ХИЗМАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИ БОШҚАРИШНИНГ ХУДУД БАРҚАРОР ИҚТИСОДИЙ ЎСИШИДАГИ АҲАМИЯТИ

Аннотация: Мақолада транспорт-логистика хизматларининг ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишига таъсири кўриб чиқилган, шунингдек, бу хизматларнинг ривожланган мамлакатлар иқтисодиётидаги ўрни ва аҳамиятига тўхталиб ўтилган. Ҳудуд транспорт инфратузмасининг ҳамда транспорт-логистика хизматларини ташкил этилганлик даражасига кўра баҳолаш орқали соҳани такомиллаштиришга оид тавсиялар берилган.

Калим сўзлар: ҳудуд, ялпи ҳудудий маҳсулот, барқарор ривожланиш, турмуш форовонлиги, транспорт-логистика хизматлари, иқтисодий ўсиш.

Аннотация: В статье рассматривается влияние транспортно-логистических услуг на социально-экономическое развитие регионов, а также рассматриваются роль и значение этих услуг в экономике развитых стран. Рекомендации по совершенствованию отрасли были разработаны на основе оценки уровня организации региональной транспортной инфраструктуры и транспортно-логистических услуг.

Ключевые слова: регион, валовой региональный продукт, устойчивое развитие, благосостояние, транспортно-логистические услуги, экономический рост.

Abstract: The article examines the impact of transport and logistics services on the socio-economic development of regions, as well as the role and importance of these services in the economy of developed countries. Recommendations for the improvement of the sector were made by evaluating the regional transport infrastructure and transport-logistics services according to the level of organization.

Key words: territory, gross regional product, sustainable development, well-being, transport-logistics services, economic growth.

Ҳудуднинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши давлат томонидан жамият тараққиётини тартибга солишнинг асосий вазифаларидан бири бўлиб, у муайян ҳудудда яшовчи ҳар бир фуқаронинг эҳтиёжларини максимал

даражада қондириш учун шароит яратишга қаратилган. Бу жараёнда транспорт-логистика хизматлари муҳим рол ўйнайди.

Транспорт-логистика тизими нафақат юк ва йўловчи ташишни амалга ошириш, балки муайян ҳудудда бозор ва ижтимоий муносабатлар иштирокчилари ўртасида тизимли ҳамкорлик ва интеграцияни таъминлаш имконини беради. Айнан шу сабабли транспорт-логистика хизматларини самарали ташкил этиш ва уни мунтазам такомиллаштириб боришни бошқариш ҳудуднинг иқтисодий ўсиш кўрсаткичларига ва ижтимоий фаровонлигига таъсир қилади.

Транспорт-логистика хизматларини ташкил этилишини бошқариш аввало ҳудуднинг транспорт инфратузилмаси билан боғлиқ. Транспорт-логистика хизматлари учун зарурий инфратузилмани баҳолаш мезонининг мавжудлиги уни домий таҳлил этиш айнан қайси жиҳатлар ЯХМ ҳажмига таъсир этиши кузатиш ва бошқариш имконини беради [1].

Транспорт-логистика тизимининг ривожланиш даражаси ишлаб чиқариш кучларининг жойлашувига бевосита таъсир қилади, чунки ушбу тизим ишлаб чиқариш ресурсларини энг қулай тарзда тақсимлаш имконини беради ва ишлаб чиқарилган маҳсулотларни исталган жойга етказишга ёрдам беради. Транспорт-логистика тизимини бошқариш минтақавий ва ҳудудий иқтисодий ўсишда муҳим рол ўйнайди. Транспорт-логистика хизматлари ривожланган мамлакатлар иқтисодиётида ҳам сезиларли улушга эга хизмат тури бўлиб унинг ҳудуд иқтисодий ривожланиши ва ҳудудлараро интеграциядаги аҳамияти тобора ошиб бормоқда. Ҳозирда Россия ва унинг барча ҳудудларида чегараларнинг йўқолиши, интеграция ва глобаллашув жараёнлари фаол ривожланмоқда, бу эса транспорт хизматлари кўламининг кенгайтирилишини талаб қилади. Шу нуқтайи назардан, транспорт хизматлари иқтисодий ривожланиш даражасининг ўзига хос барометри бўлиб, ЯИМ ўсиш тенденцияларини, ишлаб чиқариш қувватларининг юкланишини ва бошқа жараёнларни белгилайди[2].

Транспорт-логистика хизматларининг таъминот занжиридаги аҳамияти ва зарурлиги АҚШдаги “Буюк юк ташиш инқирози” даврида ҳам ўз исботини топди. Пандемиядан кейин бошланган мазкур инқироз АҚШда юк ташиш хажмининг қисқаришиб тўлов ставкаларининг пасайиши ва ташиш билан шуғилланувчи кўплаб корхоналарнинг банкрот бўлишига сабаб бўлди. Бошқа ҳамкор давлатлардан кўра бу инқироз Ўзбекистонга сезиларлироқ таъсир кўрсатди. Юк машиналари ҳайдовчиларининг асосий қисми бўлган ўзбекистонликларнинг ҳам даромад манбаи ҳам турмуш фаровонлигига жиддий таъсир кўрсатди.

Улкан салоҳиятга эга бўлган АҚШ учун бу соҳанинг аҳамияти ва инқирознинг нечоғлиқ жиддий эканлиги статистик рақамларда ифодасини топади. Мамлакатда амалга ошириладиган барча юк ташиш операцияларининг 72,5 фоизи қуруқликда юк машиналари орқали амалга оширилади. Ҳар йили ушбу сектор АҚШ иқтисодиётига 791,7 миллиард

долларлик даромад олиб келади. Ҳозирда АҚШда 3,91 миллион Class 8 турига мансуб оғир юк машиналари йўлларда ҳаракатланмоқда [3].

Транспорт-логистика хизматлари бозори миллий иқтисодиёт инфратузилмасининг муҳим таркибий қисми бўлиб, у давлат ва минтақавий даражада аҳамият касб этади. Бу бозор номоддий ишлаб чиқариш соҳасига киради ва унда транспорт хизматларининг сотиб олиниши ва сотилиши амалга оширилади. Бунга юк ва йўловчи ташиш, транспорт воситаларини таъмирлаш ва техник хизмат кўрсатиш, шунингдек, ташиш жараёнида бажариладиган турли хил ёрдамчи хизматлар ёки ишлар киради.

Транспорт-логистика хизматлари ҳудудий иқтисодий ривожланишга жуда катта таъсир кўрсатади. Бу хизматларнинг самарали ташкил этилиши нафақат иқтисодий ўсишга, балки аҳолининг турмуш даражаси ошишига ҳам ёрдам беради. Қуйида транспорт-логистика хизматларининг ҳудудий иқтисодиёт ривожланишига бўлган асосий таъсирларини келтириб ўтамиз:

1. *Ишбилармонлик фаоллигини ошириш.* Транспорт ва логистика хизматлари ривожланган ҳудудларда товарлар ва хизматларнинг ҳаракати тезлашади. Бу еса тадбиркорлик муҳитини яхшилаб, янги бизнесларнинг пайдо бўлишига туртки беради.

2. *Маҳаллий ва халқаро савдони кенгайтириш.* Сифатли транспорт ва логистика тизими ички ва ташқи бозорларга чиқишни осонлаштиради. Айниқса, экспорт-импорт жараёнларини соддалаштириб, ҳудудий маҳсулотларнинг жаҳон бозорида рақобатбардош бўлишига ёрдам беради.

3. *Иш ўринларини яратиш.* Транспорт-логистика соҳаси кўплаб иш ўринларини яратади. Хусусан, юк ташиш, омборхона бошқаруви, йўл инфратузилмаси қурилиши каби йўналишларда янги иш ўринлари вужудга келади.

4. *Ҳудудий инфратузилмани ривожлантириш.* Яхши транспорт тизими ҳудудий инфратузилмани яхшилашга ҳисса қўшади. Янги йўллар, темирйўллар, аэропортлар ва логистика марказларининг қурилиши ҳудуднинг умумий инфратузилмасини ривожлантиради.

5. *Ҳудудлараро иқтисодий тафовутларни камайтириш.* Транспорт-логистика хизматлари ривожланган ҳудудлар кам ривожланган ҳудудлар билан самарали боғланганида, иқтисодий тафовутлар камаяди. Кам ривожланган ҳудудларнинг бозорга кириш имконияти ошади, бу еса иқтисодий мувозанатга олиб келади.

6. *Инвестицияларни жалб қилиш.* Яхши транспорт-логистика тизими хорижий ва маҳаллий инвесторларни жалб қилади. Чунки қулай инфратузилма бизнес юритиш харажатларини камайтиради ва инвесторлар учун жозибадор муҳит яратади.

7. *Қишлоқ хўжалиги ва саноатни ривожлантириш.* Транспорт ва логистиканинг ривожланиши маҳсулотларни тез ва сифатли етказиб беришни таъминлайди. Бу еса қишлоқ хўжалиги ва саноат тармоқларининг ўсишига сабаб бўлади.

8. *Туризмни ривожлантириш.* Худудда транспорт инфратузилмаси ривожланган бўлса, туристлар учун қулайлик яратилади. Натижада, туризм соҳаси ривожланиб, худуд иқтисодиётига қўшимча даромад олиб келади.

Келтириб ўтилган бу таъсирларни инобатга олган ҳолда худудларда транспорт логистика тизими менежменти инновацион усуллардан фойдалариши, жараёнарин рақамлаштиришни тезлаштириш ва истеъмолчилар ўртасида бу хизматларнинг янги қирралари ҳамда имкониятларини кенг тарқатишда маркетинг тадқиқотларини ўтказиш зарурлигини билдиради.

Худудларда ЯХМнинг барқарор юқори ўсиш суръатларига эришиш ва уларнинг иқтисодиётида самарали таркибий ўзгаришларни амалга оширишдаб аҳоли турмуш фаровонлиги ва транспорт хизматларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишда транспорт- логистика тизимида куйидаги амалий тавсияларни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир:

1. Республика ва вилоятлар вилоятлар даражасида, транспорт воситаларию омборларб юк терминаллари ва логистика марказлари ҳолатини баҳолаш зарур. Уларни самарадорлик даражасига кўра гуруҳлаш керак.

2. Инвестиция ресурсларидан самарали фойдаланиш механизмларини жорий етиш. Ресурсларни йўналтирилганлиги, мақсадлилиги ва самарадорлигини мониторинг қилиш ва уни шаффофлигини таъминловчи механизмлардан фойдаланиш.

3. Аҳолининг иқтисодий фаоллигини ошириш ва соҳага зарур кадрлар малакасини оширишда хорижий ҳамкорлар билан онлайн ва оффлайн малака ошириш ва қайта ўқиш тизимини такомиллаштириш.

4. Мазкур соҳада оқсаётган корхоналар учун иқтисодий, ҳуқуқий маслаҳат ва субсидия, имтиёзлар бериш учун уларни ўзини тиклаш олиш даражасини баҳолаш, имтиёшни оқлаш мезонларини ишлаб чиқиш.

Хулоса қилиб айтганда, транспорт-логистика хизматлари худудий иқтисодий ривожланишнинг асосий омилларидан бири ҳисобланади. Бу хизматлар нафақат маҳсулот ва хизматларнинг ҳаракатини тезлаштиради, балки янги иш ўринларини яратади, инвестицияларни жалб қилади ва умуман худудларнинг рақобатбардошлигини оширади. Шунинг учун мазкур хизматларни ташкил этиш ва такомиллаштиришни бошқаришда менежмент ва маркетинг тадқиқотларининг алоҳида йўналиши сифатида ўрганиш уларнинг самарадорлигини оширишига хизмат қилади. Келтирилган тавсиялар мазкур соҳани янада чуқур тадқиқ этиш ва худуд барқарор иқтисодий ўсишини таъминлашга хизмат қилишини ўзида акс эттиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Катаева Ю.В . (2013). Интегральная оценка уровня развития транспортной инфраструктуры региона // Вестник Пермского университета. Серия: Экономика. Т. 19, № 4. С. 66–73.
2. Ryankova S. G., Zakolyukina E. S. (2024). The effect of transport parameters on regional economic development: The case of the Ural Federal District. Journal of

New Economy, vol. 25, no. 2, pp. 69–88. DOI: 10.29141/2658-5081-2024-25-2-4. EDN: DLXTDQ.

3. <https://rxo.com/resources/research/us-truckload-market/>

4. Орзукулова З. А. Худудларда транспорт-логистика хизматлари самарадорлигини оширишнинг имкониятлари. “Инновацион иқтисодиётни ривожлантириш асосида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш масалалари” республика илмий - амалий конференцияси материаллари. Самарқанд: СамИСИ, 2023-йил 20-сентябр, II қисм 201-204 б.

5. Матюшкина И.А., Каган М.И. ТРАНСПОРТНЫЕ УСЛУГИ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ РЕГИОНА И ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ЖИЗНИ Научный журнал «Экономика. Социология. Право.», 2022, №4(28) 26-31 стр

6. Хуршед Асадов, ЦЭИР Экономическое обозрение №3 (243) 2020

Nurimbetov Ravshan Ibragimovich – Tashkent arxitektura va qurilish instituti professori, i.f.d.,

Beglenov Nukusbay Dauletliyazovich – Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, iqtisod fanlari bo'yicha (PhD), E-mail: nokisbay8508@mail.ru

XIZMATLAR SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada xizmat ko'rsatish sohasida marketing kommunikatsiyalarining xususiyatlari, xizmatlarning kommunikatsiya strategiyasini shakllantirishning asosiy bosqichlari masalasiga qaratilgan. Maqolada xizmatni bajaruvchi xodimlarning roli va ahamiyati ko'rsatib o'tildi. Xizmatlarni bozorga olib chiqish strategiyasiga asoslanishi kerak bo'lgan prinsiplar belgilandi.

Аннотация: Статья посвящена вопросу специфики маркетинговых коммуникаций в сфере услуг, основным этапам формирования коммуникационной стратегии услуг. В статье обозначена роль и значимость исполнителя услуги и персонала в целом. Определены принципы, на которых должна базироваться стратегия продвижения услуг на рынок.

Abstract: Article is devoted a question of specificity of marketing communications in sphere of services, to the basic stages of formation of communication strategy of services. In article the role and the im-portance of the executor of service and the personnel as a whole is designated. Principles on which strategy of advancement of services on the market should be based are defined.

Kalit so'zlar: reklama, marketing, kommunikatsiya, xizmat ko'rsatish sohasi, iste'molchi, maqsadli auditoriya, xodimlar.

Ключевые слова: продвижение, маркетинг, коммуникация, сфера услуг, потребитель, целевая аудитория, персонал

Keywords: promotion, marketing, communications, sector of services, the consumer, target audience, the personnel.

Xizmatlar sohasi marketingi - tashkilotni boshqarish uchun umumiy, universal mexanizm, tashqi omillar ta'siri ostida juda tez o'zgarib turadi va iste'molchilarning istaklariga javob beradi.

Xizmatlar sohasida marketingning o'rni juda yuqori, chunki u tashkilotning xizmat ko'rsatish sohasidagi rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat va bozorda turli xil xizmatlarning ko'pligi marketing yondashuvini o'z ichiga olmaydigan tashkilotning klassik boshqaruv modelini boshqaradi. Hatto yuqori sifatli xizmatlar ham marketingsiz ko'p miqdordagi iste'molchilarni jalb qila olmaydi. Raqobatbardosh bo'lish uchun marketing vositalaridan foydalanish kerak.

3. Всемирная организация интеллектуальной собственности (ВОИС). (2022). *Global Innovation Index 2022*. URL: <https://www.wipo.int>
4. Министерство инновационного развития Республики Узбекистан. (2023). *Национальная стратегия инновационного развития Республики Узбекистан до 2030 года*. URL: <https://mininnovation.uz>
5. Сейфуллаев, А. Р. (2023). Влияние международного сотрудничества на инновационную активность Узбекистана. *Международная экономика и инновации*, 1(12), 34–42.
6. Ширинов, А. Х. (2021). Проблемы коммерциализации научных разработок в Узбекистане. *Экономика и инновации*, 3(45), 45–52.
7. Ниязметов, Б. И. (2022). Развитие человеческого капитала как основа инновационной экономики Узбекистана. *Наука и практика в XXI веке*, 2(6), 12–20.

G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrası assistenti, e-mail: ilhomjongafforov2@gmail.com

EKOTURIZM LOYIHALARIGA INVESTORLARNI JALB QILISH VA TURIZM KORXONALARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekoturizm loyihalariga investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati, asosiy mexanizmlari va muammolari tahlil qilinadi. Turizm korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish uchun samarali strategiyalar hamda xalqaro tajribalar ko'rib chiqiladi..

Kalit so'zlar: ekoturizm, investitsiyalar, turizm biznesi, barqaror turizm, moliyalashtirish, investitsion jozibadorlik.

Аннотация: В данной статье анализируется важность привлечения инвестиций в проекты экотуризма, основные механизмы и проблемы. Рассматриваются эффективные стратегии повышения инвестиционной привлекательности туристических предприятий, а также международный опыт.

Ключевые слова: экотуризм, инвестиции, туристический бизнес, устойчивый туризм, финансирование, инвестиционная привлекательность.

Abstract: This article analyzes the importance of attracting investments in ecotourism projects, key mechanisms, and challenges. It examines effective strategies for increasing the investment attractiveness of tourism enterprises and reviews international experience.

Keywords: ecotourism, investments, tourism business, sustainable tourism, financing, investment attractiveness.

Ekoturizm zamonaviy turizm sohasining eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy foyda keltirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli, ekoturizm loyihalariga investitsiyalar jalb qilish muhim masala bo'lib, bu turizm korxonalarining jozibadorligini oshirish va uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlash imkonini beradi. Respublikamizda keyingi yillarda turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, turizm bilan shug'ullanuvchi korxonalarga imtiyozlar yaratish, shuningdek, turizm sohasi uchun infratuzilmani shakllantirish borasidagi ishlar jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasini 2022-2026 yillarda Rivojlantirish Strategiyasi”da 35-maqсад: “O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish belgilangan.

Ushbu maqsadni amalga oshirish borasida quyidagi vazifalar belgilangan: “To'siqsiz turizm” infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlari bo'ylab keng joriy qilish.

2026 yilga qadar turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish.

Turizm va madaniy meros ob'ektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros ob'ektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish.

Zomin, Forish, Baxmal tumanlari va "Aydar-Arnasoy" ko'llar tizimida qo'shimcha turistik zonalar va dam olish maskanlarini barpo etish, 300 million AQSh dollariga teng loyihalarni amalga oshirish, 25 ming ish o'rni yaratish.

Samarqandni "Turizm darvozasi"ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 baravar oshirish.

Turizm sohasida 40 ming kishining bandligini ta'minlash." [2]

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, ekoturizm davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va boshqa omillarning ta'sirida jadal rivojlanayotgan bir paytda, turizm korxonalarining moliyaviy va xo'jalik faoliyatini samarali tashkil etish hamda ularga investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekoturizm loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish global miqyosda turli yo'llar bilan amalga oshirilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik, moliyaviy rag'batlantirish va barqaror rivojlanish strategiyalari orqali ekoturizmni qo'llab-quvvatlash samarali natijalarga olib keladi.

Ekoturizm loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish jarayonida bir qator muammolar mavjud va yechimlar xorij tajribasi asosida o'rganildi.

1.Moliyaviy resurslarning yetishmovchiligi – Ko'plab kichik va o'rta biznes subyektlari ekoturizm loyihalarini moliyalashtirish uchun yetarli sarmoyaga ega emas. Xorijiy amaliyotda, masalan, Kanada va Avstraliyada ekoturizm loyihalariga kredit liniyalari va soliq imtiyozlari taqdim etiladi.

2.Investorlarning xabardorligi yetarli emasligi – Ekoturizm sohasida daromad olish istiqbollari to'g'risida investorlar yetarli ma'lumotga ega emas. Germaniya va Niderlandiyada ekologik loyihalar uchun maxsus investitsiya forumlari va xalqaro ko'rgazmalar o'tkazilib, ekoturizm imkoniyatlari bo'yicha investorlar xabardorligi oshiriladi.

3.Siyosiy va iqtisodiy barqarorlik muammolari – Ekoturizm investitsiyalarining samarali amalga oshirilishi uchun davlat tomonidan barqaror siyosat olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Skandinaviya mamlakatlarida ekoturizm rivoji davlat grantlari va infratuzilma sarmoyalari orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Xulosa qilib aytganimizda, ekoturizmning investitsion jozibadorligini oshirish uzoq muddatli rivojlanish uchun muhim hisoblanadi. Shu sababli, ekoturizm loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish va turizm korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish uchun quyidagi strategiyalar tavsiya etiladi:

-davlat tomonidan ekoturizm loyihalariga subsidiya va grantlarni kengaytirish.

-xalqaro investorlarga ekoturizm loyihalarining iqtisodiy foydasini tushuntirish.

-ekologik sertifikatlash tizimlarini keng joriy etish orqali investorlarning ishonchini mustahkamlash.

- raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanishni keng joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611 Farmoni "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli farmoni "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".
3. Mowforth, M. Munt, I. (2015) Tourism and sustainability; Development and new tourism in the third world, Routledge, London
4. Axrorov F.B. Abduraxmanova A. (2021) Ekoturizm klasterlarini rivojlantirish orqali sohani rivojlantirish. Development issues of innovative economy in the agricultural sector

Berdikulov Jurabek Rayimkulovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, "Moliya" kafedrasi assistenti, berdikulovjurabek@gmail.com,
Ergashev Muhridin Ixtiyor o'g'li – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti 3-bosqich talabasi, muhriddinergashev19@gmail.com

DAVLAT MOLİYASI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA PUL-KREDIT SIYOSATINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy rivojlanishga erishish yo'lida hamda davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda pul-kredit sohasining ahamiyatini tahlil qiladi va ularni takomillashtirish yo'llarini o'rganadi. Iqtisodiy o'zgarishlar davri iqtisodiyotni rivojlantirishda moliyaviy va valyuta vositalarining roli haqidagi tasavvurni sezilarli darajada o'zgartirganligi va taraqqiy etayotgan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish tizimida ularning ustuvorligi yuksalganligi haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: pul-kredit siyosati, davlat moliyasi, pul muomalasi, Markaziy bank, pul bozori, kredit sohasi, banklar, operatsion maqsad.

Аннотация. Данная статья анализирует значение денежно-кредитной сферы в обеспечении устойчивости государственных финансов и достижения экономического развития в Республике Узбекистан, а также изучает пути их совершенствования. Период экономических преобразований существенно изменил представление о роли финансовых и валютных инструментов в развитии экономики, а также подчеркнул их приоритетность в системе государственного регулирования развивающейся рыночной экономики.

Ключевые слова: денежно-кредитная политика, государственные финансы, денежное обращение, Центральный банк, денежный рынок, кредитная сфера, банки, операционная цель.

Annotation. This article analyzes the significance of the monetary and credit sector in ensuring the stability of public finances and achieving economic development in the Republic of Uzbekistan, as well as explores ways to improve them. The period of economic transformations has significantly changed the perception of the role of financial and currency instruments in economic development and has emphasized their priority in the system of state regulation of a developing market economy.

Keywords: monetary policy, public finance, money circulation, Central Bank, money market, credit sector, banks, operational goal.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiy o'zgarishlar davri iqtisodiyotni rivojlantirishda moliyaviy va valyuta vositalarining roli, ahamiyati to'g'risidagi tasavvurni sezilarli darajada o'zgartirganligi va tobora rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish tizimida ularning ustuvorlikka erishganligi isbotini topgan. Hozirgi paytda davlat iqtisodiy siyosati, davlat moliyasi jahon bozorlari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini, shuningdek, jahon raqobati qoidalarini hisobga olishi kerak.

Shu sababli ham davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosatini yuksaltirish o'rinlidir. Bu boradagi ishlar haqida so'z boshlashdan oldin davlat moliyasi va pulkredit siyosati haqida aniq va to'liqroq ma'lumotlarga ega bo'lish uchun ayrim nazariyalarni keltirib o'tish joizdir:

Davlat moliyasi bu — davlat ixtiyorida pul jamg'armalarining tashkil etilishi, taqsimlanishi va sarflanishi sohasidagi munoasabatlardir. Davlat moliyasidagi mavjud bo'lgan mablag'lar dastavval umummilliy manfaatlar yo'liga safarbar qilinadi. Davlatning funksiyalarini bajarishda ham davlat moliyasining xizmati mavjuddir. Davlat moliyasi pul jamg'armalari, moliya mexanizmi, davlatning moliya institut (idora)lari va moliya siyosatini o'zida mujassam qilgan.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Davlat moliyasining tarkibiy qismiga nazar soladigan bo'lsak, unda davlat byudjeti, mahalliy, ya'ni munitsipal byudjetlar, davlat korxonalarining moliyasi (ularning byudjeti), hukumatga qarashli maxsus jamg'armalar, davlat krediti (davlat qarz olgan va qarz beradigan vositalari) singari turlarga duch kelamiz.

Barcha soha va yo'nalishlarning o'z tarixi bo'lgani kabi davlat moliyasi ham o'z tarixiga egadir. Tarix shuni ko'rsatadiki, dastlabki marotaba «**davlat moliyasi**» tushunchasi XVI asrda Fransiya davlatida amalda qo'llanilgan. U vaqtlarda davlat moliyasi turfa soliqlar sifatida iqtisodiyot maydonida ko'rina boshlangan. Kattakatta davrlarning paydo bo'lishi bilan ularning sarf-xarajatlari ham yiriklashib borgan. Bu esa davlatlarning naqd pulga bo'lgan ehtiyoj darajasini oshishiga sabab bo'la boshlaydi. Shuning natijasida xalqdan olinadigan soliqlar, asosan, pul shaklida yig'ib olinish yo'liga o'tadi. Majburiy zayomlar va zayomlar ham davlat zayomlariga o'rnini bo'shatib beradi. Bu davlat moliyasining murakkab tizimining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Hozirgi vaqtga kelib davlatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatini amalga oshirishda davlat moliyasining ahamiyati yanada yuksaldi. Takror ishlab chiqarish jarayonlarini ta'minlash, xalqning moddiy va ma'naviy jihatdan farovon turmush tarziga ega bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar barpo qilish, davlat organlarini mablag' tomonlama ta'minotini qoplash, davlatni idora qilish singari sohalarida yetakchi vosita sifatida o'rin egalladi.

Monetar siyosat tushunchasi inglizcha sanaladi aslida. Bizda esa pul-kredit siyosati deb talqin qilinadi. Pul-kredit siyosati — pul-kredit organlarining makroiqtisodiy siyosati, pul bozori shart-sharoitlari (qisqa muddatli foiz stavkasi, nominal valyuta kursi yoki joriy likvidlik darajasi) orqali yalpi talabni boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Bank sektorining yakuniy kombinatsiyasiga

erishish, jumladan, narxlar barqarorligi, barqaror ayriboshlash kursini saqlab qolish, moliyaviy jihatdan ham barqarorlik va muvozanatli iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish hamdir.

Pul-kredit siyosatining ob'yektlari:

- pul-kredit organlari;
- banklar;
- nobank tashkilotlarining harakatlari natijasida o'zgaruvchan pul bozoridagi talab va taklif.

Pul-kredit siyosatining sub'yektlari:

- Markaziy bank;
- Markaziy bank o'zaro aloqada bo'lgan iqtisodiy agentlar;
- Moliya tizimi faoliyatida ishtirok etuvchi banklar va boshqa moliya institutlari.

Davlat moliyasi va barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosatining o'rni va ahamiyati haqida ko'pgina iqtisodchi olimlar turfa muzokaralar olib borganlar. Mazkur masala yuzasidan turli millat vakillari ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar, maqolalar va monografiyalarni chop ettirganlar. Tojikistonlik birqator olimlar va iqtisod sohasining munosib izlanuvchilari: Mirazizov A., Radjabova I., Rasulov N., Faizulloyev M., Mamatkulov A., Davlatzoda D., Azimov H., Dzuhrayev G., Ahmadov B singarilar ham xalqaro miqyosida «Tojikistonning taraqqiy etishida pul va moliyaviy vositalari» nomi bilan e'lon qilingan ilmiy ishlarida Tojikiston avlati timsolida pul-kredit siyosati haqida ma'lumotlar va takliflar beradilar.

Bulardan tashqari boshqa bir necha saytlarda turli mualliflar nomlari ostida davlat moliyasi haqida ham maqolalar va ilmiy izlanishlar e'lon qilingan.

TADQIQOT NATIJALARI

Yuqorida keltirilgan nazariy ma'lumotlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, davlat moliyasi va pul-kredit siyosati o'zaro bog'liqlikda amalga oshadi. Bu munosabatlarni birbiridan ayri holatda tushunish qiyindir. Sababi pul-kredit siyosati orqali davlat moliyasining kelajagini ta'minlash, uning taraqqiy etishida qator yutuqlarga erishish mumkin bo'ladi. Qator yutuqlarga erishish uchun esa albatta, davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosatining ahamiyatini yuksaltirish lozim.

Ayni shu maqsadni ko'zlagan holda respublikamizda 2017-yilda boshlangan iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari ahamiyatini yuksaltirishga qaratilgan iqtisodiy ishlohotlarning avval qo'llanilmagan bosqichi o'rta muddatli istiqbolda bank tizimi va albatta, pul-kredit siyosatini oldinga yuksaltirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.³⁶

Bu yo'nalishlar samarasiz bo'lib qolmasligi uchun amaliy harakatlarda isbotlanib bordi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, aynan mana shu yo'nalishdagi muhim qarorlardan biri milliy valyuta almashuv kursining bozor mexanizmlari asosida

³⁶ <https://lex.uz/uz/docs/-3330485>

shakllanish tamoyillarini joriy qilish orqali ichki valyuta bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirilishi bilan ilk amaliy qadamlardan biri qo'yildi.

Aynan mana shu o'rinda Markaziy bank asosiy obrazni qo'lga oladi, ya'ni valyuta kursining shakllanish jarayonida butunlay o'zgacha bo'lgan uslubdan foydalanmoqlik hamda o'z navbatida, Markaziy bankning asosiy diqqat-e'tiborini ichki bozordagi narxlar barqarorligiga qaratish joiz hisoblanadi. Buning asnosida esa pul-kredit siyosatini yanada taraqqiy ettirish imkoniyatini paydo qiladi.

Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqib, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bir necha qaror va farmonga buyruq berdilar. Xususan, «Valyuta bozorini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonlarining e'lon qilinganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmay, davlatimiz rahbarining «Pul-kredit siyosatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari qavul qilindi. Hamda pul-kredit siyosatini 2017-2021- yillar davomida rivojlantirish va inflatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha ham chora-tadbirlar Kompleksi o'z tasdig'iga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o'rta muddatli istiqbolda pul-kredit siyosatini takomillashtirish hamda Uni amalda joriy qilish Konsepsiyasi kommunikatsiyalar kanalining jamoatchilik fikrini shakllantirish hamda inflyatsion targetlash rejimini amaliyotga joriy qilishdagi ilg'or roli inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. Har bir ishni amalga joriy qilishdan maqsad ko'zlanadi. Ushbu konsepsiyani amalga oshirishdan ham ko'zlangan maqsad mavjud, ya'ni bu konsepsiyaning asosiy maqsadi inflyatsion targetlashga o'tishning konseptual asoslarini hamda bu pul-kredit siyosati rejimini amaliyotga muvaffaqiyatli joriy qilish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish bo'yicha o'rta muddatli rejalar xususida jamoatchilikka keng va to'liq ma'lumotlar yetkazish va albatta, batafsil bayonot berishga qaratilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Pul-kredit siyosati makroiqtisodiy barqarorlik va uning rivojlanishini ta'minlashda ham o'z o'rniga egadir. Davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosatining ahamiyati iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, «kredit portlashi» ehtimoli va moliyaviy beqarorlik bilan bog'liq salbiy oqibatlarning oldini olish maqsadida ham iqtisodiyotni pul-kredit siyosatining maqbul darajasini ta'minlash zarur. Bunday sharoitda malakali makroiqtisodiy boshqaruvning ham ahamiyati yuqori.³⁷

Markaziy bankning pul-kredit siyosatini amalga oshirishdagi asosiy vositasi boshqaruv yig'ilishlarida ko'rib chiqiladigan asosiy stavka hisoblanadi. Ushbu vositaning ko'magi bilan Markaziy bank pul bozori kurslariga ta'sirini ko'rsatadi. Operatsion maqsad — pul bozori kurslarini asosiy kursga yaqinlashtirish bo'ladi. Bu maqsadga erishish uchun bank tizimida likvidlikni boshqarish uchun pul-kredit siyosati vositalari majmuasidan foydalaniladi.

Mamlakatda ichki narxlarning barqaror ekanligining ta'minlanganligi makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning kafolati bo'ladi. Iqtisodiy islohotlarni imkon qadar jadal sur'atlarga chiqarish va yuksaltirish dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda zaruriy sharoit ham hisoblanadi.

³⁷ <https://cyberleninka.ru/article/n/davlat-moliyasi-barqarorligini-ta-minlashda-pul-kredit-siyosatining-ahamiyati>

MUHOKAMA

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning markaziy banklari tajribalari hamda xalqaro moliya institutlari izlanishlari natijalari pul-kredit siyosatini amalga oshirishda narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadining shak-shubhasiz ustuvorligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, pul-kredit siyosatini amalga oshirish tartibi va ketma-ketligi turli mamlakatlarda iqtisodiyotning xususiyatlari hamda tarkibiy tuzilishiga qarab farqlanadi.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuniga ko'ra, Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyuta barqarorligiga zamin yaratish hisoblanadi. Bunda «milliy valyuta barqarorligi» tushunchasini ikki xil, ya'ni almashuv kursining chet el valyutalariga nisbatan barqarorligi yoxud uning ichki xarid qobiliyati barqarorligi deya talqin qilish mumkin.³⁸

Almashuv kursining erkin shakllanishi sharoitida milliy valyutaning barqarorligi uning ichki harid qobiliyatini saqlash orqali erishiladi.

Bunda, erkin suzib yuruvchi almashuv kursi iqtisodiyotni ichki barqarorlashtiruvchi funksiyasini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, to'lov balansi bilan bog'liq tashqi shok va qiyinchiliklar kuzatilganda almashuv kursining mos ravishda o'zgarishi ekportyorlar va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Ayni paytda Markaziy bank pul-kredit siyosatining asosiy maqsadini ikki xil tushunilishini oldini olish va uning faoliyati asosiy yo'nalishini aniq belgilab olish maqsadida qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritilishi ko'zda tutilgan. Alohida qayd etish lozimki, narxlar barqarorligi deyilganda, nol darajadagi yoki salbiy inflyatsiya ko'rsatkichlari nazarda tutilmaydi. Narxlar barqarorligi deyilganda, narxlarning turg'un holatda turishi emas, balki ularning past darajada o'sishi tushuniladi. Bir qarashda narxlarning turg'un turishi maqbul ko'rinsa-da, narxlarning past va barqaror o'zgarishi iqtisodiyotning samarali faoliyati uchun eng qulay sharoit hisoblanadi. Barqaror iqtisodiy rivojlanish va makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish usullarining bozor instrumentlaridan foydalanish asosida tubdan qayta ko'rib chiqilishi munosabati bilan ichki bozordagi narxlar barqarorligini ta'minlash pul-kredit siyosatining bosh maqsadini belgilaydi.

Bunda inflyatsiya sur'atini pasaytirish va uni past darajada saqlab turish o'rta muddatli istiqbolda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda asosiy shart sifatida qaraladi.

Bizning davlatimiz sharoitidan kelib chiqib aytsak, inflyatsion targetlash rejimining tanlab olinishi bir necha sabablarga ko'ra sharxlanadi. Buning ilk sababi bugungi kunda inflyatsion targetlash pul-kredit siyosatining ta'siri kuchli sanaladigan rejimi sifatida o'zini oshkor qiladi hamda o'rta muddatli istiqbolda narxlar barqarorligiga zamin yaratish maqsadiga muvofiq keladigan rejim sifatida ham qaraladi.

³⁸ <https://lex.uz/docs/-4590452>

XULOSA

Bugun jadal rivojlanish pog'onalarida borayotgan jamiyatimizda iqtisodiyotning tiklanish sur'atlari juda yuqori bo'lganda, kelajakda inqirozlarga yo'l qo'ymaslik uchun iqtisodiy o'sish sur'atlarini kamaytirish choralari ham ko'rilishi lozim. Buning uchun pul-kredit siyosati yanada qattiqlashadi. Eng avvalo, foiz stavkalarini oshirish uchun qator choralari ko'riladi. Pul massasini sterilizatsiya qilish bo'yicha operatsiyalar amalga oshiriladi, ya'ni bozordan ortiqcha bo'sh moliyaviy resurslarni olib tashlash uchun qarz qimmatli qog'ozlarning ishlab chiqarilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari esa, muayyan qonunchilik cheklovlarini joriy qilinishi ham foydadan holi bo'lmaydi.

Pul-kredit siyosatini amalda muvaffaqiyatli joriy qilish uchun, kelajakda faqat yuqori natijani ko'zlash maqsadida bir necha metodlarga murojaat etish ham albatta zaruriy amaliyotdir. Bunga aniqlik kiritish uchun hozirgi vaqtda pul-kredit siyosatining keng miqyosda tarqalib ulgurgan quyidagi usullarini keltirish o'rinli:

- Markaziy bankning rasmiy diskont stavkasining o'zgarishi (hisob yoki diskont siyosati);
- kreditlarning ayrim turlarini tartibga solishning tanlangan usullari;
- banklarning majburiy zahiralarini normalarini o'zgartirish;
- ochiq bozor operatsiyalari (veksellarni, davlat obligatsiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish);
- banklar uchun iqtisodiy standartlarni tartibga solish (naqd pul zahiralarini va depozitlar, o'z kapitali va ssuda kapitali hamda aktivlari o'rtasidagi bog'liqlik va boshqalar);
- alohida banklar yoki kreditlar uchun bank kreditlari hajmini bevosita cheklash (kredit shiftlari deb ataladigan);
- hisob siyosati;
- kredit tashkilotlarini qayta moliyalashtirish;
- pul massasining o'sishi uchun mezonlarni belgilash.

Pul-kredit siyosati pul massasi ma'lum darajada ushlab turilganda qat'iy va hukumat foiz stavkasini ma'lum darajada ushlab turishga harakat qilganda moslashuvchan bo'lishi mumkin. Ammo pul massasini ham foiz stavkasini ham bir vaqtning o'zida to'g'irlab bo'lmaydi. Demak, bundan kelib chiqadiki, pulga talabning ortishi bilan pul massasini ma'lum darajada «ushlab turish» uchun foiz stavkasini oshirmoqlik talab etiladi. Foiz stavkasining o'sishiga yo'l qo'ymaslik uchun esa pul massasini ko'paytirish masalasiga katta e'tibor qaratib, buni joriy qilish o'rinli bo'ladi.

Qo'shimcha sifatida aytish joizki, moliyaviy vositachilikni takomillashtirish, xususiylar bank faoliyatini kengaytirishning hisobiga ham uning samaradorligini oshirish, chakana bank faoliyatida narxdan tashqari omillarni bartaraf qilish, inflyatsiya kutilmalarini pasaytirish va umumiy makroiqtisodiy barqarorlashtirish kelgusida pul-kredit siyosatining transmissiya mexanizmini rivojlantirish yo'lida xizmat qiladi.

Demak, bu nazariyalardan kelib chiqib xulosa tarzida ayta olamizki, davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosati o'z ahamiyati bilan

bevosita ishtirok etadi. Uning bu ishtiroki albatta, xalqning farovon turmush tarziga ega bo'lishiga, obod hayot kechirishi uchun zaruriy shart-sharoitlarning yaratilishida o'zini ochiq-oydin namoyon qiladi. Pul-kredit siyosati — davlat iqtisodiy tarkibiy qismi ekan, davlat moliyasi barqarorligini ta'minlanishi yo'lida doimo xizmatda turuvchi soha bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.V.Vahobov., T.S.Malikov.Moliya. «NOSHIR».Toshkent-2012. 636-
2. Мадина Гайфулина./специалист департамента. Оценка эффективности операционного механизма денежно-кредитной политики. Тошкент. 2021
3. Mirazizov A., Radjabova I., Rasulov N., Faizulloyev M., Mamatkulov A., Davlatzoda D., Azimov H., Dzuhrayev G., Ahmadov B./ The effektivnenes of financial and monetary instruments of sustainable devolopement in Tadjikistan'S./ Economy and ways of improving them./ Journal of internet Banking &Commerce.2016. Vol.21 Issue 3, p1-13./ 13p.
4. Mayexl N., Monetar siyosatni qo'llash:Rivojlanayotgan monetary rejimlarga ega mamlakatlardagi operatsion masalalar(XVF).
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild./2000-yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Farmoni,01.08.1997-yildagi PF-1827-son.
7. <https://www.ebsco.com>.(EBSCO Information Services).
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Davlat_moliyasi/
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Pul-kredit_siyosati/
10. <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/concept/>
11. https://banki.ru/wikibank/denejno-kreditnaya_politika/
- 12.<https://sbk03.ru/uz/rol-finansov-v-denezhnyh-otnosheniyah-finansy-finansovaya-sistemaraspelitelnaya-funkciya-finansov/>
13. <https://lex.uz/docs/264548> 14. em.ttiame.uz

Bobojonov Xursand Qadamovich – Katta menejer “IPOTEKA-BANK” OTP GROUP, e-mail: khursandbek0204@mail.ru

TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH JARAYONIDA ANDERRAYTINGNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotasiya. Kredit xizmatlarini ko'rsatishda tijorat banklarining risklarini minimallashtirish haqida to'liq tushuncha hosil qilish va ularni anderrayting tizimi asosida tahlil qilib, tijorat banklarining risklilik darajasini kamaytirish yo'llarini aniqlash va kredit portfelida muammoli kreditlar salmo'g'ini kamaytirish dolzarb hisoblanadi. Anderrayting - bu qarz oluvchining, ya'ni jismoniy yoki yuridik shaxsning kredit qobiliyatini baholash, kredit riskini tahlil qilish va qaror qabul qilishdan iborat. Ushbu ma'ruzada respublikamizda tijorat banklarida kreditlash jarayonlarida anderraytingdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: bank, anderrayting, to'lov qobiliyati, risk, kredit, foiz stavka, iqtisodiyot.

Аннотация. Необходимо создать полное представление о минимизации рисков коммерческих банков при оказании кредитных услуг и проанализировать их на основе системы андеррайтинга, определить пути снижения уровня рискованности коммерческих банков и уменьшения количества проблемных кредитов в кредитном

портфеле. Андеррайтинг заключается в оценке кредитоспособности заемщика, то есть физического или юридического лица, анализе кредитного риска и принятии решения. В данном докладе раскрыты особенности использования андеррайтинга в процессах кредитования в коммерческих банках нашей республики.

Ключевые слова: банк, андеррайтинг, платежеспособность, риск, кредит, процентная ставка, экономика.

Annotation. It is necessary to create a complete understanding of the minimization of the risks of commercial banks in the provision of credit services and to analyze them on the basis of the underwriting system, to determine ways to reduce the level of riskiness of commercial banks and to reduce the amount of NPL loans in the loan portfolio. Underwriting consists of assessing the creditworthiness of a borrower, that is, an individual or a legal entity, analyzing credit risk and making a decision. In this report, the specific features of using underwriting in lending processes in commercial banks in our republic are explained.

Keywords: bank, underwriting, creditworthiness, risk, credit, interest rate, economy.

O‘zbekiston Respublikasida bank sektorini isloh qilishning asosiy yo‘nalishi sifatida tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo‘tadil o‘sishiga amal qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik echimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash belgilanganligi, banklarda risklarni boshqarishning xalqaro tajribalarini o‘rganish, xususan, banklarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarga bardoshlilik darajalarini hisobga olgan holda asosiy risk ko‘rsatkichlari limitlarini ishlab chiqish va anderrayting jarayonini samarali tashkil etish lozim bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti va bank tizimi rivojlanishining hozirgi, zamonaviy bosqichida tijorat banklarining kreditlash amaliyotlarida anderraytingning o‘rni muhim va uning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib berish uzasidan xulosa va takliflar ishlab chiqishning zarurligini anglatadi.

Tijorat banklari faoliyatida potensial risklarni baholash sifatini oshirish va qarorlar qabul qilish jarayonini optimallashtirish maqsadida, banklarda kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish uchun yuqori malakali anderrayterlar guruhlarini tashkil qilish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish va modulli kredit mahsulotlarini joriy etish hamda ularning bank kredit portfelidagi ulushini oshirish orqali tez va kam xarajatli chakana bank xizmatlari turlarini kengaytirish hamda banklarning skoring tizimlarini yanada takomillashtirish masalalari ham hal etilishi lozim bo‘lgan birinchi vazifalardandir.

Kredit arizalarini ko‘rib ko‘rib chiqish muddatini qisqartirish, kredit oluvchilarning moliyaviy ahvoli va kredit riskini samarali baholash maqsadida tijorat banklari tomonidan kreditlash bo‘yicha qaror qabul qilishga anderrayting jarayonini joriy etish samara beradi.

Turli mamlakatlar va turli banklarda potensial kredit oluvchi faoliyatidagi risklarni baholashning turli usullari mavjud va turli baholash tizimidan ham foydalanishadi. Xususan, AQSh bank sohasidagi anderrayting amaliyoti olti “S” asosida yo‘lga qo‘yilgan (Character – xarakter, Capacity – qobiliyat, Cash – pul mablag‘lari, Collateral – ta‘minot, Conditions – shartlar, Control – nazorat).

AQShda risklarni baholashda axborot yig‘ishni tartibga soluvchi maxsus qonunchilik ham yaratilgan. Buyuk Britaniyada risklarni “PARTS” amaliyoti

mavjud (Purpose – maqsad, Amount – o‘lcham, Repayment – qoplash, Term – muddat, Security – xavfsizlik).

Mamlakatimizda anderrayting xizmatiga banklarning kapital va qimmatli qog‘ozlar bozorlaridagi bank xizmatlari sohasidagi ilg‘or tajribalardan biri sifatida yondashilib, tijorat banklarining kreditlash amaliyotida keng foydalanilmoqda.

Anderrayting avtomatik (skoring) va individual turga ajratish mumkin.

Bank tomonidan avtomatik ravishda tekshirish uncha katta bo‘lmagan iste‘mol kreditlarida qarz oluvchining to‘lov qobiliyatini ekspress-baholashda bajariladi. Bankning xodimi qarz oluvchi haqidagi ma‘lumotni maxsus dasturga kiritadi, bunda dastur tomonidan ballar tayinlanadi. To‘plangan ball natijalariga ko‘ra, kredit qarori qabul qilindi. Bunday soddalashtirilgan tekshirish 5 daqiqadan 1 soatgacha davom etishi mumkin.

Individual anderrayting katta summalarni va nostandard kreditlashda (ipoteka, asosiy vositalar sotib olishga va boshqalar) qo‘llaniladi. Qarz oluvchini baholash jarayonida bir nechta bank xizmatlari o‘zaro hamkorlik qiladi: kredit, yuridik, komplaens. Ular qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlarni batafsil tekshirib ko‘rishadi, shuning uchun kredit arizasini ko‘rib chiqish muddati 1 kundan 10 kungacha vaqt olishi mumkin.

Ushbu ishda ariza bo‘yicha yakuniy qarorni mijoz va tegishli xizmatlar taqdim etgan ma‘lumotlarini tahlil qiluvchi anderrayter yaratadi.

Kredit qobiliyati xo‘jalik yurituvchi subyektlar balansini hamda ular ko‘rgan foyda va zarar to‘g‘risidagi hisobotni tahlil qilish asosida baholanadi. Jismoniy shaxslarda esa ularning daromadlari va harajatlari, mavjud kredit to‘lovlari, qarz yuki ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Bundan tashqari, zarur hollarda, kredit qobiliyati baholanayotganda statistika ma‘lumotlari, bankning o‘zidagi tahlil materiallari va boshqa manbalardan foydalaniladi.

Kredit qobiliyati xo‘jalik yurituvchi subyektlar balansini hamda ular ko‘rgan foyda va zarar to‘g‘risidagi hisobotni tahlil qilish asosida baholanadi. Jismoniy shaxslarda esa ularning daromadlari va harajatlari, mavjud kredit to‘lovlari, qarz yuki ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Bundan tashqari, zarur hollarda, kredit qobiliyati baholanayotganda statistika ma‘lumotlari, bankning o‘zidagi tahlil materiallari va boshqa manbalardan foydalaniladi.

Tijorat banklarida jismoniy shaxs bo‘lgan potensial qarz oluvchining to‘lovga layoqatliligini aniqlashda turli xil koeffitsiyentlardan foydalanish mumkin (1-,2-jadvallar).

**1-jadval: Jismoniy shaxs qarz oluvchilarda qo'llaniladigan
koeffitsiyentlarning asosiy turlari:**

№	Koeffitsiyent	Koeffitsiyentning mazmuni	Me'yor
1	Oylik to'lovlar/Oylik o'rtacha daromad	Kredit bo'yicha to'lovlarning qarzdorning daromadlariga nisbati	$T/D \leq 50\%$
2	Kredit miqdori/Garov summasi	So'ralgan kredit miqdorining garov mulki qiymatiga nisbati	$K/G \geq 80\%$

**2-jadval: Xo'jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatlilik
aniqlashda asosiy metodikalar:**

Ko'rsatkich nomi	Guruh darajasidagi ta'rif va hisoblash
Joriy likvidlik (Current Ratio/CR)	$CR = \text{Joriy aktivlar} / \text{Joriy majburiyatlar}$
Soddalashtirilgan DSCR	Soddalashtirilgan Debt Service Coverage Ratio (DSCR) = $(EBITDA - \text{O'z-o'zini moliyalashtirish CAPEX} - \text{Foyda solig'i}) / \text{ADS}$
Foizlarni qoplash koeffitsiyenti (Interest Coverage Ratio - ICR)	$ICR = \text{Operatsion foyda} / \text{zarar} / \text{Foizlar bo'yicha xarajatlar}$
Jami moliyaviy qarz/ EBITDA (Leverage ratio)	$= \text{Jami moliyaviy qarz} / \text{EBITDA (Earnings Before Tax, Depreciation and Amortization)}$
Sof qarz EBITDAGA nisbati (Net leverage ratio)	$\text{Sof qarz EBITDAGA nisbati} = (\text{Qisqa muddatli moliyaviy qarz} + \text{Uzoq muddatli moliyaviy qarz} - \text{Naqd pul va Ekvivalenti}) / \text{EBITDA}$
Jami moliyaviy qarz / Sof sotishdan tushum (QQS siz)	$= \text{Jami moliyaviy qarz} / \text{Sof sotishdan tushum}$
EBITDA margin	$\text{EBITDA margin} = \text{EBITDA} / \text{Sof sotishdan tushum}$

Yuqorida jadval ma'lumotlaridagi har bir ko'rsatkich boyicha chiiqan natijalarga eng yuqori/eng past bir yoki bir nechta chegaralar (mezonlar) o'rnatiladi hamda potensial kredit oluvchi ushbu mezonlarga javob berishi lozim bo'ladi. Masalan, Foizlarni qoplash koeffitsiyenti (ICR) 1.0 dan kichikni tashkil etganda, Qarzni qoplash koeffitsiyenti (DSCR) odatda koeffitsiyent 1.2 dan past bo'lganda mijozni kreditlash tavsiya etilmaydi. Shu tariqa boshqa ko'rsatkichlar ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ko'pincha, tahlil natijalariga ko'ra, bank bozorda bir yildan kamroq vaqt davomida faoliyat yuritayotgan, muddati o'tgan kreditorlik qarziga ega bo'lgan, biznesi shaffof bo'lmagan korxonalarga, garov ta'minoti yo'qligiga jalb qilingan kompaniyalarga kredit berishni rad etadi.

Agar bitimni rad etishning aniq sabablari aniqlanmasa, u qo'shimcha ko'rib chiqiladi va ishlab chiqilgan bitim shaklida tahlil qilish uchun anderrayterga yuboriladi.

Haqiqiy xavfni baholash uchun anderrayting bo'linmasi boshqa bo'linmalardan mustaqil ravishda o'z ierarxiyasiga ega bo'lib, anderrayting bo'limining bevosita boshqaruvi hech qanday tarzda boshqa kredit bo'linmalari rahbarlari bilan bir-biriga mos kelmaydi (bo'ysunmaydi).

Kredit xodimlari (biznes) va anderrayting xizmati xodimlarini rag'batlantirish va mukofotlash (KPI) tizimi ham farqlanadi. Kredit bo'yicha mutaxassisning ish sifati to'g'ridan-to'g'ri qabul qilingan bitimlar soniga bog'liq bo'lib, anderrayterning ishi ko'rib chiqilgan arizalar soniga qarab ko'rib chiqiladi. Riskni baholashda qanday xulosa chiqarilganligidan qat'i nazar anderrayting xizmati vakillarini demotivatsiya qilish tizimi mavjud.

Biz kredit xodimlari va anderrayterlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvini ko'ramiz. Birinchidan, kredit berish rejasini bajarishga intilsa, ikkinchidan, ko'pgina arizalarni rad etishga harakat qiladi.

Yaqin kelajakda zamonaviy risklarni boshqarish tub o'zgarishlarga duch keladi, chunki u turli sharoitlarda ishlaydi va eski usullar endi qo'llanilmaydi, shuning uchun endi ko'plab banklar o'z faoliyatini tuzatishlari kerak.

Kredit tavakkalchiligini nazorat qilish tizimini takomillashtirish yo'llari bank ishida kredit risklarini boshqarish tizimini tashkil etish modelini ishlab chiqishni o'z ichiga olishi mumkin.

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kreditlash jarayonida kredit riskini o'z zimmasiga oladigan va tasdiqlangan limitlarga asosan (matrisa) yakuniy qaror qabul qiladigan quyidagicha vakolatli kollegial organlar tashkil etilishi mumkin:

- Kuzatuv Kengashi;
- Bank boshqaruvi;
- Kredit qo'mitasi;
- Anderrayterlar;
- Modulli kreditlar (avtomat).

Risklarni boshqarishning yaxlit tizimini joriy qilish uchun tijorat bankining strategiyasi, boshqaruv jarayonlari, kadrlar, texnologiya va intellektual salohiyatini birlashtirish zarur.

Tijorat banklarida kreditlash jarayonida anderraytingni o'ziga xosligi yuzasidan amalga oshirilgan o'rganishlar natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar shakllantirildi:

1. Riskni qabul qilish (Risk taking) anderrayting xizmati orqali amalga oshirilishi sababli risklarni boshqarishning ajralmas qismi hisoblanganligi va banklarda ushbu sohaga bo'lgan talab ortib borayotgani risklarni boshqarish sifatini oshirishga qaratilgan Bazel III talablari bilan bog'liqligi sababli, kreditlash jarayonida anderraytingdan foydalanish taklif etiladi.

2. Kreditlashda anderraytingning moslashuvchan modellarni qo'llash bankning kredit portfeli sifatini, shuningdek bank tizimining jami kredit

portfelining sifatini oshirishga ta'sir etishi mumkin. Bu esa, kredit muassasalariga kredit riski darajasini yanada aniqroq belgilash, kredit portfeli tarkibini nazorat qilish hamda daromadlilikni yuqori darajadagi aniqlikda hisoblash imkonini beradi.

3. Hozirgi davrda kredit riskini baholashda an'anaviy qo'llanilib kelayotgan ko'rsatkichlar tizimi bilan birga Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "standartlashgan" yondashuvdan keng foydalanilmoqda. Standartlashgan yondashuvning muhim afzalligi shundaki, unda kredit riski darajasi kredit olgan mijozning suveren kredit reytingiga bog'liq ravishda belgilanadi.

4. Kreditlarda eng sezilarli risklardan biri foiz, ya'ni bozordagi foiz stavkalarining o'zgarishi riskini inobatga olgan holda kredit arizasi bo'yicha qaror qabul qilishda va kredit mahsulotini yaratishda foiz stavkasini belgilash tavsiya etiladi.

Taklif etilgan tavsiyalar va texnikalarni qo'llash banklarning kreditlash jarayonlarida anderraytingdan foydalangan holda yo'lga qo'yish orqali tijorat banki kredit portfelini sifati yaxshilinishiga va kreditlarni muammoga aylanishini oldini olishga yordam beradi.

Ashurova Oltin Yuldashevna – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
kata o'qituvchisi, ashurovaoltin@gmail.com)

Mamatov Olimjon – 3-kurs talabasi

INVESTITSION FAOLIYAT VA INFRATUZILMA: IQTISODIYOT RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Annotatsiya: Maqolada investitsion faollik va infratuzilmani rivojlantirish o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek, ularning mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri yoritilgan. Investitsiyalar samaradorligini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va qulay biznes muhitini yaratishda infratuzilmaning roli tavsiflangan. Xulosa innovatsion va ekologik barqaror texnologiyalarning infratuzilma investitsiyalarining kelajagi uchun ahamiyati, shuningdek, ularning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishdagi roli ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: investitsiya faoliyati, infratuzilma, iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma loyihalari, xorijiy investitsiyalar, barqaror rivojlanish, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация: В статье рассматривается взаимосвязь между инвестиционной деятельностью и развитием инфраструктуры, а также их влияние на экономическое развитие стран. Описывается роль инфраструктуры в повышении эффективности инвестиций, снижении транзакционных издержек и создании благоприятного бизнес-климата. В заключении подчеркивается важность инновационных и экологически устойчивых технологий для будущего инфраструктурных инвестиций, а также их роль в решении социальных и экономических задач.

Ключевые слова: инвестиционная деятельность, инфраструктура, экономическое развитие, инфраструктурные проекты, иностранные инвестиции, устойчивое развитие, инновационные технологии.

Abstract: The article examines the relationship between investment activity and infrastructure development, as well as their impact on the economic development of countries. The role of infrastructure in increasing the efficiency of investments, reducing transaction costs and creating a favorable business climate is described.

The conclusion highlights the importance of innovative and environmentally sustainable technologies for the future of infrastructure investment, as well as their role in addressing social and economic challenges.

Key words: investment activity, infrastructure, economic development, infrastructure projects, foreign investment, sustainable development, innovative technologies.

Investitsion faoliyat zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning asosidir. Bu daromad olish, yangi ish o‘rinlari yaratish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash va aholi turmush sifatini yaxshilash maqsadida kapitalni turli loyihalarga yo‘naltirish jarayonidir. Investitsiyalar milliy iqtisodiyotni shakllantirish va barqaror o‘shishni ta‘minlashda asosiy rol o‘ynaydi.

O‘z navbatida, infratuzilmani rivojlantirish investitsiyalar va iqtisodiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Maqolada infratuzilmaga investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishga qanday hissa qo‘shishi va mamlakatlar bu sohada qanday muammolarga duch kelayotgani ko‘rib chiqiladi.

1. Investitsiya faoliyatida infratuzilmaning o‘rni

Infratuzilma - bu iqtisodiyot va jamiyatning normal faoliyatini ta‘minlovchi asosiy ob‘ektlar va tizimlar yig‘indisidir. Bularga avtomobil yo‘llari, ko‘priklar, temir yo‘l va havo transporti tarmoqlari, energetika tizimlari, suv ta‘minoti, aloqa tizimlari va boshqalar kiradi.

Ushbu infratuzilma tarkibiy qismlarining rivojlanishi bevosita ishbilarmonlik muhitiga va mamlakatning investorlar uchun jozibadorligiga ta‘sir qiladi.

Mamlakatda rivojlangan infratuzilmaning mavjudligi tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishga, logistika sifatini yaxshilashga, aloqa va iste‘molchilar va ishlab chiqaruvchilar uchun qulaylikni yaxshilashga yordam beradi.

Masalan, yuqori sifatli avtomobil va temir yo‘llarning mavjudligi tovarlarni yetkazib berish vaqtini va narxini kamaytiradi, bu esa ishlab chiqarish va savdo sohalarida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun juda muhimdir. Transport va energetika infratuzilmasi yirik sanoat majmualari, kichik va o‘rta biznes, shuningdek, davlat sektorining uzluksiz ishlashini ta‘minlamoqda. Bundan tashqari, axborot-telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish keyingi yillarda iqtisodiy o‘shishning muhim omiliga aylandi. Aloqa tarmoqlari, internet, biznesni raqamlashtirish va yangi axborot texnologiyalarini yaratish tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar ochib, tashqi bozorga chiqishdagi to‘siqlarni kamaytiradi va biznesni raqobatbardosh qiladi. Shuni ta‘kidlash kerakki, agar infratuzilma notekis rivojlangan yoki yomon ahvolda bo‘lsa, bu, ayniqsa, chekka va rivojlanmagan hududlarda investitsion faollik jarayoniga to‘sqinlik qilishi yoki sekinlashishi mumkin.

2. Infratuzilmaga investitsiyalar iqtisodiy o‘shishning asosi sifatida

Infratuzilmani rivojlantirish katta kapital qo‘yilmalarni talab qiladi, bu esa o‘z navbatida iqtisodiy o‘shishning muhim dvigateliga aylanadi. Infratuzilmaga investitsiyalarni boshqa tarmoqlarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish uchun o‘ziga xos “poydevor” sifatida ko‘rish mumkin.

Masalan, yangi transport uzellarini yaratish yoki energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish nafaqat ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshiribgina qolmay, balki qurilish, sanoat, logistika va savdo kabi turdosh tarmoqlarning rivojlanishiga ham xizmat qilmoqda.

Infratuzilma loyihalari ko'pincha katta kapital qo'yilmalarni talab qiladi va ularni amalga oshirish uzoq muddatda iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Infratuzilmani rivojlantirish mehnat unumdorligini oshiradi, logistika xarajatlarini kamaytiradi va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi. Bunday loyihalar yangi ish o'rinlari yaratilishiga ham xizmat qilmoqda, bu ishsizlik va ijtimoiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, infratuzilmaga investitsiyalar keyingi xususiy investitsiyalar uchun katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin. Masalan, yangi transport markazlari yoki portlari logistika, savdo va transportda yangi biznesni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining rivojlanishi dasturiy ta'minot, internet-biznes va texnologiya kompaniyalari uchun yangi istiqbollarni ochib beradi.

Shu munosabat bilan hukumat va xalqaro tashkilotlar ko'pincha infratuzilma loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni qo'llab-quvvatlab, bunday investitsiyalar xususiy va tashqi investorlar uchun umumiy iqlimni yaxshilashga xizmat qilishini e'tirof etadi.

3. Infratuzilmani rivojlantirish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish

Mamlakatning xorijiy investorlar uchun jozibadorligiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri bu yuqori sifatli infratuzilmaning mavjudligidir. Chet el kompaniyalari barqaror va qulay biznes sharoitlarini ta'minlovchi mamlakatlarga sarmoya kiritishga intilishadi va infratuzilma kapitalni investitsiya qilish to'g'risidagi qarorga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biridir.

Rivojlangan infratuzilma xarajatlar va xatarlarni kamaytiradi, bu esa mamlakatni xorijiy investorlar uchun yanada jozibador qiladi. Masalan, sifatli transport-logistika tarmoqlari mahsulot va xizmatlarni samarali yetkazib berish imkonini beradi, rivojlangan energiya va suv ta'minoti infratuzilmasi korxonalarning barqaror ishlashini kafolatlaydi.

Bundan tashqari, ko'plab xalqaro investorlar mahalliy hamjamiyat va biznes bilan muloqot qilish imkoniyatlariga ham qiziqish bildirmoqda, bu ham infratuzilma sifatiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan rivojlangan telekommunikatsiya va internet texnologiyalari tarmog'i mamlakat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichiga aylanadi.

Мавжуд маълумотларга кўра, Ўзбекистонда хизматлар соҳасида банд бўлган аҳоли улуши 49,7% ни ташкил этади⁴³. Бу кўрсаткич хизматлар соҳасининг мамлакат меҳнат бозоридаги етакчи ўрнини кўрсатади.

2. Янги иш ўринлари яратишда хизматлар соҳасининг аҳамияти

2024 йилда Ўзбекистонда 5 миллион аҳолининг бандлигини таъминлаш режалаштирилган бўлиб, шундан 2,5 миллион иш ўрнини хизматлар соҳасида

⁴² <https://review.uz/uz/post/infografika-razvitie-sfer-uslug-v-uzbekistane-v-2017-2023-gg>

⁴³ С.С.Ибадуллаев. Ўзбекистонда хизматлар соҳаси менежменти. "Экономика и социум" №7(110) 2023

яратиш кўзда тутилди⁴⁴. Бу эса хизматлар соҳасининг янги иш ўринлари яратишдаги муҳим ролини тасдиқлайди.

3. Давлат сиёсати ва ислохотлар

2024 йил 27 сентябрда қабул қилинган “Аҳоли бандлиги тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига киритилган ўзгартиришлар иш қидираётган шахсларнинг меҳнат органларига ортиқча ҳужжатлар тақдим этишига йўл қўймаслик, бандликни рағбатлантириш ва тадбиркорликка жалб этиш учун субсидиялар тақдим этиш механизмини такомиллаштиришни назарда тутди. Бу чора-тадбирлар хизматлар соҳасида янги иш ўринлари яратиш ва умумий бандликни оширишга қаратилган⁴⁵.

3. Камбағалликни қисқартириш ва бандлик соҳасидаги чора-тадбирлар

2024 йил 4 октябрда Ўзбекистон Республикаси Президенти “Камбағалликни қисқартириш ва бандлик соҳасида давлат сиёсатини такомиллаштириш ва самарадорликни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорни имзолади. Ушбу қарор доирасида инсон ресурсларини ривожлантириш, меҳнат бозорини ислоҳ қилиш ва хизматлар соҳасида бандликни оширишга қаратилган чоралар амалга оширилмоқда⁴⁶.

Бизнинг назаримизда, 2024–2025 йилларда Ўзбекистонда хизматлар соҳаси умумий бандликка катта таъсир кўрсатиши кутилмоқда. Давлат томонидан қабул қилинган чора-тадбирлар ва ислохотлар ушбу соҳада янги иш ўринлари яратиш ва аҳоли бандлигини оширишга қаратилганлиги келгусида хизматлар соҳасини янада ривожлантириш орқали мамлакат иқтисодиётидаги бандлик даражасини ошириш имкониятини кучайтиради.

Ўзбекистонда хизматлар соҳасида аҳоли бандлигини ошириш борасида қатор чора-тадбирлар ва устувор вазифалар белгиланган бўлишига қарамасдан, соҳада аҳоли бандлигини ошириш борасида бир қатор муаммо ва камчиликлар мавжуд:

1. Худудий номутаносиблик. Айрим худудларда хизматлар соҳасининг ривожланиши паст даражада қолмоқда. Бу эса ушбу худудларда янги иш ўринлари яратиш имкониятларини чеклайди. Масалан, 2024 йилда қабул қилинган “Худудларда юқори иқтисодий ўсиш ва аҳоли бандлигини таъминлашнинг янги тизимини йўлга қўйиш ҳамда бу борада маҳаллий ҳокимликларнинг роли ва масъулиятини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонда худудий номутаносибликни бартараф этиш зарурлиги таъкидланган⁴⁷.

2. Кадрлар малакасининг етишмаслиги. Хизматлар соҳасида юқори малакали мутахассисларнинг етишмаслиги соҳанинг ривожланишига салбий таъсир кўрсатмоқда. Касб-хунарга ўқитиш ва қайта тайёрлаш тизимининг самарадорлигини ошириш зарур. Масалан, 2024 йилда қабул қилинган “Камбағалликни қисқартириш ва аҳоли турмуш фаровонлигини ошириш

⁴⁴ https://president.uz/uz/lists/view/6960?utm_source=chatgpt.com

⁴⁵ https://lex.uz/docs/7124178?utm_source=chatgpt.com

⁴⁶ https://uza.uz/uz/posts/kambagallikni-qisqartirish-va-bandlik-sohasida-davlat-siyosati-takomillashtiriladi-642261?utm_source=chatgpt.com

⁴⁷ <https://lex.uz/ru/docs/7271094>

борасидаги чора-тадбирларни янги босқичга олиб чиқиш тўғрисида”ги Фармонда касбий стандартларни ишлаб чиқиш ва касб-ҳунарга ўқитиш масалаларига алоҳида эътибор қаратилган⁴⁸.

3. Бюрократик тўсиқлар ва тартиб-таомиллар мураккаблиги. Хизматлар соҳасида тадбиркорлик фаолиятини бошлаш ва юритишда ортиқча бюрократик тўсиқлар мавжуд. Бу эса янги иш ўринлари яратилишини секинлаштиради. 2024 йилда қабул қилинган “Аҳоли муаммоларини ҳал қилишда давлат органлари ва ташкилотлари раҳбарларининг масъулиятини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорда бюрократик тўсиқларни камайтириш ва аҳоли муаммоларини тезкор ҳал этиш вазифалари белгиланган⁴⁹.

4. Молиявий хизматлар ва кредитларга етишувчанликнинг пастлиги. Айрим ҳудудларда аҳоли ва тадбиркорлик субъектлари учун кредит, молиявий ва маслаҳат-ахборот хизматларининг даражаси пастлигича қолмоқда. Бу эса хизматлар соҳасида янги иш ўринлари яратиш имкониятларини чеклайди. 2024 йилда қабул қилинган “Ҳудудларда юқори иқтисодий ўсиш ва аҳоли бандлигини таъминлашнинг янги тизимини йўлга қўйиш ҳамда бу борада маҳаллий ҳокимликларнинг роли ва масъулиятини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонда молиявий хизматларга етишувчанликни ошириш вазифаси қўйилган⁵⁰.

Ўзбекистонда 2025-2028 йилларда хизматлар соҳасида аҳоли бандлигини ошириш учун ҳудудий номутаносибликни бартараф этиш, кадрлар малакасини ошириш, бюрократик тўсиқларни камайтириш ва молиявий хизматларга етишувчанликни таъминлаш зарур. Бу чора-тадбирлар соҳада янги иш ўринлари яратиш ва аҳоли бандлигини оширишга хизмат қилади.

Замонавий жаҳон иқтисодиёти саноатдан хизматлар иқтисодиётига ўтиш жараёнини бошдан кечирмоқда, ва бу жараён жамият иқтисодий ривожланишининг асосий йўналишларидан бирига айланди. Ўзбекистонда ҳам хизматлар соҳаси иқтисодиётнинг муҳим драйвери сифатида ялпи ички маҳсулотдаги улушини изчил ошириб, 2019–2023 йилларда 35,5 фоиздан 43,4 фоизгача ўсишга эришди. Хизматлар соҳасининг барқарор ривожланиши нафақат янги иш ўринлари яратиш, балки аҳоли бандлигини ошириш ва иқтисодиётни диверсификация қилишда ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Шунингдек, 2025–2028 йилларда хизматлар соҳасини янада ривожлантириш орқали Ўзбекистонда аҳоли бандлигини ошириш юзасидан қатор чора-тадбирлар таклиф этилади.

• Иқтисодий паст ривожланган ҳудудларда хизмат кўрсатиш секторларини қўллаб-қувватлаш учун махсус дастурлар жорий қилиш. Бунда ҳар бир ҳудуднинг ўзига хос хусусиятларини (туризм, агросервис, саноатга

⁴⁸ https://lex.uz/acts/7131782?utm_source=chatgpt.com

⁴⁹ https://lex.uz/ru/docs/7183679?utm_source=chatgpt.com

⁵⁰ <https://lex.uz/uz/docs/7271094>

яқинлик) инобатга олган ҳолда хизматлар соҳасини ривожлантириш стратегияларини ишлаб чиқиш;

- Хизмат кўрсатиш соҳаси учун мутахассисларни тайёрлайдиган махсус марказларни очиш ва мавжуд касб-хунар ўқув марказларини модернизация қилиш. Хизматлар соҳасида халқаро стандартларга мос таълим дастурларини жорий этиш, шунингдек, масофавий таълим имкониятларини кенгайтириш;

- Маданий ва экотуризм объектларини ривожлантириш орқали маҳаллий ва халқаро туристлар оқимини ошириш. Туризм хизматларини рақамлаштириш (онлайн бронлаш, гид хизматлари, кўнгилочар платформалар), транспорт инфратузилмасини яхшилаш ва қишлоқ ҳудудларида қишлоқ туризминини ривожлантириш;

- Электрон тижорат, ахборот технологиялари ва телемедицина каби соҳаларни қўллаб-қувватлаш. Хизмат кўрсатиш соҳаларида янги технологияларни жорий этиш учун стартапларни қўллаб-қувватлаш дастурларини ишлаб чиқиш;

- Аёллар ва ёшлар учун ишлаш имкониятларини ошириш мақсадида махсус дастурлар ва грантлар жорий этиш. Уйдан туриб ишлаш имкониятларини яратиш (масалан, онлайн таълим, масофавий бухгалтерия ва IT хизматлари);

- Махсус хизматлар (масалан, IT аутсорсинг, тиббиёт туризми) учун халқаро бозорларга чиқиш имкониятларини ошириш. Хизматлар экспорт қилувчилар учун солиқ имтиёзлари ва грантларни жорий этиш.

Хулоса қилиб айтганда, хизмат кўрсатиш соҳаси Ўзбекистон иқтисодиётининг барқарор ривожланишида, аҳоли бандлигини оширишда ва мамлакатнинг жаҳон бозоридаги рақобатбардошлигини таъминлашда стратегик аҳамиятга эга. Кейинги йилларда ушбу соҳанинг ялпи ички маҳсулотдаги улуши изчил ошиб, янги иш ўринлари яратиш, турмуш даражасини яхшилаш ва инфратузилмани ривожлантиришга катта ҳисса қўшмоқда. 2025–2028 йилларда соҳани ривожлантириш учун ҳудудий номутаносибликни бартараф этиш, кадрлар малакасини ошириш, инновация ва рақамли технологияларни кенг жорий қилиш, шунингдек, тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш бўйича тизимли чора-тадбирлар талаб этилади. Бундай ёндашув нафақат иқтисодий ўсишга, балки аҳолининг турмуш сифати ва фаровонлигини оширишга хизмат қилади.

Уразов Комил Бахрамович – д.э.н., профессор СамИЭС,
Хушмурадова Мадина – докторант Международного университета
туризма и культурного наследия «Шелковый путь»

ОСОБЕННОСТИ ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛИ, ЕЕ КЛАССИФИКАЦИЯ

Аннотация. В условиях Нового Узбекистана электронная торговля приобретает четкие очертания в составе электронной коммерции в силу ее особенностей и появления новых форм электронной торговли. В статье рассмотрены черты и свойства электронной торговли, которая вовлекает и традиционные супермаркеты, которые с целью повышения конкурентоспособность все больше внедряют цифровые сервисы.

Ключевые слова: взаимозависимость, структурированность, продолжительность, системность, комплементарность.

Annotatsiya. Yangi O'zbekiston sharoitida elektron savdo o'zining xususiyatlari va yangi shakllarining paydo bo'lishi tufayli elektron tijoratning bir qismi sifatida aniq konturlarga ega bo'lmoqda. Maqolada raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida raqamli xizmatlarni tobora ko'proq joriy etayotgan an'anaviy supermarketlarni o'z ichiga olgan elektron savdoning xususiyatlari va belgilari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: o'zaro bog'liqlik, tuzilish, davomiylik, tizimlilik, to'ldiruvchilik.

Abstract. In the context of New Uzbekistan, electronic commerce acquires clear outlines as part of electronic commerce due to its features and the emergence of new forms of electronic commerce. The article examines the features and properties of electronic commerce, which also involves traditional supermarkets, which are increasingly introducing digital services in order to increase competitiveness.

Key words: interdependence, structuring, duration, systematicity, complementarity.

Введение. В мире по мере углубления процесса глобализации, развития глобальных и национально-региональных торговых отношений на новом этапе наблюдается стремительное развитие электронной коммерции. В связи с расширением использования информационно-коммуникационных технологий, разработкой и внедрением инновационных технологий в торговую деятельность электронная торговля превратилась в обычную бизнес деятельность крупнейших корпораций, среднегодовой рост которой в мире составляет 6 процентов и к 2025 году объем электронной коммерции составит 7391 млн.долл.США.⁵¹

Расширение интернет возможностей в поиске информации о товаре открывает новые рынки всем участникам как малым, так и крупным организациям. Примечательным является опыт организации электронной торговли на селе в Китае, где небольшие семейные предприятия, выпускающие товары народного потребления, успешно продвигают свою продукцию на мировой рынок с помощью интернет-аукционов, интернет-витрин, магазинов электронной торговли. Тем самым они стали не только драйвером развития малого и среднего бизнеса, но и повысили конкурентоспособность и укрепили бренд китайской продукции на глобальном . Подобный формат организации электронной торговли имеет

⁵¹ На основе данных Statista.

синергетический эффект, заключающийся в организации подсобного хозяйства, подключение к ресторанному бизнесу и системе супермаркетов, которые позволяют гармонично работать и распределять прибыль и рабочие места.

В методологическом аспекте электронной торговле присущи следующие черты:

а) участники электронной торговли **взаимозависимы**, связи между которыми являются каналами передачи материальных ценностей и цифровых сервисов.

б) модели взаимоотношений участников электронной торговли являются **продолжительными, повторяющимися, систематическими**. В таких моделях клиентоориентированность, персонифицированный подход определяет устойчивость и долгосрочность цифровой экосистемы.

в) **Структурированность** взаимоотношений бизнеса и потребителя создает мощный пласт данных на микро и на макроуровнях, что повышает социально-экономическую значимость электронной торговли и приводит к необходимости междисциплинарного подхода в исследовании феномена электронной торговли.

г) современная электронная торговля характеризуется **комплементарностью**, заключающееся в возможности приобретения благо в совокупности с другими ценностями, когда потребитель приобретает не единицу товара, а комплексную услугу. Электронная торговля и искусственный интеллект влияют на потребность, спрос и будущие операции потребителя. Тем самым ориентируя выбор потребителя с помощью бизнес-аналитики на основе маркетинговых технологий и интеграции с другими электронными сервисами (оформление банковских кредитов, покупок в рассрочку, получение налогового кеш-бэка, скидок и бонусов).

д) характер издержек электронной торговли отличается от торговых издержек, большая часть которых приходится на запуск и поддержание оборота. Тогда как электронная торговля без элементов традиционной торговли **несет больше нематериальных издержек**, таких как разработка электронной площадки, формирование контента, продвижение и обновление контента, интеграция с агрегаторами, бизнес-аналитику и внедрение искусственного интеллекта.

Безусловно электронная торговля является инновационной формой розничной и оптовой торговли, которая превращается драйвером современных преобразований в экономике. Расширение доли электронной торговли в ВВП страны и регионов улучшают показатели деловую активность, расширяет масштабы трансграничной торговли и др.

По данным Госкомстата, в 2023 году совокупный доход населения Узбекистана достиг 728,8 трлн. сумов, рост в номинальном выражении составил 15,0%, в реальном (с поправкой на инфляцию) — 4,6%.

Оборот розничной торговли Узбекистана по итогам 2023 года составил 26,2 млн.долларов США (для сравнения: в России – 488,7 млн.долл.США, в

Казахстане - \$39,4 млн.долл.США, в Беларуси - \$15,5 млн.долл.США). Розничный товарооборот на душу населения в месяц по итогам 2023 года в Узбекистане – \$68,4 (Рис.2.1.). Последние 3 года в структуре торговли республики доли розничной и оптовой торговли почти выровнились

Расширению электронной торговли способствует эффект перелива, то есть прямое влияние на другие отрасли экономики посредством повышения цифровой компетенции, комплементарности товаров и услуг. Благодаря эффекту перелива крупные торговые организации продвигают блага в цифровом пространстве, тем самым расширяя аудиторию, ее информированность, сближаясь к ней, влияет на ее выбор.

Клиентоориентированность электронной торговли является главным условием конкурентоспособности электронной торговой деятельности, когда главным активом является лояльность клиентов. Потребитель создает запросы и мощный информационный пласт для формирования модели коммуникаций в цифровом пространстве, особенно в условиях стабильного роста населения.

Социальность электронной торговли – залог успеха электронной площадки, когда в социальные сети встраивается коммерческий контент, что влияет на поведение потребителей и приводит к спонтанным покупкам.

Социально-экономические предпосылки развития электронной торговли и анализ дефиниций, характеризующих ее, позволяет выявить следующие признаки электронной торговли в современных условиях:

- полная или часть цепочки создания ценности осуществляется и оформляется в интернет пространстве с использованием информационной-телекоммуникационных сетей и устройств;
- в бизнес процессе участвуют провайдеры, логистические структуры, SMM маркетологи, которые требуют дополнительных издержек;
- выбор товара может осуществляться и традиционным и бесконтактным способами;
- высокий уровень инновационности, поскольку онлайн сервисы легко внедряются, совершенствуются и бизнес-аналитика позволяет выявить конкурентные преимущества товаров, на основе чего интегрируются новые возможности для продвижения товара;
- высокая технологичность электронной торговой деятельности создает новые риски наряду с предпринимательскими, такие как технические неисправности средств связи, коммуникаций, сбои в обеспечение качественной связи, устаревания программных продуктов и т.д.
- внедрение электронного документооборота в бизнес-процессы, позволяющего ускорить процессы принятия решений по покупке и оплаты за товар, повысить прозрачность сделок и платежную дисциплину организации;
- возможности расширения масштабов целевой аудитории при усилении конкуренции на внутреннем рынке (при наличии соответствующих правовых норм и возможностей интеграции к международным платежным системам);

-расширение электронной торговой деятельности возможно при цифровой грамотности населения, что приводит к отставанию уровней использования возможностей электронной торговли населением старшего возраста и проживающих в отдаленных сельских районах, где отсутствует устойчивая интернет связь.

Торговые организации, не вовлеченные в цифровизацию цепочки оказания услуг, теряют свою конкурентоспособность. Следовательно, главным условием повышения конкурентоспособности являются транспортные и логистические структуры, видами электронной торговли, географией целевой аудитории.

Электронная торговля можно классифицировать по различным признакам: участием в цепочке оказания услуг, категорией реализуемых товаров, моделями бизнес-процессов, целевой аудиторией.

Таким образом, понятия электронной торговли в современных условиях постоянно совершенствуется и обновляются благодаря расширению возможностей интернет-технологий, технологических платформ, SMM-технологий. Мы можем дать следующее определение **электронной торговли** – процесса купли-продажи товаров и услуг посредством инновационных цифровых ресурсов, направленный на максимальное удовлетворение спроса в товарах, в осуществлении платежей и учете будущих рыночных предпочтений потребителей. Основные виды электронной торговли, которые будут исследованы в диссертации, это торговля по модели B2B или оптовая и B2C или розничная, которые принципиально отличаются, но расширяют возможности электронной торговли, которая в последние годы под влиянием новых каналов дистрибуции путем SMM-продвижения преобразуется в «социальную торговлю».

Заключение

Развитие электронной торговли в настоящее время обусловлено с глобализацией экономики. Безусловно электронная торговля является инновационной формой розничной и оптовой торговли, которая превращается драйвером современных преобразований в экономике. Расширение доли электронной торговли в ВВП страны и регионов улучшают показатели социально-экономического развития, положительно воздействуя на такие параметры, динамика валового регионального продукта, доля населения с доходами ниже прожиточного минимума, уровень инфляции, расширение масштабов трансграничной торговли и др.

По мере развития и расширения, усложнения электронной коммерции, электронная торговля стала особым видом бизнеса, вытесняя традиционную торговлю и встраиваясь в реальную экономику. Мы можем дать следующее определение электронной торговли – как процессу купли-продажи товаров и услуг посредством инновационных интернет возможностей, создающих удобство и качество услуг в проведении сделок. Основные виды электронной торговли, которые будут исследованы в диссертации, это торговля по модели

B2B или оптовая и B2C или розничная, которые принципиально отличаются, но расширяют возможности электронной торговли, которая в последние годы под влиянием новых каналов дистрибуции путем SMM-продвижения преобразуется в «социальную торговлю».

Использованные литература:

1. Конституция Республики Узбекистан – Т.: Узбекистон, 30.04.2023
2. Указ Президента Республики Узбекистан от 28.01.2022 г. № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы»
3. Указ Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева УП-5564 “О мерах по дальнейшей либерализации торговли и развитию конкуренции на товарных рынках” от 30 октября 2018 года
4. Махнонос Д.В. Электронная торговля: маркетинг, Интернет-среда, цифровые платформы: монография. -Донецк: ФЛП Кириенко С.Г., 2023.- С. 354-365
5. Стеблюк И.Ю. Электронная коммерция в современном мире. Использование PricingIntelligence // Инновации и инвестиции, 2021, по. 1, с. 52-55.
6. Закон Республики Узбекистан за №ЗРУ-792 «Об электронной коммерции»– Т.:29.09.2022 г.
7. <https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo-pub-2000-2022-en-main-report-global-innovation-index-2022-15th-edition.pdf>
8. <http://stats.oecd.org>

Mamutova Amina Raxmetovna – Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti, aminamamutova2018@gmail.com

QURILISH KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBINI YURITISHNING MASALALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada qurilish sohasida boshqaruv hisobi usullarini tanlashda sohaga xos xususiyatlar hamda xarajatlarni hisobga olishdagi mavjud to'siqlarni hisobga olishning ahamiyati tahlil qilingan. Innovasion texnologiyalarni joriy etishning qurilish xarajatlariga ta'siri va bu jarayonda uchraydigan xatarlarni boshqarish usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ABC (faoliyatga asoslangan xarajatlar) usuli kabi zamonaviy yondashuvlarning loyiha xarajatlarini aniqroq tahlil qilishdagi afzalliklari ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: qurilish, boshqaruv hisobi, qurilish xarajatlari, zamonaviy boshqaruv hisobi.

Аннотация: В данной статье анализируется важность учета отраслевых особенностей и существующих барьеров учета затрат при выборе методов управленческого учета в строительной отрасли. Рассмотрено влияние внедрения инновационных технологий на стоимость строительства и методы управления рисками, возникающими в этом процессе. Также выделены преимущества таких современных подходов, как метод ABC (Activity-Based Costing) в более точном анализе затрат проекта.

Ключевые слова: строительство, управленческий учет, затраты на строительство, современный управленческий учет.

Annotation: This article analyzes the importance of taking into account industry-specific features and existing barriers to cost accounting when choosing management accounting methods in the construction industry. The influence of the introduction of innovative technologies on the construction costs and the methods of managing the risks encountered in this process are considered. Also, the advantages of modern approaches such as ABC (activity-based costing) method in more accurate analysis of project costs are highlighted.

Key words: construction, management accounting, construction costs, modern management accounting.

Qurilishda boshqaruv hisobi usullarini tanlashda sanoatning o'ziga xos xususiyatlarini va xarajatlari hisobga olishdagi mavjud to'siqlarni hisobga olish muhimdir.

Qurilishda ishning boshlanishiga asos alohida loyiha ekanligini hisobga olsak, loyihaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib xarajatlarni hisobini tashkil etish maqsadga muvofiq. Aytish kerakki, qurilish loyihalari ko'pincha noyobdir, shuning uchun buxgalteriya usullarini har bir aniq loyihaga moslashtirish, jumladan, byudjetlashtirish, rejalashtirish va xarajatlarni nazorat qilish kerak. Qurilish loyihalari ko'pincha o'zgarishi mumkin, bu esa yangi sharoitlarga moslashish uchun boshqaruv hisobidagi moslashuvchanlikni talab qiladi.

Qurilishda xarajatlar hisobiga ta'sir etuvchi omillardan biri bu sohaga kiritilayotgan innovatsiyalar hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish katta investitsiyalarni talab qiladi, shuning uchun investitsiyalarning uzoq muddatli rentabelligini baholashga imkon beradigan usullardan foydalanish muhimdir.

Qurilish murakkab mulohazalarni talab qiladigan ko'plab jarayonlarni o'z ichiga oladi. ABC (Faoliyatga asoslangan xarajatlar) kabi yondashuvlar muayyan faoliyat xarajatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Innovatsiyalarni joriy etish bilan bog'liq xavflarni hisobga olish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni minimallashtirish uchun risklarni boshqarish usullaridan foydalanish kerak.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida qurilish sanoatida faoliyat yuritayotgan korxonalarda asosiy xarajat ko'rsatkichlari⁵², mlrd so'mda

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
Moddiy xarajatlar*	3 538,6	6 248,2	12 399,2	74 109,8	14 622,1
Ish haqi to'lash xarajatlari*	729,6	1 227,8	1 631,7	9 165,5	2 325,7
Boshqa xarajatlar*	1 660,6	2 638,5	4 229,2	22 592,8	5 559,2

*Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxona va mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari, banklar va sug'urta tashkilotlaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari;

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, asosiy xarajatlar tarkibida qariyb 70 foizini moddiy xarajatlar tashkil etmoqda. Shu tahlillarga ko'ra e'tiborni asosan yuqoridagi takliflar asosida moddiy xarajatlarga qaratish qurilish

⁵² Muallif ishlanmasi

ishlari boshlanishidan oldin uni muvaffaqiyatli yakunlash uchun zarur bo'lgan muhim zaxiralarni topishga imkon beradi.

Qurilish xarajatlarini maqsadli, tizimli boshqarish mexanizmini shakllantirish va qurilish industriyasi bilan shug'ullanadigan tashkilotlarning xarajatlarini boshqarish va axborot bazasini yaratish qurilish mahsulotlarining hayot aylanishi bilan chambarchas bog'liq. Ushbu sohada xarajatlarni samarali boshqarish barcha bosqichlarni - loyihalashdan tortib to ekspluatatsiyagacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oladigan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Ushbu kompleks yondashuvni ishlab chiqish uchun birinchi navbatda qurilish xizmatini ko'rsatishda hayotiy tsikl bosqichlari aniqlab olish, barcha bosqichlarni - rejalashtirish, loyihalash, qurish va foydalanishni hisobga olish muhimdir. Ularning har biri xarajatlarni boshqarishga alohida yondashuvni talab qiladigan jihat hisoblanadi. Bu tartib yuqorida taklif etilgan mexonizmning asosini tashkil etadi.

Qurilish xizmat ko'rsatish jarayonida ishtirok etayotgan har bir kishining dolzarb ma'lumotlarga ega bo'lishini ta'minlashga yordam beradigan xarajatlar, materiallar, resurslar va muddatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hayot tsiklining turli bosqichlarida xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilish jarayonlarini standartlarini joriy etish yagona ma'lumotlar bazasini yaratishga turtki bo'ladi.


Zamonaviy qurilish tashkilotlari an'anaviy yondashuvlarni yangi ishlanmalar bilan birlashtirgan holda turli xil xarajatlarni hisoblash usullaridan foydalanadilar. Biroq, ko'pgina kompaniyalar hali ham an'anaviy xarajatlarni hisoblash usullariga tayanadilar, bu esa ularning xarajatlarini optimallashtirish va samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Biz tadqiqot davomida 15 ta yirik va 30 ga yaqin o'rta biznesdagi mahalliy qurilish kompaniyasi hamda 50 taga yaqin jahondagi qurilish kompaniyalari misolida xarajatlarni hisobga olish usullarini tahlilini amalga oshirdik. Xalqaro kompaniyalar ma'lumotlari asosan kompaniya rasmiy saytlaridan olindi (1-rasm).

Yuqoridagi 1-rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, aksariyat qurilish kompaniyalari xarajatlarni hisobga olishda an'anaviy usullardan foydalanadilar. Ularning an'anaviy usullardan foydalanishni davom ettirishning asosiy sabablari quyidagilar:

— ko'pgina tashkilotlar vaqt sinovidan o'tgan usullarni afzal ko'radilar, bu esa xarajatlarni hisobga olishda barqarorlik va prognozlilikni ta'minlaydi;

—zamonaviy usullarga o'tish ko'pincha dasturiy ta'minot va xodimlarni o'qitishga katta sarmoyani talab qiladi, bu ba'zi korxonalar uchun har doim ham oqlanmaydi. Bu investitsiyalarni yetishmasligi bilan bog'liq;

—yangi yondashuvlarni moslashtirish, ayniqsa, o'rnatilgan jarayonlar va tizimlarga ega yirik tashkilotlar uchun qiyin bo'lishi mumkin.



1-rasm. Qurilish kompaniyalari tomonidan qo'llaniladigan xarajatlarni hisoblash usullari⁵³

Ta'kidlash kerakki, zamonaviy usullarni joriy etish o'zining afzalliklariga ega:

- ABC (Faoliyatga asoslangan xarajatlar) kabi zamonaviy yondashuvlar xarajatlarni aniqroq hisobga olish imkonini beradi, bu ayniqsa murakkab qurilish loyihalarida muhim ahamiyatga ega;

- zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ma'lumotlarni chuqurroq tahlil qilish, xarajatlarni bashorat qilish va optimallashtirish uchun zaxiralarni aniqlash imkonini beradi;

- buxgalteriya hisobining yangi usullari bozor sharoitlari va mijozlar talablariga tez moslashish imkonini beradi.

Zamonaviy qurilish biznesida muvaffaqiyatli ishlash uchun an'anaviy va zamonaviy xarajatlarni hisoblash usullari o'rtasidagi muvozanatni topish muhimdir. Yangi yondashuvlarga o'tish bosqichma-bosqich bo'lishi mumkin, ammo bu, albatta, boshqaruv hisobini yaxshilashga va kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Trachenko M.B. Data modeling in management accounting and budgeting systems. *International accounting*. 2017; 20:20(434): 1183-1201. DOI: 10.24891/ia.20.20.1183

2. Zimakova L.A., Shtefan Ya.G. Integration of modern management accounting methods at lean manufacturing companies. *International accounting*. 2017; 20(6):340-350. DOI: 10.24891/ia.20.6.340

3. Gerasimova L.N. *Methods of management accounting*. Moscow, Prospect Publ., 2016; 182.

⁵³ Tadqiqot davomida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

ЯШИЛ РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИ САМАРАДОРЛИГИ

Аннотация. Мақолада Ўзбекистонни яшил рақамли иқтисодиётга ўтишида рақамли технологиялар ва сунъий интеллектдан фойдаланиш усуллари таҳлил қилинган ва самарадорлигини ошириш йўллари асосланган.

Калим сўзлар: яшил рақамли иқтисодиёт, сунъий интеллект, машинали ўқитиш, нейрон тармоқ технологиялари, ақлли уй ва ақлли шаҳар.

Аннотация. В данной статье проанализированы эффективность зеленой цифровой экономики, показаны возможности цифровых технологий и искусственного интеллекта, способы их эффективного использования.

Ключевые слова: зеленая цифровая экономика, искусственный интеллект, машинное обучение, нейросетевые технологии, умный дом и умный город, рейтинговые показатели.

Annotation. This article shows the main aspects of the transition to a green digital economy in Uzbekistan, analyzes international rating indicators of the green economy that assess the effectiveness of the green economy, and highlights the capabilities of artificial intelligence, which is one of the main digital technologies. and ways to use them.

Keywords: green digital economy, artificial intelligence, machine learning, neural network technologies, smart home and smart city, rating indicators.

Кириш. Янги Ўзбекистонда Республикаси Президентининг 2021 йил 17 февралдаги “Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ–4996-сонли қарори қабул қилинган. Хозирги кунда дунё аҳолисининг катта қисми шаҳарларда истиқомат қилади, аҳоли сонининг кўпайиши жиддий муаммоларга, хусусан, транспорт тирбандлигига, бошқарув ташкилотлари ва бошқа хизматларнинг ортиқча юкланишига, энергия ва бошқа ресурсларнинг кўпайишига, экологик вазиятнинг ёмонлашишига олиб келади. Ташкилотлар рақамли технологиялар, жумладан сунъий интеллект ёрдамида бу қийинчиликларга қарши курашишга ҳаракат қилмоқда, бунинг натижасида дунё бўйлаб тобора кўпайиб бораётган йирик аҳоли пунктлари ақлли уй ва ақлли шаҳарларга айланмоқда. Бу эса яшил иқтисодиётдан яшил рақамли иқтисодиётга ўтиш афзалликларини таҳлил қилишни талаб этади.

2015-йил сентябрь ойида Бирлашган Миллатлар Ташкилотига аъзо 193та давлат расман “Дунёни ўзгартириш: 2030-йилгача барқарор ривожланиш кун тартиби” номли янги дастурни қабул қилди. Ушбу кун тартибига 17 та мақсад ва 169 та вазифа киритилган. Ушбу кенг кўламли кун тартибида барқарор ривожланишнинг ўзаро боғлиқ учта элементи - иқтисодий ўсиш, ижтимоий интегратсия ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш муҳим аҳамиятга эга эканлиги айтиб ўтилди.

Мавзуга оид адабиётлар тахлили.

Ҳозирда рақамлаштириш Ўзбекистон миллий иқтисодиётини ривожлантиришнинг асоси ҳисобланади. Шу мақсадда ҳукумат томонидан “Рақамли Ўзбекистон - 2030” дастури ишлаб чиқилди ва амалга

оширилмоқда, бу дастур биринчи навбатда рақамли технологияларни қўллаш орқали аҳоли турмуш даражасини ошириш, мамлакатни ривожлантиришга қаратилган.

Рақамли иқтисодиёт технологиялари бўйича бир қанча хориж олимлари илмий-тадқиқот ишлари олиб боришган. Рус олимларидан Стефанова Н.А. рақамли иқтисодиёт самарадорлигини баҳолаш мумкин бўлган асосий мезонларни кўриб чиққан ва уларнинг замонавий ижтимоий ва иқтисодий муносабатларга таъсирини кўрсатиб берган⁵⁴. Кох Л.В. эса Рақамли иқтисодиётни ўлчаш усуллари, шунингдек, рақамлаштирилган иқтисодиёт фаолиятининг айрим турларини ўлчаш имкониятларини кўрсатиб берган.

Ўзбек олимлари ҳам бу соҳада ўзларининг илмий-тадқиқот ишларини олиб боришмоқда. Жумладан, акад. Гулямов С.С. раҳбарлигида рақамли иқтисодиёт бўйича изоҳли луғат ишлаб чиқилган, бир қанча ўқув қўлланмалар, сунъий интеллект технологиялари бўйича дарслик тайёрланган. Бу адабиётларда рақамли иқтисодиёт технологиялари ва улардан турли соҳаларда фойдаланиш масалалари батафсил ёритиб берилган.

Тадқиқот методологияси.

Мақолада мантикий фикрлаш, мантикий таҳлил усулларида фойдаланилган бўлиб, назарий ва методологик асоси рақамли иқтисодиётни ривожлантиришга оид республикада ишлаб чиқилган умумий стратегия, мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг қабул қилган фармонлари ҳамда тадқиқот мавзусига оид илмий-методологик адабиётлар бўлиб ҳисобланади. Ахборот базаси сифатида Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги маълумотларидан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар.

Хозирги кунда иқлим ўзгариши аҳоли саломатлиги, озиқ-овқат ва сув хавфсизлиги, миграция, тинчлик ва хавфсизликка таъсир кўрсатмоқда. Барқарор ривожланиш учун киритилган сармоялар иқлим ўзгариши муаммосини ҳал қилишга ёрдам беради.

21- аср бошидан бошлаб билим ва юқори технологияларга асосланган моддий бойликларни ишлаб чиқаришнинг янги тизимининг кенг тарқалиши натижасида ҳаётнинг барча жабҳаларида глобал ўзгаришлар рўй берди. Хусусан, янги яшил иқтисодиёт – инсонларнинг Ер ресурсларига масъулият билан муносабатда бўлишини назарда тутувчи иқтисодий ривожланиш модели шаклланди. Бу фаровонликни ошириш ва табиий ресурсларни сақлаш ўртасида оқилона муроа топишга қаратилган.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Атроф-муҳит бўйича дастурида яшил иқтисодиётни "инсон фаровонлигини оширадиган ва ижтимоий тенгликни яхшилайдиган, шу билан бирга экологик хавфни сезиларли даражада камайтирадиган иқтисодиёт" деб келтирилган.

⁵⁴Стефанова Н.А. Оценка эффективности цифровой экономики. Журнал “Экономические науки” Том 8, 2017.

Кох Л.В. Анализ существующих подходов к измерению цифровой экономики. Журнал “Экономические науки” Том 12, 2019

Яшил иқтисодиёт учта сектордан, яъни қайта тикланадиган энергия, яшил бинолар ва иншоотлар, барқарор транспорт, сув ва эр ресурслари, ҳамда маиший чиқиндиларни бошқаришдан иборат. У учта аксиомага асосланади:

1) чекланган маконда таъсир доирасини чексиз кенгайтириш мумкин эмас;

2) чекланган ресурслар шароитида чексиз ўсиб бораётган эҳтиёжларни қондиришни талаб қилиш мумкин эмас;

3) Ер юзасидаги ҳамма нарса бир-бирига боғланган.

Бугунги кунда Халқаро ташкилотлар томонидан бутун дунёда ва алоҳида мамлакатларда яшил иқтисодиётнинг ривожланиш ҳолатини ва яшил ўсишга ўтишни баҳолаш имконини берувчи турли кўрсаткичлар мажмуаси ишлаб чиқилди ва амалиётга жорий қилинмоқда.

Жумладан, бутун дунёда яшил иқтисодиёт самарадорлигини баҳоловчи яшил иқтисодиётнинг Глобал индекси ва Яшил ўсиш индекси каби халқаро рейтинг кўрсаткичларидан кенг фойдаланилмоқда.

Ушбу индекс тўртта ўлчов тоифалари бўйича баҳоланади:

1) бошқариш ва иқлим ўзгариши;

2) самарадорлик секторлари;

3) бозор ва инвестициялар;

4) атроф-муҳит.

Яшил ўсиш индексига кўра, Швеция, Дания, Чехия ва Германия каби мамлакатларда яшил ўсиш кўрсаткичлари энг юқори ҳисобланади. Ўзбекистон эса Осиё давлатлари орасида 33-ўринни эгаллаб турибди.

Тадқиқотларга кўра, Ўзбекистон ҳар йили углеводород энергиялари – нефт, газ ва кўмидан фойдаланиш ҳисобига ялпи ички маҳсулотининг камида 4,5 фоизини йўқотади. Бундан ташқари, мамлакат ишлаб чиқариш қувватларининг деярли ярми эскирган. Уларни тиклаш ёки модернизатсия қилиш катта маблағ талаб қилади. Мутахассисларнинг қайд этишича, муқобил энергетикага таяниш Ўзбекистонга электр энергияси ишлаб чиқаришни кўпайтириш ва талабни қондириш имконини беради. Аҳолининг тез ўсиши ва иқтисодиётнинг кўтарилиши электр энергияга бўлган талабнинг кучайишига сабаб бўлди [5].

2 декабр 2022 йилда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтишига қаратилган ислохотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида” ги ПҚ-436 сонли қарори қабул қилинган. Дастурда яшил иқтисодиётга ўтишнинг стратегик мақсадлари қуйидагилардан иборат:

- иссиқхона газларининг ялпи ички маҳсулот бирлигига нисбатан солиштира ажратмаларини 2010 йилдаги даражадан 35 фоизга қисқартириш;

- қайта тикланувчи энергия манбаларининг ишлаб чиқариш қувватини 15 ГВтга ошириш ва уларнинг улушини электр энергиясини ишлаб чиқариш умумий ҳажмининг 30 фоизидан кўпроғига етказиш;

- саноат соҳасида энергия самарадорлигини камида 20 фоизга ошириш;

- ялпи ички маҳсулот бирлигига тўғри келадиган энергия сарфи ҳажмини, шу жумладан, қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланишни кенгайтириш ҳисобига 30 фоизга камайтириш;

- иқтисодиётнинг барча тармоқларида сувдан фойдаланиш самарадорлигини сезиларли даражада ошириш, бир миллион гектаргача майдонда сув тежовчи суғориш технологиясини жорий этиш;

- йилига 200 миллион кўчат экиш ва кўчатларнинг умумий сонини бир миллиарддан ошириш орқали шаҳарлардаги яшил майдонларни 30 фоиздан ортиқроққа кенгайтириш;

- республика ўрмон фонди захиралари кўрсаткичини 90 миллион куб метрдан ортиқроққа етказиш;

- ҳосил бўладиган қаттиқ маиший чиқиндиларни қайта ишлаш даражасини 65 фоиздан ошириш.

Ўзбекистон электр энергия ишлаб чиқариш бўйича юқори техник салоҳиятга эга, унинг 97 фоизга яқини қуёш энергиясига тўғри келади. Қуёш энергиясини ишлаб чиқариш потенциали 525 - 760 миллиард кВт / соатни ташкил этади. Бунинг сабаби, йилига қуёшли кунлар сони 320 кун ва фаол қуёш соатлари сони ўртача 3000 соатни ташкил қилади.

Ўзбекистоннинг яшил иқтисодиётга ўтишдаги устувор йўналишларини санаб ўтамиз:

- Фавқулодда вазиятлар ва ўзгаришларга муносабат билдириш
- Табiiй ресурслардан оқилона ва самарали фойдаланиш
- Барқарор ва инклюзив урбанизатсия
- Яшил, кам углеродли саноат ва иқтисодни ривожлантириш
- Инноватсиялар ва самарали, яшил давлат инвестициялари
- Яшил молиялаштириш
- Институтлар учун самарали сиёсат муҳитини яратиш
- Имкониятларни ошириш ва инсон капиталини ривожлантириш
- Иқлим ўзгаришидан энг кўп зарар кўрган жойлар ва инсонларни қўллаб-қувватлаш

Ўзбекистонда Ипак йўли, Ҳамкорбанк, Саноат қурилиш банклари биринчилардан бўлиб, хусусий компанияларни кредитлаш учун умумий қиймати 60 миллион долларлик яшил кредитларни олишди. Кредитлар иссиқлик изолятсияси, фотоэлектрик қуёш панеллари, иссиқлик насослари ва сувни тежайдиган суғориш тизимлари бўлмиш яшил технологияларга киритилган инвестицияларни қоплайди. Бугунги кунга қадар Ўзбекистон иқтисодиётига 121 та лойиҳа орқали 3,8 миллиард евро сармоя киритилди.

Сунъий интеллект тизимлари экологик муаммоларни ҳал қилишга ижобий таъсир кўрсатади. Маълумки, глобал иссиқхона газлари катта рол ўйнайди, уларнинг аксарияти қазиб олинadиган ёқилғиларнинг ёниши натижасида ҳосил бўлади. Сунъий интеллект ушбу таъсирни қуйидаги имкониятлар орқали камайтириши мумкин, жумладан:

1. Қуёш ва шамол каби экологик тоза манбалардан фойдаланган ҳолда ишлаб чиқариладиган электр энергияси улушини ошириш. Ҳозиргача ушбу манбаларнинг об-ҳавога боғлиқлиги улардан фойдаланиш самарадорлигини пасайтирмоқда. СИ технологияларидан фойдаланиш қуёш ва шамол электр стансияларидан энергия ишлаб чиқаришни башорат қилиш имконини беради. Сунъий интеллект уларнинг энергия тизимларига интеграциялашувини камайтиради, бу эса анча узоқ вақт давомида (1 йилгача) оптимал қувват балансини яратиш имконини беради. Бундан ташқари, ушбу имкониятлар туфайли шамол ва қуёш энергиясидан олинадиган электр энергиянинг таннархи арзонлашади.

2. Ёқилғи электр стансияларининг ишлашини оптималлаштириш. Хусусан, электр энергияси ишлаб чиқариш самарадорлигини оширадиган, шунингдек, ёқилғининг ёниш частотасини камайтирадиган ва электр стансияларининг ишлашини оптималлаштирадиган эчимлар аллақачон мавжуд. “Ақлли электр стансияси” лойиҳаси ақлли энергия тизимига айланаётган келажак энергия тизимининг муҳим элементи сифатида тан олинган.

3. Электр энергиясини ишлаб чиқариш жойидан истеъмолчиларга ташишда йўқотишларни камайтириш. Мамлакатларнинг энергетика стратегияси аллақачон ақлли тармоқлардан фойдаланиш элементларини ўз ичига олган, хусусан, сунъий интеллект технологиялари асосида магистрал электр тармоқларини ривожлантириш жараёни бошланган;

4. Бинолар ва кўчаларни ёритиш ва иситишни назорат қилиш орқали энергия сарфини камайтириш, шунингдек, лойиҳалаш босқичлари асосида биноларда энергия самарадорлигини оптималлаштириш. Тармоқ компанияларида ақлли ўлчаш тизимлари ва ақлли подстанциялар каби ақлли шаҳар элементларидан фойдаланилмоқда.

Яшил иқтисодиётга ўтиш дастурини рақамли технологиялар асосида амалга ошириш ушбу соҳада параллел равишда кадрларни тайёрлашни тақозо этади. Шунга асосан бугунги кунда Республикамиз олий ўқув юртлари яшил иқтисодиётга ўтиш учун энг зарур бўлган мутахассисликлар бўйича кадрлар тайёрлашни йўлга қўймоқдалар: биотехнолог; қайта тикланадиган энергия манбалари, муқобил (қуёш ва шамол) энергетика бўйича муҳандис; ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш бўйича муҳандис; биоиқтисодиёт, иқлим хавфини баҳолаш ва бошқалар бўйича мутахассис. Бундан ташқари энергия тежайдиган технологияларни, шу жумладан сунъий интеллектни лойиҳалаш, ишлаб чиқариш ва фойдаланиш бўйича мутахассисларни тайёрлаш амалга оширилмоқда.

Замонавий технологиялар инсон ҳаётининг ажралмас қисмига айланди, инсонлар сунъий интеллект томонидан бажариладиган вазифаларнинг сони ва мураккаблиги ҳақида ўйламай қўйдилар. Бугунги кунда нейрон тармоқлари соғлиқни сақлаш, саноат ва қишлоқ хўжалигида қўлланилади ва аллақачон кўп соҳаларда инсонлар ўрнини муваффақиятли алмаштирмоқда.

Хулоса ва таклифлар.

Айтиш мумкинки, сунъий интеллект - бу муаммоларни ҳал қилишнинг анъанавий ақлли моделлари ва усуллари ишлаб чиқадиган тадқиқот соҳаси. Унда муайян дастурлаш технологиялари ва махсус архитектурадаги ҳисоблаш воситаларидан фойдаланилади. Ушбу табиат ҳодисаларининг ҳар бири ўзига хос хусусиятларга эга, масалан, суғориш ишларида сувни бошқариш тизимларини такомиллаштириш, сувдан фойдаланиш ва истеъмолни ҳисобга олишда Smart Water ва шунга ўхшаш рақамли технологияларни жорий этиш; қишлоқ хўжалиги экинларини етиштиришда сувни тежайдиган суғориш технологияларини жорий этишни янада кенгайтириш ва рағбатлантириш, ушбу соҳага хорижий инвестициялар ва грантларни жалб этиш; сув хўжалигида давлат-хусусий шерикчилик ва аутсорсингни жорий этиш, йирик сув объектларини рақамли технологиялар асосида бошқаришни автоматлаштириш, электр энергия ва бошқа ресурсларни тежайдиган замонавий технологияларни кенг жорий этиш.

Республикада кадрлар тайёрлашнинг контент-таҳлили натижалари бўйича қуйидаги хулосаларни келтириш мумкин:

- Республика олий ўқув юртлари яшил иқтисодиётга ўтиш учун энг зарур бўлган мутахассисликлар бўйича кадрлар тайёрлашни бошлашлари керак.

- Республиканинг ишсиз аҳолиси учун энергия тежамкор иншоотларни лойиҳалаш, улардан фойдаланиш ва қуриш бўйича ҳамда энергия тежамкор технологияларни, шу жумладан сунъий интеллектдан фойдаланиш бўйича ўқитиш курсларини ташкил қилиш керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 2 декабрдаги “2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтишига қаратилган ислохотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида” ги ПҚ-436 сон қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 17 февралдаги “Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-4996-сон қарори.

3. Бегалов Б.А., Абдуллаев М. Рақамли иқтисодиёт, Дарслик. Тошкент, 2023.

4. Цифровая экономика: инновационные цифровые технологии: учебное пособие/ Гулямов С.С., Шермухамедов А.Т., Холбоев Б.М., Курск: Изд-во ЗАО «Университетская книга», 2022, – 293 с.

5. Искусственный интеллект и когнитивные технологии в экономике: учебное пособие / С.С. Гулямов, А.Т. Шермухамедов, Б.М. Холбоев. – Москва: РУСАИНС, 2022. – 280 с.

6. Гулямов С.С., Джуманиязова М.Ю., Мирзанова Н.М. Технология промышленного интеллекта и экономика. Учебник. Т. ТФИ. 2022.

7. Тешабаев Т., Гулямов С.С. Хайитматов У.Т., Аюпов Р.Х. Рақамли иқтисодиёт ва дастурлаш асослари.. Изохли луғат. Тошкент. 2021 й .”Давр Матбуот Савдо” МЧЖ, 15.5 б.т.

8. Гулямов С.С., Шермухамедов А.Т., Хайитматов У.Т. Статистический анализ цифровой экономики в Узбекистане. “Ўзбекистон транспорт тизимида рақамли ва инноватсион технологияларни иқтисодий самарадорлигини баҳолашнинг долзарб масалалари”. Республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман мақолалари тўплами. Тошкент, 2021, 6-11 б.

9. Gulamov S.S., Shermukhamedov A.T., U.T. Haitmatov U.T. Methodological aspects of statistical analysis of the digital economy in Uzbekistan. // International Sciyehtical Journal Theoretical & Applied Sciyehtence. 2021, Issuye 03, Volume 95. – 70-76 pp. SKOPUS 2.0

10. Индикаторы цифровой экономики: 2019: стат. сб. / Г.И. Абдрахманова, К.О. Вишневский, Л.М. Гочберг; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики».- М.: НИУ ВШЭ, 2019.- 248 с.

А.Н.Холиқулов – СамИСИ Иқтисодий таҳлил ва статистика кафедраси мудири, и.ф.н., профессор

САМАРҚАНД ВИЛОЯТИДАГИ САВДО КОРХОНАЛАРИДА БОШҚАРУВ САМАРАДОРЛИГИ ОШИРИШ КЎРСАТКИЧЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ

Аннотация: Мақолада “Самарқанд вилоятидаги савдо корхоналарида бошқарув самарадорлиги ошириш кўрсаткичларининг қиёсий таҳлили кенг ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Савдо, савдо корхоналари, чакана савдо, товар айланмаси, истеъмол бозори, хизмат кўрсатиш.

Аннотация: В статье широко освещен сравнительный анализ показателей повышения эффективности управления на предприятиях торговли Самаркандской области.

Ключевые слова: Торговля, торговые предприятия, розничная торговля, товарооборот, потребительский рынок, услуги.

Annotation: In the article, "Comparative analysis of indicators of improving management efficiency in trade enterprises in Samarkand region is widely covered.

Key words: Trade, trade enterprises, retail trade, commodity turnover, consumer market, service.

Истеъмол бозорида монополияга қарши бошқарув тизимини такомиллаштириш механизмлари топиш учун энг аввало макродаражада эмас балки, макродаражадаги корхоналар рақобатини ривожлантириш зарур, яъни давлат томонидан кичик корхоналар ривожланиши учун тегишли йўл йўриқлар очиб берилиши мақсадга мувофиқ. Савдо соҳасида кичик корхоналар қай даражада ривожланаётганлигини билиш учун ҳудудлар даражасида чакана савдо товар айланмасини таҳлил қилиб чиқишимиз лозим. Бунинг учун энг аввало вилоятимиз туманлари бўйича чакана савдо товар айланмаси ҳажмини кўриб чиқишимиз лозим (1-жадвал).

Самарқанд вилояти туманлари бўйича чакана савдо товар айланмаси
ҳажми⁵⁵
(амалдаги нархларда; минг сўм)

	2016 й.	2017 й.	2018 й.	2019 й.	2020 й.	январ- декабр 2021 й.*
Самарқанд вилояти	7 605,2	8 973,5	11 123,1	13 877,3	16 816,8	21 004,2
<i>шаҳарлар:</i>						
Самарқанд ш.	1 954,4	2 310,6	3 068,9	4 231,8	6 358,0	8 492,9
Каттақўрғон ш.	467,9	561,8	592,3	772,9	912,2	1 267,4
<i>туманлар:</i>						
Оқдарё	198,7	235,5	330,1	287,3	458,1	548,2
Булунғур	374,3	473,3	799,3	724,1	730,0	933,9
Жомбой	204,6	244,1	304,5	388,1	588,1	778,4
Иштихон	307,5	368,0	464,4	605,4	596,1	750,2
Каттақўрғон	356,1	422,1	441,8	564,7	738,0	873,8
Қўшработ	278,6	333,2	372,0	444,7	370,4	345,9
Нарпай	308,6	366,4	402,2	463,2	559,4	636,8
Паяриқ	315,2	377,0	415,4	476,5	663,1	803,9
Пастдарғом	597,8	684,6	823,3	952,0	1 025,2	1 084,0
Пахтачи	295,3	348,4	439,6	485,0	346,5	379,5
Самарқанд	308,5	339,8	582,3	872,0	825,0	1 027,0
Нуробод	320,4	376,0	415,6	510,9	416,0	416,7
Ургут	1 079,6	1 256,5	1 326,2	1 703,0	1 751,8	2 065,1
Тайлоқ	237,7	276,2	345,2	395,7	478,9	600,5

Самарқанд вилояти туманлари бўйича чакана савдо товар айланмаси ҳажмига қарайдиган бўлсак, Самарқанд вилояти бўйича 2016 йилга қараганда, 2021 йилда 2,76 баробар кўп бўлган. Бундай ўсишга энг катта таъсир қилган ҳудудларга Самарқанд шаҳри, Ургут тумани ва Каттақўрғон шаҳарларини кўрсатишимиз мумкин. Вилоят ҳудудида чакана савдо товар айланмаси энг кам ҳудудлар бўлиб, Қўшработ тумани, Пахтачи тумани ва Нуробод туманларини кўрсатишимиз мумкин.

Умуман олганда Самарқанд вилоятида чакана савдо товар айланмаси 2016-2021 йиллар мобайнида ўсиш тенденциясига эга бўлганлигини кўришимиз мумкин (1-расм).

⁵⁵ www.stat.uz маълумотлари асосида муаллифнинг ишланмаси



1-расм. 2016-2021 йиллар мобайнида Самарқанд вилоятида чакана савдо товар айланмасининг ўсиб бориш тенденцияси.

Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, аҳоли жон бошига чакана савдо товар айланмаси республика ўртача кўрсаткичидан паст ҳисобланади. Бу кўрсаткич бўйича Самарқанд вилояти ҳудудлари кўрсаткичларини таҳлил қилишни мақсадга мувофиқ деб топдик. 2-жадвал)

Берилган маълумотларни таҳлил қилиб чиқадиган бўлсак, аҳоли жон бошига чакана савдо товар айланмаси вилоят бўйича 2021 йилда 2015 йилга нисбатана 2,5 баробар ошганлигини кўришимиз мумкин. Бу бўйича юқори ўсишга эришган ҳудудлар Самарқанд шаҳри (4,07 марта), Жомбой тумани (3,36 марта), Самарқанд тумани (3,01 марта) кўрсатиб ўтиш мумкин. Мутлақ миқдорлар солиштирадиган бўлсак, шаҳар жойларида қишлоқ жойларига қараганда уч-тўрт баробар юқори эканлигини кўрсатишимиз мумкин.

Маълумотларни таҳлил қилишида мутлақ кўрсаткичлар кўпинча тўғри хулосалар бериш учун етарли бўлмайди, шунинг учун ҳам кўпгина ҳолатларда тўғри хулосалар чиқариш учун нисбий кўрсаткичлардан фойдаланилади. Шунинг учун ҳам қуйидаги жадвалда Самарқанд вилояти туманлари бўйича чакана савдо товар айланмаси ҳажмининг ўсиш суръати келтирилган (3-жадвал).

Маълумотлардан кўриниб турибдики, 2016 йилда Самарқанд вилоятида чакана товар айланмасининг ўсиш суръати энг юқори бўлган. 2017 йилда бу кўрсаткичнинг ўсиш суръати кескин пасайган. Кейинги йилларда яна ўсиш кўрсаткичлари бир маромда ўсиб борган. Самарқанд вилоятида чакана савдо товар айланмаси 2021 йилда энг яхши ўсиш суръатига Жомбой, Каттакўрғон ва Қўшработ туманлари эришган, 2020 йилда Каттакўрғон тумани, Самарқанд тумани ва Самарқанд шаҳри, 2019 йилда Самарқанд тумани, Самарқанд шаҳри ва Иштихон тумани, 2018 йилда Самарқанд шаҳри,

Жомбой тумани ва Пайариқ тумани, 2017 йилда Каттақўрғон шаҳри, Булунғур ва Иштихон тумани, 2016 йилда Оқдарё, Қўшработ ва Нуробод туманлари эришган.

2-жадвал

Самарқанд вилояти туманлари бўйича аҳоли жон бошига чакана савдо товар айланмаси⁵⁶ (амалдаги нархларда; минг сўм)

	2016 й.	2017 й.	2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021 й.
Самарқанд вилояти	2 102,1	2 436,7	2 965,1	3 625,2	4 298,3	5 264,9
<i>шаҳарлар:</i>						
Самарқанд ш.	3 747,6	4 387,0	5 748,0	7 815,0	11 579,0	15 253,1
Каттақўрғон ш.	5 485,4	6 495,2	6 769,2	8 723,5	10 124,4	13 897,4
<i>туманлар:</i>						
Оқдарё	1 340,7	1 557,4	2 142,3	1 834,5	3 885,0	3 355,0
Булунғур	2 155,1	2 670,7	4 418,2	3 933,1	3 382,1	4 876,9
Жомбой	1 300,6	1 514,9	1 842,0	2 293,6	2 331,3	4 368,2
Иштихон	1 309,5	1 536,0	1 896,2	2 425,7	2 688,4	2 871,0
Каттақўрғон	1 400,7	1 629,0	1 671,7	2 099,2	2 615,4	3 126,2
Қўшработ	2 287,6	2 683,0	2 934,1	3 439,2	2 749,3	2 563,8
Нарпай	1 544,3	1 802,0	1 945,0	2 204,6	2 859,6	2 930,6
Паяриқ	1 359,6	1 594,2	1 720,7	1 935,3	2 630,4	3 122,0
Пастдарғом	1 818,4	2 041,3	2 403,7	2 730,2	2 874,8	2 980,3
Пахтачи	2 182,5	2 535,7	3 142,2	3 408,2	2 391,5	2 581,7
Самарқанд	1 315,5	1 421,0	2 389,2	3 514,9	3 247,9	3 965,1
Нуробод	2 290,4	2 636,7	2 856,5	3 451,9	3 414,1	2 697,3
Ургут	2 322,0	2 639,7	2 717,1	3 412,1	2 361,5	3 926,8
Тайлоқ	1 278,4	1 455,4	1 781,5	2 002,8	2 800,0	2 889,7

2020 йилда Каттақўрғон тумани, Самарқанд тумани ва Самарқанд шаҳри, 2019 йилда Самарқанд тумани, Самарқанд шаҳри ва Иштихон тумани, 2018 йилда Самарқанд шаҳри, Жомбой тумани ва Пайариқ тумани, 2017 йилда Каттақўрғон шаҳри, Булунғур ва Иштихон тумани, 2016 йилда Оқдарё, Қўшработ ва Нуробод туманлари эришган. 2016-2021 йиллар мобайнида чакана савдо товар айланмаси ўсиш ҳолати кузатилганлигини кўришимиз мумкин, лекин шу йиллар мобайнида вилоятимизнинг айрим ҳудудларида ўтган йилга қараганда пасайиш ҳолатлари ҳам кузатилган, жумладан 2017 йилда Пастдарғом, Ургут ва Тайлоқ туманларида, 2019 йилда

⁵⁶ www.stat.uz маълумотлари асосида муаллифнинг ишланмаси

Оқдарё ва пайариқ туманларида, 2020 йилда Булунғур, Иштихон ва Тайлоқ туманларида кузатилган.

3-жадвал

**Самарқанд вилояти туманлари бўйича чакана савдо товар айланмаси
хажмининг ўсиш суръати⁵⁷
(ўтган йилга нисбатан фоизда)**

	2016 й.	2017 й.	2018 й.	2019 й.	2020 й.	январ- декабр 2021 й.*
Самарқанд вилояти	115,0	100,7	105,0	108,1	109,0	111,7
<i>шаҳарлар:</i>						
Самарқанд ш.	112,1	100,9	110,2	116,4	116,0	108,4
Каттақўрғон ш.	118,3	102,5	104,6	104,4	112,0	110,9
<i>туманлар:</i>						
Оқдарё	119,7	101,1	104,2	99,3	114,9	108,9
Булунғур	116,2	102,4	102,5	101,4	93,2	112,0
Жомбой	116,1	101,8	106,5	105,3	103,3	119,2
Иштихон	118,1	102,2	104,2	111,1	89,4	109,9
Каттақўрғон	117,0	101,2	104,1	103,3	118,2	117,4
Қўшработ	118,9	102,1	101,4	103,4	111,1	117,0
Нарпай	116,4	101,3	103,3	101,0	115,1	111,7
Паяриқ	115,6	102,1	104,7	97,8	101,8	116,1
Пастдарғом	116,6	97,8	102,1	101,0	106,3	108,5
Пахтачи	114,8	100,7	102,0	105,4	104,4	114,1
Самарқанд	111,6	100,5	103,5	122,1	116,4	122,5
Нуробод	118,7	100,1	102,7	101,9	106,7	114,7
Ургут	113,2	99,3	101,4	104,3	100,0	114,9
Тайлоқ	116,6	99,2	104,1	107,4	99,6	115,5

⁵⁷ www.stat.uz маълумотлари асосида муаллифнинг ишланмаси

КЎЧМАС МУЛК ОБЪЕКТЛАРИ АМОРТИЗАЦИЯ АЖРАТМАЛАРИ ҲИСОБИ

Аннотация: Мақолада кўчмас мулк объектлари бўйича амортизация харажатлари бухгалтерия ҳисоби масалалари ёритилган. Кўчмас мулк объектлари бўйича амортизация харажатлари бухгалтерия ҳисобида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларидан фойдаланиш кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: кўчмас мулк, мулкни баҳолаш, ҳаққоний қиймат, бухгалтерия ҳисоби, амортизация, МҲҲС.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы учета амортизационных отчислений по объектам недвижимости. Амортизационные отчисления по объектам недвижимости указываются с использованием международных стандартов финансовой отчетности в бухгалтерском учете.

Ключевые слова: недвижимость, оценка собственности, справедливая стоимость, бухгалтерский учет, амортизация, МСФО.

Annotation: The article covers accounting issues of depreciation costs on real estate objects. Depreciation costs on real estate objects are indicated by the use of International Financial Reporting Standards in accounting.

Keywords: Real Estate, Property Valuation, true value, accounting, depreciation, IFRS.

Мамлакатимиз амалиётида амартизация ажратмаларининг бухгалтерия ҳисоби, уни такомиллаштириш долзарб масалалардан ҳисобланади. Бу борада М.М.Меликованинг қуйидаги фикрларини келтириш ўринлидир: “Бухгалтерия ва бошқарув ҳисобида амортизация жуда мунозарали масалалардан бири бўлиб ҳисобланади. Амортизация математик ҳисоблашнинг натижаси бўлиб, корхонанинг фойдасига етарли даражада таъсир кўрсатади, демак, у солиқ тўловларига ҳам таъсир қилади. Мана нима учун. амортизация ҳисоб китобларига бошқарув ва бухгалтерия ҳисобида муҳим рол ўйнайди”⁵⁸.

Ўзбекистон Республикаси Бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти 5-сонли БҲМС “Асосий воситалар”да амартизацияга қуйидагича таъриф берилган: “Амортизация — фойдали хизмат муддати мобайнида активнинг амартизацияланадиган қийматини асосий воситаларнинг вазифасидан келиб чиққан ҳолда маҳсулот (ишлар, хизматлар) таннархига ёки давр харажатларига тизимли тақсимлаш ва ўтказиш кўринишида эскиришнинг қиймат ифодаси”⁵⁹.

Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодексининг 306-моддасида амортизация харажатлари деб “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги қонун ҳужжатларига мувофиқ солиқ тўловчи томонидан ҳисобга олинадиган асосий воситалар ва номоддий активлар ушбу модда мақсадларида амортизация

⁵⁸ Меликова М.М. Амортизационные отчисления. : <https://center-yf.ru/data/Buhgalteru/Amortizacionnye-otchisleniya.php>. 03.02.2025.

⁵⁹ Ўзбекистон Республикаси Бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти 5-сонли БҲМС “Асосий воситалар”. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил 14 июндаги 133-сон буйруғи.2024.

қилинадиган активлар деб эътироф этилади. Амортизация қилинадиган активнинг қиймати Солиқ Кодекснинг 308-моддасида назарда тутилган амортизация ажратмалари ва (ёки) инвестициявий чегирмалар орқали харажатлар жумласига киритилади”⁶⁰ эътироф этилган.

Бухгалтерия ҳисобининг 16-сонли халқаро стандарти “Асосий воситалар”да амортизация қуйидагича ифодаланган: асосий воситалар амортизацияси - бу активнинг амортизацияланадиган қийматини унинг фойдали хизмат муддати давомида мунтазам равишда харажатларга олиб боришдир⁶¹.

Кўчмас мулкнинг амортизациясини бухгалтерия ҳисоби ва солиққа тортиш концепцияларида амалиётда қўлланаётган амортизацияни ҳисоблаш методлари муҳим ҳисобланади. Ўрганишлар шуни кўрсатмоқдаки, ривожланган мамлакатларда кўчмас мулкнинг амортизациясини ҳисоблаш методлари жуда кўп экан:

- бошланғич қийматдан амортизацияни ҳисоблашнинг тўғри чизиқли методи;
- бозор қийматдан амортизацияни ҳисоблашнинг тўғри чизиқли методи;
- прогрессив (тезкор) метод;
- дигрессив метод;
- қолдиқ қийматни чиқариб ташлашдан кейинги амортизация;
- фавқулотда амортизация методи;
- харажатларни капиталлаштириш билан боғлиқ амортизациялаш методи (фақат АҚШда қўлланинади);
- экспертлар ҳулосасига асосланган амортизация методи;
- мураккаб фоиз усулини қўллашга асосланган амортизация методи;
- банкнинг узоқ муддатли фоизини ҳисобга олган ҳолда амортизация методи (Канадада фойдаланади);
- рентабелликка пропорционал амортизация методи⁶².

Бухгалтерия ҳисобининг 16-сонли халқаро стандарти “ Асосий воситалар”нинг 62-бандига асосан, амортизация суммасини ҳисоблашнинг турли хил методлари қўлланади. Уларга чизиқли метод, қолдиқни камайтириш методи ва маҳсулот ҳажмига пропорционал равишда қийматни ҳисоблаш методи киради⁶³.

Бевосита кўчмас мулкнинг эскиришини ҳисобга олувчи счётларга қуйидагиларни мисол қилиб олишимиз мумкин: 0211-счёт “ Ерни ободонлаштиришнинг эскириши”, 0212-счёт “ Молиявий ижара шартномаси бўйича олинган асосий воситаларни ободонлаштиришнинг эскириши”, 0220-счёт “Бино, иншоот ва узатувчи мосламаларнинг эскириши”, 0280-счёт

⁶⁰ Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодексининг 306-моддаси. 2025.

⁶¹ Бухгалтерия ҳисобининг 16-сонли халқаро стандарти “ Асосий воситалар”.2018.

⁶² ⁶² Выбор и обоснование методов начисления амортизации <https://www.kazedu.kz/articles.4.02.2025>.

⁶³ БҲХС 16 “Асосий воситалар” 62-банди.<https://nrm.uz/contentf?doc=468065> (ias) 16 osnovnye sredstva. 03.02.2025.

“Бошқа асосий воситаларнинг эскириши” ва 0299-счёт “Молиявий ижара шартномаси бўйича олинган асосий воситаларнинг эскириши”. Кўчмас мулкни ва амортизация ажратмаларини ҳисобга олувчи счётлар солиқ тўловчининг ҳисоб сиёсатида белгиланган бўлиши керак.

Кўчмас мулк ва амортизация ажратмаларини ҳисобга олувчи счётлар солиқ тўловчининг солиқ солиш мақсадларидаги ҳисоб сиёсатида белгиланган бўлиши керак. Бухгалтерия ҳисоби ва солиқ ҳисоби бўйича ҳисобланган амортизация суммалари ўртасида фарқ келиб чиқади. Фойда солиғини ҳисоблашда солиқ ва бухгалтерия ҳисоби маълумотларининг ўзаро мос келиши жуда муҳимдир.

Халқаро амалиётда, шу жумладан, МҲХС 12–сонли “Фойдадан солиқ”га асосан вақтинчалик фарқлар бухгалтерия ҳисобининг синтетик ва аналитик счётларида акс эттирилмайди ҳамда уларнинг қопланиши назорат қилинмайди.

Республикамиз амалиётида, кўп ҳолларда бухгалтерия ҳисоби бўйича амортизациянинг солиқ ҳисоби амортизациясидан ошган суммасини ҳисобга олиш учун балансдан ташқари 012–“Келгуси даврларда солиқ солинадиган базадан чиқариладиган харажатлар” счётидан фойдаланинади. Бу ҳолда солиқ ва бухгалтерия мақсадлари учун амортизация суммаларидаги фарқларнинг келгусидаги бутун ҳисоби балансдан ташқарида амалга оширилади.

Солиқ ҳисоби бўйича амортизация, шу жумладан инвестициявий чегирма бухгалтерия ҳисоби амортизациясидан ошган ҳолда 6240–“Солиқлар ва йиғимлар бўйича кечиктирилган мажбуриятлар” ва 7240–“Солиқлар ва йиғимлар бўйича узоқ муддатли кечиктирилган мажбуриятлар” счётларини қўллашни таклиф этамиз.

Солиқ ҳисоби бўйича амортизация суммаси, шу жумладан инвестициявий чегирма бухгалтерия ҳисобида акс эттирилган амортизация суммасидан кам бўлган ҳолатда 0950–“Вақтинчалик фарқлар бўйича кечиктирилган фойда солиғи (узоқ муддатли қисми)” ва 3210–“Вақтинчалик фарқлар бўйича кечиктирилган фойда солиғи (жорий қисми)” счётларидан фойдаланишни таклиф этамиз.

Биз томонимиздан таклиф этилган тартибда амортизация бўйича вақтинчалик фарқларни бухгалтерия ҳисоби счётларида акс эттириш, фойда солиғи бўйича солиққа тортиш базасининг аниқлиги ҳамда бу солиқни ҳисоблашда солиқ ва бухгалтерия ҳисоби маълумотларини бир бирига мос келишлиги таъминлайди.

Bobomuradova Sarvinoz Ziyadullayevna – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti, bobomuradovasarvinoz@gmail.com

KORXONALARDA SEGMENTAR HISOBOTNI TUZISHDAGI ASOSIY TAMOIYILLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarda segmentar hisobotni tuzishning asosiy tamoyillari yoritilgan. Segmentar hisobot korxona bo'limlari yoki faoliyat yo'nalishlari bo'yicha moliyaviy natijalarni aks ettiruvchi muhim boshqaruv vositasidir. Maqolada ushbu hisobotning maqsadi, tamoyillari, tarkibi va uning xalqaro standartlarga mosligi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Segmentar hisobotdan samarali foydalanish korxonalarining moliyaviy shaffofligini oshirish va strategik qarorlar qabul qilishni yaxshilashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: segmentar hisobot, boshqaruv qarorlari, segment, rentabellik, tamoyil, ishonchlilik, betaraflilik, shaffoflik, qulaylik.

Аннотация: В данной статье освещены основные принципы составления сегментарной отчетности на предприятиях. Сегментарная отчетность является важным инструментом управления, который отражает финансовые результаты различных подразделений или направлений деятельности компании. В статье подробно рассматриваются цели, принципы, структура данной отчетности и её соответствие международным стандартам. Эффективное использование сегментарной отчетности способствует повышению финансовой прозрачности предприятий и улучшению процесса принятия стратегических решений.

Ключевые слова: сегментарная отчетность, управленческие решения, сегмент, рентабельность, принцип, надежность, нейтральность, прозрачность, удобство.

Annotation: This article highlights the key principles of preparing segment reporting in enterprises. Segment reporting is an essential management tool that reflects the financial results of different divisions or business segments. The article provides detailed information on the objectives, principles, structure of this reporting, and its compliance with international standards. Effective use of segment reporting enhances financial transparency and improves strategic decision-making.

Keywords: segment reporting, management decisions, segment, profitability, principle, reliability, neutrality, transparency, convenience.

Bugungi kunda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o'tish, va elektron hisob yuritish tizimlari rivojlanishi buxgalteriya dasturlari va axborot texnologiyalaridan foydalanish ortib borayotgani segmentar hisobotlarni shakllantirish jarayonini osonlashtiradi hamda aniq ma'lumotlar bilan ishlash imkonini kengaytiradi. Korxonalar o'z faoliyatini samarali boshqarish va moliyaviy natijalarni aniq tahlil qilish uchun segmentar hisobotlardan keng foydalanmoqda.

Mazkur maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarning segmentar hisobotini tuzish jarayonida muhim o'ringa ega bo'lgan asosiy tamoyillar masalalari yoritilgan. Segmentar hisobot korxonalarining turli bo'linmalari yoki faoliyat yo'nalishlari bo'yicha moliyaviy holatini va natijalarini tahlil qilishga yordam beradi. Ushbu hisobot korxonaning strategik qarorlar qabul qilish jarayonida muhim hisoblanadi. Korxonalar boshqaruvi jarayonida segmentar hisobotni shakllantirish masalalari asosan xo'jalik yurituvchi subyektlar darajasida amalga

o'shiriladi, shu sababli mazkur hisobotlar iqtisodiy adabiyotlarda yetarli darajada ochib berilmagan.

Segmentar hisobot – segmentar hisobot ichiga kiradigan xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashkiliy qismlari ichki faoliyati to'g'risida yig'ilgan axborotlar asosida tashkil etiladi. Segmentar hisobot mazmun va mohiyatiga ko'ra boshqaruv hisobotining asosiy qismi bo'lib hisoblanadi hamda moliyaviy hisobot bilan birgalikda parallel ravishda olib borilishi kerak.⁶⁴

Segmentar hisobot - korxonaning turli bo'limlari yoki bo'limlari bo'yicha moliyaviy natijalarni ajratib ko'rsatadigan hujjatdir.⁶⁵ Uning asosiy maqsadi:

- Boshqaruv qarorlarini samarali qabul qilish;
- Turli bo'limlar yoki yo'nalishlar bo'yicha rentabellikni baholash;
- Investorlar va manfaatdor tomonlar uchun shaffoflikni oshirish.

Boshqaruv jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlar segmentlari bo'yicha segmentar hisobotni tuzish mustaqil ahamiyatga ega va kamida uchta maqsadni ko'zlagan holda amalga oshirilishi kerak:

1) xo'jalik yurituvchi subyektlar boshqaruvida tahlil jarayonini va unda tarkibida faoliyat yurituvchi tarkibiy bo'linmalar faoliyati samaradorligini axborot bilan ta'minlash;

2) tashqi moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tahlil qilish, uning daromadlari va xarajatlarini baholashda yordam berish;

3) rahbar xodimlarni boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborot bilan ta'minlash.

Shunday qilib, boshqaruv jarayonining samaradorligini oshirish uchun har bir segmentning xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining yakuniy natijalariga qo'shgan hissasini aniq va to'g'ri baholashda tutgan o'rnini oshiradi. Bunday baholash uchun asos bo'lib xo'jalik yurituvchi subyektlarning segmentar hisobotida aks etgan ma'lumotlar muhim hisoblanadi. Mazkur ma'lumotlarni olish uchun esa segmentar hisobotini ishlab chiqish jarayoni muhim hisoblanadi. Mazkur jarayon esa o'z o'rnida ma'lum bir tamoyillar asosida amalga oshirilishi zarur. Biroq, adabiyotlarda segmentar hisobotni tuzish tamoyillari deyarli ochib berilmagan. Bizning fikrimizcha, korxonalarda segmentar hisobotni shakllantirish jarayonida muhim bo'lgan asosiy tamoyillar quyidagilar (1-chizma):

⁶⁴ Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2019. 273 bet

⁶⁵ Alikulov G'. «Segmentar hisobotni tuzishdagi asosiy tamoyillar». O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 14-son, 2022 yil



1-chizma. Segmentar hisobotni tuzish tamoyillari

Segmentar hisobot tuzilayotganda faqat iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan segmentlar kiritilishi lozim. **Muhimlik** mezonlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Segmentning umumiy daromaddagi ulushi;
- Segment foydasining korxona umumiy foydasiga ta'siri;
- Kelajakdagi o'sish imkoniyatlari.

Hisobotning aniq va ishonchli bo'lishi uchun segment ma'lumotlari to'g'ri aks ettirilishi, ya'ni **xolislik va shaffoflik** bo'lishi, subyektivlikdan xoli bo'lishi kerak.

Segmentlar bo'yicha ma'lumotlar **bir xil metodologiya** asosida yuritilishi va har yili taqqoslash uchun mos kelishi lozim.

Segmentar hisobotda **daromadlar va xarajatlar** aniq taqsimlanishi zarur. Xususan:

- Bevosita segmentga tegishli daromad va xarajatlar alohida qayd etiladi;
- Umumiy xarajatlar esa adolatli taqsimlanish tamoyiliga muvofiq ajratiladi.

Segmentar hisobot **xalqaro moliyaviy hisobot standartlari** (IFRS 8) yoki milliy standartlarga muvofiq tayyorlanishi kerak.

Xulosa

Korxonalarda segmentar hisobot xo'jalik yurituvchi subyektning muayyan segmenti faoliyatini baholash va mazkur segment bo'yicha turli boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilish imkonini beradi. Ushbu hisobotni shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS 8) talablariga mos metodlarni ishlab chiqish, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish tizimlaridan foydalangan holda segmentar hisobot tuzishning avtomatlashtirilgan modellari ishlab chiqilishi zarur.

Segmentar hisobot biznes yuritishda muhim moliyaviy vosita hisoblanadi. U kompaniyaning turli faoliyat yo'nalishlari bo'yicha samaradorligini baholash va strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. To'g'ri tashkil qilingan segmentar hisobot korxonaning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2019. 273 bet
2. Xasanov B.A., G'aniyev Z.U., Muxammedova D.A. Boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. IQTISOD-MOLIYA, 2018. 242 bet.
3. Paul Pacter, Mitchell A Danaher «Bringing segment reporting up-to-date: Criticisms and suggested solutions». 1993 yil.
4. Alikulov G'. «Segmentar hisobotni tuzishdagi asosiy tamoyillar». O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 14-son, 2022 yil. 700 bet.
5. Bobomuradova S.Z. «Issues of establishing a segmental account in trading enterprises». Iqtisodiyot, moliya va innovatsiyalar xalqaro ilmiy jurnali, ISSN:2181-3299, 2024 yil. Volume-II Issue-I.

G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrası assistenti

O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDAGI KORXONALARNING MOLIYAVIY HISOBOTNI XALQARO STANDARTLARGA O'TISHNING ZARURATI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasidagi turizm sohasidagi korxonalarining moliyaviy hisobotni xalqaro standartlari (MHXS) ga o'tish jarayoni va uning istiqbollari. Turizm sohasi korxonalari moliyaviy hisobotlarini MHXS asosida tuzishning afzalliklari va duch kelinishi mumkin bo'lgan muammolar ko'rib chiqiladi

Kalit so'zlar: Turizm, Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlari (MHXS), moliyaviy hisobot, transformatsiya, investitsiya, biznes boshqaruv, biznes muhiti, turistik xizmatlar

Annotation: This article discusses the process of transitioning financial reporting of tourism enterprises in the Republic of Uzbekistan to International Financial Reporting Standards (IFRS) and its prospects. The advantages of preparing financial statements based on IFRS for tourism enterprises and potential challenges that may arise are examined.

Keywords: Tourism, International Financial Reporting Standards (IFRS), financial reporting, transformation, investment, business management, business environment, tourism services.

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс перехода предприятий туристической отрасли Республики Узбекистан на международные стандарты финансовой отчетности (МСФО) и его перспективы. Изучаются преимущества составления финансовой отчетности туристических предприятий на основе МСФО, а также возможные проблемы, с которыми могут столкнуться предприятия.

Ключевые слова: Туризм, международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), финансовая отчетность, трансформация, инвестиции, бизнес-управление, бизнес-среда, туристические услуги.

Bugungi kunda turizm sohasi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda moliyaviy hisobotlarini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tuzishga ob'ektiv zaruratlar mavjud. Qonunda ko'zda tutilgan tartibda MHXSlarini qo'llash

tartibi joriy etildi⁶⁶. Zamon talablariga mos keladigan turizm infratuzilmasini yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun moliyaviy hisobotni MHXSlari bo'yicha tuzish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda MHXS lari asosida moliyaviy hisobot tuzayotgan turizm sohasi korxonarini soni oshib bormoqda. Chunki, moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirishga erishish faqat MHXSlarga o'tish orqali amalga oshirilishi mumkin bo'ladi. Shu bois, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar hamda ilg'or instrumentlar va tajribalardan foydalanish kun tartibidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan qabul qilingan «O'zbekiston-2030» strategiyasida “Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirish bo'yicha vazifalar belgilab berilgan bo'lib, Xususan 2030 yilgacha “Mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish. Erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar savdolari hajmini 8 milliard dollarga yetkazish. Umumiy qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod strategik ahamiyatiga ega bo'lgan texnologik va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish. Hududlarning investitsion reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish”⁶⁷ vazifasi qo'yildi.

Bunda turizm sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar mamlakatimiz iqtisodiyotini jozibadorligini oshirishga xizmat qilishini hisobga oladigan bo'lsak, ushbu vazifalarni hal etish uchun turizm korxonalarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish muhim ahamiyatga egaligi ma'lum bo'ladi.

Turizm korxonalarida MHXSlariga istalgan vaqtda, tayyorgarliksiz, to'g'ridan-to'g'ri o'tib bo'lmaydi. Agarda tayyorgarliksiz moliyaviy hisobot MHXSlar bo'yicha transformasiya qilingan taqdirda ham kutilgan natijani bermaydi. Shuni inobatga olgan holda MHXSlarni birinchi marta qo'llashda yoki milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni transformasiya qilishdan oldin muhit, shart - sharoit va ma'lum tayyorganlik ishlari olib borilishi shart. Moliyaviy hisobot transformasiyasiga olim S.N.Tashnazarov quyidagicha ta'rif bergan “Moliyaviy hisobot transformasiyasi - bu hisobot sanasi holati bo'yicha buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tuzilgan komponentlari moddalarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari qoidalariga muvofiq holda qayta guruhlash, ularning moddalarini qayta tan olish, qayta baholash, to'g'irlashlar kiritish va qayta ochiqdashlar asosida MHXSlari hisobotlari axborotlarining yangi tizimiga ag'darish va qayta tashkil qilish jarayonidir”⁶⁸.

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi” qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 15-son, 142- modda.

⁶⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida” PF-158-son Farmoni. 1-ilova, 49-maqсад. Lex.uz

⁶⁸ Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar. Monografiya. T.: “Navro'z” nashriyoti. 2016 y.

Turizm korxonalarida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) qo'llanilishi majburiy xarakterdagi hujjat emas, u tavsiyanoma xarakteriga ega. Unda milliy standartlaridagi kabi korxonalar taqdim etishi shart bo'lgan moliyaviy hisobot shakllarini belgilamaydi. MHXSlari moliyaviy hisobotning asosiy komponentlari va ularda aks ettiriladigan minimal axborotlar tarkibini belgilaydi

Turizm sohasidagi korxonalarning MHXSlariga o'tish yoki BHMSlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni MHXSlari asosida transformatsiya qilish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- xalqaro investorlar uchun moliyaviy ma'lumotlarning aniq va shaffof bo'lishi;

- soha korxonalari uchun kredit olish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatining oshishi;

- soha korxonalarining xalqaro reytinglarda ishonchliligi ortishi

- soha korxonalari menejerlariga boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari uchun ishonchli, ob'ektiv, uyg'un hamda o'z vaqtida tizimlashgan moliyaviy axborotlarni olish imkoniyatlari yuzaga kelishi;

- soha korxonalar faoliyatini byudjetlashtirish, rejalashtirish va strategik rivojlanishini baholashda zarur axborotlar ta'minlanishi;

- soha korxonalarida boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'yekt raqobatbardoshligini oshirish, xizmatlar sifatini oshirish va turizm salohiyatini yuksaltirishga erishiladi;

Turizm sohasidagi korxonalarning moliyaviy hisobotni xalqaro standartlari (MHXS) ga o'tish jarayonida uchraydigan asosiy qiyinchiliklar quyidagilardan iborat:

- turizm korxonalari avval milliy buxgalteriya standartlari asosida ishlagan bo'lsa, MHXS talablariga mos keladigan yangi hisob siyosatini ishlab chiqish kerak bo'ladi.

- turizm sohasida oldindan to'lov, bron qilish va kechiktirilgan to'lovlar keng tarqalgan bo'lib, MHXS bo'yicha ularni tan olish qoidalari milliy standartlardan farq qilishi mumkin.

- mehmonxonalar, dam olish maskanlari va boshqa aktivlarning bozor qiymatini aniqlash va ularni qayta baholash zaruriyati.

- MHXS ga mos keladigan buxgalteriya dasturlarini joriy qilish zarurati.

- milliy soliq qonunchiligi MHXS bilan to'liq mos kelmasligi hamda soliq hisobotlari va moliyaviy hisobotlar orasidagi tafovutlarni boshqarish

Xulosa qilib aytganimizda, turizm sohasi korxonalarining MXHS ga o'tishi O'zbekistonning xalqaro maydondagi iqtisodiy ishonchliligini oshirish va investorlarni jalb etish uchun muhim shartlardan biridir. Shu sababli, MXHS ga o'tish jarayoni uzluksiz amalga oshirilishi va sohada faoliyat ko'rsatayotgan biznes subektlariga davlat tomonidan MHXSGa o'tish jarayonida qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish, turizm korxonalariga soliq imtiyozlari taqdim etish va MHXS bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur. Shuningdek, xalqaro tajribalarni o'rganish va mahalliy turizm kompaniyalarini global tarmoqlarga integratsiya qilish ham muhim omillardan biri hisoblanadi.

Мазкур jarayonni amalga oshirish orqali O‘zbekiston turizm sohasining xalqaro miqyosda yanada jadal rivojlanishiga erishish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi” qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 15-son, 142- modda
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi 4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori. // <https://lex.uz/docs/4746047>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoni. 1-ilova, 49-maqсад. Lex.uz
4. Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar. Monografiya. T.: “Navro‘z” nashriyoti. 2016 y.
5. S.N.Tashnazarov Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. Monografiya. - Publisher SIA OmniScriptum Publishing. GlobeEdit Publishing house. 2018. 280 p. ISBN-13:978-613-8-24050-1

Ишанкулова Фарангис Азамовна – СамИСИ ассистенти,

Ғаниев Ғайратжон Ғуломиддинович – СамИСИ мустақил изланувчиси,

Ахроркулов Зарифжон Заррухович – Шароф Рашидов номидаги СамДУ талабаси

ОЛИЙ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИЛГАН УСУЛИ

Аннотация. Мақолада республикамізда бакалавриатнинг иқтисодиёт таълим йўналиши бўйича ўқув жараёни ташкил этилган олти та олий таълим ташкилотларининг имижі баҳоланган ҳамда уларнинг таълим хизматлари рақобатбардошлигини баҳолашнинг такомиллаштирилган усули таклиф этилган.

Калит сўзлар: имиж, олий таълим ташкилотининг имижі, олий таълим хизматларининг рақобатбардошлиги.

Аннотация. В статье оценивается имидж шести высших учебных заведений нашей республики, где организован учебный процесс бакалавра экономики, и предлагается усовершенствованная методика оценки конкурентоспособности их образовательных услуг.

Ключевые слова. Имидж, имидж организации высшего образования, конкурентоспособность услуг высшего образования.


Annotation. In this article evaluated the image of six higher education institutions in our republic, where the educational process of the bachelor's degree in economics is organized, and an improved method of evaluating the competitiveness of their educational services is proposed.

Keywords. Image, image of higher education organization, competitiveness of higher education services.

Сўнгги йилларда олий таълим тизимида алоҳида эътибор қаратилганлиги сабабли улар сонининг кескин ошиб, уларда таҳсил олаётган талабалар сони шунга мос равишда кўпайиб борқда. Олий таълим ташкилотлари сони 2010-2019 йиллар давомида 65-70 та атрофида бўлса, 2019-2020 ўқув йилида 119 та, 2023-2024 ўқув йилида эса 219 тага етди.

Уларда таҳсил олаётган талабалар сони эса, 2023-2024 ўқув йилида 1314542 нафарга етиб, 2018-2019 ўқув йилидагига нисбатан қарийб тўрт бараварга кўпайди (1-расм).

Расмда келтирилган маълумотлардан 2023-2024 ўқув йилида 2018-2019 ўқув йилидагига нисбатан олий таълим ташкилотлари сони икки баравардан ҳам кўпроқ, уларда таҳсил олаётган талабалар сони эса қарийб тўрт бараварга кўпайганини кўришимиз мумкин.



1-расм. Ўзбекистонда олий таълим ташкилотлари сони ва уларда таҳсил олаётган талабалар сонининг ўзгариш тенденцияси[1]

Олий таълим ташкилотлари сонининг бундай ўсиш суръатлари улар орасидаги рақобат муҳитини вужудга келтиради. Ҳар бир олий таълим ташкилоти мазкур рақобатда ютиши учун турли маркетинг чора-тадбирларидан фойдалиши зарур, жумладан олий таълим хизматлари рақобатбардошлигини оширишидир.

Олий таълим хизматларининг рақобатбардошлиги деганда, олий таълим ташкилотининг истеъмолчилар билан ўзаро муносабатларида уларнинг эҳтиёжларини максимал даражада қондириш ҳамда битирувчиларнинг меҳнат бозорида рақобатбардошлик даражасини оширадиган таълим хизматларининг рақобатда устунлик томонлари тушунилади⁶⁹.

Тадқиқотимиз давомида олий таълим хизматлари рақобатбардошлигини ва олий таълим ташкилотлари имижини баҳолаш соҳасидаги тадқиқотлар санокли эканлигига гувоҳ бўлдик. Шу сабабли, олий таълим хизматлари рақобатбардошлигини баҳолаш методикасини ишлаб чиқишни мақсад қилдик.

Россиялик олимлар Д.Г.Кучеров ва М.Ю.Платонов олий таълим муассасалари имижини иш берувчилар томонидан баҳоланишини

⁶⁹ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

ўрганишди. Уларнинг фикрича, олий таълим муассасасининг умумий имижини иш берувчи сифатида баҳолаш одатда, унинг ташқи ва ички имиж мезонларига асосланади [2].

Иш берувчи томонидан олий таълим муассаси имижига баҳо бериб, О.Н.Баева ва Д.И.Хлебович олий таълим муассасалари талабаларини ишга жойлаштириш бўйича қарор қабул қилиш афзаллигини тадқиқот қилишади. Тадқиқот давомида жамоавий муносабатлар, ходимларга ҳурмат, мартабанинг ўсиши, иш мавқеи каби мезонларнинг аҳамияти муҳимлиги аниқланди [3].

Р.Р.Горчакова тадқиқотларида олий таълим муассасалари имижининг барча жиҳатларини дарҳол баҳолаш усули мавжуд эмаслиги кўрсатиб ўтилган. Шунинг учун у эксперт ёндашувига асосланган усулларни ўрганиб чиқиб, имижни параметрлар бўйича баҳолаш усулини таклиф қилади. Бу параметрлар ташкилотнинг манфаатлари ва кўламига қараб фарқ қилиши мумкин [4].

Олий таълим хизматлари рақобатбардошлигини баҳолаш методикасини ишлаб чиқиш учун республикамизда бакалавриятнинг иқтисодиёт таълим йўналиши бўйича ўқув жараёни ташкил этилган олти олий таълим ташкилотлари (Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети, Тошкент давлат иқтисодиёт университети, Самарқанд давлат архитектура қурилиш университети, Бухоро давлат университети, Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти)нинг 2022 йилдаги ўқув жараёни натижадорлиги, илмий фаолият натижадорлиги ва маркетинг фаолияти натижадорлигига тегишли бўлган кўрсаткичларни интеграциялаш методикаси ишлаб чиқилди ва олий таълим хизматлари рақобатбардошлигини баҳолашнинг қуйидаги тартиби таклиф этилди:

$$R_{OTT} = I_{OTT} \times w_i + O'J_{OTT} \times w_{O'J} + IF_{OTT} \times w_{IF} + MF_{OTT} \times w_{MF}, \\ 0 < R_{OTM} < 5, \quad (1)^{70}$$

Бу ерда:

R_{OTT} – олий таълим хизматлари рақобатбардошлиги;

I_{OTT} – олий таълим ташкилоти имиж;

$O'J_{OTT}$ – олий таълим ташкилоти ўқув жараёни натижадорлиги;

IF_{OTT} – олий таълим ташкилотида илмий фаолият натижадорлиги;

MF_{OTT} – олий таълим ташкилотида маркетинг фаолияти натижадорлиги;

w – комплекс кўрсаткичларнинг интеграл кўрсаткич таркибидаги вазни.

Бунда олий таълим ташкилотлари имижини баҳолашнинг қуйидаги тартиби таклиф этилди:

$$I_{OTT} = T_{OTT} \times w_T + J_{OTT} \times w_J + WS \times w_{WS} + JQ_{OTT} \times w_{JQ}, \\ 0 < I_{OTM} < 5, \quad (2)^{71}$$

⁷⁰ Муаллиф ишланмаси

⁷¹ Муаллиф ишланмаси

Бунда:

I_{OTT} – олий таълим ташкилоти имижи;

T_{OTT} – олий таълим ташкилоти таниқлилиги;

J_{OTT} – олий таълим ташкилотлари жозибадорлиги;

WS – олий таълим ташкилотлари Web-сайти жозибадорлиги;

JQ_{OTT} – олий таълим ташкилоти жойлашуви қулайлиги;

w – комплекс кўрсаткичларнинг интеграл кўрсаткич таркибидаги вазни.

Комплекс кўрсаткичларнинг интеграл кўрсаткич таркибидаги вазнини аниқлашда экспертлар усулидан фойдаланилди. Таҳлил жараёнида Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, Самарқанд давлат университети, Тошкент давлат иқтисодиёт университети, Бухоро давлат университети, Қарши муҳандислик иқтисодиёт университетининг профессор-ўқитувчиларидан иборат 21 та экспертлар иштирок этди.

Эксперт баҳолаш усули ёрдамида комплекс кўрсаткичларнинг интеграл кўрсаткич таркибидаги вазни аниқланди:

	I_{OTT}	$O'J_{OTT}$	IF_{OTT}	MF_{OTT}
w_j	0,2458	0,2732	0,2705	0,2105

Маълумки, келтирилган методикада баъзи кўрсаткичлар турли хил ўлчов бирликлари ва ўлчамларга эга. Ушбу кўрсаткичларни интеграл кўрсаткичга киритишда иқтисодий статистикада кенг тарқалган меъёрлаштириш (стандартлаштириш) усули – “минимакс” бўйича чизиқли меъёрлаштириш усулидан фойдаланилди.

Меъёрлаштирилган кўрсаткичлар ҳамда уларнинг вазнлари қийматларидан фойдаланиб, олий таълим хизматлари рақобатбардошлиги интеграл кўрсаткичи таҳлилга маълумотлари киритилган олий таълим ташкилотлари учун баҳоланди (1-жадвал).

1-жадвал

Олий таълим хизматлари рақобатбардошлиги интеграл кўрсаткичи қиймати

ОТТ	I_{OTT}	IF_{OTT}	MF_{OTT}	$O'J_{OTT}$	R_{OTT}
СамИСИ	4,37	2,89693	3,05675	3,92876	3,57
СамДУ	4	2,86435	2,71779	2,55372	3,03
СамДАҚУ	3,02	2,35526	2,22327	1,00317	2,12
ҚарМИИ	2,25	2,93501	3,45551	1,58619	2,51
БухДУ	2,37	1,54667	2,38429	3,30354	2,41
ТДИУ	3,51	3,08881	4,89157	3,43409	3,67

Демак, ўрганилган олий таълим ташкилотлари орасида олий таълим хизматларининг рақобатбардошлиги интеграл кўрсаткичи бўйича ТДИУ, СамИСИ ва СамДУ биринчи учталикка киради. Улар орасида ТДИУ илмий фаолият натижадорлиги ва маркетинг фаолияти натижадорлиги интеграл

кўрсаткичлари бўйича, СамИСИ ўқув жараёни натижадорлиги интеграл кўрсаткичи бўйича биринчи ўринда турибди. Илмий фаолият натижадорлиги интеграл кўрсаткичи бўйича охириги ўринда БухДУ, маркетинг фаолияти натижадорлиги ва ўқув жараёни натижадорлиги интеграл кўрсаткичлари бўйича эса, охириги ўринда СамДАҚУ турибди.

Олий таълим ташкилотлари рақобатбардошлигини баҳолаш методикаларининг аксариятида рақобатбардошликнинг асосий омили сифатида олий таълим ташкилотлари имижига алоҳида эътибор қаратилган.

Ҳар бир олий таълим ташкилоти учун “олий таълим ташкилоти таниқлилиги” комплекс кўрсаткичи ва олий таълим ташкилоти рақобатбардошлигининг хусусий кўрсаткичларининг интеграл кўрсаткич таркибидаги вазни қийматлари асосида, олий таълим ташкилоти имижига интеграл кўрсаткичи қиймати аниқланди (2-жадвал).

2-жадвал

Олий таълим ташкилотлари имижига

ОТТ	T _{ОТМ}	J _{ОТМ}	WS	JQ _{ОТМ}	IB _{ОТМ}	KB _{ОТМ}	XT _{ОТМ}	PO'T _{ОТМ}	I _{ОТМ}
СамИСИ	4,23	4,44	4,30	4,53	4,57	2,89	5,00	4,46	4,37
СамДУ	3,87	4,10	3,87	4,19	4,26	2,83	4,01	4,36	4,00
СамДАҚУ	2,35	2,89	3,29	3,73	3,08	1,00	1,00	4,32	3,02
БухДУ	2,72	2,04	3,00	1,63	2,08	2,61	1,95	4,22	2,37
ҚарМИИ	2,48	1,90	2,87	1,67	2,02	2,03	1,60	4,27	2,25
ТДИУ	3,92	3,76	3,78	2,33	3,84	5,00	2,24	4,60	3,51

Таҳлил натижаларидан келиб чиқиб, олий таълим хизматлари рақобатбардошлигини ва олий таълим муассасалари имижини ошириш бўйича қуйидаги илмий-амалий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди:

- олий таълим муассасалари Web-сайти жозибадорлигини ошириш ва ёшларни илмий фаолиятга кенг жалб қилиш учун унда талабаларнинг илмий-тадқиқот фаолияти натижалари бўлимини ташкил этиб, бу бўлимда уларнинг амалга оширган илмий-тадқиқот ишларини қайд этиб бориш;

- ўз мутахассислиги бўйича ишга жойлашган ОТМ битирувчиларининг жами битирувчилар сонига улушини ошириш мақсадида талабаларнинг амалиётини иш берувчи ташкилотларда ташкил этиш ва уларни ўқишни битиргандан сўнг ишга қабул қилиш тизимини йўлга қўйиш. Бу борада иш берувчилар Кенгашини шакллантириш ва унинг фаолиятини йўлга қўйиш муҳим аҳамиятга эга;

- ривожланган хорижий давлатлар олий таълим муассасалари ҳамда илмий-тадқиқот марказлари билан ҳамкорликда халқаро қўшма илмий журналлар, шунингдек таълим форумлари, ректорлар конференциялари ва бошқа анжуманлар ташкил этиш.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

2. Д.Г.Кучеров, М.Ю.Платонов Изучение внутреннего имиджа высшего учебного заведения как работодателя, Исследования в области управления персоналом, 2008

3. Баяева О.Н., Хлебков Д.И. Привлекательная компания и работа глазами выпускников экономического вуза // Мотивация и оплата труда. 2006. № 4

4. Р.Р.Горчакова Особенности формирования корпоративного имиджа/ Общественные науки № 2 (22), 2012

Ачилов Салохиддин Саломович – к.э.н, доц. кафедры «Гуманитарных и социальных наук» Ташкентский университет информационных технологий Самаркандский филиал, E-mail: salohiddinachilov5@gmail.com

ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБЛАСТИ БУХГАЛТЕРИИ И НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ

Annotatsiya: Maqolada buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishda sun'iy intellektning qo'llashning asosiy jihatlari tahlil etiladi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning keng qamrovli sharhi o'tkazilib, bu sohalarida sun'iy intellektning mohiyati va asosiy vazifalari ochib berildi. Olingan natijalar sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalaridan foydalanish buxgalteriya hisobi va soliq jarayonlarini sezilarli darajada takomillashtirishga yordam berishini tasdiqlaydi. Sun'iy intellekt kundalik operatsiyalarni bajarish uchun aniqroq va tezkor yechimlarni ta'minlab, soliq ma'muriyatchiligini optimallashtirish borasida yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamlashtirish, buxgalteriya, globallashtirish, avtomatlashtirish, optimallashtirish, soliqlar, soliqqa tortish, robot-buxgalter.

Аннотация: В статье анализируются ключевые аспекты применения искусственного интеллекта в бухгалтерском учете и налогообложении. Проведен всесторонний обзор современных научных исследований, что позволило раскрыть сущность и основные функции ИИ в данных областях. Полученные результаты подтверждают, что использование технологий искусственного интеллекта и автоматизации значительно способствует совершенствованию бухгалтерских и налоговых процессов. ИИ демонстрирует высокую эффективность в оптимизации налогового администрирования, обеспечивая более точные и оперативные решения для выполнения рутинных операций.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровизация, бухгалтерия, глобализация, автоматизация, оптимизация, налоги, налогообложение, робот-бухгалтеры.

Abstract: The article analyzes the main aspects of applying artificial intelligence in accounting and taxation. A comprehensive review of modern scientific research was conducted, revealing the essence and primary tasks of artificial intelligence in these fields. The obtained results confirm that the use of artificial intelligence and automation technologies significantly improves accounting and tax processes. Artificial intelligence provides more accurate and rapid solutions for performing daily operations and demonstrates high efficiency in optimizing tax administration.

Keywords: artificial intelligence, digitalization, accounting, globalization, automation, optimization, taxes, taxation, robotic accountants.

Содержание.

